

*Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini
ta'minlashning dolzarb masalalari*



**RESPUBLIKA MA'NAVIYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI**



**MA'RIFAT
TARG'IBOTCHILAR
JAMIYATI**

**RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI
BUXORO VILOYAT BO'LIMI**

*2021 yil – “Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va
aholi salomatligini mustahkamlash yili”*

**YANGI O'ZBEKISTONDA
IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHIT
BARQARORLIGINI
TA'MINLASHNING DOLZARB
MASALALARI**

*(“Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessansga munosib
poydevor yaratilmoqda” loyihasi doirasida tashkil
qilingan Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman
materiallari)*

2021 yil 24 sentyabr

Buxoro

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 26 mart 2021 yil PQ-5040-son Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida "Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessansga munosib poydevor yaratilmoqda" loyihasi doirasida tashkil qilingan Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman maqolalar to'plamida ma'naviyat va ma'rifat targ'ibotchilari, oliy o'quv yurtlari, xalq ta'limi tizimida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar, madaniyat xodimlarining «Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari» g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirishning dolzarb masalalari, Yangi O'zbekiston sharoitida ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini, ma'naviy tarbiya uzviyligini ta'minlash, yoshlarimiz ongiga salbiy ta'sir etuvchi, ularni g'oyaviy jihatdan qaram etishga yo'naltirilgan harakatlarga qarshi samarali kurash olib borishning ma'naviy-ma'rifiy asoslari, ilm-fan — Uchinchi Renessans poydevori xususidagi maqolalari, tahliliy mulohazalari keng o'rin olgan.

Taqdim etilayotgan ushbu ilmiy-nazariy anjuman materiallari to'plami turli soha mutaxassislari hamda keng ilmiy jamoatchilik uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

Marhabo Davlatovna Pardayeva

*Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Buxoro viloyat bo'limi rahbari,
falsafa fanlari nomzodi, dotsent*

Tahrir hay'ati a'zolari:

X.P.Kenjayeva – Buxoro davlat tibbiyot instituti katta o'qituvchisi

X.X.Raxmatova - Buxoro muhandislik texnologiya instituti dotsenti, f.f.n.

Taqrizchilar:

A.A.Huseynova – Buxoro davlat universiteti professori, f.f.d.

G.S.Yunusova- Buxoro muhandislik texnologiya instituti dotsenti, f.f.d.

Maqolalarda keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgardirlar.

Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Buxoro viloyat bo'limi qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

**MA'NAVIY YUKSALISH – UCHINCHI RENESSANSNING
MUSTAHKAM POYDEVORI**

Minhojiddin MIRZO

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari

**Aql ila olam yuzin obod qil,
Xulq ila olam elini shod qil.**

Buyuk bobomiz Alisher Navoiy bu boqiy baytlarda olam yuzi aql-idrok, uyg'oc qalb, bunyodkor ruh bilan obod bo'lishi, olam eli esa, yaxshi xulq, yuksak insoniy fazilatlar, ma'naviy qadriyatlar asosida shodu xurram yashashi mumkinligini ta'kidlamoqda.

Ulug' mutafakkir sizu bizga xitob qilib, «*Siz shunday jamiyat barpo etingki, unda aqlu idrok Vatan yuzini obod qiluvchi, xulqu tarbiya jamiyat ahliga hamjixatlik asosida shodu xurramlik baxsh etuvchi kuchga aylansin*», deyayotganday. Davlatimiz rahbarining “*Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni, ruhi ma'naviyatdir*” degan so'zlari mohiyatidagi uyg'onish nafasi Hazrat Navoiy da'vatlariga mohiyatan uyg'un bo'lib, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga azmu shijoat bilan kirishgan xalqimiz uchun tarbiya, yaxshi xulq, aql-idrok, bilim, ma'naviyat naqadar tengsiz qudrat va ruhiy manba ekanligini yana bir bor anglatdi. Demak, yuksak ma'naviyat bilan jamiyat hayotining tanasi bo'lgan iqtisodiyot vujudiga jon, ruh kiradi, unga tiriklik, tengsiz yaratuvchi qudrat baxsh etiladi.

Negaki, ma'naviyat va ma'rifat barcha zamonlarda tengsiz qudrat, baxt-saodat, tinchlik, bunyodkorlik, hamjihatlik mezoni, ruhiy poklanish va qalbni yuksaltiruvchi ne'mat bo'lib kelgan. Chunki u millatni, xalqni, demakki, insonlarni yuksak fazilatlar, kamolotga yo'llovchi axloqiy mezonlar asosida yashashga, xudbinlik, g'aflet asiriga aylanmay hamisha yaxshilik yo'lida bedor bo'lishga, bu olamni obod qilishga, go'zallikka burkashga chorlagan. Lekin bugungi kunda ming yillar davomida sayqallanib, boyib, rivojlanib kelgan yuksak ma'naviyatimiz, boqiy qadriyatlarimiz, axloqiy fazilatlarimizga soya solayotgan, umid gulshanlarimiz bo'lgan aziz farzandlarimiz ma'naviy- ruhiy dunyosini izdan chiqarishga qaratilgan tahdidlarni ko'rib tashvishlarimiz ortib bormoqda. Ta'bir joiz bo'lsa, ezgulik va yovuzlik, bunyodkor va vayronkor kuchlar, g'oyalar o'rtasidagi kurash tobora oshkora namoyon bo'lmoqda. Davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkilotining

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

yuksak minbaridan turib aytgan «Jaholatga qarshi ma'rifat» bilan kurashish g'oyasi dunyoviy ahamiyat kasb etmoqda.

Xo'sh, yovuzlik, insonlar qalbiga xudbinlik, axloqsiz, buzg'unlik urug'ini sepuvchi yovuzlik, jaholat qachon mahv etiladi? Ezgulik, ma'rifat nimadan kuch oladi? Albatta, avvalo ezgu niyatdan, ezgu so'zdan, ezgu amaldan, pokiza va ulug' maqsadlar yo'lidagi milliy hamjihatlikdan. Ajdodlar tajribasidan ayonki, qaysiki yurt o'z xalqi qudratini jamlab umumxalq murodu maqsadiga eltuvchi yo'lga boshlay olsa, millat salohiyatini to'g'ri yo'naltira olsa, u davlatning mavqei, ishonch manbai, tengsiz bunyodkor kuchga aylanadi.

Jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlik umummilliy harakatga aylanadi. Kuni kecha matbuotda e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» hamda «Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasini tashkil etish to'g'risida»gi qarorlari Yangi O'zbekistonni bunyod etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda yuksak ma'naviyat mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilishi uchun barcha tashkiliy-huquqiy, moliyaviy manbalarni belgilab berganligi, yaxlit mustahkam uzluksiz tizimga asos solganligi bilan muhim tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi.

Endilikda, «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorda ta'kidlanganidek, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarni jaholat soyasini solish uchun tinimsiz chiranib yotgan ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasida tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlarini yangi talablar asosida yo'lga qo'yish, bu yo'nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligi mustahkamlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko'taradi.

Mavjud muammolarni hal etish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samarasi va ta'sirchanligini oshirish, ko'lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida Vatanimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha yagona tizim yaratiladi. Ana shu asosda, ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» g'oyasini keng targ'ib etish orqali, jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlik umummilliy harakatga aylantiriladi.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash, targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimi joriy qilinadi. El-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Aholining Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyati oshadi, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immuniteti kuchaytiriladi. Madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san'atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar targ'iboti ustuvorligi ta'minlanadi.

Geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o'rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish sohasida ham muhim vazifalar amalga oshiriladi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi qoshida ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-ijtimoiy mavzulardagi dolzarb maqolalar, jamoatchilik vakillarining ilg'or fikrlari, shuningdek, mafkuraviy jarayonlar tahlili, sohaga oid yangiliklarni to'plash, tayyorlash va tarqatish maqsadida "oyina.uz" elektron portali tashkil etiladi.

Fazilatli insonlar qalbida shakllangan ilm yaxshilikka xizmat qiladi.

Ezgu fazilatlar nafaqat qalb olami munavvar, ma'naviy burchlariga sobit insonlar, balki jamiyatning ham bebaho boyligi hisoblanadi.

Ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni ilmiy tadqiq qilish, ijtimoiy-ma'naviy muhitni prognozlash, targ'ibot jarayonlarini metodik ta'minlash, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borayotgan olimlar, xususan, yosh olimlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, soha xodimlari malakasini oshirish, maqsadli sotsilogik so'rovlar olib borish, xalqaro tajribani o'rganish, barcha targ'ibot ishlarini ilmiy asosda tashkil etish maqsadida Markaz huzurida Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tashkil etiladi. Mazkur qaror orqali Markaz va uning hududiy bo'lim

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

hamda bo'linmalarining qo'shimcha shtatlar bilan kengaytirilgan yangi tizimining tasdiqlanishi sohaga yetuk olimlar, yosh vatanparvar ilmiy xodimlar, faol ijodkor ziyolilarni jalb etish imkoniyatini yaratadi.

Mamlakatimizdagi barcha maktablarda shoir va yozuvchi, jurnalist, olimlarni jalb qilgan holda ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi lavozimining joriy qilinishi tufayli ta'lim maskanlaridagi millionlab o'quvchilar qalbiga «Vatanparvarlik sabog'i»ni singdirib boradigan yangi ma'naviy-ijodiy ruh kirib boradi. Davlat oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallarida, talabalar sonidan qat'iy nazar, yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor lavozimining kiritilishi oliy ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yangi bosqichga ko'taradi. Ushbu qaror bilan xalqona qilib aytganda mamlakatimizdagi barcha tuman va shaharlarda Ma'naviyat va ma'rifat maskanlarini tashkil etishga oq fotiha berilmoqda.

Qarorda soha uchun kadrlar tayyorlashga ham alohida ahamiyat qaratilgan. 2021/2022 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim tizimining tegishli ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalariga bakalavriat bosqichida «Ma'naviyatshunoslik», magistratura bosqichida «Kasbiy ma'naviyat» fanlari kiritilishi hamda magistratura ta'lim bosqichida "PR-menejer" mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlanishining yo'lga qo'yilishi ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Ayniqsa, milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishida ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi doirasida maqsadli fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarni shakllantirish, ularni moliyalashtirish masalalarining tizimli yo'lga qo'yilganligi ko'plab ilmiy yechim va xulosalarning amaliyotga joriy etilishiga xizmat qiladi.

Ma'naviyat rivojiga ajratilgan sarmoya milliy taraqqiyotga madad.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi va ta'sirchanligini oshirish, xalqimiz o'rtasida hamjihatlik va hamkorlikni yanada mustahkamlash, milliy qadriyat, an'ana va urf-odatlarini keng targ'ib qilish, badiiy ijod va kitobxonlik madaniyatini faol qo'llab-quvvatlash maqsadida "Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasini tashkil etish to'g'risida" qarorining qabul qilinishi ham mamlakatimizda birinchi marta ma'naviy-ma'rifiy sohadagi iqtisodiy masalalarni hal etib, uning moliyaviy asoslarini mustahkamlab qo'yimoqda.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

«Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi» asosida barcha ta'lim muassasalari uchun metodik qo'llanma, uslubiy tavsiyalar, ma'naviy-axloqiy tarbiya nazariyasi va metodikasini boyitishga qaratilgan ilmiy-amaliy adabiyotlar yaratish bugungi kunning muhim talablaridan hisoblanadi. Sohaga «Raqamli targ'ibot» tizimini joriy qilish maqsadida IT-parklar, innovatsion markazlar bilan hamkorlikda mobil ilovalar, kompyuter o'yinlari, animatsion mahsulotlar tayyorlash ham bugungi kunda yoshlar bilan ma'naviy-tarbiyaviy asosda muloqotga kirishishning samarali vositasi hisoblanadi.

Ma'naviy-ma'rifiy sohani, adabiyot va kitobxonlikni har tomonlama rivojlantirish, bu boradagi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, yangi loyihalar, kitob, risola va maqolalar, tadbirlar ssenariylarini yaratish bo'yicha ijtimoiy buyurtmalarni shakllantirish hamda bu ishlarga jalb etilgan olim va mutaxassislarni moddiy rag'batlantirish masalasi ham qaror bilan yechimini topgan.

Ushbu qaror bilan xalqimizning qadimiy tarixi, boy madaniyati, asriy an'ana va qadriyatlarini tarannum etilgan, milliy ma'naviyatimizning mazmun-mohiyati teran badiiy ifodasini topgan mumtoz va zamonaviy adabiyotimizning munosib namunalarini xorijiy tillarga tarjima qilish hamda jahon axborot tarmog'ida keng targ'ib etish, badiiy asarlar mualliflarini moddiy jihatdan rag'batlantirish kabi qator vazifalarni amalga oshirishning ham moliyaviy asoslari yaratildi.

Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi.

Ma'naviyatning asosida avvalo tarbiya yotadi. "Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi", deydi donishmandlar. Tarbiya mukammallik kasb etishi uchun esa, bu masalada bo'shliqqa yo'l qo'yib bo'lmaydi. Hozirgi kunda mamlakatimizda kitobxonlik saviyasini oshirish, mutolaa madaniyatini yuksaltirishga katta ahamiyat berilayotgani hammamizga ma'lum. Ko'plab bolalarimiz kitob, internet orqali zamonaviy bilimlarni egallamoqda, shu bilan birga qanchadan-qancha yoshlar **kitobdan uzoqlashib, qimmatli vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazmoqda.**

Biz yillar davomida qayta-qayta inson qalbi va ruhini izdan chiqarishga qaratilgan mafkuraviy tahdidlar, axborot xurujlari avj olgan tahlikali bir davrda yashayapmiz, degan fikrni aytib keldik. Ammo bugun dunyoda sodir bo'layotgan mafkuraviy jarayonlar har qachongidan ham ko'ra tahlikaliroq tus olmoqda. Quyosh olamga ezgulik nurini sochadi,

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

afsuski undan yaxshilikka xizmat qiluvchi dov-daraxtlar, gulu rayhonlar bilan bilan birga badbo'y alafu, tikonlar ham nur oladi. Bugun mamlakatimizda yaratib berilgan oshkoralik, so'z erkinligi, fikrlar xilm-xilligini suiiste'mol qilib o'z ajdodlari qoldirgan yuksak ma'naviyatga bepisand qaraydigan, uni eskilik sarqiti sifatida kamsitadigan, inson tilga olishga ham nomus qiladigan «erkinliklar»ni ro'kach qilgan holda odamiylik mulki, insoniy axloq chegarasidan chiqib tubanlik botqog'iga botayotgan «aqli» toifalar ham paydo bo'lmoqda. Ular dinu diyonat, halollik, poklik, yuksak axloq asosidagi ma'naviyatga «oq» bo'lganlari yetmaganday, unga malomat toshlarini ham otishmoqda.

Ana shunday ayrim odamlar ruhiyatiga ta'sir qiladigan «ko'rinmas nusxalar» internet olami, ijtimoiy tarmoqlar orqali yuborayotgan «qo'shqanot» xabarlar, noinsoniy da'vatlar, iymon libosiga o'ralgan iymonsiz qarashlar oshib-toshib ketayotgan ayni sharoitda bunday kasallarga insoniy ta'sir etish, ular qalbiga ma'naviy ko'priklar solish oson emas. Ana shularni o'ylaganda «saodatni» «falokatga» aylantirayotgan ma'naviyatsizlik olami ichra «falokatni» «saodatga» aylantiradigan ma'naviyat chirog'ini yoqish, anchadan buyon yuragi gul va nur ko'rmagan qalblarga odamiylik tuyg'ularini jo etish qanchalar muhim ish ekanligini anglaymiz. Ana shunday Vatanni sevuvchi, uning dardi, orzu-umidlari bilan yashovchi yoshlar qalbiga johillik urug'larini sochish oqibatida bir toifa navqiron avlod vakillari ijtimoiy tarmoqlarda qora dog'larni ko'proq ko'radigan, buyuk o'zgarishlarga esa, loqayd qarab, undan ko'z yumadigan bo'lib qolmoqda. Lekin ma'naviyat borasida qalbi axloq va vatanparvarlik kitobiga aylangan millionlab ot-onalarimiz, zukko yoshlarimiz bor ekan, uch-to'rtta jaholat girdobidagi adashganni ma'rifat bilan yo'lga solish mumkin. Bu qaror shu borada ham butun xalqimiz uchun kelajak dasturi bo'lib qoladi.

YAngilanish, yuksalish fasliga qadam qo'ydik

Bu yilgi bahor o'zgacha keldi, uyg'onish nafasi qisqa vaqt ichida borliqqa yashnash saodatini baxsh etdi. Daraxtlar shoxlarida kurtaklar shivirlay boshladi, ko'klam xushxabarchisi boychechaklar tog'lar qo'ynida qorlar bag'rini yorib chiqdi. Bodomlar, erta pishar o'riklar chappar o'rib gulladi. Lekin birdan esgan sovuq shamol, qor, daraxtlarni hushyor torttirdi... Bugun esa birin-ketin gulga kirayotgan bog'lar, tobora yaxshilikka burkanayotgan tog'u adirlar, suvlarning jildirashiyu, qushlarning xamal simfoniyasidan uyg'ongan

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

tog' lolalari, borliqqa tengsiz ifor sochayotgan ko'klam gilyohlari, yalpizlarni hidlab bahri diling ochiladi. SHularni xayoldan o'tkazar ekanman, Uyg'onish-bu yuksalish sari qadam, mudroqlikning bedorlik, yartuvchanlikka aylanishi, shahdu shijoat degim keladi. Undan tashqari Uyg'onish-bu kurash, bahoriy yashnash yo'liga qadam qo'ygan bo'stonlarga tahdid solayotgan ayozlari izg'irinlarga ezgulik, nur, yorug'lik, tengsiz yashnash saodati bilan munosib zarba bermoq ekanligini ham anglaymiz. Qachon bahor ayoz tahdidlarisiz kelgan, qachon ochilmoqqa shaylangan kurtaklar boshida izg'irinlar sovuq qamchilarini silkitmagan, qachon? Lekin bahor hamisha g'olib, hamisha muzaffar! Negaki, uning borlig'iga Uyg'onish, yashnash saodatini YAratganning o'zi solgan. Bahor-bu ochilmoq vaqti. Qaydandir mashhur hofizning «Fasli navbahor o'ldi, ketibon zimistonlar, do'stlar g'animatdir, sayr eting gulistonlar...» degan umidbaxsh qo'shig'i taraladi. Osmonda vij-vij qilib havo ummonida yuzlab qaldirg'ochlar parvoz qiladi. Bahorning ilk darakchi qushlari keldimi, endi ayozlarga o'rin yo'q.

O'zbekiston deb atalmish nurlu bo'stonimiz yangilanish, yuksalish fasliga qadam qo'ydi. YAngi O'zbekiston bo'ldi! Bag'ri yangi orzular, ezgu maqsadlarga to'ldi. Unga odamiylik, ezgulik g'oyalari kuch bermoqda, yashnash saodatini baxsh etmoqda. YAngi davr, yangi milliy taraqqiyot, har birimizning qalbimizga uyg'onish nafasini solmoqda. YAngi tafakkur, yangi avlod, milliy yuksalishga eltadigan yangi milliy strategiya, unga munosib qadamlar shuning nishonalari.

Uchinchi uyg'onish nafasini olib kelayotgan yurakning murodi

Davlatimiz rahbari bu tarixiy qarorlar bilan bizni ulug' maqsadlarga da'vat etmoqda. Bu shunchaki da'vat emas, bu Uchinchi uyg'onish nafasini olib kelayotgan yurakning murodi, bu tomirlarimizda shivirlab turgan ajdodlar murodi. Ulug' ishlarga qodirmiz, yuksak ma'naviyat va axloq asosida, insoniy fazilatlar ustuvor bo'lgan, odamiylik, ezgulik mafkurasiga asoslangan buyuk davlat, farovon jamiyatda yashashga loyiq xalqmiz.

YUksak ma'naviyat qalblarimizdagi intilish, orzu-umidlarga kuch berib, ulug' maqsadlar yo'lida yangi bunyodkor to'lqinga aylantiradi, vatanparvarlik tuyg'ulari asosida yangi umummilliy harakatga chorlaydi. Dunyoda qanday tahlikali va suronli jarayonlar kechmasin, ma'naviyat,

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

milliy ruh, ezgu g'oyalar, istiqloq shukhi bizga doimo tog'dek tayanch bo'ladi.

Mazkur qarorlar ma'naviy yuksalish – Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini yaratish borasida tashlangan ulug' qadam sifatida Vatanimiz tarixidagi yorqin sahifalardan biri bo'lib qoladi.

Qarorni dil to'lqinlanib, har bir so'z mohiyatidagi maqsadlar qamrovini tahlil etib o'qirkanmiz, beixtiyor, sobiq sho'ro tuzumida emirilib borayotgan ma'naviy qadriyatlarimizni o'sha zamon cheklovlari, siyosiy qatag'onlardan yurak oldirib qo'ygan otalar, bobolarimizning kosa tagida nim kosa tarzida tushuntirishga, anglatishga uringanlari yodga tushadi. Nazarimda, bugun ularning ruhlari ham shod, chunki avlodlari taqdirida yillar davomida yuzi jaholat, e'tiborsizlik, millatchilik, adolatsizlik, o'zlikdan mosuvollik bulutlari bilan soyalangan, berkitilgan ma'naviyatimiz quyoshi hayotimizga, qalblarimizga nur sochishi uchun keng imkoniyat, ijtimoiy muhit yaratilmoqda.

Bu qarorlar, aytish mumkinki, millionlab yoshlarimizga ajdodlarimizdan avlodlarga meros bo'lgan eng bebaho, o'rnini hech narsa to'ldira olmaydigan, nasllarimiz asrlar osha ko'ksini baland tutib «Men – O'zbekiston farzandiman!» deya dunyo mamlakatlari orasida o'z hayot tarzi va taraqqiyoti bilan teng va mag'rur yashashlari uchun zamin bo'ladigan ma'naviy barkamollikka erishish yo'llarini keng ochadi.

Ma'naviyat, uning asosi bo'lgan yuksak axloq, ruhiy poklik, qalban uyg'oqlik, bedor vijdon, mustahkam iymon bahor nafasiga o'xshaydi. U shakllanib, rivojlanib borarkan o'z yo'lida qancha gullash fasllarini ko'rdi, ayozlarning ta'qibu tahdidlarini boshdan o'tkazdi. Uning faraxbash nafasi ta'siri qanchalar mavjud bo'lsa, afsuski unga qarshi sovuq yellar ham shunchalar mavjuddir. SHu bois ham u hamisha, har bir davrda bu sinovu tahdidlardan kuchli bo'lib, qudratga to'lib o'tadi. Negaki, unga davru davronlarga uyg'onish baxsh etuvchi sohibdillar ezgu amallari birla quvvat baxsh etadi. Boshlanayotgan ma'naviyat bahori barchamizga muborak bo'lsin!

YANGI O'ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANSGA MUNOSIB POYDEVOR YARATILMOQDA

B.Xusanov

“Ma'rifat” targ'ibotchilar jamiyati raisi

Ma'lumki, ilk bora Prezident SHavkat Mirziyoyev O'zbekiston Mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilayotgani haqida tilga olingandi. Mana qisqa vaqt ichida, ayniqsa, pandemiya sharoitida tinimsiz mehnat va faollik, kezi kelganda qayd etish kerakki, fidoiylarcha faoliyatning natijasida haqiqatan ham YAngi Renessans uchqunlarini ko'rayapmiz, hatto aholi ham his etmoqda. Ayniqsa, dunyo mintaqasida keskinlik, turli tahdid va xatarlar kuchayib borayotgan davrda Markaziy Osiyoda aynan O'zbekistonimizda chegaralardagi tinchlik va xavfsizlikka erishilgannining o'zi eng katta natijadir. YUrt tinch bo'lsa, xalq bexavotir bo'ladi, bunday yurtga bayramlar yarashadi. Darhaqiqat, YAngi O'zbekiston hamda YAngi Renessans iborlari bilan birga bugun jahon siyosatshunosligida “Markaziy Osiyo ruhi” iborasining kirib kelganining o'zi bayram tuhfasidir. Uning amaliy ifodasi sifatida mustaqilligimizning 30 yilligi **“YAngi O'zbekiston”** deb nom olgan bog'da nishonlangani, bu bog' juda qisqa vaqt ichida qad ko'targani yangi O'zbekistonning qudrati namunasidir.

Ikkinchidan, yurtimizda har bir inson davlatimizning ijtimoiy himoyasida va e'tiborida bo'lib, “Temir daftar”, “ayollar daftari”, “yoshlar daftari”ning maqsad va vazifalarining natijasi ham sezildi. Mana bugun Buxoro viloyatidagi o'zgarishlar ham har bir fuqaroga g'urur va iftixor baxsh etadi. CHekka qishloqlardagi yangilanishlarning asosida “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarining o'rni va ahamiyati katta bo'ldi. Har o'zbekistonlik qalbida **“YAngi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik”** degan ezgu g'oyaning amaliy ifodasi sezilganining o'zi yangi O'zbekiston tuhfasidir. Faqatgina mustaqil davlat o'zining iqtisodiy, siyosiy va huquqiy imkoniyatini erkin qo'llay olishini yangi O'zbekiston butun dunyoga tarannum etdi. Axir, aholini uy-joy bilan ta'minlash masalasi har bir oila uchun qanchalik dolzarb bo'lsa, uni amalga oshirish esa, davlatning mustaqil siyosati hisoblanadi. 2017-2020 yillar davomida 140 mingdan ziyod arzon va sifatli uy-joylar bunyod etilib, ipoteka tizimi asosida aholiga

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

berilganining o'zi katta imkoniyatdir. Insonning boshida tom bo'lsa, ish bandligi ta'minlasa, har bir oilaning ertasi bo'lgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi eng ustuvor vazifa bo'lib, aynan yangi Renessans poydevorining g'ishtini qo'yadigan yoshlar tarbiyasiga bo'lgan e'tibor ham yangilandi. Jumladan, biror vazirlikni yangidan tashkil etish uchun ham erkinlik va mustaqillik kerak bo'lsa, yangi O'zbekiston misolida bugun Maktabgacha ta'lim vazirligining faoliyati yangi Renessans poydevoridir. Chunki 2017 yili 5 ming 211 ta bog'cha bo'lgan bo'lsa, joriy yilda 19 ming 316 taga yetgani eng katta natijadir. Ayniqsa, chekka hududalarda ham bugun davlat-xususiy sheriklik asosida bir qator imtiyozlar bilan oilaviy bog'chalarning joriy etilganining o'zi maktabgacha ta'limga qamrov darajasini 62 foizga ko'tariganing guvohimiz.

Barcha hududlarda prezident maktablarida o'quvchilarning qabul qilingani, ijod va ixtioslashtirilgan maktablardagi mutlaqo yangi ta'lim tizimi Uchinchi Renessansning munosib poydevoridir.

O'zbekiston aholisi 35 mln.dan oshgan bir davrda yoshlarni talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb-hunarlariga o'rgatish har qachongidan ham dolzarb va ustuvor yo'nalish bo'lib, bu sohada o'tgan o'quv yilida 339 ta kasb-hunar maktabi, 194 ta kollej va 195 ta texnikumlarning faoliyati yo'lga qo'yilishi kasb-hunarli yangi avlodni yurtimizga yetkazib beradi. Demak, har bir soha rivoj topadi hamda o'zining namoyondalariga ega bo'ladi. Zero, davlatimiz rahbari bilimli yoshlarni mamlakatimizning "oltin fondi" deb atagan edi. Ana shu oltin fondimizni qo'llab-quvvatlash oqibatida so'nggi 5 yilda 64 ta yangi oliy ta'lim muassasasi tashkil etilib, ularning soni 141 taga yetishi bilan birga qabul kvotasi ham ilk bora 3 barobar oshirildi. Axir, birinchi va ikkinchi Renessansning asosida ham ilm-ma'rifat, bunyodkorlik va insonparvarlik bo'lgan bo'lsa, Yangi Renessans ham ana shu tamoyillarni uyg'unlashtirgan holda inson manfaatini qo'llab-quvvatlamogda. Zero, har bir mamlakatning taraqqiyotini, kelajagini bilimli va aqlli odamlar ta'minlaydi. Shu bois ham, O'zbekistonda ta'lim sifatiga, bilimli kadrlarni tarbiyalashga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston" universitetini tashkil etish to'g'risida"gi qarorining ijrosiga ko'ra, Toshkent shahrida "Yangi O'zbekiston" universiteti tashkil etildi.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Yangi Universitet davlat oliy ta'lim muassasasi hisoblanib, universitetda ta'lim jarayoni nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda tashkil etilganining o'zi yangi poydevordir. Chunki universitetni tamomlagan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan Milliy kadrlar zaxirasiga olinib, 5 yillik ish tajribasidan so'ng rahbarlik lavozimiga tayinlanadigan istiqbolli nomzodlar ro'yxatiga kiritilishi yangi kadrlar yangi O'zbekistonni boshqarishga kelishini ta'minlaydi. Darhaqiqat, yangi O'zbekiston universitetining ochilishi hamda undagi yangi islohotlar: innovatsiya va tashabbuskorlik ilm-ma'rifatning yangi cho'qqisi bo'lib, albatta bu islohotlar, yangilanishlarning barchasi **Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessansga munosib poydevor**, desak to'g'ri bo'ladi.

Albatta, yuqoridagilarga tayangan holda, bugun Buxoroda o'tkazilayotgan anjuman misolida Buxoro hamisha o'zbek davlatchiligi tarixida ilm-ma'rifat o'chog'i bo'lib kelganini aytish o'rinlidir. Buxoro jahonning eng qadimiy va tarixiy-me'moriy obidalarga boy go'zal shaharlaridan biri bo'lib, u azaldan islom olamida yuksak nufuzga ega bo'lgan. Zamonaviy uy-joylar, madaniy-maishiy ob'ektlar, o'quv muassasalari, keng va go'zal ko'chayu xiyobonlar, bog'-rog'lar barpo etildi. Qadimiy obidalar ta'mirlanib, asl qiyofasiga keltirildi. Ziyoratgohlar obod qilindi. Go'yo Buxoro qayta tug'ilgandek bo'ldi. Buxoro mustaqillik yillarida yanada chiroy ochdi. Ayniqsa, Mir Arab madrasasi yana oliy diniy ta'lim maskaniga aylantirilganining o'zi eng katta yangilikdir. O'z davrida mazkur madrasada mashhur olimu fuzalolari ta'lim olishgan. Madrasalar nafaqat diniy, balki dunyoviy ilmlarni o'rganish va o'rgatishda maktab vazifasini bajargan. Shu tufayli ilm-ma'rifat bilan jahon tamadduniga munosib hissa qo'shgan buyuk allomalar aynan ushbu zamindan yetishib chiqqani barchaga ayon. Ularning nomi va qoldirgan ilmiy meroslari necha asrlardan beri katta obro'-e'tibor qozonib kelmoqda. Buxorodagi islomiy me'moriy yodgorliklar – Ark qal'asi, Mir Arab madrasasi, Poyi Kalon majmuasi bugun ham musulmon olamini o'ziga rom etadi. Buxoroning qadimiy ko'chalarida fransuz, ingliz, ispan, koreys, yapon, nemis tillarida so'zlashib, obidalarni hayrat bilan kuzatayotgan, emin-erkin yurgan sayyohlarni ko'rganingda esa, ko'ngilda faxr hissini tuyasan, kishi. Negaki, tinch va farovon yurtga mehmon keladi. Dunyoning baxtiyor odamlari yashayotgan zamindan inson qadami uzilmaydi. Bunday jahon

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

ahlini o'ziga rom etgan Buxoro haqida gapirganda shuni alohida ta'kidlashni istardimki, Alloh Ta'olo Buxoro xalqiga betakror ne'matlarni in'om etgan. Jumladan, Imom Buxoriy, Ibn Sino, Abduxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband ya'ni "Etti pir"larning ma'naviy-ma'rifiy xalqaro hamjamiyat tomonidan chuqur hurmat va ehtirom bilan tilga olinadi. Bugun ham buxorolik yoshlar respublika miqyosida ilm-ma'rifatda yetakchilik qilayotganining o'zi ham yangi Renessans poydevoridir.

Mamlakat rahbari ta'kidlaganidek, "Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz. SHu munosabat bilan O'zbekiston globallashuv va axborotkommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning YOshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif etadi. SHuningdek, aynan Prezident SHavkat Mirziyoyevning taklifi va tashabbusi bilan, SHHTga a'zo Davlatlar rahbarlari kengashida "SHHT davlat rahbarlarining yoshlarga qo'shma murojaati" qabul qilindi. Hozirgi davrga kelib, Janubiy Koreya, Turkiya, Eron, Hindiston kabi davlatlar o'z tarixini buyuklashtirishga, milliy g'ururni uyg'otishga, mamlakat nomini dunyoga yoyishga erishib ulgurdi. SHular qatorida men Buxorodagi ilm-ma'rifat ham dunyo hamjamiyatida o'z o'rniga ega bo'lganini hamda bugun ham bu an'ana davom etayotganidan xursandman.

Demak, Prezident SHavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ilgari surilgan "Uchinchi Renesans" g'oyasi ostida yurtimizda ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi islohotlar YAngi O'zbekistonning mustahkam poydevori yaratmoqda, desak ayni haqiqat bo'ladi.

“MEN”NING “BIZ”LANISHI

Muhammad QURONOV

*Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbarining birinchi
o'rinbosari, pedagogika fanlari doktori, professor,*

Markaz huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti direktori

Ikki Renessans uzra turgan O'zbekiston gerbida Humo qushi turibdi. Bu tasodif emas. Humo – jahon sivilizatsiya markazlaridan biri, qadimiy va navqiron O'zbekiston ramzi – Renessans ramzi. Madaniy kod.

Madaniy kod bu – ajdodlardan meros qolgan noyob madaniy xususiyatlar. Ular xalqning ramzlarida, goh anglangan, goh anglanmagan holda xulq-avtor, odatlarida namoyon bo'ladi. Madaniy kod o'zbekcha aytganda “asli qonida bor narsa”ga to'g'ri keladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekistonda qayta tiklanish tajribasini qayerdan izlashimiz kerak? Bu savolga javobni hazrat Alisher Navoiy tayinlab ketganlar: “Har ne istarsen, o'zingdin istagil”.

Ajdodlarimiz jahon ahliga diniy va dunyoviy ilmlarning aslini o'rgatgan. Dunyoning yetuk olimlari bizning bobolarimiz bilan birga choy ichganliklari, tanishliklari, ularga shogirdliklari, ularning kitoblarini o'qiganliklari bilan faxrlanishgan. Bizga bugun mana shu shon, mana shu sharaf darvozasi qayta ochilmoqda.

2019 yilning 31 dekabr kuni “Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi” tasdiqlandi. Unga ko'ra 30 yoshgacha bo'lgan o'quvchi-yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi tayanch fazilat, ijtimoiy kompetensiyalar rivojlantiriladi. Bu fazilatlar oilaviy tarbiyaga ijtimoiy buyurtmaga aylanadi. Shu vaqtgacha natijasi mavhum bo'lib kelgan tarbiya mana shu tayanch fazilatlarda natija topadi. Mukammal kompetensiya-fazilatlar bilan mustaqil hayotga kirib borgan o'g'il-qizlarimiz o'zini ham, Vatanini ham baxtli qiladilar.

Hammamizda bola bor. “Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepiya”sining innovatsionligi nimada? Ilgari O'zbekistonning 1-18 yoshgacha bo'lgan bolalar, o'smirlar yoshiga mos qanday ma'naviy talablarga javob berishi kerak?”, “Bir yillik tarbiyaning natijalari qanday bo'ldi?”, degan aniq savol qo'yilmagan. Qo'yilsa ham “Hamkorlikda ko'p tadbirlar o'tkazdik. Endi, bolalar katta bo'lsa, ma'lum bo'ladi-da,

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

tarbiyasi”, degan fikrlar bildirilgan. Yoki 5-6 nafar iqtidorli yoshlarni ko'rsatib, tarbiyaviy ishlar yutug'i, deyilgan. Bugungi uyushmagan yoshlarimiz ana shu noilmiy tarbiyaning jabridiydalari.

Bolalar g'ayratli raqsga tushishar, she'rni ko'zlari yonib, to'tidek o'qishar, biroq, she'r, raqs tugagach, ko'zlari bo'm-bo'sh, hamma qatori bo'lib qolishar edi. Chunki tarbiya og'zaki edi. Amaliy emas edi. Fazilatlar treninglarda o'rgatilmay, shu sabab natija fazilatga aylanmasdan, bilim darajasida qolib ketar edi. Shuning uchun bugun 15-20 yoshli bolalarimizning xulqi bizni ranjitayotgan bo'lsa, bunga ular aybdor emas. Ularning bilmasligi – tushuntirilmaganidan, qilmasligi – o'rgatilmaganidan. Vatanparvarlikni ham, choy suzishni ham, uyalishni, ma'suliyatni, salom berishni ham.

Endi “Yoshlarimiz Uchinchi Renessansga xizmat qilishga tayyormi?”, degan savolga “Hamkorlikda ko'p tadbir o'tkazganmiz. Endi tarbiyasi katta bo'lsa bilinadi-da”, deyish, o'zini aldash. “Ha endi tarbiya, ma'naviyatni o'lchab bo'lmaydi-da. Boshiyam, oxiriyam yo'q-ku”, deyish to'xtaydi. Milliy g'oyaning tarbiyaga qanday joriy bo'layotgani amalda, hamma joyda, bolalarimiz fazilatlarida har kuni yoshiga mos ko'rinib, eshitilib turadi.

Ma'naviyat va ma'rifat, mafkuraviy tarbiya bizga Vatanning o'g'il-qizlari sifatida, ishlash va yashash burchini eslatadi. Uchinchi Renessans nima uchun, kim uchun kerakligini xalqqa uning orzulari bilan bog'lab uqtiradi, ko'rsatadi. Tushungan xalq – g'oya bilan qurollangan xalqqa aylanadi. O'z milliy g'oyasini anglagan xalqni esa to'xtatib bo'lmaydi.

Tarixda bir kishining innovatsion fikrlashi butun boshli xalqni halokatdan saqlab qolganiga misollar bor. Bir tarixiy misol esga tushadi. Dunyodagi eng katta gonorar II asrda Rim imperatori Mark Avreliy tomonidan shoir-metodist Oppianga berilgan. Oppian sevgi, ishqiy o'rtanishlar haqida emas, baliqchilik va ov qilish qoidalari haqida 20 000 baytli ikki doston yozgan edi. Imperator dostonlarning har bir satri uchun bir oltin tangadan qalam haqqi beradi. Chunki odamlar bu dostonlarni o'qib, kuylab, eshitib, baliq tutish, ov qilish qoidalarini o'rganib olishdi. Mana shu bitta artpedagogik innovatsiya xalqqa baliq tutish mahoratini o'rgatib, uni ochlikdan saqlab qolgan.

Xullas, Uchinchi Renessans ma'naviyati yoshlarimizni, xalqimizni innovatsion fikrlashga, o'ylashga, yashashga o'rgatishni talab qiladi.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Buning uchun nafaqat bolalar bog'chalari, maktab, litsey, institutlar, balki oilalarda ham bolalarimizni innovatsion fikrlashga o'rgatish ham farz, ham qarzga aylanmog'i maqsadga muvofiqdir.

Milliy g'oya – xalq orzusi, niyatining ifodasi. U milliy rivojlanishning yangi talablaridan kelib chiqib yangilanib turadi. O'z chiqishlaridan birida Prezidentimiz “Milliy g'oya nima uchun kerak?”, degan savolni o'rtaga tashladi. Javobini ham bir jumlagacha jo qilib, “Vatanni sevish uchun”, dedi. Uchinchi Renessans bizdan ana shu sevgini - Vatanni uyimizdek, xalqimizni oilamizdek sevishni so'rayapti. Chunki faqat sevgi insonni yangi, yaxshi kelajak yaratishga safarbar qiladi, madadkor bo'ladi.

Uchinchi Renessansni kim amalga oshiradi? O'zida Vatanga sodiqlik, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibat, mas'uliyat, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlikni mujassam qilgan o'zbekistonliklar. Uchinchi Renessans bizdan jon, sog'liq, mablag' emas, yuqoridagi fazilatlarni har kuni amalda ko'rsatishni so'raydi. O'z ishimizni halol-pok, sifatli, vijdonimiz nazoratida bajarishni so'raydi.

Ma'naviy Renessans qancha kuchli bo'lsa, Uchinchi Renessans shuncha tez, samarali bo'ladi. Ana shunda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ma'naviyatdagi, xarakterimizdagi islohotlar bilan qo'llab-quvvatlanadi. Buning uchun ilgari uchrab turgan “Ma'naviyatni o'lchab bo'larmikan?”, degan ikkilanishlar voz kechishimiz kerak. Zero, ajdodlarimiz Birinchi va Ikkinchi Renessanslarni ilmdan najot olib yaratishgan. Demak, Uchinchi Renessansda ham “Ilmdan o'zga najot yo'q va bo'lmag'ay”(Imom Buxoriy).

Prezidentimiz o'z chiqishlaridan birida “Kurashga tayyorlangan, kurashgan odam yutadi”, degan edi. Uchinchi Renessans bizdan qiyinchiliklarga qarshi kurashga tayyor bo'lishimizni taqozo qiladi. Bu tayyorlik barcha sohalarni qamrab olishi va hamma joyda, har birimizda namoyon bo'lishi lozim.

Masalan, xalq o'z vatandosh tadbirkorlarini, tadbirkorlar o'z xalqini qo'llab-quvvatlashi kerak. Millionta “Men”dan ahil bitta “Biz”ga ko'tarilish umumxalq harakatiga aylanishi kerak. Afsuski, buning aksi ham uchrab turadi. O'tgan yillar hayit bayramlarida mamlakatimizning ayrim shaharlarida narx-navo ikki karra ko'tarilganini ko'rdik. Ba'zi

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

shaharlarda esa bir necha bor tushirilganini ham ko'rdik. Bu holat yaqinda koronavirus sharoitida talabalarga taksi xizmatini ko'rsatilishida, dori savdosini ham uchradi. Kimdir bepul, savob uchun, vatandoshim, deb xizmat qilsa, kimdir narxni ikki-uch marotaba oshirdi. Har bir o'zbekistonlikning bir-birida vatandoshlik haqqi va burchi bor-ku.

Demak, milliy g'oya – motivatsiyaning ta'siri, ro'yobi iqtisodiyotda, kundalik hayotda ko'rinib tursa, Uchinchi Renessans yo'lida ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar ahil, qars ikki qo'ldan bo'lsa, biz yanada birlashamiz.

Milliy g'oya odamlarga Uchinchi Renessans kim uchun, nima uchunligini, ahamiyatini tushuntiradi. U bergan motivatsiya yotganni – o'tirishga, o'tirganni – turishga, turganni – yurishga, yurganni – yugurishga undaydi. Rag'bat berib, shavqlantiradi. Tushuntiradi. Chunki "Nega?"ligini bilmagan tushunmagan odamlar birlashmaydi. Qo'shilsa ham, ko'r-ko'rona, yuzaki ishlaydi. Biri ishlasa, ikkisi tomoshabin bo'ladi. Milliy g'oyada o'z manfaatini ko'rganlar birlashib, ixtiyoriy, zavq bilan ishlaydi. Natijada hayotidan rozi bo'ladi.

Milliy g'oyamizning ijtimoiy mazmun-mohiyatini bir so'zda aytsa, bu so'z – rozilik. Bu tushuncha Uchinchi Renessansni tushunish va tushuntirish, amalga oshirish uchun fundamental, jipslashtiruvchi asos bo'ladi. Zero milliy g'oya ro'yobi xalqning muayyan vaqt va makonda o'zini baxtli deb his qilishida, bu esa uning shukronalarida – hayotdan roziligida namoyon bo'ladi.

Albatta, bularning barchasi uchun tinchlik, mustaqillikni jon qadar mustahkam, kafolatli himoyalashimiz kerak. Mustaqillik harbiy, g'oyaviy va siyosiy himoyalanaadi. Bunda ham o'tmishdan saboq chiqarish kerak. Biz har gal mustamlaka bo'lib, oyoq-qo'llarimizga kishan taqishganida bir narsadan afsuslanganmiz – xalqning birlashmaganidan. Xalqning birlashmagani sababi, hammani "Biz", degan bayroq ostiga birlashtiradigan g'oya bo'lmaganligi. Natijada "Biz" bo'lib yengadigan kuch "men"larga parchalanib, mag'lub bo'lganmiz.

Bugun bizda "men"larni "Biz" qiladigan g'oya bor. Bu Uchinchi Renessans g'oyasi. Qurilayotgan Uchinchi Renessans poydevorini g'oyaviy himoya qilishimiz kerak. Biz uni preventiv, o'z vaqtida himoya qilmasak, uni buzishlari mumkin.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Chunki bizga uzoqlardan alamnok tikilib, davlat va xalq orasiga pona qoqishga urinayotganlar bor. Bu ma'naviy, g'oyaviy hujum. Ularga javob berishimiz va javobimiz ilmiy asosda bo'lishi kerak. Nima uchun? Chunki ilmiy asosda bo'lmasa, biz qilayotgan tadbirlar bir martalik, o'tkinchi bo'lib qoladi. Shu ma'noda milliy g'oya targ'ibotini ilmiy asosga qurishga qaratilgan sa'yi-harakatlar nihoyatda zarur.

O'zbekistonda Uchinchi Renessans iborasi ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qila boshlandi. Kimlardir "Mana bu boshqa gap", o'rnidan turib, olqishladi. Kimdir mamnun jilmaydi. Kimlardir o'ylanib qoldi. Kimlardir... sarosimaga tushdi.

Afsuski hamma ko'rib turgan narsalarni ko'rsa ham, "ko'rdim", demaydiganlar bor. Facebook, You Tube sahrolarida sargardon, qilmishlaridan dili to'la armon, yomonlamasa, och qoladigan ko'rolmasvoylar bor. Ularni islohotlarimiz shiddati dovdiratayapti, hansiratayapti. Oddiy oilalarning bolalari talaba bo'layotgani o'rtayapti ularni...

O'z davlatidan rozi ota-onalarning duolari yondirayapti ularni. Inchinun, jannatmakon – O'zbekistonda hamma sohalarda to'xtovsiz yuksalish, yangilanish, yaxshilanish va uyg'onish.

Ana shundaylarning nafaslaridan tarqaladigan g'oyaviy viruslardan kelajak avlodni himoya qilishimiz lozim. Bundan ham yaxshisi – yoshlarimizni yot g'oyalardan, yovuz kuchlardan o'zini himoya qilishga o'rgataylik. Chunki bilimsiz yoshlar ko'p va tez aldanadi. Bilimsiz yigit-qiz, yosh faylasuf olim Otabek Bozorov yozganidek, displeydagi firibgarning soxta samimiyati, shirin so'ziga uchadi. Adashadi. Aldanadi. Firibgarlar chiroyli kulib, tabassum bilan yoqimli so'zlasa, sodda o'zbek erib ketishini yaxshi biladi. Ana shunda tanqidiy, tahlil devoridan oshib o'tsa bo'ldi, o'lja qo'lda.

Bizning Uchinchi Renessans haqidagi ezgu niyatimizni eshitgan ayrimlar o'rtanmoqda. Ularga ham qiyin. Fitna-fasod qilmay, desa, tirikchilik qilish kerak. Fitnasini fakt bilan ursang, "Nega?", deb yozg'iradi. Qor yog'sa ham, yog'masa ham, quyosh chiqsa ham, shamol tursa ham, tinsa ham vatanini yomonlaydi. Ma'naviyatni yomonlaydi, chunki u islohotlar natijalarini misollar bilan gapirayapti. Uysizlar uyli bo'layotganini, yig'layotgan kambag'al kulayotganini misollar keltirib, yonib targ'ib qilayapti. Ko'rolmasvoyning fikricha, yaratilayotgan qulayliklarni, xalq rizoliklarini gapirsang, maddoh bo'larkansan. Ko'rib,

ko'rmadim, deb, jim, noshukur yursang, ularga do'st bo'larkansan. Qo'shib yomonlasang, birodar, jonajonsan. Bugungi firibgar aldash ilmi – neyrolingvistik dasturlashtirishning hadisini olgan. Demak, har bir yigit-qiz bu dastur nimaligini ham oldindan bilib qo'yishi kerak. Bilimni qalqon qilib yoshlarimizga treninglarda o'zini himoya qilishni mashq qildirib, o'rgatib boraylik.

“Men”larning Vatan, millat kelajagi uchun “Biz”lanishi ta'lim-tarbiya va fanga investitsiya G'arb sivilizatsiyasini keskin iqtisodiy gullab-yashnatdi. Bu - inson kapitaliga kiritiladigan pedagogik investitsiya. Bu investitsiyaning afzalligi shundaki, u insonga bir marta emas, bir umr foyda keltiradi. Har bir yigit-qizga hayotda o'z o'rnini topishni va o'zini-o'zi baxtli qilishni o'rgatadi.

YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA OILANING O'RNI

SHermuxamedova Jamila Tashpulatovna

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi eksperti, “Ma'rifat”

targ'ibotchilar jamiyati a'zosi, xalqaro toifadagi spiker,

“Mehnat shuhrati” ordeni sohibi,

falsafa fanlari doktori, professor

Ma'lumki, muqaddas zaminimizda qadimdan milliy urf-odat va an'analarimizni yosh avlod ongiga singdirishda, ularni jismonan barkamol, ma'nan yetuk, mehr-oqibatli insonlar qilib tarbiyalashda oila muhiti muhim o'rin egallab kelgan. Keksalarning ibratli hayot yo'li, o'gitlari, yillar silsilasida toblangan tajribasi yoshlarimizning to'g'ri yo'lni tanlashlarida yo'l boshchi vazifasini o'tamoqda.

Tarixga nazar tashlasak, ota-bobolarimiz oilaga juda katta e'tibor berganliklarining guvohi bo'lamiz. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy singari buyuk allomalarimizning asarlarida ham oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, bola tarbiyasida ota-onaning, oilaning o'rnini masalasiga alohida ahamiyat qaratilgan. Ibratli hikoyatlar, rivoyatlar, farzandlariga maktublar, hikmatli so'zlar orqali nasihatlarini, hayotiy xulosalarini yozib qoldirganlar. O'tgan asrning boshlarida yashagan Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon kabi ma'rifatparvar ziyolilar barkamol avlodni tarbiyalashning yagona chorasi - oila asoslarini to'g'ri

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

qurish ekanini, oilani mustahkamlamasdan jamiyat taraqqiyotiga erishib bo'lmashligini ta'kidlaganlar.

Islom dini oilaviy munosabatlarning hayot haqiqatlariga, adolat tuyg'usiga va insonparvarlikka asoslangan ma'naviy mezonlarini yaratdi, ayollarning oila va jamiyatdagi haq-huquqini belgiladi, bu borada, ayniqsa, uning onalik burchiga, bolalari uchun murabbiylik faoliyatiga yuksak e'tibor berdi.

Oilaning jamiyatda tutgan o'rnini, oila tarbiyasi, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar, shuningdek, oilaning pokligi va mustahkam bo'lishiga oid qimmatli fikrlar hadislarida muhim o'rin egallaydi: «Kimgaki Alloh taolo solih xotin nasib etgan bo'lsa, dinining yarmiga yordam qilibdi, qolgan yarmiga o'zi taqvo qilsin».

Hadislar xalq donishmandligi namunalarini bo'lib kelgan og'zaki ijod namunalariga hamda o'zbek xalq pedagogikasiga kuchli ijobiy ta'sir etib, ularni mazmunan boyitdi. Xalq donishmandligi va odobnomasining bu bebaho sohasi ma'naviy-ma'rifiy hayotning barcha tomonlarini qamrab oladi. U xalqimizning ko'p asrlik tajribalari, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ma'naviy, estetik, falsafiy va jismoniy barkamollik bobidagi qarashlari, fikr-mulohazalarini lo'nda, ta'sirchan va mazmundor ifodalaydi.

Ma'lumki, O'rta asr SHarqining buyuk mutafakkirlari o'zlariga qadar mavjud bo'lgan barcha ilm-fan yutuqlarini o'zlashtirib, deyarli hamma sohalarda ilmiy asarlar yaratdilar, bu bilan ham kifoyalanmay, mavjud ilmlarni tasnif qildilar, xorijiy tillardagi mashhur asarlarni arab, fors va turk tillariga tarjima qilish ishlari bilan shug'ullandilar. SHunday xizmatlari bilan «yagona mintaqa madaniyati» deb atalishi mumkin bo'lgan tarixiy yangi jarayonga asos soldilar. O'z navbatida, ushbu tarixiy jarayon boshqa xalqlar ilm-ma'rifatiga kuchli ta'sir etib, Uyg'onish davri deb ataluvchi ulkan ma'rifatparvarlik davrining boshlanishiga asos bo'ldi. SHuning uchun ham, biz Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, Farg'oniy kabi buyuk qomusiy olimlar asarlarida, ularning ilmiy-nazariy ta'limotlarida ta'lim-tarbiya masalalariga keng o'rin berilganiga guvoh bo'lamiz. Jumladan, Forobiy (873-950) «Fozil odamlar shahri», «Baxt-saodatga erishish haqida ko'rsatmalar», «Baxt-saodatga erishish haqida», «Fuqarolik siyosati», «Davlat arbobining aforizmlari» kabi asarlarida jamiyatning kelib chiqishi, maqsad va vazifalari haqida falsafiy ta'limot yaratdi, inson jamoalarining jamiyatda

tutgan roli, davlat va oila, ularni boshqarish haqidagi ilmiy bilimlar tizimini yaratdi.

Ta'kidlash joizki, farzandning ota-ona oldidagi burchi so'z mulkining sultoni Navoiy asrlarida ham yuqori mezonlar bilan o'lchangan va hamisha muqaddas bir mavzu kabi talqin etilgan. «Mahbub ul-qulub»da shoir «Uylanish va xotinlar to'g'risida» maxsus bob ajratadi hamda yaxshi yoki yomon xotinlar tufayli xonadonga keladigan baxt-saodat, kulfat-qayg'ular xususida to'xtaladi. Xarakterli joyi shundaki, bu bobdagi fikr-mulohazalar «Qobusnoma», «Temur tuzuklari» va hadisi shariflardagi yaxshi va yomon ayollar talqinini mantiqan tasdiqlaydi va davom ettiradi. Bizga ma'lumki, oilaning ma'naviy-axloqiy qiyofasi yoki o'ziga xosligi ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib o'tgan bilim, malaka, ko'nikma, tajriba, madaniy qadriyatlar negizida, shuningdek, vatandoshlarimizning bu borada to'plagan barcha ijobiy xususiyatlarini o'rganib, umumlashtirish asosida paydo bo'ladi.

Alisher Navoiyning zamondoshi, yaqin do'sti bo'lgan Husayn Voiz Koshifiyning «Futuvvatnomai sultoniy», «Axloqi muhsiniy» asarlari odob-axloqqa bag'ishlangan bo'lib, oila tarbiyasida muhim, bebaho manbalardan hisoblanadi. U «Axloqi muhsiniy» kitobida sabr, hayo, pokizalik, oliyhimmatlik, adolat, muloyimlik, saxovat, vafo, ahd, rostgo'ylik, andisha, shijoat, farosat, sir saqlash kabi axloqiy tushunchalarning mazmun-mohiyatini tushuntirib, ularga rioya etish uchun Qur'on oyatlari, hadislardan namunalar va mutafakkirlar asarlaridan lavhalar keltirib asoslagan.

Jadidchi ma'rifatchilar yangi davr va yangi tuzum uchun kurashni, eng avvalo, oilani isloh qilishdan boshlamoq zarur, deb hisobladilar. Ularning fikricha, oila asosini to'g'ri qurmay turib va yosh avlodni to'laqonli to'g'ri yo'lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo'naltirish mumkin emas va oxir-oqibatda millat taqdiri uning oilasining holatiga bog'liq.

Abdurauf Fitratning "Oila" risolasida oila qurishning asl mazmuni, ota-ona va farzand huquqlari, oilaviy munosabatlar masalasi batafsil yoritilgan. Abdurauf Fitrat shunday yozadi: "Bolalarni o'ziga ishongan, kuchli, topqir, chaqqon va aqlli qilib tarbiyalash uchun o'z qadr-qimmatini, sha'nini hurmat qilish ruhini tarbiya qilmoqlikni, shuning bilan birga, yon-atrofdagi odamlar bilan hisoblashishni o'rgatmoq kerak.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi".

Rizouddin ibn Faxriddin "Oila" nomli asarida ayollar haqida shunday yozadi: "Agarda oila kemaga o'xshatilsa, xotun kemanding quyrug'i hukmida bo'lur. Daryoda katta quvvatga ega bo'lgan kema quyruq harakatiga ergashib yurgani kabi, mamlakat misolida bo'lgan oilalarda oila ichida bo'lgan xotun harakatiga ergashurlar. Xotunlari tarbiyali bo'lgan xalq – tarbiyali-yu, xotunlari tarbiyasiz bo'lgan xalq – tarbiyasiz, xotunlari tirishqoq, tadbirkor irodali bo'lgan xalq – boyu, xotunlari yalqov yoki isrofgar xalq faqir bo'lishi aniqdir".

Oilani mustahkamlash dunyo miqyosida bosh masala darajasiga ko'tarilgan muammolardan biridir. Oilalar ahilligi va mustahkamligiga erishish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 1993 yil 20 sentyabrdagi yig'ilishida 15 mayni har yili Xalqaro oila kuni sifatida nishonlash to'g'risida qaror qabul qildi. SHundan buyon butun dunyoda, jumladan yurtimizda ham Xalqaro oila kuni keng nishonlanib kelinadi. O'tgan yillar mobaynida yurtimizda oila tushunchasi, uning mazmun-mohiyati, jamiyatda tutgan o'rni masalalariga alohida e'tibor qaralib, barcha huquqiy asoslar yaratilganini ta'kidlash lozim. Ayniqsa, ayollar va bolalar manfaatlari, salomatligini himoya qilish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Respublikamiz BMTning "Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllarini yo'q qilish haqida"gi konvensiyasiga, Xalqaro mehnat tashkilotining "Onalikni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Mehnat va mashg'ulotlar sohasidagi kamsitishlar to'g'risida"gi konvensiyalariga MDH davlatlari ichidan birinchilar qatorida qo'shildi. Bu hujjatlar xotin-qizlar manfaatlarini muhofaza qilish va ularning oiladagi va umuman jamiyatdagi mavqeini mustahkamlashga qaratilgan me'yoriy - huquqiy hujjatlar kompleksining tarkibiy qismidir. SHuningdek, Konstitutsiyamizning 14-bobida ham oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanligi, jamiyat va davlat muhofazasida bo'lishi qat'iy belgilab qo'yildi.

Mamlakatimizda sog'lom oilani shakllantirish va oilada yuksak ma'naviy-axloqiy muhitni qaror toptirish uchun zarur shart-sharoit yaratish, yoshlarni oila qurishga tayyorlash, oilalar mustahkamligini va manfaatlarini ta'minlash, sog'lom farzand o'stirish, tarbiyalash va voyaga yetkazish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Jamiyatda ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishda ayollar muhim rol

o'ynaydi. Zero, yuksak ma'naviyat va ma'rifatli insonlarni tarbiyalash, avvalo, ayollarning yuksak fazilat sohiblari bo'lishlariga bog'liqdir.

UCHINCHI RENESSANS ASOSI: ILM-FAN VA MA'RIFAT

Feruz Muxitdinova

***TDYUI: yuridik fanlari doktori, professor, "Ma'rifat" targ'ibotchilar
jamiyati a'zosi***

Bugungi kunda, aynan O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligida barcha sohada inson manfaatini ustunligi, qonun ustuvorligi hamda inson uning huquq va erkinliklarini himoya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilib, ushbu masalani hal qilish davlatimizning bosh maqsadiga aylanib bormoqda. Zero, Prezidentimiz "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni yuqori saviyada o'tkazish to'g'risida"gi qarorida nazarda tutilgan g'oyatda ulug'vor maqsad va vazifalardan biri ham aynan har bir insonga bo'lgan e'tiborning asosini tashkil etadi.

Davlatimiz rahbari SHavkat Mirziyoyev olib borayotgan adolatparvar, insonparvar siyosatning nechog'li to'g'riligini yangi O'zbekistonda shakllangan "Temir daftar", "YOshlar daftari", "Ayollar daftari"dayoq birinchi galda ehtiyojmand oilalar va ish bandligini ta'minlay olmagan fuqarolarga mehr va oqibat, hurmat va e'tibor qaratildiki, respublikamizning biror bir xonadoni, biror bir fuqarosi xatlovdan chetga qolmadi. Ko'ngli o'ksik inson qolmadi. Inson huquq va erkinliklarini himoya qilish bosh Qomisumizining ham milliy qadriyatlarimizning o'zagini tashkil etadi. Jumladan, *Konstitutsiyamizning X bobi inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlariga bag'ishlangan bo'lib, xususan, Konstitutsiyamizning 43-moddasida, "Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi", deb belgilangan. Bu konstitutsion tamoyilning amaliy ifodasini tan olgan xalqaro BMT tashkiloti tomonidan 2021-2023 yillarda O'zbekiston mazkur tashkilotning Inson huquqlari Kengashiga a'zolikka qabul qilangani ayni haqiqat va tarixiy yangilikdir.*

Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquq va erkinliklarini amalga oshirishni davlat tomonidan ta'minlashga yordam beradigan vositalar, usullar va shart-sharoitlar majmui kafolat tushunchasini beradi. Kafolatning asosiy vazifasi, fuqarolarni huquq va

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

erkinliklarini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan to'siqlarni bartaraf etish bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlashdir. Zero, Konstitutsiyamizda **7-moddasiga asosan** xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. Bu g'oya demokratik taraqqiyot yo'lini tanlagan, inson huquqlarini oliy qadriyat deb bilgan O'zbekiston xalqining ulug' maqsadlarini ifodalaydi. Aytish kerakki, ushbu konstitutsiyaviy me'yor so'nggi yillarda hayotimizda yanada yorqinroq namoyon bo'lmoqda. YUksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim etukligining ifodasidir. U jamiyatdagi turli xil hayotiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatuvchi, fuqarolarning, barcha ijtimoiy guruhlarining jipslashuviga ko'maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi hamda batartibligini ta'minlovchi va mustahkamlovchi omildir. Qonunni hurmat qilish huquqiy jamiyatning, siyosiy va huquqiy tizimlar samarali faoliyat ko'rsatishining asosiy talablaridan biri hisoblanadi. SHu bois ham, hozir barcha darajadagi rahbarlar, ma'sul xodimlar joylarga chiqib, xalqimiz bilan yelkama-yelka turib, ularning muammolarini o'rganib, bartaraf etish choralarini ko'rmoqda. Bu ijobiy ishlar xalqqa yaqinlashish, fuqarolarning huquq va manfaatlarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega, albatta. E'tibor bersak, bu Konstitutsiyamizda belgilab berilgan me'yorlarning amalda ta'minlanayotganini, jamiyatda huquqiy madaniyat yuksalganligini ham bildiradi.

So'zimizning isboti sifatida 2020 yil "YAngi O'zbekiston va yangicha dunyoqarash" shiori ostida 3-23 noyabr kunlari Buxoro viloyatining barcha tuman, shaharlarida O'zbekiston Respublikasi Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamkorligida barcha hokimliklarda o'quv muassasalarida, hamda tashkilotlarda fuqarolarning qiziqtirgan savollar, muammolari bo'yicha davra suhbatlari, uchrashuvlar tashkil etilgandi. Fuqarolarimizning ko'zida ishonch, ertasiga umid borligi meni huquqshunos sifatida quvontirdi. Axir, xalqimizda "Mehnatdan kelsa boylik – turmush bo'lar chiroylik", degan asriy, qadimiy maqol bor. Jamiyatda hai bir insonni komillikka undaydigan xislatlardan biri mehnat bo'lsa, ikkinchisi ilmdir. SHu bois ham, "Ilmdan boshqa najot yo'q" deyiladi. Agar mehnat kishini ulug'lasa, ilm komillikka undaydi. Demak, farzandlarimizni yoshlikdan mehnatga, kasbga o'rgatish, bolalikdan kitob mutolaa qildirish, o'qitish va ilmga qiziqtirish har bir inson uchun ham qarz, ham farzdir Zero, mehnat qilish uchun ham

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

kishida ilm, aql, fahmu farosat bo'lishi kerak. Diniy qadriyatlarimiz ham bu ikki amalni qo'llab-quvvatlagan. Dunyoda bizning ajdodlarmiz kabi ilmga hayotini bag'ishlagan millat bo'lmasa kerak. Birinchi Renessans, SHarq Uyg'onish davri bejiz bizning yurtimizda shakllanmagan. Qomusiy olimlar Sharqni dunyoga tanitishgan. Buyuk allomalarimizning diniy va dunyoviy ilmga qo'shgan hissalarini ikkinchi Renessansga ham Temuriylar davriga asos bo'lgani ham ayni haqiqat.

Vatandoshimiz, faxr va g'urur bilan nomini tilga olar ekanmiz, Imom al-Buxoriy hayotlarini ilmga baxshida etib, "Imdan boshqa najot yo'q va hech qachon bo'lmaydi" deb, inson dunyo va oxiratini obod qilish uchun ilm izlashligi lozimligini uqtirgan. SHuningdek, otobobolarimiz "YOshlikda o'rganilgan ilm toshga bitilgan naqsh kabi mustahkam bo'ladi" degan fikrlari milliy qadriyatimizga aylangan. Kuni-kechagina "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar" to'g'risidagi O'zbekistonning yangi tahrirdagi Qonuni qabul qilindi. Demak, milliy, diniy qadriyatlarimiz bugungi mustaqil va farovon turmushimizda fuqarolarimizning hayotining asosini tashkil etar ekan, ertanggi yoshlarimiz halol mehnati va kuchli bilimi bilan Uchinchi Renessansga asos solishar ekan, biz ta'lim va tarbiyada bu jihatlarning barcha yo'nalishlarini qamrab olishni joiz hisobladik.

Islom dinida insoniyatga ilk buyruq ilm olish haqida bo'lganligi hammamizga ma'lum. Ilm xoh diniy, xoh dunyoviy bo'lsin, insonlarni ezgulikka va ma'rifatga yetaklaydi. YAngi O'zbekistonda yangicha dunyoqarash shakllanishida ham yurtimizda yoshlarga yaratilgan imkoniyatlar, ularning diniy va dunyoviy ilmlarni egallashlari uchun ko'zni quvontiradigan sharoitlarni har bir ota-onani, har bir insonni ko'nglini tog'dek ko'tarmoqda desak, mubolog'a bo'lmaydi.

Birinchidan, O'zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi diniy ta'lim muassasalarida talabalarga diniy va dunyoviy ilmlar uyg'unlashtirilgan holda o'rgatilib, yurtimiz aholisining diniy kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qoplash maqsadida malakali mutaxassislar tayyorlanayotgan bo'lsa, ikkinchidan, yangi Universitetlarga asos solinib, yangi tizimdagi, ya'ni kredit-modul asosidagi Oliy ta'lim muassasalarida yetuk, zamon bilan hamnafas kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Uchinchidan, ilm yo'lidagi har qanday korrupsiogen to'siqlarga barham berildi. Elektron hujjatlar toptirish odam omilini tugatdi.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

To'rtinchidan, ehtiyojmand oilalardagi ikki minglab qizlarga mahallalardan tavsiyanomalar orqali Oliy ta'limga qabul yo'lga qo'yildi. Xalq va davlat manfaati yo'lida fidokorona xizmatini o'tagan harbiylarimizning farzandlariga davlat granti asosida o'qish ta'minlandi. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilariga ajratilgan kvotalar ham insonparvarlikning amaliy ifodasidir. "YOshlar daftari", "Ayollar daftari" kabi xalqimizning mehrsaxovati bitilgan ro'yxatda turgan yoshlarimiz uchun mahallalarda ochilgan o'quv kurslari, kasbga yo'naltirish, tadbirkorligi uchun imtiyozli kreditlar, dehqonchilik uchun 10 sotix va undan ko'p ajratilayotgan yerlar, parrandachalik uchun, tikuv sexlari kabi imtiyozli sharoitlar yangilanayotgan O'zbekiston xalqining erkin va farovon yashashiga qaratilgan istiqlol siyosatidir. Zero, vatandoshimiz Imom Buxoriy rivoyat qilgan hadisda Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam shunday degan ekanlar: "Kimki tilanchilik qilishdan saqlanish, oilasini boqish va qo'ni-qo'shnilariga muruvvat qilish maqsadida halol yo'l orqali rizq topish bilan mashg'ul bo'lsa, qiyomat kunida u Alloh taolaga yuzi to'lin oydek yorug' bo'lgan holda yo'liqadi". Bu hadisi sharif bugungi kunda o'ta muhim ma'naviy va ma'rifiy pandu hikmatdir. Chunki kasbi korga ega insonning o'z hunari va tadbirkorligi ham bo'ladi. U hech fashon hech kimga muhtoj bo'lmaydi. Bu g'oyalar sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Biruniy, Alisher Navoiy, Bobur hatto jadidlar siyosiy-huquqiy qarashlarida asosiy o'rinni egallagani ham bejizmas. SHu jihatdan, yangilanayotgan O'zbekiston yoshlarining ta'lim va tarbiyasida sharq mutafakkirlariniing ilmiy merosi ham bebaho qadriyatdir. SHu uchun mazkur masalaning ma'naviy va ma'rifiy jihatlarini yortishda ma'naviy merosimizga ham murojaat etdik. Xususan, Alisher Navoiy ijodidagi demokratik yo'nalish va insonparvarlik, inson qadr-qimmatini ulug'lagan hamda inson manfaatini ko'zlab, farovon turmush tarziga bag'ishlagan g'oyalari uning asarlarini mangulikka yetaklagan desak, to'g'ri bo'ladi. "Maxbubul qulub" asarida Navoiy o'z zamonasidagi barkamol insonga xos fazilatlarni aks ettirgan. U 39 xil ijtimoiy guruhga mansub kishilarni axloku odobi haqida so'z yuritgan: butun umrini ilohiyot sirlarini biladigan muxaddislarni, kuch-g'ayratini osmon sir asrorini kashf etishga bag'ishlaydigan munajjimlarni, vatanni kuylaydigan shoirlarni, yurtda obro' qozonadigan yurtparvar shaxslarni,

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

adolatparvar qozilarni bugun biz ularni sudyalari deb ataymiz, ma'rifatparvar ustozlarni kabi 39 toifani sanab berganki, barchaga birdek munosabatni bildirgan. Bugun bunday insonlar oramizda bor. Ularning fidokorona mehnati uchun davlat mukofotlari tashkil etilgan. Har bir sohaning fidoiylari munosib taqdirlanishi ham ilm-fan, vatan taraqqiyoti yo'lidagi mashaqqatli va halol mehnatining samarasidandir.

Yana bir e'tiborli tomoni shundaki, Alisher Navoiy fanning turli tarmoqlarini adabiyot, tarix, til bilimlarini: san'atni ng har xil sohalarini musiqa, rasm, hattotlik, me'morlik va kabi yo'nalishlarini rivojlantirishga harakat kilish bilan birga, ana shu sohalarining ijodkorlariga yordam bergan, qo'llab-quvvatlagan, hatto rag'batlantirgan. Bugun yangilanayotgan O'zbekistonda mazkur Alisher Navoiy merosining mantiqiy davomi sifatida "Mening farzandim O'zbekiston faxri" shiori ositida yoshlarning qo'lga kiritgan yutuqlari uchun nafaqat o'zlarini balki ota-onasi ham taqdirlanmoqda.

SHuning uchuun ham dunyo hamjamiyatida Alisher Navoiyning deyarli barcha asarlari tarbiyaviy ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lib, ularga bo'lgan talab va e'tibor kuchaymoqda. CHunki Alisher Navoiy xalq bolalarini o'qitish va tarbiyalash uchun maktablar ochish to'g'risida g'amxo'rlik qilgan. Uning fikricha, maktab xalqqa nur keltiradi, to'g'riyo'l ko'rsatadi, bolalarni bilimli qiladi. Mamlakat, xalq uchun maktab g'oyat katta ahamiyatga molikligi quyidagi satrlarda o'z ifodasini topgan:

"Bo'lur gum ulurlarga mazxab yo'li.

CHu yoshlarga boshlansa maktab yo'li". Ma'nosi: bolalar uchun maktab bo'lmasa, kattalar ham o'z yo'llaridan adashadilar.

Demak, xalqni ma'rifatli qilishda maktabning roli kattadir. Adolat g'oyasi Navoiyning juda ko'p asarlarida turli tarzda ifodalangan. "Xayrat ul—abror", "Saddi Iskandariy", "Farxod va SHirin", "Sabb'ai sayyora" dostonlarining, "Maxbub ul — qulub" asarining bosh g'oyasi adolatdir. Yana shuni aytish kerakki, Navoiyda insondagi juda ko'p ijobiy xislatlar, chunonchi sadoqat, vafo, hayo, saxovat kabilar ham adolat bilan bog'lab tushuntiriladi. Zero, kishida adolat tuyg'usi bo'lmasa, unda boshqa sifatlar ham bo'lmaydi deb qaraydi.

Alisher Navoiy zamondoshlari, Arastu, Aflotun, Farobiy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiyning imiy merosi, asarlarini qunt bilan o'rgangan,

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

ularning ilmiy va insonparvarlik g'oyalaridan xabardor bo'lib, o'zi ham shu yo'nalishda katta meros qoldirgan ijodkorlar Zaxiriddin Muhammad Bobur, Husayn Voiz Koshifiy va Jaloliddin Davoniylardir. Ular davlatshunoslik, axloqshunoslik adabiyot, ta'lim — tarbiya, nasr va nazm sohalarida ijod qilgan yirik olimlardir. Davlat boshqaruvi va uning siyosati bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy — axloqiy masalalarni M. 3. Boburning "Boburnoma", Koshifiyning "Ahloqi Muxsiniy", Davoniyning asarida atroflicha bayon qiladi.

Ularda jamiyatning paydo - bo'lishi, ijtimoiy tabaqalar, davlat va uni boshqarish yo'llari, adolatli va adolatsiz podshoxlar, ularning fuqarolarga munosabati, axloq va ta'lim — tarbiya masalarini tahlil etgan. Davlat boshqaruviga oid ijtimoiy qarashlari o'z navbatida o'tmish davlatchilik madaniy merosida inson huquqi bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlarimizni yanada boyitishga xizmat qilgan.

Ayni paytda, Jadidchilar asosiy e'tiborini jamiyatda ma'naviyatni rivojlantirishga qaratadilar. Ular yangi usuldagi maktablarni tashkil etish, gazetalar chiqarish, darslik va uquv qo'llanmalarini nashr ettirish, G'arbning yangi madaniyat va texnologiya uslublarini joriy etish zaruriyatini hamda uni Turkistonda targ'ib etish orqali milliy — dunyoviy ta'limni yuzaga keltirish, ma'naviy hayotni yangilash va boyitish orqali milliy o'zlikni anglashni yuksaltirishga zamin yaratishga intilganlar. SHu tariqa, Turkistonda mustamlakachilik siyosatiga karshi kurash va uning ijtimoiy — siyosiy asoslarini yorituvchi manbalar Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li, Behbudiy, Fitrat, Avloniy, Xuvaydo va boshqa milliy istiqlol qahramonlari asarlarida atroflicha yoritilgan. E'tiborli jihati shundaki, o'z davrida jadidlar milliy — madaniy muxtoriyat qurilishi tamoyillarini ishlab chiqqan va bunda o'lkani rivojlantirishning amaliy dasturlari mavjud bo'lgan. Turkistonda davlatchilik shakli va uni boshqarish vakolatlari, barcha sohalar bo'yicha qonunlarni joriy etish, sud organlarini tashkil qilish, davlat tuzilmalari hamda eng katta e'tibor insonni himoya qilishga qaratilgani diqqatga sazovor desak bo'ladi.

Bu mustaqil mamlakatimizda adolatli fuqaroviy jamiyat tuzish va chinakam demokratik huquqiy davlatni shakllantirish garovidir.

Ilmli insonga esa, dunyo eshiklari ochiq bo'ladi. Bu borada yurtimizda Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar, litsey va texnikumlarning o'rni beqiyosdir.

**Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini
ta'minlashning dolzarb masalalari**

SHu bois ham, bunday Ilmiy-amaliy, ma'rifiy konferensiyalar, seminarlar o'tkazish, ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar va ma'lumotnomalar nashr etishni ko'paytirish aholining huquqiy madaniyatini oshirish masalalari bo'yicha olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish, ilmiy bilimlarni ommalashtirish ishiga salmoqli hissa bo'ladi, degan umiddaman.

Zero, UCHINCHI RENESSANS ASOSI: ILM-FAN VA MA'RIFATdan ekanligi tarixiy va ma'naviy, ma'rifiy va huquqiy isbotlangan haqiqatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T. «O'zbekiston», 2019

Internet saytlari:

1. [www. gov. uz](http://www.gov.uz)
2. [www. press - service. uz](http://www.press - service. uz).
3. www. bilim. uz.
4. www. philosophy.ru.
5. www. filosofiya.ru.
6. www. philosophy.nsc.ru.
7. [http // philosophy.albertina.ru](http:// philosophy.albertina.ru).
8. www. history.ru.
9. www. philosophy.com.

**«MILLIY TIKLANISHDAN — MILLIY YUKSALISH SARI»
G'OYASINI KENG TARG'IB ETISH ORQALI JAMIYATDA
SOG'LOM DUNYOQARASH VA BUNYODKORLIKNI
UMUMMILLIY HARAKATGA AYLANTIRISHNING DOLZARB
MASALALARI**

MUSTAQILLIK VA YANGI O'ZBEKISTON MA'NAVIYATI

Marhabo Davlatovna Pardayeva

*Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Buxoro viloyat bo'limi
rahbari, falsafa fanlari nomzodi, dotsent, "Ma'rifat"
targ'ibotchilar jamiyati a'zosi*

Ma'lumki, biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi.

Ashaddiy shovinist, Farg'ona general gubernatori Skobelev "Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, san'atini, tilini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi", deb aytgan edi. Sobiq ittifoq davrida milliy ma'naviy madaniyatni yo'q qilish borasida tizimli tadbirlar amalga oshirildi.

Mustaqillik, avvalo, inson ma'naviyatini qayta tikladi.

Yozuvchi Abduqahhor Ibrohimov o'zining "Bizkim, o'zbeklar..." [5] kitobida 1967 yilda AQSHning Chikago shahrida 200 ming nusxada nashr etilgan, biroq O'zbekistonga yetib kelmagan, sobiq ittifoqda kamyob hisoblangan ikki jildli, bir yuz sakson ming so'zga izoh berilgan "The World Encyclopedia Dictionary Book" ("Jahon qomusiy lug'ati")da "o'zbek" atamasiga berilgan ta'rifni keltirib o'tadi: "O'ZBEK – jahon xalqlari orasida birinchilardan bo'lib, turkiy xalqlar orasida birinchi bo'lib o'troqlashgan, madaniy turmush kechiruvchi, jahon sivilizatsiyasiga hissa qo'shgan millat". Ta'kidlash joizki, sobiq ittifoq davrida millatimiz haqidagi bu ta'rifni oshkor qilish, foydalanish va ommalashtirishda imkoniyat va sharoit ham bo'lmadi, kommunistik mafkura bunga yo'l qo'ymas edi. Vaholanki, jahonda bizning millatga, tariximizga ana shunday yuksak ta'rif allaqachon berilgan edi.

Ma'lumki, Turon zamini azal-azaldan fan va madaniyat markazi, olimu fozillar makoni bo'lib kelgan. Fanlar tarixiga nazar tashlasak, dunyoviy ilmlar, avvalambor, Sharqdan G'arbga tarqalganligining guvohi bo'lamiz. Musulmon olamida ilm-fan markaziga aylangan

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

shaharlar sanoqlidir. Ulardan Marv, Urganch, Buxoro, Samarqand O'rta Osiyoda bo'lganligi bizlar uchun faxrlanadigan holdir.

Ta'kidlash joizki, istiqlolga erishgunga qadar, O'zbekiston tarixi biryoqlamalik bilan talqin etildi, ko'plab faktlar buzib ko'rsatildi yoki ular haqida sukut saqlandi. Davr taqozosiga ko'ra, mustabid tuzum davrida vijdon azobini ko'p tortgan, insonning qadr-qimmati, el-yurt taqdiri haqida qayg'urib yashaydigan insonlar va ularning oldingi qatorida ijod ahli bo'lgan. Mana shunday insonlardan Akademik olim Ibrohim Mo'minovning Vatanimiz, xalqimiz oldidagi eng katta xizmatlaridan biri millatimiz faxri-g'ururi bo'lgan Amir Temur va temuriylar davrini chuqur o'rganib, ilmiy tahlil etganidir. Holbuki, bu mavzu sobiq SHo'ro tuzumi davrida ta'qiqlab qo'yilgan, buyuk davlat arbobi Amir Temur «bosqinchi», «qonxo'r» deya talqin etilardi. Ibrohim Mo'minov birinchi bo'lib, Amir Temurning tarixdagi o'rnini haqqoniy va ilmiy asoslab berdi [6]. YUksak ma'naviy jasorat sohibi Ibrohim Mo'minov tarixiy manbalar va dalillarga suyangan holda, Sohibqironning buyuk xizmatlari, iste'dodi, insonparvarligini tarixiy dalillar bilan isbotlab berishga jazm etdi. Millat taqdirini, ma'naviyatini haqqoniy tasvir etishdan qo'rqmagan olim sovet tuzumining tazyiqiga qaramasdan, o'zining mo'jiz risolasida ulug' zot siymosini ob'ektiv tarzda tasvirladi.

Ta'kidlash joizki, mustaqillik, avvalo, tilimizni qaytarib berdi. Mustaqillikka erishish arafasida o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. SHu o'rinda ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniyning "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak – millatning ruhini yo'qotmakdur" degan hikmatli so'zlarini eslash joizdir. 21 oktyabr sanasi «O'zbek tili bayrami kuni» deb e'lon qilindi. Ushbu muhim tashabbus davlatimiz rahbarining 2019 yil 21 oktyabr kuni qabul qilingan "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni [1]da o'z ifodasini topdi. Davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimi tashkil qilindi. So'z mulkining sultoni Alisher Navoiyning «Xazoyin ul-maoniy», "Xamsa", "Muhokamat ul-lug'atayn", «Mahbub ul-qulub» [4] kabi shoh asarlari ona tilimizdan mohirona foydalanishda o'ziga xos mahorat maktabi vazifasini o'taydi.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Tarixiy xotira bor ekan, xalq o'zining buyuk kechmishi, betakror madaniy merosi, qadriyat va an'alarini doimo yodda saqlab keladi. Xotira ajdodlarga yuksak ehtirom va hurmat ifodasidir. Inson xotira bilan tirik, qadr bilan ulug' dir.

Mustaqillik ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan tarixiy obidalarni qaytarib berdi. O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya komitetining 1939 yilning 19 martida qabul qilgan 340-qarori bilan Buxoroi SHarifning darvozalari, tarixiy obidalari davlat muhofazasidan chiqarilgan edi. Mustaqillik sharofati ila "Qubbat-ul islom" nomiga sazovor bo'lgan, tarixi uzoq ming yilliklarga tutash qadimiy shahar Buxoroyi Sharifda bugungi kunda 660 ta moddiy-madaniy meros ob'ektlari ro'yxatga olingan bo'lib, 231 tasi arxeologiya ob'ektlari, 364 tasi arxitektura yodgorliklari, 19 tasi monumental san'at asarlari, 22 tasi arxitektura ansamblari va 24 tasi diqqatga sazovor joylardir. Shulardan 331 tasi Respublika ahamiyatidagi moddiy-madaniy meros ob'ektlari hisoblanadi. Bundan tashqari, Buxoro shahrining tarixiy-eski shahar qismi alohida ob'ekt sifatida 1993 yilda YUNESKO tomonidan «Ochiq osmon ostidagi muzey shahar» deb e'lon qilinib, Butun Jahon madaniy merosi sifatida ro'yxatga olindi.

Mustaqillik yillarida buyuk allomalarimiz xotirasiga bag'ishlab barpo etilgan yodgorlik majmualari jamiyatimiz ma'naviyatini yuksaltirish va yoshlar ongida ajdodlar merosiga hurmat ruhini kuchaytirish va ularning ota-bobolarimizga munosib avlod bo'lib kamol topishida muhim tarbiyaviy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

1991 yilning 28 sentyabrida O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi tantanali ravishda e'lon qilinganiga endigina to'rt hafta bo'lganida, qolaversa, respublikamizni hali biror bir xalqaro tashkilot, xorij mamlakati xalqaro huquqning sub'ekti sifatida tan olmagan bir paytda O'zbekiston Milliy bog'ida ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning 550 yillik yubileyi nishonlandi. 1994 yilda Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi xalqaro miqyosda nishonlandi. 1996 yil mamlakatimizda Amir Temur yili deb e'lon qilindi.

Mustaqillikni qo'lga kiritgach, ajdodlarimiz merosini o'rganishda ham yangi davr boshlandi. Chunki bu davrda milliy istiqlol g'oyasi talablari asosida xalq va mamlakat tarixi, qadriyatlari, boy ilmiy-adabiy merosiga xolisona, ilmiy asosda baho berish, uni ishonchli manbalarga tayangan holda o'rganish, tadqiq qilishga keng yo'l ochildi. Jumladan,

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Alisher Navoiyning ilgari nashr qilinmagan «Munojot», «Siroj ul muslimin», «Badoe' ul-bidoya», «Navodir un-nihoya» asarlari bosilib chiqdi. Shu yillarda Alisher Navoiy merosining kam o'rganilgan qirralari, jumladan, tasavvufiy qarashlari tadqiq qilinib, bu sohada anchagina ilmiy va ilmiy-ommabop asarlar yaratildi. Bunda, albatta, adabiyotshunos olimlardan N.Komilov, I.Haqqulov, R.Vohidov, S.Olimov, N.Jumayev, S.G'aniyeva, M.Muhiddinov, SH.Sirojiddinov, D.Salohiy va boshqalarning munosib hissalarini ta'kidlash joiz. Yangi O'zbekiston sharoitida Alisher Navoiyning ko'pqirrali merosini o'rganish, ijtimoiy falsafiy qarashlarini keng kitobxonlarga tushunarli tarzda sharh va talqin qilish, shuningdek istiqlol ma'naviyatini shakllantirishdagi ahamiyatini tadqiq qilishning ahamiyati beqiyosdir.

Mustaqillik dinimizni qaytarib berdi. O'zbekiston mustaqillikka erishgan ilk yillardan diniy sohaga o'zbek xalqining milliy ma'naviyatining ajralmas qismi sifatida alohida e'tibor qaratildi. Dinning huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatida tutadigan o'рни va mavqei aniq belgilanib, bu sohada mustahkam qonunchilik yaratildi. Yurtimizda haj va umra safarlarini tashkil qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bugungi kunda fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash, milliy-qadriyatlarini saqlash va rivojlantirish orqali o'zligini namoyon etishga barcha huquq va imkoniyatlar to'la ta'minlangan. Fuqarolarning diniy ta'lim olishlari va adabiyotlar nashr etishlari uchun hamma sharoitlar yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev tashabbuslari bilan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Islom madaniyati markazi, Samarqandda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Termiz shahrida Imom Termiziy ilmiy-tadqiqot markazi, Buxoroda Mir Arab oliy madrasasi, Toshkent shahrida O'zbekistondagi islom madaniyati markazi faoliyatini tashkil etilish ma'naviyatimizni yanada yuksaltirish, jamiyatimizda tinchlik va osoyishtalik, ijtimoiy barqarorlik, o'zaro ahillik va totuvlikning kuchayishiga xizmat qilishi tabiiy.

Mustaqillik yoshlarimizga Vatanimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan milliy ozodlik kurashchilari faoliyati bilan yanada tanishish va faxrlanish tuyg'usini berdi. Jadidlar Turkiston o'lkasini qoloqlikdan olib chiqish, mustamlaka zulmidan ozod bo'lishini milliy uyg'oqlikda deb bilgan edilar. Milliy uyg'oqlikni esa, aholini ilmi-ma'rifatli qilish orqali amalga oshirish, yangi usuldagi maktablarni ochib, milliy uyg'onishning asosini ta'limni, o'quv dasturlarini isloh qilishda deb ta'kidlagan edilar.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Jadidchilik g'oyalarining yorqin vakillaridan Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Usmon Nosir, So'fizoda, Tavallo, Ishoqxon Ibrat kabilar g'oyat og'ir sharoitlarda ma'rifatni targ'ib etishga harakat qilganlar. Ular millatning kamolotini yuksaltirish, uning qadr-qimmatini erga urishga yo'l qo'ymaslik borasida o'zlarining qimmatli fikrlarini bildirganlar, o'z faoliyatlarini amalga oshirganlar. Munavvarqori ta'lim-tarbiya ishlarini isloh qilmay, xalqning ongini oshirmay, madaniy saviyasini ko'tarmay turib, jamiyatda katta o'zgarishlar qilish aslo mumkin emasligini ta'kidlab o'tgan. Abdulla Avloniyning «Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotidir» degan g'oyasi ma'rifatparvarlik, jadidchilik harakatining dasturini tashkil etgan [7]. U ma'rifatparvar safdoshlari singari mazlum Turkiston ahlini ilm-ma'rifat ziyosidan bahramand qilishda unutilmas xizmatlar ko'rsatgan.

Millatni ma'rifat tarbiyalaydi. "Yaxshi tarbiyalangan qalb va vijdon hech qachon egasini sharmanda qilib qo'ymaydi", deb ta'kidlagan edi "Turkiston jadidlarining otasi" sifatida tarixda nom olgan Mahmudxo'ja Behbudiy. Mana shu fikrga tayanib, hozirgi kunda yoshlarimiz ma'naviy olami daxlsizligini saqlash borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirib kelinmoqda.

Mustaqillik mamlakatimizda yashayotgan har bir insonning o'z imkoniyati va iqtidorini namoyon etish uchun keng yo'l ochib berdi. Shaxs o'zining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini erkin qondirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Xalqning milliy qadriyatlari qayta tiklanib, shaxs ma'naviy taraqqiyotiga xizmat qila boshladi.

Hozirgi kunda xorijda ham, o'zimizning yurtimizda ham mustaqil O'zbekistonimizga "Yoshlar mamlakati" deya ta'rif berilmoqda.

Haqiqatan ham, bugun O'zbekistonda yashayotgan 35 million xalqning 60 foizini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil qiladi. Shuni e'tirof etish kerakki, davlatimiz tomonidan yaratilgan sharoitlar va imkoniyatlar natijasida yoshlarimiz ingliz tilida erkin so'zlashish, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan to'liq xabardor bo'lish, chet mamlakatlardagi tengdoshlari bilan sport, ilm-fan, madaniyat sohalarida bellashish imkoniyatiga ega bo'ldi. Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlar ma'naviyatini yanada yuksaltirish masalasi davlatimiz va hukumatimizning diqqat e'tiboridadir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev raisligida 19 yanvar 2021 yilda ma'naviy-

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektorda «Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan» [3], deb ta'kidladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26 mart 2021 yilda qabul qilgan "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-sonli Qarori [2] ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samarasi va ta'sirchanligini oshirish, ko'lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" degan hayotbaxsh g'oyaning ahamiyatini oshirishga qaratildi.

Buyuk ajdodlari, allomalari, boy ma'naviy merosi bilan faxrlanib yashayotgan xalqimiz orasidan bugungi kun xorazmiylari, farg'oniy-lari, beruniylari, ibn sinolari etishib chiqmog'i darkor. Aynan shunday qarash va yondashuv bizni doimo oldinga harakat qilishimiz uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonning boyliklari ko'p, lekin bizning eng katta boyligimiz, eng yuksak qadriyatimiz – jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik, millatlararo do'stlik va hamjihatlikdir. Bularning zamirini, eng avvalo, o'zbek xalqining ma'naviyati tashkil qiladi.

O'tmishi sharaflil, buguni saodatli, kelajagi abadiy bo'lgan O'zbekiston mustaqilligining asosiy tayan-chi bo'lgan ma'naviyatiga hech qachon ko'z tegmasin!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019 yil 21 oktyabr PF-5850-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 26 mart 2021 yil PQ-5040-sonli Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev raisligida 19 yanvar 2021 yilda ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektordagi ma'ruzasi

4. Alisher Navoiy. Hayratul-abror. MAT. T.7. –Toshkent: Fan, 1991. –B. 240.
5. Abduqahhor Ibrohimov “Bizkim, o'zbeklar...”. – Toshkent: SHarq, 1999. – 400 b.
6. Ibrohim Mo'minov “Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli” yozma manbalar ma'lumoti asosida /I.Mo'minov; muharrir N.Qosimova. – Toshkent: Fan, 1993. – 57 b.

EZGU NIYAT - OILA FAROVONLIGI ASOSI

G.N.Navro'zova

falsafa fanlari doktori, professor

Oila farovon bo'lsa, unda tinchlik xotirjamlik hukmron bo'ladi. Oilaning farovon yashashi uchun ko'p moddiy va ma'naviy omillar mavjud. Bular ichida baraka tushunchasi eng muhimdir. SHuning uchun oila qurayotgan yoshlarga yoshi ulug'lar duo qilib, baraka tilaydilar.

“Baraka” arab tilidan olingan so'z bo'lib, ko'payish, mo'llik, farovonlik, yaxshilik, saodat, sharofat degan ma'nolarni anglatadi. Baraka ilohiy marhamat tufayli noz-ne'matlarning ko'payishi, to'kinligidir. Ikki oila bir xil daromadga ega bo'lsada, ko'pincha birtasida baraka bo'lganligi uchun mablag'lari ortib qoladi. Ikkinchi oilada bo'lsa, yetishmovchilik bo'lib, olingan daromad yetmaydi, natijada bu oiladigilar qarzga botadilar. Bundan malum bo'ladiki, gap faqat mablag'ning ko'pligida emas, balki shu mablag'ning barakali bo'lishidadir. Bizning fikrimizcha, oiladagi baraka quyidagilarga bog'liq:

1. *Ezgu niyat ila qilingan harakatda barakat bo'ladi.* Xalqimizda “Harakatda barakat“ degan maqol bor. Lekin bir xil mahsulot bilan bir xil harakatda bo'lgan kishining olgan daromadi har xil bo'ladi. CHunki bu insonlar niyati bilan farq qiladi. Ezgu niyat ila “Dast ba koru, dil ba YOr” shiori bilan ota-onam, oilam, qon-qarindoshim, mahallam, yurtim, Vatanimga yordamim tegsin, yaxshilik qilay, ular bahramand bo'lsin, birovni og'irini yengil qilay deb qilingan har ishda baraka bo'ladi. CHunki bu harakat nafs va boylik uchun emas, balki ezgulik maqsadidadir. Zero haqiqiy boylik mol-dunyoning ko'pligida emas, nafsning to'qligidadir.

SHunday haqiqatlar borki ularni inkor qilishning imkoni yo'q. SHunday haqiqatlardan biri ota-onaga yaxshiliksiz baraka yo'q. Rivoyatlarning birida naql qilinishicha, bir kishi bir tanga pul topib ota-onasini rizoligi uchun sarflashni niyat qilganida u pul ko'payadi. Ko'p pulni ko'rib, ota-onasini emas, shaxsiy rohatini o'ylaganida bu pulning barakasi ketadi. Demak, har bir inson Oллоh bergan kunni xayrli, rizqini keng, ishlarini oson va omadli bo'lishini istasa kunni ikki kalit ila boshlasin:

A) YAxshi niyat – rizq eshiklarining kalitidir.

B) SHirin so'z - qalb eshiklarining kalitidir.

2. *Baraka tinchlik, ahillik, xotirjamlikdadir.* Xalqimizda "Janjalli uyda baraka bo'lmas", "Bir kun janjal chiqqan uydan qirq kun baraka ketadi" degan maqol bor. Darhaqiqat, oilada og'zibirlik, o'zaro tushunish, bag'rikenglik bo'lsa, bu oilaning barakasi bo'ladi. Bunday oilalarda bir-biriga nisbatan hurmat, e'zoz, mehr-muhabbat bo'lgani uchun topgan mollari barakali bo'lib, o'zidan ko'payadi. Bunday oilalarda tug'ilgan farzandlar ham barakalidir. Ular solih amallar qiluvchi ilmi, hunarli bo'lib kamol topadilar. Bunday oilalarning vaqti ham barakali bo'ladi. YA'ni oila ahllari ish bilan birga o'zaro mehr-muhabbatli munosabat uchun ham, qon-qarindoshchilik, qo'ni-qo'shnichilik haqqini ado etish uchun ham vaqt topa oladilar. Bunday oila ahlining kasbu kori barchaga baxt keltiradi. Bu mazmunda xalqimizda shunday rivoyat bor: Uy egalari taqillatib sog'lik, baxt, boylik, kelganida emas, balki tinchlik xotirjamlik kelganida eshikni ochadilar. Tinchlik xotirjamlik bilan birga sog'lik, baxt va boylik ham kiradi.

3. *Baraka shukronalik va qanoatdadir.* Har bir ne'matning shukrini qilgan inson o'zi ham sog'lom bo'ladi. Buxoro xalqida shunday maqol bor:

SHukr kuni ne'matatro pur kunam,

Noshukri kuni az kafat dur kunam.

Mazmuni:

SHukr qilsang ne'matlaringni ko'paytiramam,

Noshukurlik qilsang, bori ham kaftingdan ketadi.

4. *Halol luqma baraka asosidir.* Qanoat tinchlik, xotirjamlik halol luqmaga bog'liqdir. Rizqni Oллоhdan, kasbini, unga qilayotgan harakatlarini faqatgina sabab deb bilgan inson halol luqmaga harakat

qiladi. Bahouddin Naqshband ham inson kamoloti uchun “Halol yegil va ogoh bo‘l” deganlar. SHunday bir hikoyat boriki, bir ayol o‘tirganlardan eng faqih insonni aniqlab, undan qanday ovqatlanishini so‘raydi. U shunday javob beradi: “Bismilloh bilan boshlayman, o‘ng qo‘l, oldimdan, kichik luqma olib yaxshilab chaynab yeyman”. Ayol aytadiki, siz yeyishni bilmas ekansiz. U inson: “Qanday yeyish kerak?” - degan savol beradi. Qorningizga harom kirmasin. Qanday yeyish ixtiyoringiz. Siz aytayotgan narsalar yeyishning odobidir. Meni aytganlarim u narsalarning asli haqiqatidir” deb javob berdi ayol. Bu ko‘rsatsdiki, harom yo‘llar bilan topilgan pulga sotib olingan halol narsani yeyish odobiga amal qilib iste‘mol qilgani bilan u luqma halol bo‘lmaydi. Inson fitratining pokligi halol luqmaga bog‘liq ekan. Halol luqma iste‘mol qiladigan inson barakali bo‘ladi. Unday insonni “qo‘li barakali”, “qo‘li yengil”, “duolari ijobat” deb e‘zozlaydilar.

Bahouddin Naqshband haqidagi manbalarda yozilishicha, u kishi halol luqmaga juda e‘tibor berganlar va shogirdlarini ham shunga chaqirganlar. Malik Husayn Bahouddinni taklif etganda, bu dasturxondagi ne‘matlardan o‘z mehnatingiz bilan topmagansiz deb yemaganlar. Malik Husayn shoh ekanliklarini aytganida, Bahouddin Dovud payg‘ambar ham mamlakatni boshqarganlar, lekin temirchilik kasbi bilan shug‘ullanganlar deb aytadi. Bandalarning ichida o‘z mehnati bilan topib yeydiganlar, eng barakali kishilardir.

Rizqdagi barakaning nimalarga bog‘liqligi haqida islomiy adabiyotlarda quyidagilar bayon etilgan: taomni birgalikda yeyishda, ovqatning o‘rtasida, s aharda va saharlik taomida, taomdan oldin va keyin qo‘llarni yuvishda, asal, sirka, sut, xurmoda, rizqiga rozi bo‘lgan insonda, halol oldi-sotdi va tijoratda, buyuklaringizda, salom berishda, duo olishda, Qur‘on o‘qiladigan uyda musofirda, vaqtli boshlangan ishda, oila a‘zolarining duosida va ota-onasiga xizmat qilishda.

Birovni haqqi birovni oshqozonida hazm bo‘lmaydi. Hazm bo‘lmagan taom uni o‘zini yeydi. Harom luqma barakani ketkizadi. U ham sog‘likka, ham inson kamolotiga zarar qiladi. “G‘aflat, g‘azab va boshqa yomon tuyg‘ular bilan tayyorlangan ovqatda xayr-baraka bo‘lmaydi, chunki unga nafs va shayton aralashadi” degan edi Bahouddin Naqshband.

5. *Vaqtdan unumli foydalanish barakaning asosidir.* Bahouddin Naqshband “Vuqufi zamoniy” - vaqtdan ogoh bo‘lish tamoyilini kiritib,

naqshbandiya ta'limoti izdoshlariga har nafas va nafaslar orasidagi vaqtni g'animat bilish lozim deganlar. Vaqtdan unumli, ezgulik maqsadida foydalangan insonlar "abul - vaqt" vaqtning otasi darajasiga yuksalib, vaqtni o'z tasarruflariga olib biladilar.

6. *Ehson - sadaqa xayru baraka tug'diruvchi manbadir.* "Sadaqa raddi balo" degan hadis ham bor. Lekin ehson qilishni avvalo yaqinlaridan boshlash lozim. Ehson va sadaqa xufiya va minnatsiz amalga oshirilishi lozim. Birta o'z o'rnida ehson qilingan narsa yetti yuz martagacha ko'payadi.

7. *Pokizalik baraka manbaidir.* Pokizalik tor ma'noda uy-joy, kiyim-kechak narsalarni ozoda saqlashdir. Imom Hojatbaror nomi bilan mashhur Abu Hafsi Kabir aytganlarki, birta non ushog'i yerga tushgan bo'lsa ham baraka ketadi. Bahouddin Naqshbanddan: "Siz bu darajaga qanday yettingiz?" - deb so'raganlarida, "Ushshoq terishdan" deb javob berganlar. Bahouddin Naqshband yetti yil yo'llarni tozalash bilan shug'ullanganlar.

Pokizalik keng ma'noda, insonning qalbining pokligi, axloqiy poklik, rostgo'ylik, sadoqat, vafoni anglatadi. YOlg'on, kibr, hasad, xiyonat kabi axloqsizliklar insonni o'zini ham oila a'zolarini ham barakasini ketkizadi.

Umumiy xulosa qilib aytganimizda, baraka oila farovonligining asosidir. Baraka oila a'zolarining ezgu niyat bilan, ahillik, bag'rikenglik ila mukammal harakatiga bog'liqdir. Baraka butun borliqdagi har bir mavjudotdan chiqadigan ijobiy energiyasining qabul qilishdir. Ijobiy niyat ila har bir amalining oxirini xayrli bo'ladi deb ijobiy fikrlovchilarning oilasida butun borliqning rahmatu mag'firati, fayzu barakoti yog'iladi. Bunday oilalarning har bir a'zosining umri, nasli, ilmi, kasbu kori, vaqti, qalbi va jismu joniga baraka beriladi.

**MARKAZIY OSIYODA XAVFSIZLIK VA BARQARORLIKNI
TA'MINLASHDA YANGI O'ZBEKISTON TASHABBUSI**

Mansur Tursunpo'latovich Musayev

*Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti bo'lim boshlig'i, siyosiy fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Muhammadiev Asliddin Faxriddin o'g'li

TDSHU IV- bosqich talabasi

Bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mintaqada global miqyosda xavfsizlik va barqarorlikka nisbatan rahna solishga intilayotgan diniy ekstremizm, terrorizm kabi tahdidlar muntazam ogoxlikni talab etayotir. Aynan, shu sababli mintaqadagi xavfsizlik, barqarorlikni ta'minlash borasida O'zbekiston Respublikasi tomonidan alohida tashabbus ko'rsatilmoqda. Zero, Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash, mintaqani barqaror xavfsizlik hududiga aylantirish O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining muhim ustuvor yo'nalishi etib belgilangan. Bu haqda Prezident SHavkat Mirziyoyev 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida qayd etganidek: **"...tashqi siyosatimizning ustuvor yo'nalishi bo'lgan Markaziy Osiyo davlatlari bilan ko'p asrlik do'stlik va yaxshi qo'shnichilik, strategik sheriklik va o'zaro ishonch ruhidagi aloqalarimizni yanada mustahkamlashga alohida e'tibor qaratamiz"** [1], - deya ta'kidlagani bejiz emas. Binobarin, bugungi kunda davlatimiz rahbari SHavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan tashqi siyosat strategiyasida Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish masalasi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, bu boradagi keng ko'lamli sa'y-harakatlar natijasida bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlar bilan yaqin hamkorlik aloqalari tobora kuchayib bormoqda.

Dunyoda vujudga kelayotgan tahlikali vaziyat mintaqada tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashni taqoza etmoqda. Zero, dunyo miqyosida keskin g'oyaviy kurashlarning tobora avj olishi, turli mafkuralar to'qnashuvi, demokratiya yoki turli diniy ta'limotlar shiorlari bilan "chiroyli" niqoblangan yovuz g'oyalarni singdirishga intilish kuchayib borayotganligini kuzatish mumkin. Xususan, mintaqa xavfsizligi va barqarorligiga jiddiy rahna solishga intilayotgan

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

ekstremizm, terrorizm, aqidaparastlik, giyohvandlik, missionerlik, prozelitizm kabi tahdidlar jiddiy fikrlashni talab etadi. Ayniqsa, mintaqamizda kuchayib borayotgan xavf – xatarlar, qonli to'qnashuvlar, siyosiy va iqtisodiy qarama – qarshiliklar, terrorizm, radikalizmning tobora avj olishi tinchlik va barqarorlikka jiddiy tahdid solmoqda.

2017 yilning 10-11 noyabr kunlari Samarqand shahrida BMT shafeligida “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tgan edi. Mazkur konferensiyada qatnashgan BMT Bosh kotibining siyosiy masalalar bo‘yicha yordamchisi Miroslav Encha: “ushbu nufuzli konferensiyaning Samarqandda o‘tkazilayotganida ramziy ma’no bor. Bu azim shahar Markaziy Osiyoning o‘tmishi va umumiy kelajagini o‘zida namoyon etadi. Bugun ko‘p tomonlama hamkorlik har qachongidan ko‘ra dolzarb ahamiyatga ega. Chunki terrorizm, radikalizm, iqlim o‘zgarishlari, migratsiya kabi qator muammolar global xavfsizlikka tahdid solmoqda. Shunday ekan, ularni bir mamlakat yolg‘iz hal eta olmaydi. Bunda hamjihatlik juda muhim sanaladi”, deya o‘zining ijobiy fikrlarini bildirib o‘tdi. Mana shunday fikrlarni ushbu konferensiyada qatnashgan MDH Ijroiya qo‘mitasi raisi - Ijrochi kotibi Sergey Lebedev tomonidan ham aytib o‘tilgan. Bu haqda Sergey Lebedev: “mazkur xalqaro anjuman mintaqaviy hamkorlikka yangicha mazmun bag‘ishlaydigan imkoniyat ekanligi bilan ham ahamiyatlidir. Mintaqa davlatlari munosabatlari ravnaqidagi yangi bosqich xalqaro tashkilotlar uchun mayoq vazifasini o‘tasa, ajab emas. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti o‘z nutqida BMT Bosh Assambleyasining Markaziy Osiyo davlatlarining xavfsizlikni ta'minlash va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash borasidagi sa'y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlashga doir maxsus rezolyusiyasini qabul qilish taklifini ilgari surdi. Ushbu mintaqadagi barqarorlik hamda taraqqiyot barcha uchun dolzarbdur. Shuning uchun ham BMT ushbu yo‘nalishda yordam berishga tayyorligini ta’kidlamoqchiman. Biz o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadlarga faqat birgalikda erishamiz” [2], degan fikrlari ayniqsa e’tiborga sazovordir. SHu bilan birga ushbu konferensiyada qatnashgan Amerika tashqi siyosat kengashi huzuridagi Markaziy Osiyo va Kavkaz instituti raisi Frederik Starr tomonidan bildirilgan fikrlari ham diqqatga molikdir. Frederik Starr: “Markaziy Osiyoda xavfsizlik hamda barqaror rivojlanishni ta'minlash bo‘yicha

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

bo'lib o'tayotgan xalqaro konferensiyani mintaqa uchun ham, O'zbekiston uchun ham tarixiy voqea, deb atagan bo'lardim. Ushbu yirik tadbirda hududdagi barcha davlat, nufuzli xalqaro tashkilotlar vakillari qatnashayotgani ham Prezident SHavkat Mirziyoyev tashabbuslari tufayli mamlakatingiz Markaziy Osiyoning birlashtiruvchi markaziga aylanayotganidan dalolat beradi. Forum yaqin qo'shnichilik, teng huquqlilik va o'zaro manfaatli munosabatlarni mustahkamlash yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Bu sa'y-harakatlar Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida iqtisodiy va gumanitar hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishi muqarrar", deya ta'kidlasa, NATO Parlament assambleyasi prezidenti Paolo Alli: "Barqarorlik va xavfsizlik har bir davlat taraqqiyotining, iqtisodiyoti investitsiyaviy jozibadorligining hal qiluvchi omillari hisoblanadi. SHuning uchun ham Samarqand konferensiyasi dunyoda tobora nufuzi oshib borayotgan Markaziy Osiyo mintaqasida taraqqiyotga erishish, xavfsizlik hamda hamkorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Ayni jihatdan aytganda, O'zbekiston Markaziy Osiyoning muhim davlatlaridan biri sifatida mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlarda-bunyodkorlik g'oyalari bilan yaqqol ajralib turibdi. Prezident SHavkat Mirziyoyev ilgari surayotgan takliflar nafaqat mintaqa, balki dunyo jamoatchiligi tomonidan ham ijobiy qabul qilinmoqda. O'ylaymizki, bu tashabbuslar Markaziy Osiyoda yangi muhitni yarata oladi" [2], –deya ta'kidlashi Davlatimiz rahbari SHavkat Mirziyoyevni mintaqada xavfsizlikni ta'minlash borasida ilgari surayotgan tashabbuslari dunyo miqyosida ijobiy e'tirof etilayotganligini aytib o'tish lozim.

2018 yil 15 martda Qozog'iston poytaxti Ostona shahrida Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining birinchi maslahat uchrashuvi bo'lib o'tgan edi. Mazkur uchrashuvda ishtirok etgan SHavkat Mirziyoyev o'z nutqida: "mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni kengaytirishda Markaziy Osiyo davlatlarining savdo-iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish, bu borada muntazam muloqotni yo'lga qo'yish, umummintaqaviy muammolarga birgalikda yechim topish maqsadida Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining maslahat uchrashuvini doimiy o'tkazish endilikda an'anaga aylanishi kerakligini ta'kidlagan edi" [4].

Mazkur bo'lib o'tgan uchrashuvda xavfsizlik masalalari muhokama qilinib, mintaqaning barcha mamlakatlari terrorizm, ekstremizm, transmilliy jinoyatchilik va narkotrafik tahdidlariga duch kelayotganligi

alohida qayd etib o'tilgan edi.

Prezidentimiz SHavkat Mirziyoyev mazkur uchrashuvda Xavfsizlik sohasidagi hamkorlikning qator muhim masalalariga alohida to'xtalib o'tgan edi:

Birinchidan. Davlat chegaralarini huquqiy jihatdan rasmiylashtirish bo'yicha yo'lga qo'yilgan o'zaro ishlarimizni izchil davom ettirishimiz zarur. Ishonchim komil, biz o'zaro manfaatlarni hisobga olish, oqilona muosalar asosida ushbu g'oyat muhim muammoni tez muddatda to'liq hal qilishga erishamiz. CHegaralarimiz do'stlik va yaxshi qo'shnichilik ko'prigiga aylanishiga astoydil ishonaman.

Ikkinchidan. Bugungi kunda mintaqa mamlakatlari terrorism, diniy ekstremizm, transmilliy uyushgan jinoyatchilik va narkotrafik tahdidlariga duch kelmoqda. Ushbu xatarlarga qarshi faqat sa'y-harakatlarni birlashtirish orqaligina samarali kurashish mumkin. SHu munosabat bilan huquqni muhofaza qilish idoralari va maxsus xizmatlar yo'nalishida amaliy hamkorlikni va o'z vaqtida axborot almashishni davom ettirish juda muhim va dolzarb ahamiyatga ega, deb hisoblaymiz.

Uchinchidan. Ekstremizm mafkurasiga qarshi kurashish, shu maqsadda aholi, avvalo yoshlarga islom dinining haqiqiy insonparvarlik mohiyatini yetkazish eng muhim vazifadir. SHu munosabat bilan O'zbekistonda Imom Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Islom sivilizatsiyasi markazi va Islom akademiyasini tashkil etdik.

To'rtinchidan. Markaziy Osiyoning barqaror va izchil taraqqiyotini ta'minlash qo'shni Afg'onistonda tinchlikka erishish bilan uzviy bog'liq. Bu muammoni hal etishda tinch muzokaralar o'tkazishdan boshqa muqobil yo'l yo'q ekanini e'tiborga olib, O'zbekiston va Afg'oniston joriy yilning 26-27 mart kunlari Toshkentda Afg'oniston bo'yicha oliy darajadagi xalqaro konferensiya o'tkazish to'g'risida tashabbus bilan chiqdi. Biz ana shu tashabbusni qo'llab-quvvatlagani uchun Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlaridan minnatdormiz, bu umumiy manfaatlarimiz uchun juda muhim ahamiyatga ega.

Beshinchidan. Birinchi navbatda chegaraoldi hududlarda favqulodda holatlar, texnogen va ekologik falokatlar, tabiiy ofatlarning oldini olish va ularning vujudga kelishiga qarshi o'z vaqtida harakat qilish bo'yicha hamkorlik mexanizmlarini yaratish zarur [5] ekanligi

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

ta'kidlab o'tgan edi. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning xalqaro miqyosida nutq va ma'ruzalarida terrorizm, ekstremizm va radikalizm mafkurasiga qarshi kurash borasida dunyo afkor ommasini birgalikda kurashga da'vat etib kelmoqda. Bunday xavf-xatarlarga qarshi faqat kuch ishlatish usullari bilan emas, balki birinchi navbatda, ayniqsa, yoshlar o'rtasida, zo'ravonlikni keltirib chiqaradigan jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish lozimligini alohida ta'kidlab o'tadi.

Davlatimiz rahbari SHavkat Mirziyoyev 2017 yili BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida O'zbekiston YOshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyani ishlab chiqish va qabul qilish taklifini ilgari surgan edi. Bizning asosiy maqsadimiz – yoshlarning sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishiga erishish, ularning o'z qobiliyati va iste'dodini ro'yobga chiqarishi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib berishdan iborat. Biz barcha xorijlik hamkorlarimizga islom dinining insonparvarlik mohiyatini aholi va ayniqsa, yoshlarga tushuntirish yo'lida yaqin hamkorlikda ish olib borishni taklif etamiz” [6].

2021 yilning 15-16 iyul kunlari Prezidentimiz SHavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Toshkent shahrida “Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar” mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tgan edi. Mazkur konferensiyada Afg'oniston Islom Respublikasi Prezidenti, Pokiston Islom Respublikasi bosh vaziri, Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlarining tashqi ishlar vazirlari, 40 dan ortiq mamlakat va 30 ga yaqin xalqaro tashkilot delegatsiyalari, nufuzli xorijiy ilmiy-tadqiqot va tahlil markazlari rahbarlari ishtirok etdi. Albatta, ushbu bo'lib o'tgan anjuman, xalqaro maydonda hamda mintaqamiz siyosiy-ijtimoiy hayotidagi eng muhim voqelik sifatida e'tirof etildi. Ushbu Konferensiyani O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyev ochib, Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalari o'rtasidagi tarixiy yaqinlik, uni bugungi kunda o'zaro ishonch va manfaatdorlik asosida mustahkamlashning ahamiyati haqida nutq so'zladı. Prezidentimiz o'z nutqida: “Bugun dunyo ham tahdidlar, ham yangi imkoniyatlarni o'zida tutgan global geosiyosiy transformatsiyalar davriga qadam bosdi. Bunday sharoitda 2 milliarddan ziyod odam yashayotgan Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi aloqalarning qayta tiklanishi yanada muhim va ob'ektiv jarayonga aylanib bormoqda. Xalqlarimizning ulkan tarixiy, ilmiy va ma'naviy-madaniy merosidan,

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

iqtisodiyotlarimizning bir-birini to'ldirib turishidan, intellektual salohiyat va mehnat resurslarining borligidan kelib chiqib, birgalikdagi sa'y-harakatlarni birlashtirish fursati keldi, deb o'ylayman va bu, shubhasiz, katta manfaat keltiradi" [7],- deya alohida to'xtalib o'tgani bejiz emas.

YUrtboshimiz o'z nutqida tarixiy aloqalarni tiklash muhimligini, sa'y-harakatlarni birlashtirish fursati kelganini bugungi kunda tinchlik, yaxshi qo'shnichilik va ishonchning mustahkamlanishi, o'zaro hamkorlikning rivojlanishi, ochiq va amaliy siyosat yo'lga qo'yilishi Markaziy va Janubiy Osiyodagi barcha davlatlarning manfaatiga albatta, to'g'ri kelishini aytib o'tdi. SHu bilan bir qatorda, Davlatimiz rahbari terrorizm, ekstremizm, transmilliy, xususan, kibermakondagi jinoyatchilikka qarshi faqat birgalikda samarali kurash olib borishimiz mumkinligini bu borada dastlabki qadam sifatida BMTning Giyohvandlik va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi ishtirokida Giyohvandlikka qarshi qo'shma harakatlar rejasini ishlab chiqishni taklif etib, kuchlarni birlashtirish zarur bo'lgan asosiy yo'nalishlardan yana biri – terrorizm xavfiga qarshi kurash, deb hisoblaymiz degan da'vatkor so'zlarini aytib o'tdi. SHuningdek, Prezidentimiz mazkur konferensiyada ilgari surilgan ushbu masalalar bo'yicha ikki mintaqa vakillari ishtirokida maxsus ekspertlik uchrashuvini tashkil etishga O'zbekiston Respublikasi tayyor ekanligini ta'kidlab, bu o'zgarishlar keng ko'lamliligi va ortga qaytmaydigan xalqimizning prinsipial tanlovi ekanligini aytib o'tdi. Bu borada, Markaziy Osiyo mintaqasida – Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan tub o'zgarishlar O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy yutug'idir degan fikrlarni bildirib o'tdi. Mazkur konferensiyaning nufuzi va ahamiyati to'g'risida 2021 yil 6 may kuni Latviyaning "Открытый город" ("Ochiq shahar") nomli yetakchi haftalik jurnalida "O'zbekiston Markaziy va Janubiy Osiyoni birlashtirmoqda" nomli maqola chop etildi. Maqola muallifi A.Veselov O'zbekiston Prezidenti SHavkat Mirziyoyev tomonidan mamlakat atrofida tinchlik, barqarorlik va xavfsizlik kamarini shakllantirish bo'yicha olib borilayotgan tashqi siyosat o'z samarasini berayotganligiga alohida urg'u qaratib o'tadi. Bu haqda A.Veselov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilayotgan siyosatning yana bir misoli 2021 yil fevral oyida

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

imzolangan Peshavor (Pokiston)ga temir yo'l qurilishining "yo'l xaritasi" asosida O'zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlariga Hind okeani portlariga chiqish imkonini berishini aytib o'tadi [8]. Bu borada, 2021 yil 2 fevral kuni Toshkentda O'zbekiston, Afg'oniston va Pokistonning yuqori martabali delegatsiyalari ishtirokida Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi transport aloqalari bo'yicha uch tomonlama muzokaralar bo'lib o'tganligi mazkur uchrashuv yakunida Mozori-SHarif – Kobul – Peshavor temir yo'lini barpo etish bo'yicha qo'shma harakatlar rejasi imzolanganligini ta'kidlaydi. O'z navbatida ushbu loyihaning amalga oshirilishi bevosita Markaziy Osiyo oldida turgan strategik vazifalardan biri – Hind okeani, xususan, Pokistonning "Karachi", "Kasem" va "Gvadar" bandargohlariga chiqish imkonini berishini mazkur loyiha Janubiy Osiyo temir yo'l tizimini Markaziy va Yevroosiyo temir yo'l tizimlari bilan bog'lashi natijasida butun Markaziy Osiyoning tranzit salohiyatini ancha oshirishga xizmat qilishiga e'tibor qaratadi. SHu bilan birga A.Veselov O'zbekiston Prezidentining tashabbuslari bugungi kunda jahon miqyosida alohida e'tirofga sazovar bo'layotganligi Prezident SHavkat Mirziyoyev 2016 yil dekabrda o'z lavozimiga kirishganidan so'ng, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish va mustahkamlashni tashqi siyosatda eng muhim ustuvor vazifa sifatida belgilab berilganligini qayd etib o'tadi. O'tgan davr mobaynida O'zbekiston rahbari tomonidan ilgari surilgan tashabbuslari mintaqa xavfsizligi, barqarorligi va istiqboli yo'lida o'zining ijobiy samarasini berayotganligini ta'kidlaydi. Ana shunday muloqotlar davomida Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun xavfsizlik, iqtisodiyot, investitsiyalar, sayyohlik, madaniyat, sog'liqni saqlash va ekologiya sohalarida o'zaro manfaatli mintaqaviy va xalqaro masalalar bo'yicha muhim qo'shma qarorlar qabul qilinayotganligini alohida ta'kidlaydi. SHu bilan birga, O'zbekistonning yaxshi qo'shnichilik siyosati Afg'oniston bilan aloqalarni mustahkamlashda ham yaqqol namoyon bo'layotganligini Prezidentimiz SHavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "ming yillar davomida O'zbekiston va Afg'oniston xalqlari yagona madaniy-tamadun makonida rivoj topganlar", degan fikrlarini alohida e'tiborga olgan holda, Afg'on zaminida Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur va boshqa ko'plab o'zbek

olimlari, shoirlari, mutafakkirlari yashab, ijod etishganligini qayd etib o'tadi.

Hozirgi kunda O'zbekiston rahbariyati qardosh Afg'onistondagi tinchlik jarayonini qo'llab-quvvatlashda faol ishtirok etish bilan bir qatorda Afg'oniston iqtisodiyotini tiklash va ushbu mamlakatni mintaqaviy hamda xalqaro savdo-iqtisodiy munosabatlarga jalb qilishga yordam beradigan muhim iqtisodiy va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirishdagi faoliyatlarini alohida e'tirof etadi. Albatta, O'zbekiston Respublikasi tomonidan qo'shni Afg'oniston davlatiga ko'rsatilayotgan insonparvarlik yordami o'z navbatida ikki xalq o'zrasidagi yaqin qardoshlik aloqalarini yanada mustahkamlanishiga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, YUrtboshimiz SHavkat Mirziyoyev: **“Jahonda shiddat bilan o'zgarayotgan notinch va murakkab vaziyat, turli mojarolar jonajon Vatanimiz xavfsizligini, el-yurtimizning osoyishta hayotini ta'minlash hamda mavjud tahdid va xatarlarga munosib javob berishga doim tayyor turishimizni taqozo etmoqda”** [9]. Zero, bugungi kunda dunyo miqyosida vujudga kelayotgan tahdid va xatarlarni o'z vaqtida teran anglash, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash orqali osuda hayotning hukm surishi mintaqada yaxshi qo'shnihilik aloqalarini yanada rivojlantirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-oliy-mazhlisga-murozhaatnomasi_198650
2. Tinchlik va barqaror taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik. 2017 yilning 10-11 noyabr kunlari Samarqand shahrida BMT shafeligida “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik” mavzusidagi xalqaro konferensiya. <https://religions.uz/news/detail?id=634>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning 2018 yil 15 mart kuni Ostona shahrida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining birinchi maslahat uchrashuvidagi ma'ruzasi. <http://uza.uz/oz/politics/markaziyafaf-osiye-davlat-ra-barlarining-birinchi-masla-at-uchra-15-03-2018>

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvidagi nutqi <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyevning-mark-16-03-2018>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning Afg'oniston bo'yicha "Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik" mavzusida o'tkazilgan xalqaro konferensiyadagi nutqi <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyevning-af-o-27-03-2018>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/4484>
7. "O'zbekiston Markaziy va Janubiy Osiyoni birlashtirmoqda". https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-markaziy-va-janubiy-osiyoni-birlashtirmoqda_265664
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyevning-oliy-25-01-2020>

MUSTAQILLIK VA YANGI O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATI: TASHABBUSLAR VA AMALIY ISHLAR NATIJASI

Abira Amanovna Huseynova

*Buxoro davlat universiteti professori, O'zbekiston Respublikasi Oliy
Majlisi Senati a'zosi, "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati a'zosi*

Ma'lumki, O'zbekiston dunyoda 200 ga yaqin davlatlar ichida mustaqillikka erishgan eng yosh davlatlar sirasiga kiradi. Lekin davlatchilikning shakllanishi va qaror topishi nuqtai nazaridan 300 yildan ortiq tarixga ega.

1991 yil 31 avgustda Respublika Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida O'zbekistonning davlat mustaqilligi e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikning dastlabki yillaridanoq jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallashga intilib, dunyoning ko'plab davlatlari bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda o'z tashqi siyosiy munosabatlarini amalga oshirib kelmoqda. Mustaqillikning ilk kunlarida "*O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida*"gi qonun [6]ning qabul qilinishi

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

O'zbekistonning o'z tashqi siyosatini mustaqil amalga oshirishiga mustahkam zamin yaratdi. Bu xususda birinchi Prezidentimiz I.Karimov: "O'zbekistonning davlat mustaqilligini qo'lga kiritganligi va u xalqaro miqyosda tan olinganligi shuni bildiradiki, bundan buyon Respublika mustaqil ichki va tashqi siyosatini olib boradi, hech kimning vositachiligisiz o'zaro manfaatli munosabatlarni o'rnatadi. Respublikani haqiqatan ham, uning milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda... yuksaltirish amalda mumkin bo'lib qoldi",— degan edi.

O'zbekiston Respublikasi 1992 yil 2 martdan BMTga teng huquqli a'zo sifatida qabul qilindi. 1993 yil 24 oktyabrda Toshkentda BMTning O'zbekiston vakolatxonasi, BMTning qarorgohida (Nyu-York) O'zbekiston vakolatxonasi ochildi.

Mamlakatimiz tashqi siyosatining tamoyillari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [4]ning 17-moddasi hamda "O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy tamoyillari to'g'risida" gi Qonun [5]da mustahkamlab qo'yilgan. Konstitutsiyaga binoan, O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, nizolarni tinch, muzokara yo'li bilan hal etish, boshqa mamlakatlar ichki ishlariga aralashmaslik hamda xalqaro huquqning boshqa davlatlararo tuzilmalariga a'zo bo'lish, shuningdek, davlat va xalqning oliy manfaatlarini, uning farovonligi va xavfsizligidan kelib chiqib, bunday ittifoq va tuzilmalardan chiqishi mumkin. Tabiiyki, O'zbekiston Respublikasi o'z tashqi siyosiy faoliyatini xalqaro huquqning umume'tirof etilgan ana shu me'yor va tamoyillariga tayangan holda amalga oshiradi.

O'zbekiston mustaqillikning ilk yillaridan boshlab, dunyoda tinchlik, barqarorlik hamda davlat, xalq, millatlar o'rtasida teng huquqli hamkorlik uchun o'tgan 30 yil mobaynida bir necha tashabbuslar bilan maydonga chiqdi, Uning amaliy natijasi uchun samarali ishlar qilinmoqda. Bunday faoliyat o'zining intellektual salohiyati bilan davlatlar, xalqlar, millatlar uchun namuna bo'ladigan yurtgagina xosdir.

Birinchi tashabbus. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti tomonidan 1993 yil 28 sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida [7] Markaziy Osiyoni yadro qurolidan xoli hududga aylantirish tashabbusi ilgari surilgan edi. SHu davrga qadar yadro qurolidan xoli hududlar Janubi-SHarqiy Osiyoda, Lotin Amerikasida,

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Afrikada, Tinch okeani mintaqasidagi davlatlarda mavjud bo'lgan. 2006 yil 8 sentyabrda BMT mazkur shartnoma yuzasidan alohida hujjat imzoladi. 2009 yil 21 martda Markaziy Osiyoni yadro qurolidan xoli hududga aylantirish to'g'risidagi shartnoma kuchga kirdi.

Ikkinchi tashabbus. O'zbekiston tashabbusi bilan 1997 yil Afg'onistonda ichki nizolarni bartaraf qilish maqsadida "6+2" muloqot guruhi tashkil etildi. Guruh O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Eron, Pokiston, Xitoy va AQSH hamda Rossiya davlat rahbarlaridan tarkib topib, 1997-2001 yillar mobaynida faoliyat yuritdi.

Uchinchi tashabbus. O'zbekiston NATO bilan 1994 yildan buyon "Tinchlik yo'lida hamkorlik" dasturi bo'yicha ham birgalikda faoliyat olib bormoqda. O'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida mamlakatimizning xalqaro munosabatlar, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashda tajriba almashish, xavfsizlikka tahdid soluvchi har qanday xavf-xatarning oldini olish, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, narkotorafik, transmilliy uyushgan jinoyatchilik hamda ommaviy qirg'in qurollarini tarqatmaslik kabi muhim masalalar doirasida samarali chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2008 yilning 3-4 aprel kunlari Buxarest shahrida NATO Evroatlantika hamkorlik kengashining navbatdagi sammitida O'zbekiston tomonidan "6+2" muloqot guruhini "6+3" guruhiga aylantirish tashabbusi ilgari surildi.

Ma'lumki, Sharqda odil podsho, saodatli mamlakat haqidagi orzular qadim-qadimdan yashab keladi. Tabiiyki, bu haqda allomalarimiz turli risolalar, qo'llanmalar, pand-nasihatlar va maslahatlarga boy kitoblar yozib qoldirgan. «Temur Tuzuklarida» qayd etilganidek, Amir Temur davlatni boshqarishda kengash va maslahatga juda katta e'tibor bergan.

Alisher Navoiy o'z asarlarida podsho, eng avvalo, u o'zining kamtarligi, donoligi, qat'iyatligi, to'g'riso'zligi, odamiyligi, insonparvarligi, saxiyliги, fuqarolarga mehribonligi, haqiqatparvarligi, xalqparvarligi bilan ajralib turishi lozimligini ta'kidlab o'tgan. "Adolatli podshoh, - deb ta'kidlaydi shoir, - ko'zgu va bu uning teskarisidir. U yorug' tong, bu uning qorong'i kechasidir" [11].

Ta'kidlash joizki, yangi O'zbekiston sharoitida "milliy yuksalish" – mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimizning siyosiy-huquqiy tafakkuri, hayot darajasi va turmush sifatini har tomonlama yuqori bosqichga ko'tarish yo'lidagi harakatdir. Jahon hamjamiyatida munosib o'rin

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

egallash, o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, barqaror taraqqiyotga erishish borasida mamlakatimiz tomonidan ilgari surilayotgan tashabbuslar juda katta e'tiroflarga loyiqdir.

Yurtimizda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, adolatni qaror toptirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar bugun BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilib, qo'llab-quvvatlanmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 19 sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi ma'ruzasini [8] tinglagan davlatlar rahbarlari, dunyo jamoatchiligi O'zbekistondagi inson huquqlarini himoya qilish borasidagi o'zgarishlarga o'z bahosini berdi. Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasi doirasida tuzilma rahbarlari bilan uchrashuvlari chog'ida 2018 yilda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 70 yilligi munosabati bilan Samarqand shahrida inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumini o'tkazish tashabbusini bildirganligi ham bejiz emas, albatta. E'tiborli tomoni shundaki, BMT tashkil etilganidan keyingi 70 yil davomida Osiyo mintaqasida birinchi marta tashkil etilgan Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumi yakunlari bo'yicha inson huquqlari himoyasi yuzasidan Samarqand deklaratsiyasining qabul qilindi.

BMTda ilk marotaba "Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash" rezolyusiyasi [1] aynan davlatimiz rahbari tashabbuslari asosida qabul qilindi. Markaziy Osiyo mamlakatlari tomonidan ilk marotaba mintaqadagi hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari umumiy va yaxlit konsensusga birlashtirgan holda xalqaro hujjatda belgilab olindi. SHu bilan bir qatorda, rezolyusiyaning qabul qilinishi Markaziy Osiyo mamlakatlari mintaqqa taqdiri uchun ma'suliyatni to'liq o'z zimmalariga olishga tayyor ekanliklarini tasdiqladi. Ilk bor Markaziy Osiyo davlatlarining maqsadlari va manfaatlari yagona mintaqqa sifatida namoyon bo'ldi.

2018 yil 12 dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasining yalpi sessiyasida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" [2] deb nomlangan maxsus rezolyusiya qabul qilindi. Mazkur hujjat loyihasi O'zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, BMTga a'zo barcha davlatlar tomonidan bir ovozdan qo'llab-quvvatlandi. Qayd etib o'tish lozimki, ushbu tarixiy rezolyusiyaning qabul qilinishi 2017 yil sentyabr oyida

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Nyu-Yorkda bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida Prezident Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan tashabbusning amaliy ifodasi bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, Prezidentimiz SH.Mirziyoyevning aynan mana shu sessiyada so'zlagan ma'ruzasida: “Bugungi kunning eng o'tkir ekologik muammolaridan biri – Orol halokatiga yana bir bor e'tiboringizni qaratmoqchiman. Mana, mening qo'limda – Orol fojiasi aks ettirilgan xarita. O'ylaymanki, bunga ortiqcha izohga hojat yo'q”, deb aytgan fikrlari, Orolbo'yida ekologik xavfni bartaraf etish yuzasidan ilgari surgan takliflari jahonhamjamiyati e'tiborini o'ziga tortdi. Orolbo'yi mintaqasi uchun Trast fondning tuzilishi juda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida so'zlagan nutqida [9] ham global iqlim o'zgarishi va Orol muammosiga e'tiborni qaratdi. Davlatimiz rahbari o'z ma'ruzasida: “ Biz Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi, deb e'lon qilish haqida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining maxsus rezolyusiyasini qabul qilishni taklif etamiz. Ushbu muhim hujjat tasdiqlangan sanani esa, Xalqaro ekologik tizimlarni himoya qilish va tiklash kuni sifatida nishonlash maqsadga muvofiq bo'lardi”, deb aytgan fikrlari hayotda o'z ifodasini topdi. 2021 yilning 18 mayida BMTning “Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risida maxsus Rezolyusiyasi”ni [3] qabul qildi. Ushbu tarixiy hujjat nafaqat O'zbekiston, balki Orolbo'yi mintaqasida joylashgan qo'shni mamlakatlarimiz taqdiri uchun ham daxldor hujjat bo'ldi. Bu hujjat, birinchi navbatda, butun dunyo hamjamiyati e'tiborini jalb qilgan holda, inklyuziv iqtisodiyotni rivojlantirish, biologik xilma xillikni ta'minlash, aholi salomatligini muhofaza qilish va shu bilan bog'liq maqsadlarni amalga oshirishda ilmiy asoslangan ekologik innovatsion texnologiyalarni jalb etishni belgilab berdi. Mazkur Rezolyusiyada ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha nafaqat respublikamizda, balki hamkor davlatlar bilan birgalikda qator tegishli rejalar, yo'l xaritalari ishlab chiqiladi.

2021 yil 15-16 iyul kunlari mamlakatimiz yuqori darajadagi «Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar» mavzusidagi xalqaro konferensiyaning tashabbuskori bo'ldi. Bu anjuman Markaziy va Janubiy Osiyodagi barcha davlatlarning

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

umumiy manfaatlarini aks ettirdi. Ishtirokchi mamlakatlar tinchlik va barqarorlikka xavf soluvchi transmilliy tahdidlarga qarshi birgalikdagi sa'y-harakatlarni amalga oshirishga kelishib oldi. Prezidentimiz o'z nutqida ta'kidlaganidek, «Bizning oldimizda Markaziy va Janubiy Osiyo, umuman, butun Evroosiyo mintaqasini barqaror, iqtisodiy rivojlangan farovon hududga aylantirish vazifasi turibdi» [10].

Davlatimiz rahbari Markaziy Osiyoni barqaror, iqtisodiy rivojlangan va yuksak taraqqiy etgan mintaqaga aylantirishdek bosh maqsadga erishish, mintaqa salohiyatini to'la yuzaga chiqarish, o'zaro ishonch, yaxshi qo'shnichilik va hamkorlikni mustahkamlash maqsadida 2017 yilda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvini tashkil etish tashabbusini ilgari surgan edi. Bu hayotiy tashabbus qardosh xalqlarimizning manfaatlariga mos bo'lgani uchun keng qo'llab-quvvatlandi va tezda amalga oshdi. Birinchi sammit 2018 yil mart oyida Qozog'iston poytaxti Nur-Sulton shahrida, ikkinchisi esa, 2019 yil noyabrda Toshkent shahrida, uchinchisi Turmanistonda Avazada bo'lib o'tdi. Mazkur Maslahat uchrashuvida davlatimiz rahbari SH.Mirziyoyev dolzarb masalalar yuzasidan bir necha takliflarni bildirdi:

- mamlakatlarimiz tadbirkorlari va hududlari o'rtasidagi bevosita aloqalarni rag'batlantirish, investitsiya va iqtisodiy forumlarni muntazam o'tkazib borish;

- Savdo-iqtisodiy hamkorlikning umumiy yo'nalishlari to'g'risidagi bitimni qabul qilish;

- Markaziy Osiyoning transport-tranzit salohiyatini samarali ishga solish, sanitariya talablariga rioya qilgan holda transport qatnovlarini to'liq tiklash;

- umumiy energetika makonini shakllantirish bo'yicha sa'y-harakatlarni davom ettirish, bunda "yashil" energetika va energiya tejamkor texnologiyalarni jadal joriy etish; Markaziy Osiyo mamlakatlarining Elektr energetikasi muvofiqlashtiruvchi kengashini faollashtirish, uning mandati va vakolatlarini kengaytirish hamda mamlakatlarning kengashdagi vakillik darajasini oshirish;

- mintaqa mamlakatlari qishloq xo'jaligi vazirlarining muntazam uchrashuvlarini o'tkazish, birinchi yig'ilish kun tartibiga oziq-ovqat xavfsizligini monitoring qilish bo'yicha mintaqaviy tizimni joriy qilish;

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

- Pandemiya qarshi kurashishni muvofiqlashtirish va o'zaro yordam ko'rsatish, test natijalari va emlash sertifikatlarini tan olish bo'yicha yagona axborot tizimini ishga tushirish, yuqumli kasalliklarni profilaktika, diagnostika qilish va davolash, tibbiyot xodimlarini tayyorlash sohasida tajriba almashishni kengaytirish, farmakologiyada ilmiy hamkorlikni hamda hayotiy muhim dori vositalarini ishlab chiqarishda kooperatsiyani yo'lga qo'yish;

- Ekologik xavfsizlik borasida hamkorlik ko'lamini kengaytirish, Orol dengizi halokatining oqibatlarini yumshatish bo'yicha barcha choralarni ko'rish; mamlakatlarimizning iqlim o'zgarishlariga moslashishiga, resurs tejovchi texnologiyalarning yana keng joriy etilishiga xizmat qiladigan "Markaziy Osiyo uchun "yashil" kun tartibi" mintaqaviy dasturini ishlab chiqish;

- mintaqamiz va dunyoning boshqa yirik mintaqalari o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash muhim ekanini qayd etgan holda, Toshkent shahrida o'tgan Markaziy va Janubiy Osiyoning o'zaro bog'liqligi bo'yicha xalqaro konferensiyani qo'llab-quvvatlagani va delegatsiyalari unda faol ishtirok etgani uchun davlat rahbarlariga minnatdorlik bildirib, umumiy sa'y-harakatlar bilan ushbu masala bo'yicha BMT Bosh assambleyasining maxsus rezolyusiyasi qabul qilinishi, bu jarayonda BMTning Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi ham faol ishtirok etishi;

- Markaziy Osiyo kelajagining hal qiluvchi kuchi bo'lgan yoshlarni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash; kelgusi yilda O'zbekistonda Markaziy Osiyo yoshlari forumini o'tkazish;

- Markaziy Osiyoning madaniy merosiga bag'ishlangan festivallar, madaniyat va kino kunlarini o'tkazish, birgalikda kitoblar nashr qilish;

- Mintaqa ichida sayyohlar almashinuvini ko'paytirish uchun qo'shimcha rag'batlardan faol foydalanish; turizm xizmatlarining butun doirasini qamrab oladigan "Bir sayohat – butun mintaqa" qo'shma dasturini amaliy ro'yobga chiqarish;

- Mintaqaviy hamkorlik jarayonlariga barqaror tus berish, shu maqsadda "xalq diplomatiyasi", parlamentlar, fuqarolik jamiyati institutlari va media sohasi salohiyatidan yana keng foydalanish;

- Toshkent shahrida Mintaqaviy parlament forumini o'tkazish.

O'zbekistonning xalqaro maydonda obro'-e'tibori oshib bormoqda. Bu, bir tomondan, O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri ekanligi, ikkinchi tomondan, ajdodlar an'analariga sodiqlik, ya'ni xalqlar, davlatlar, millatlar, dinlar o'rtasidagi tinchlik va barqarorlikni ta'minlashdagi faolligi bilan belgilanadi. Bularning barchasi istiqloq ne'matidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash" rezolyusiyasi (BMT, 2018 yil 22 iyun).

2. "Ma'rifat va diniy bog'rikenglik" maxsus rezolyusiya (BMT, 2018 yil 12 dekabr).

3. "Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risida maxsus Rezolyusiya" (BMT, 2021 yil 18 may).

4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. 2018.

5. "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonun (1991 yil 31 avgust) Lex.uz.

6. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy tamoyillari to'g'risida 1996 yil 26 dekabr Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997, №2.

7. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi ma'ruzasi (1993 yil 28 sentyabr)

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi ma'ruzasi (2017 yil 19 sentyabr).

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentimiz Prezidenti SH.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida so'zlagan nutqi.

10. «Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar» mavzusidagi xalqaro konferensiyada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev ma'ruzasi (2021 yil 15-16 iyul)

11. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Asarlar. 13-Tom. . – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. - 185 b.

**“MILLIY TIKLANISHDAN – MILLIY YUKSALISH SARI”
G‘OYASI – MA’NAVIY YANGILANISHLARIMIZ ASOSI**

Turdiyev Bexruz Sobirovich

*PhD, Buxoro davlat universiteti, “Ma’rifat” targ‘ibotchilar
jamiyati a’zosi*

Bugun O‘zbekiston Uchinchi renessans ostonasida o‘z milliy taraqqiyotining yangi bosqichiga chiqib oldi. Bu jarayonda milliy ma’naviyatni demokratik prinsiplar asosida dialektik aloqadorlikda takomillashtirish muhim vazifa sifatida belgilab olindi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari, "- degan dasturiy g‘oya asosida yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish – o‘ta sharaflı vazifadir” [1].

“Yangi O‘zbekiston – yangicha dunyoqarash” g‘oyasi asosida ma’naviy-ma’rifiy hayotni yangilash, uni yanada yuksaltirish borasida mamlakatimizda o‘ziga xos demokratik tajriba shakllandi. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasidagi ustuvor vazifalar amaliy hayotga tadbıq etilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” hamda “Ta’lim to‘g‘risida”gi[2] yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni xalqimizni yangicha fikrlash va ishlashga safarbar etishda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Natijada, ushbu strategik maqsadlar respublikamizning barcha hududlarigacha etib borib, joylarning ma’naviy qiyofasini tubdan o‘zgartirib, yurtimizning milliy yuksalishiga xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda real voqelikka aylanayotgan hayotbaxsh islohotlar, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari, turli konsepsiyalarning mazmun-mohiyatini aholining keng qatlamlariga etkazishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlarini takomillashtirib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Bu borada, Prezidentimiz SHavkat Mirziyoyevning 2021- yil 26 - martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi[3] qarorlarining ahamiyati beqiyosdir.

Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2021- yil 26- martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, mamlakatimizdagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi:

Birinchidan, "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish;

Ikkinchidan, oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash;

Uchinchidan, targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish;

To'rtinchidan, el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Beshinchidan, aholining Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish;

Oltinchidan, madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san'atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish;

Ettinchidan, geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o'rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish [4].

Ushbu qarorga muvofiq, respublikamizning barcha viloyat va tumanlarida, hududlarda barqaror ijtimoiy va ma'naviy muhitni mustahkamlash, aholi ongida ma'naviyatni oshirish maqsadida "Ma'naviy va ma'rifat maskani" yaratilishi belgilab olindi.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

SHuni alohida qayd etish lozimki, Prezidentimiz SHavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19- yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektordagi nutqlarida: *“Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir,”* - deb e'tirof etishlari ma'naviy hayotimizdagi yangi strategik yo'lni ochib berdi. Ushbu prinsip asosida mamlakatimizda kuchli iqtisodiyot va kuchli ma'naviyatni uyg'unlashtirsak, milliy tiklanishdan milliy yuksalib borishimiz mumkinligi ta'kidlandi.

Professor Muhammadjon Quronov ta'kidlab o'tganidek:

“Yangi O'zbekiston = Kuchli iqtisodiyot + Kuchli ma'naviyat”

formulasi ikki qudratli kuchni birlashtirib, mana shu ikki kuch qudrat bizni Uchinchi Renessansga olib chiqadi [5].

Mazkur formulada jism bilan jon birlashsa, ya'ni bozor prinsiplariga asoslangan kuchli iqtisodiyot hamda xalqimizning boy ma'naviy merosi va milliy qadriyatlarimizga asoslangan ma'naviyat uyg'unlashsa, milliy yuksalib borishimiz asoslab berilgan. Biroq bu dialektik aloqadorlik buzilsa, ya'ni agar iqtisodiyot kuchli bo'lib, ma'naviyat kuchsiz bo'lsa, mamlakat o'z strategik maqsadiga erisha olmasligi oydinlashadi. Demak, jamiyatda kuchli ma'naviyat hukmron bo'lsa, o'z navbatida iqtisodiy hayot ham sog'lom va kuchli bo'ladi, degan g'oya ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, mamlakatimizda *“O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasi”*[6] loyihasining ishlab chiqilishi ma'naviy yangilanishlarimiz jarayonida yana bir yangi bosqichni boshlab berdi desak, adashmagan hisoblanamiz. YAngi O'zbekistonning milliy g'oyasi – *“Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari”* sifatida belgilanib, uning tamoyillari *“Yagona Vatan tuyg'usi”*, *“Adolat-qonun ustuvorligida”*, *“Xalq roziligi”*, *“Jaholatga qarshi ma'rifat”*, *“Innovatsion taraqqiyot”* g'oyalarida o'z ifodasini topgan.

Muxtasar qilib aytganda, ma'naviy yangilanishlar sohasida amalga oshirayotgan islohotlarimiz ilm-fan, adabiyot, san'at va milliy madaniyatimizning yanada yuksalishiga xizmat qilib, dunyo xalqlarini mazkur sohalarda erishgan yutuqlarimiz bilan tanishtirishga imkon yaratadi. Natijada, turli xalqlar ma'naviy hayoti yangilanib, o'zaro

integratsiya jarayoni amalga oshib boradi. Bu dunyo xalqlari rivojida strategik mohiyat kasb etib, turli xalqlar milliy madaniyatining umuminsoniy mohiyat kasb etib borishiga zamin yaratishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: Tasvir, 2020. – B. 48.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ–637–sonli 2020 yil 23 sentyabrdagi Qonuni // "Xalq so'zi" gazetasi, 2020 yil 24 sentyabr, №202 (7704).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 26 mart 2021 yildagi PQ-5040-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/5344692>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 26 mart 2021 yildagi PQ-5040-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/5344692>
5. Odamiylik mafkurasi. // YAngi O'zbekiston, № 21 (277), 2021 yil 30 yanvar
6. Mirzo M. Milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasi umumxalq muhokamasida // [https://uza.uz /oz/society/](https://uza.uz/oz/society/) milliy–oyani–rivozhlantirish–kontsepsiyasi–umumkhal–mu–okam–12–12–2019.

**YANGI O'ZBEKISTON: BUNYODKORLIK VA EZGU
TASHABBUSLAR SAMARASI**

Shodmon Sulaymonov

“Buxoronoma” va “Бухарский вестник” gazetlari bosh muharriri

Bugun “bunyodkor” so‘zining mohiyati o‘zgardi. Aniqrog‘i, yangi O‘zbekiston sharoitida biz bu so‘z mohiyatiga ancha yaqinlashdik: aslida hayotni, jamiyatni, o‘zi va o‘zgalarning dunyoqarashini ich-ichidan yangilashga intiladigan, ham ruhan, ham jismonan o‘zini shu ishga safarbar eta oladigan inson chinakam bunyodkor ekanligini anglab etdik. Mamlakatimiz bo‘ylab amalga oshirilayotgan va o‘z samarasini berayotgan islohot va tashabbuslarga qanot bag‘ishlayotgan bezavol qudrat ham ana shu ruhiy-botiniy safarbarlik ekanligi bugun hech kimga sir emas. Keling, bu boradagi ezgu tashabbuslarni birgina Buxoro viloyati misolida sarhisob qilib ko‘raylik.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Bugun viloyatning qay bir go'shasiga bormang, shahar yoki qishloq bo'ladimi, markazdan yuzlab chaqirim olis cho'l bag'rida joylashgan ovul bo'ladimi qurilish-bunyodkorlik tadbirlari ustidan chiqasiz. Xuddi hamma ichki bir musobaqaga kirishgandek, xuddi hamma to'yga hozirlik ko'rayotgandek.

Muhimi, bu ichki musobaqa, yalpi obodlik tadbirlarining o'z asos-suyanchlari bor. Hayotimizga allaqachon kirib kelgan va uning bir bo'lagiga aylanib ulgurgan "Obod markaz", "Obod mahalla" va "Obod qishloq" dasturlari bu ichki musobaqaga qut-baraka, g'ayrat-shijoat bag'ishlayapti. SHu tariqa o'nlab manzil-makonlar obod bo'lib, odamlar hayot tarzi, sa'y-harakatlari o'ziga xos mazmun kasb etyapti. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Odamlar ertaga emas, bugun yaxshi yashashi kerak"ligi haqidagi hayotbaxsh g'oya har bir xonadonga, har bir yurtdoshimiz ongu shuuriga kirib boryapti.

Bu o'rinda yana bir hayotiy haqiqatni qayd etib o'tish joiz. Prezidentimizning oqilona qarori tufayli hududlarning sektorlarga bo'linishi va sektor rahbarlari zimmasiga mazkur hududlarni rivojlantirish istiqbollarini belgilash, o'ziga xos iqtisodiy o'sish drayverlarini aniqlash va harakatga solish mas'uliyati yuklangani o'z samarasini beryapti. SHu tariqa yana ichki musobaqa yuzaga kelib, sektor rahbarlari amaldagi yil yakuniga etmasdanoq, keyingi yil taqsimotidan o'z hududidan ma'lum bir mahalla yoxud qishloqning o'rin olishiga harakat qilishyapti. Investitsiya dasturlari hamda mahalliy byudjetning orttirib bajarilgan qismiga oid mablag'lar taqsimoti jarayonida, bu mablag'lar hududlarda istiqomat qilayotgan odamlar hayotiga o'zgarishlar olib kirishi, ijtimoiy-ma'naviy muammolarga echim bo'lishini anglagan holda, o'zlari rahbarlik qilayotgan hududlarga alohida ulush ajratilishini qat'iy turib talab qilishyapti. Bundan odamlar manfaat ko'ryapti, manzil-makonlar obod, ko'ngillar shod bo'lyapti. Yillar davomida changib yotgan, muammolar girdobida qolgan yo'l-ko'chalar, mahalla-guzarlar zamonaviy ko'rinish kasb etib, xonadonlarga fayz, odamlar qalbiga ishonch kirib boryapti. SHu asnoda hatto dasturga kirmagan mahalla va qishloqlarga ham, nihoyat, mutasaddilar qadami etib, katta-kichik muammolarga echim izlanayapti, ularni hal etish chora-tadbirlari belgilanayapti. Ayniqsa, aholining uy-joy va ish o'rniga bo'lgan ehtiyojini qondirish va hududlar infratuzilmasini yaxshilashga eng dolzarb masala sifatida qaralyapti.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Prezidentimizning 2021 - yil 11-martdagi “Bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlarini ajratish orqali aholini uy-joy bilan ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoniga muvofiq, viloyatda jami 2280 ta kvartira qurilishi belgilangan. Jumladan, joriy yilda yangi tartibga asosan, tadbirkor quruvchilar tomonidan ipoteka tamoyili asosida viloyat bo'yicha 1380 ta xonadonni o'z ichiga olgan 44 ta ko'p qavatli uylar qurilishi belgilangan. Hozirgi kunda mazkur uy-joylarda pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari olib borilmoqda.

2017-2020 - yillarda investitsiya dasturlari asosida 386 ta ijtimoiy ob'ektda qurilish va ta'mirlash ishlari bajarildi. Jumladan, 96 ta maktab, 171 ta maktabgacha ta'lim muassasasi, 76 ta sog'liqni saqlash, 18 ta sport ob'ektlari, 5 ta kasb-hunar kolleji, 20 ta boshqa ob'ektlarda qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilib, foydalanishga topshirildi.

Joriy yilda esa, investitsiya dasturi asosida 301,2 milliard so'm mablag' hisobiga jami 71 ta ijtimoiy soha ob'ekti, jumladan, 29 ta maktab, 10 ta sog'liqni saqlash ob'ekti, 14 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti va 18 ta boshqa ob'ektlarda qurilish-ta'mirlash ishlari bajarilmoqda. Buno'z navbatida, viloyatda ta'lim va tibbiy xizmat sifatining oshishiga zamin yaratmoqda.

Buxoro shahriga bundan atigi to'rt-besh yil oldin tashrif buyurgan mehmon bugun bu qadim kent ko'chalarida adashib qolishi hech gap emas. Avvalgi ikki yoxud to'rt qavatli uy-joylar o'rnida qad ko'targan etti yoki sakkiz qavatli turar joylar, ularga yondosh qurilgan ko'rkam savdo majmualari, mehmonxonalar, keng va charog'on istirohat bog'lari, xiyobonlar ana shu qisqa muddat ichida shahar qiyofasini tubdan o'zgartirishi kimning xayoliga kelibdi, deysiz.

Buxoro shahrining Hofiz Tanish Buxoriy, Zulfiya, Qayum Murtazoyev, Ibrohim Mo'minov va Sanoatchilar ko'chalariga tutash hududlarda samarasiz foydalanilayotgan ob'ektlar, bino va inshootlar egallagan jami 83 gektar maydonda barpo etilayotgan “Bukhara City” majmuasi so'nggi ikki yildan buyon nafaqat buxoroliklar, balki mamlakat aholisi diqqat markazida bo'lib kelayotgani bor gap.

“Bukhara City” konsepsiyasiga muvofiq, loyihaning jami qiymati dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, 550 million AQSH dollarini tashkil etmoqda. Unda 24,9 gektarda 38 ta hududdan iborat turar-joy (birinchi va ikkinchi qavatlarida tijorat ob'ektlari) majmuasi, 6,6 gektardan iborat

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

12 ta hududda zamonaviy mehmonxonalar, 3 gektar maydonda bank va ofis binolari, 1,7 gektardan iborat 5 ta hududda xalq ta'limi muassasalari, 5,3 gektarda sport kompleksi, tibbiyot klinikasi va boshqa turdagi ijtimoiy ob'ektlar o'rin olishi belgilangan.

Buxoro shahrida "Yopiq bozor" nomi bilan mashhur bo'lgan, o'tgan asrning 60-yillarida barpo qilingan "Dilkusho" savdo majmuasi o'rnida so'nggi ikki yilda hajm qamroviga ko'ra, hozircha mamlakatimizda yagona bo'lib turgan yangi savdo-ko'ngilochar majmua qad ko'tardi. Mahalliy tadbirkorlar va xorijiy hamkorlar sa'y-harakati bilan barpo etilgan mazkur majmuada bugun pardozlash va jihozlash ishlari yakuniga etkazilmoqda. Uning faoliyat boshlashi natijasida Buxoro shahri va shahar atrofida istiqomat qilayotgan 5000 nafarga yaqin aholi vakillarining muntazam ish o'rni, demakki, daromad manbai bilan ta'minlanishi ko'zda tutilgan. Bugina emas, Buxoro shahri hamda, viloyat shahar-tumanlari markazlarida zamonaviy shaharsozlik talablari asosida bunyod etilayotgan ko'p qavatli uylarning 1-2-qavatlarini savdo va xizmat ko'rsatish nuqtalari sifatida loyihalashtirilayotgani ham aholi bandligini ta'minlash bilan bog'liq ko'plab muammolarga echim bo'lishi tayin.

Bugun "bozor" tushunchasiga bo'lgan qarash o'zgardi. Bir necha ming yillik tarixga ega bo'lgan mazkur tushuncha "madaniy bozor", "bozor madaniyati" kabi tushunchalarga o'z yonidan joy ajratdi.

Mamlakatimizning barcha hududlaridagi kabi Buxoroga ham "Korzinka" hamda "Makro" brendlari ostidagi zamonaviy bozor xizmatlarining kirib kelishi tuyfayli avvalgi "yoyma bozor" an'anasi endi bizga yarashmasligi har qadamda o'z isbotini topmoqda. Keng va yorug', toza-orasta savdo majmualari ko'rsatayotgan xizmat xaridorlarga ham ma'qul kelayotgani, o'z navbatida, bu kabi majmualar faoliyatini nafaqat viloyat markazida, balki boshqa shahar va tumanlarda ham yo'lga qo'yishni zaruratga aylantirmoqda. Olot, Qorako'l va G'ijduvon tumanlarida, shuningdek, Kogon shahrida o'z faoliyatini boshlagan yirik savdo komplekslari – ana shu ehtiyoj samarasi.

SHu bilan birga, viloyatda sharqona bozor an'anasini saqlab qolish maqsadida mavjud dehqon bozorlarini zamonaviy talablar asosida rekonstruksiya qilish, yillar davomida o'z bozoriga ega bo'lmagan hududlarda yangi bozorlar qurishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buxoro va Kogon shaharlarida, G'ijduvon, SHofirkon, Vobkent,

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Buxoro, Romitan tumanlarida yangidan qad ko'targan sharqona bozorlar bugun xalq xizmatida. SHu bilan birga, Jondor, Olot, Qorako'l, Peshko', Qorovulbozor kabi tumanlarda dehqon bozorlari qurilishi davom etmoqda.

Odamlarni rozi qilish, ularga munosib yashash sharoitlarini yaratishga qaratilgan bu kabi islohotlar faqat viloyat, shahar va tumanlar markazlarini emas, olis hududlarni ham qamrab olayotgani e'tiborli. Bugun viloyatning har bir go'shasida kichik shaharchalar, mahalla markazlari qad ko'tarmoqda. SHaharsozlik va qishloq infratuzilmasini yaxshilash yo'nalishidagi islohotlar qanotida har bir manzilga yangicha nafas, yangi dunyoqarash kirib bormoqda. Bu jarayonda, ayniqsa, "Obod mahalla" va "Obod qishloq" davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2019- yilda viloyatdagi qirqaqa yaqin mahalla va qishloq mazkur dasturlar doirasida zamonaviy ko'rinish kasb etishiga erishilgan edi. 2020 - yilda pandemiya tufayli ma'lum muddat sur'ati pasaygan bu boradagi ishlar joriy yilda yangicha g'ayrat bilan davom ettirilmoqda. Bugun Buxoro va Kogon shaharlarida ikkitadan mahallada, tumanlarda, ikkitadan qishloqda dasturlar doirasida bunyodkorlik tadbirlari avj nuqtasiga chiqqan.

Qolaversa, Prezidentimizning joriy yil 21-22- yanvar kunlari Buxoroga tashrifi davomida viloyatdagi 90 ta ijtimoiy holati o'ta og'ir bo'lgan hududlarni belgilab, joriy yilning 1 - avgustiga qadar ulardagi mavjud muammolarni hal qilish bo'yicha aniq va maqsadli ko'rsatmalar berilgan edi. Bugungi kunga qadar davlatimiz rahbari tavsiyasi asosida tanlab olingan mazkur hududlarning 51 tasida obodonlashtirish tadbirlari yakunlanib, aholini qiynab kelayotgan muammolar to'liq bartaraf qilindi.

Xullas, bugun bunyodkorlik tashabbuslari vohaning har bir go'shasiga kirib borayotgani e'tiborli. SHu bilan birga, odamlar ongi o'zgarayotgani, yurtdoshlarimiz qalbida ertangi kunga ishonch tuyg'ulari mustahkamlanayotgani quvonarli. Zero, azal-azaldan ilm-ma'rifat va yuksak madaniyat beshigi bo'lgan, dunyoga buyuk tashabbuslarni hadya etgan jonajon yurtimiz bugun yana o'sha ulug'lik cho'qqisi sari dadil odimlamoqda. Bu haqiqatni dunyo ahli e'tirof etayotgani, Yangi O'zbekistonni bunyod etish g'oyasi odamlar qalbidan mustahkam o'rin olayotgani, yurtdoshlarimiz o'zini ana shu umidbaxsh

g'oya ro'yobi uchun mas'ul his etayotgani – so'nggi yillardagi eng katta yutug'imizdir.

Murakkab pandemiya sharoitiga qaramasdan, vohada pilla va g'alla etishtirish shartnoma rejalari Respublikada birinchilar qatorida uddalangani, tabiat injiqliklariga qaramasdan, viloyat mirishkorlari qalbini ulkan paxta xirmoni yaratish ishtiyoqi bir lahza bo'lsin tark etmayotgani, qishloq xo'jaligining boshqa o'nlab sohalarini rivojlantirish yo'lidagi tajribalarga dadil qo'l urilayotgani ana ham shu qat'iy ishonch samarasidir.

YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTON – JAMIYATGA DAXLDORLIK HISSI

Xakimova Maxruxa Abdulxayovna

TIQXMMI "Gumanitar fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida inson manfaatlarini ta'minlash ustuvor vazifa ekanligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Har bir davlat siyosatining bosh maqsadi o'z xalqini jamiyatda farovon hayot kechirish uchun barcha shart - sharoit yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu haqda, Prezidentimiz SHavkat Mirziyoyev qayd etganidek: "Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qat'iy nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugun hayotidan rozi bo'lib yashashi – bizning bosh maqsadimizdir" [2], – deya ta'kidlagani bejiz emas, albatta. Mazkur yo'nalishda mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi ta'minlash birinchi navbatda ijtimoiy sohadagi islohotlarimiz samarasi bilan chambarchas bog'liqdir. Zero, bugungi kunda mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar har bir fuqaroning talab va ehtiyojlari hisobga olingan holda amalga oshirilmoqda.

Respublikada amalga oshirilayotgan bunday o'zgarishlar avvalo nimani anglatadi? Bu amaliy ishlar avvalambor mamlakatimizda zamonaviy demokratik jamiyat qaror topayotgani aholining hayot darajasining yuksalib, iqtisodiyotimizning barqaror sur'atlar bilan o'sayotganidan, O'zbekistonni xalqaro maydondagi obro'-e'tibori tobora ortib borayotganidan darak beradi. Intellektual jihatdan baquvvat shaxsda jamiyat ishi uchun daxldorlik tuyg'usi, millat taqdiri uchun javobgarlik hissi, burch va mas'uliyat tushunchalari yorqinroq namoyon bo'ladi. SHu ma'noda, Bedil: "Aqlsiz imon xuddi oynasiz javohirday,

**Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini
ta'minlashning dolzarb masalalari**

asossiz (mavhumi) yo'q naqshdir va aqlsiz hayo xuddi manbai bo'lmagan suv kabi ma'dum-yo'qlikdir" [6], – deb ta'kidlashi bejiz emas.

Jamiyat kelajagi bo'lgan yoshlarni sog'lom fikrli, yuksak ma'naviyatli, ajdodlar merosiga sadoqatli qilib tarbiyalash va bu orqali ularning Respublikamiz ijtimoiy taraqqiyotida o'zlarining faol o'rinlarini to'la bilishiga erishish davlatimiz siyosiy taraqqiyotining asosiy yo'nalishlaridan biridir. "O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida» gi Qonuni bugungi davr talablariga mos ravishda har tomonlama barkamol, mustaqil fikrleydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, xalq manfaati yo'lida bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli yoshlarni tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratdi" [3]. Ushbu Qonunning 5-moddasida ko'rsatib o'tilganidek:

– yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish;

– yoshlarni vatanparvarlik, qonunlarga, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruxida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash;

– yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan hatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shavqatsizlik g'oyalaridan himoya qilish[1], muhim ahamiyatga ega. Zero, bugungi kunda nafaqat yoshlarni, balki butun insoniyat ongini manipulyasiya qilayotgan turli axborot xurujlari dunyo jamoatchiligidan muntazam ogoh, sezgir va xushyor bo'lishni taqozo etadi.

Joriy yilda Prezident tomonidan "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qaror[4] imzolandi. Ushbu qaror mazmunida ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish g'oyasi ifodalanadi.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Shu o'rinda yoshlarni ma'naviy jihatdan sog'lom bo'lishi uchun ulardagi mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fanlar tarkibiga "Ma'naviyatshunoslik" fanini kiritilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida qayd etish joizki, ma'naviyatimiz uchun eng katta xavf – bu aksariyat odamlarimizdagi loqaydlik va beparvolikni mavjudligida. Siyosatshunoslar o'rtasida: "Sen uxlaganingda, dushman uyg'oq bo'ladi", - degan gap bor. Ayniqsa, hozirgi zamonda, boshqa xalqlar katta-katta marralar sari intilayotgan bir paytda ma'naviy jihatdan g'aflatga botib, "uxlab yotish"ga, loqayd bo'lishga hech kimning haqqi yo'q. Barcha fojia va muammolar, Vatanga, millatga, kelajakka xiyonat aynan loqaydlikdan boshlanadi. SHu bilan birga Prezident SH. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "...yana bir bor aytaman, dunyodagi qaltis vaziyat, siyosiy "o'yin"lar barchamizni sergaklikka undashi kerak. Ma'naviy-ma'rifiy sohada oldimizda turgan eng muhim vazifa shuki, jahonda kechayotgan geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni chuqur tahlil qilib, ulardan xulosa chiqargan holda, yo'limizni to'g'ri tanlashimiz zarur".

2017- yil 19 - sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida Sh.Mirziyoyev dunyoda terrorizm tahdidlari, ayniqsa, so'nggi yillarda kuchayib borayotgani, ularga qarshi kuch ishlatish yo'li bilan kurashish usuli o'zini oqlamayotgani, bu borada ko'p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinayotganini, xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etishini alohida ta'kidlagan edi. Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyusiyasini qabul qilish taklifi bilan murojaat qilar ekan: "Bu hujjatning asosiy maqsadi – barchaning ta'lim olish huquqini ta'minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko'maklashishdan iborat. Ushbu rezolyusiya bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan" [5],- deya alohida ta'kidlagan edi. Bu haqda BMTning O'zbekistondagi doimiy muvofiqlashtiruvchisi, BMT Taraqqiyot dasturining doimiy vakili Helena Freyzer tomonidan bildirilgan fikr e'tiborga molikdir. Bu

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

xaqda Helena Freyzer: "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" nomli rezolyusiya BMTga a'zo davlatlar tomonidan bir ovozdan qabul qilindi. 51 davlat O'zbekiston tomonidan ilgari surilgan konstruktiv taklif, ya'ni dunyoda mavjud barcha dinlarga nisbatan ma'naviy bag'rikenglik madaniyatini kuchaytirishga doir g'oyani qo'llab-quvvatladilar. Chunki ushbu rezolyusiya bag'rikenglik bilan birga, madaniy va diniy bilimlarni kuchaytirish tamoyilini ham olg'a surgan holda, global tinchlik va farovonlik uchun ustuvor yo'nalish bo'lib xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir" [5], - deya ta'kidlashi ayniqsa, yurtimizda bu borada olib borilayotgan ishlar yuksak darajada ekanligini yaqqol tasdig'idir. Mazkur holat to'g'risidagi ijobiy fikrlarni Bangladesh Xalq Respublikasining O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Mosud Mannon: "Bangladesh Respublikasi har doim tinchlik va totuvlik, diniy bag'rikenglik tarafdori bo'lgan. Shu bois, O'zbekiston rahbari tomonidan ilgari surilgan tashabbusni birinchilardan bo'lib qo'llab-quvvatladi. Diniy bag'rikenglik bo'yicha O'zbekiston dunyoda eng namunaviy va o'rnak bo'la oladigan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Men O'zbekistondagi 5 yillik elchilik faoliyatim davomida o'zga din vakillariga nisbatan g'araz munosabatni kuzatmadim. Aksincha, barcha din vakillari, millat va elatlar tinch-totuv, ahil va hamjihat yashaydi. Bu O'zbekiston Prezidenti olib borayotgan siyosat natijasida yurtda diniy bag'rikenglik muhiti qaror topganidan dalolatdir".

Aytib o'tilgan fikrlar bevosita Yangilanayotgan O'zbekiston jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilayotganini ifodalaydi. Bu esa o'z o'rnidan har bir fuqaro jamiyat taraqqiyotiga dahldorlik xissi bilan yashashini ifodalaydi.

Takliflar:

-Ta'lim jarayonlarida inson ma'naviyatini rivojlanishiga yordam beradigan jihatlarga e'tibor qaratish.

-Fuqarolarda O'zbekiston Respublikasi tomonidan olib borilayotgan islohotlarni mazmun mohiyatini anglab etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

-Inson ma'naviyatini rivojlantirishda milliy qadriyatlar va ajdodlar me'rosini asos qilib olish.

-O'zbekistonni jahon hamjamiyatidagi nufuzini anglashga asosli yondoshuvni shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Yoshlarga oid davlat siyosati. "Xalq so'zi" 2016 yil 15 sentyabr 182 (6617)-soni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://www.uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyevning-oliy-majlisga-murojaatnomasi-28-12-2018>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagi PF-5106-son «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – T., 2017. – № 27. – 607-m.
4. PQ-5040-son 26.03.2021. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. <https://www.norma.uz/uz/>
5. Dunyo e'tirof etgan tashabbus. <http://www.uza.uz/oz/politics/dunyo-etirof-etgan-tashabbus-17-12-2018>
6. Mo'minov I.M. Tanlangan asarlar. T.1. – T., 1969. – B.94

**YANGI O'ZBEKISTONDA SAYLOV JARAYONLARINING
DEMOKRATIK XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISHINING
O'ZIGA XOS JIHATLAR**

Saodat Sattorovna Jabborova

Buxoro viloyati yuridik texnikumi fakultet dekani

Saylovlar huquqiy demokratik davlatlar taraqqiyotida va fuqarolarning siyosiy huquqlari sohasida muhim Konstitutsiyaviy-huquqiy institut sifatida asosiy o'rin egallaydi. Fuqarolar aynan mazkur huquqlari orqali bevosita yoki bilvosita oz vakillari timsolida davlat va jamiyatni boshqarish imkoniga ega bo'ladilar. 2021 yilning 24 oktyabr kuni mamlakatimizda bo'lib o'tadigan ijtimoiy- siyosiy voqealardan biri bu O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib, O'zbekistonning kelgusida barqaror rivojlanishi uchun ulkan ahamiyatga ega bo'lgan siyosiy jarayondir. Demokratik huquqiy davlatning ajralmas belgisi bo'lgan umumiy, teng, tog'ridan- tog'ri, yashirin ovoz berish tamoyillariga rioya qilgan holda saylovlarni erkin va adolatli, ochiq hamda oshkora o'tkazishning huquqiy asoslarini mustahkamlash choralari ko'rildi. Keyingi yillarda davlatimizda aynan saylov qonunchiligini rivojlantirish borasida qator muhim va kehg ko'lamli vazifalar amalga oshirildi. Jumladan, 2019 yilda ilgari beshta saylovga

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

oid qonun o'rniga yagona Saylov kodeksi qabul qilindi. Ushbu kodeks mamlakatning barcha siyosiy kuchlari hamda partiyalari, fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokida umumxalq muhokamasi asosida ishlab chiqildi. Unda chet ellik kuzatuvchilar, bir qator xalqaro tashkilotlar missiyalarining O'zbekistonda otgan saylovlar bo'yicha tavsiyalari hisobga olingan. 2020 yilning 29 dekabrda Prezident Shavkat Mirziyoyev parlamentga murojaati vaqtida O'zbekiston 2021 yilda bo'lib otadigan Prezident saylovini otkazish masalasiga to'xtalib,- "Biz otgan saylovlarda xalqaro kuzatuvchilarning tavsiyalarini milliy qonunchilik va amaliyotga tatbiq etish bo'yicha ishlarni davom ettiramiz",- deb ta'kidlagan edi. 2021 yilning fevral oyida saylov qonunchiligini takomillashtirish va unga o'gartirishlar kiritish to'g'risidagi qonun imzolandi. Unga ko'ra Saylov kodeksi 27-moddaning oltinchi qismida sanatoriylarda va dam olish uylarida, kasalxonalarda va boshqa stasionar davolash muassasalarida, qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida tuzilgan uchastkalar bo'yicha saylovchilar ro'yxatlari mazkur muassasalar rahbarlari tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar asosida tuzilishi, shuningdek 27¹- moddasi chet davlatlarda turgan fuqarolarni ham saylovchilar ro'yxatiga kiritish orqali barcha fuqarolarning saylovlarda faol ishtirok etishini ta'minlash, ularning joylashgan yeri va vaqtinchalik yashash joylaridan qat'iy nazar, saylov huquqlaridan foydalanishi uchun imkoniyatlar yaratiladi. Birinchi marta chet elda yashovchi O'zbekiston fuqarolarini, ularning diplomatik vakolatxonalarda konsullik ro'yxatidan o'tkazilishidan qat'iy nazar, saylovchilar ro'yxatiga kiritish tartibi, chet elda istiqomat qilayotgan va ishlayotgan saylovchilarning ovoz berishining huquqiy asoslari qonun bilan mustahkamlandi. O'zbekistonda saylovlarning o'tkazilishining konstitutsiyada belgilahgan muddati dekabr oyining uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasidan oktyabr oyining uchunchi o'n kunligining birinchi yakshanbasiga ko'chirildi. Ovoz berish ilgari saylov kuni soat 6.00 dan 20.00 gacha otkazilgan bo'lsa endilikda soat 8.00 dan 20.00 gacha o'tkazilishi belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi kengashining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati kengashining 2021 yil 7 iyundagi "Aholining elektoral madaniyatini yuksaltirish bo'yicha milliy harakatlar dasturi to'g'risida"gi qabul qilgan

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

qo'shma qarori va unda aholining elektoral madaniyatini yuksaltirish borasidagi vazifalar, fuqarolarning saylov jarayonlaridagi faolligini oshirish borasidagi belgilangan vazifalar shaffoflik va adolat garovidir. Bugungi kunda fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishga bo'lgan intilishlari ortib borayotganligi saylov qonunchiligidan xabardorlik darajasini oshirishni, saylov qonunchiligiga qat'iy rioya etishni, saylov bilan bog'liq axborotni tezkor yetkazishni taqozo etmoqda. E'tiborli tomoni shundaki, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning saylov jarayonlarida va ovoz berishda bevosita ishtirok etishini ta'minlash borasidagi amalga oshirilgan ishlar mamlakatimizda barchaning teng huquqqa egaligining dalolatidir. Saylov kodeksida nogironligi borlarning ham ovoz berish orqali mamlakatning ijtimoiy va siyosiy hayotida qatnashish huquqlarini amalga oshirishning barcha sharoitlari yaratilganligi o'z ifodasini topgan. Ovoz berish xonalari imkoniyati cheklangan fuqarolar uchun jihozlangan bo'lishi lozim. Saylov uchastkalarida texnik jihozlar- stollar, kabinalar hamda saylov qutilari, nogirohlar kolyaskasidagi saylovchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda jihozlanishiga e'tibor qaratilgan. 2021 yilning may oyida Markaziy saylov komissiyasi va Nogironlar jamiyati, Ko'zi ojizlar jamiyati, Karlar jamiyati hamda O'zbekiston nogironlar uyushmasi o'rtasida hamkorlik to'g'risida memorandum imzolandi. Jismoniy imkoniyati cheklangan saylovchilar uchun qulay sharoitlarni yaratish maqsadida saylov komissiyalari tomonidan qator tashkiliy ishlar amalga oshirildi. Masalan, ko'zi ojiz saylovchi shablonga bo'sh byulletenni qo'ygan holda ro'yxatdan o'tgan nomzodning ismini brayl alifbosini qo'llash orqali sezishi va tegishli uyaning maydoniga o'zi hohlagan belgini qo'yishi mumkin. Eshitmaydigan va eshitish qobiliyati past bo'lgan saylovchilar uchun ovoz berish joylarida surdo tarjimonlar taklif qilinishi mumkin. Saylov oldi targ'ibot ishlari va saylov natijalari surdo tarjimonlar va subtitr bilan efirga uzatiladi hamda ko'zi ojizlar uchun materiallar brayl alifbosidan foydalangan holda maxsus jurnallarda chop etiladi. Ushbu chora- tadbirlarning barchasi nogironligi borlar o'z xohish- irodasini erkin ifoda qilishga yordam beradi.

Har qanday davlatni huquqiy demokratik davlat deb e'lon qilishning o'zi kifoya emas, muhimi uning tashkil etilishi va faoliyati tegishli huquqiy institutlar, huquqiy kafolatlar bilan ta'minlashdan iboratdir. Bunda Konstitutsiyaviy- huquqiy institutlarning tizimida saylov huquqi

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

instituti muhim rol o'ynaydi. Saylovlar davlat hokimiyatini shakllantirishning samarali mexanizmiga aylanib, uning izchilligi va siyosiy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 1992 yil
2. O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi 2019 yil
3. O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 8 fevraldagi O'RQ 670-sonli Qonuni
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi kengashining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati kengashining 2021 yil 7 iyundagi "Aholining elektoral madaniyatini yuksaltirish bo'yicha milliy harakatlar dasturi to'g'risida"gi qo'shma qarori
5. <https://www.lex.uz>

YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNI O'QITISHDA INNOVATSION G'OYALARNING AHAMIYATI

Raxmonova Sanoat Shuxrat qizi

O'zbekiston Milliy universiteti magistranti

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan ilk kunlaridan boshlab zamonaviy bilm va kasb-hunarlarini chuqur egallagan, mustaqil fikrlaydigan, o'z ona yurtiga mehr va sadoqatli kadrlarni tayyorlash masalasiga juda katta e'tibor qaratib kelmoqda. Ta'lim tizimini tubdan isloh etish hamda yuksak bilimlil intelektual rivojlangan kadrlarni tayyorlash oldimizda turgan eng asosiy vazifalardandir. Muxtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham bu masalada shunday deydi: "Ilm-fan, zamonaviy va uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish zarur. "Ta'lim va tarbiya beshikdan boshlanadi". Faqat ma'rifat insonni kamolotga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi"[1]. Darhaqiqat, yoshlarimizni vatanparvar, jahon bozorlarida raqobatbardosh, bugungi kunda zamonaviy kasbiy talablarga javob bera oladigan kadrlar etib tayyorlash lozim. Zero mamlakatimizning kelajagi yoshlarga bog'liq ekanini unutmashimiz kerak. Qaysiki kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar, avvalo, yoshlarni vatan ravnaqi uchun xizmat qiladigan milliy ruhda tarbiyalash zarur. Dunyoning qaysiki joyiga borganda ham o'z yurti ota-bobolaridan faxrlana oladigan, o'z milliy an'ana va

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

qadriyatlariga sodiq, ularni hurmat qiladigan yoshlar jamiyatimiz taraqqiyotiga xizmat etadi. Har qayerga bormasinki yoshlarimizning o'zligidan faxrlanadigan va o'z milliyligini dunyoni xar chekkasida yoya oladigan qilib tarbiyalash xar qachongidan zarur. Zero, davlatning kuch qudrati yoshlar ekan, ularni turli xil yot va zararli g'oyalardan mustahkam himoya qilishda ta'lim tizimining o'rnini nihoyatda katta ekanini unutmasligimiz lozim. Zamonaviy kadrlarni tayyorlashda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish yuqori natija beradi. "XXI asr texnika va texnologiyalar asri" deb bejizga aytilmagan. Yoshlarga zamonaviy texnologiyalar asosida dars berish yanada yaxshi natija beradi. Ijtimoiy hayotimizda innovatsiya muhitini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyat taraqqiyotini rivojlantirish ijtimoiy-gumanitar fanlar orqali amalga oshiriladi. Gumanitar fanlarni o'qitish jamiyatni ezgu maqsadlar yo'lida birlashtiruvchi, jamiyat, innovatsion texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash, hamda taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda muxim belgilovchi ahamiyat kasb etadi. Jamiyat rivoji ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan uzviy bog'liq. Shu sababli gumanitar fanlarni o'qitishga bo'lgan ehtiyoj yanada oshadi. Har bir fuqaro o'z tanlagan sohasini yaxshi bilishi, o'rganishi, talab etilishi bilan birga mamlakati, Vatani oldida faollik, fidoiylik, vatanparvarlikni taqozo etadi. Bu ikki nuqta bir-biri bilan tutash bo'lmasa, undan xalqiga naf tegmaydi. Zamonaviy mutaxassis kadrlarni tayyorlashda ham bu fanlarni o'rnini benixoya katta hisoblanadi. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham quyidagi fikrini bildiradi: "Oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch qudrat manbai bo'ladigan gumanitar fanlarni o'qitishni rivojlantirishimiz zarur"[2]. Shu sababli gumanitar fanlarga ko'proq e'tibor qaratishimiz kerak. Farovon kelajak poydevori unib-o'sib kelayotgan yoshlar hisoblanadi. Buguni fan sohasida qo'lga kiritayotgan yutuqlarni targ'ib qilish orqali fanni chuqur egallashga, mamlakatda ozod va obod Vatani, erkin farovon hayot qurishga o'z xissasini qo'shadi. "Biz rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan zamonaviy davlat qurish yo'lida qadam qo'yib, kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari izchillik bilan o'tishni ta'minlar ekanmiz, faqat milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi zaruratini teran anglaydigan zamonaviy bilimlarni intellektual salohiyat va ilg'or texnologiyalarni egallagan insonlargina o'z oldimizga qo'ygan strategik taraqqiyot maqsadlariga erishishi mumkin ekanini hamisha o'zimizga

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

yaxshi tasavvur etib kelmoqdamiz"[3]. Bugungi kun innovatsion texnologiyalarni ilm-fan va ta'lim sohasida muvofiqiyatli qo'llanilsa yosh avlodga jahon tajribasi asosida saboq berilsa yanada yaxshi rivojlanishga erishgan bo'lamiz. Jahon tajribasini ko'r-ko'rona o'zimizga olib kelolmaymiz uni milliy mentalitetimizga mos zamonaviy va milliylikni uyg'unlashtirgan xolda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Yosh kadrlarni o'z kasbi mutaxassisliklari bo'yicha mukammal insonlar qilib milliy ruhida ma'suliyatli etib tarbiyalash zamon talabidir. Hozirgi globalashuv davrida butun dunyoda milliy o'zlikni anglash masalasi kun mavzusiga qo'yilmoqda. Yoshlarimizni maktab yoshidanoq milliy g'urur, iftixor, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash asosiy maqsadimizdan biridir. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov: "Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalambor, farzanlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir xaqiqatni xech qachon unutmasligimiz kerak",[4] - degan fikrlari bugungi kunda o'z isbotini topgan.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy-gumanitar fanlarini o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanib o'qitish yanada katta samara beradi. Bunda chet davlatlari tomonidan ishlab chiqilgan metodlarni milliy mentalitetimizga mos ravishda uyg'unlashtirish orqali yoshlarning ikki millatning urf-odat an'analarini o'rganishga yordam beradi. Bu esa, albatta, millatlararo totuvlikni ta'minlashga ham, o'zga millat vakillarining ham o'ziga xos madaniyatini o'rganishga yordam beradi. Shundan kelib chikib, quyidagi xulosa, amaliy taklif va tavsiyalarni bildirish mumkin.

*Birinchi*dan, jamiyatda turli-xil innovatsion g'oyalarning mavjudligi demokratik taraqqiyotning muhim sharti ekanligini inobatga olib, innovatsion g'oyalarni jamiyat ijtimoiy hayotini o'zgarishidagi rolini ilmiy jihatdan yana ham kengroq o'rganish;

*Ikkinchi*dan, muayyan innovatsion g'oyaga asoslangan maqsadlarning ijtimoiy ongda ishonch va e'tiqodga aylanishi, hamda turli xalqlar, insonlar, ijtimoiy guruh, qatlamlar faoliyati orqali, ularning umumiy maqsad yo'lida birlashtirish;

**Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini
ta'minlashning dolzarb masalalari**

Uchinchidan, umumiy maqsadni anglash va yagona Vatan, O'zbekistonning istiqboli, kelajagi yo'lida xizmat qilishda hamjihat, hamkor bo'lish, milliy totuvlik va dinlararo bag'rikenglik g'oyasiga, prinsiplariga asoslanish;

To'rtinchidan, mamlakatimizda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish maqsadlarini amalga oshirishda fuqarolarning davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirishda faol, tegishli fuqarolik jamiyati institutlari orqali ishtirok etishini ta'minlash;

Beshinchidan, mamlakatimizda demokratik jamiyat qurish vazifalarini amalga oshirishda ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini tubdan isloh etish va uni modernizasiyalashtirish muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2018-yil 28-dekabr. T.; O'zbekiston 2019.

2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2018-yil 28-dekabr. T.; O'zbekiston 2019.

3. Karimov I.A "Yuksak bilimli va intuluktual rivojlangan avlodni tarbiyalash- mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizasiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi xalqaro konferensiyada so'zlagan nutqi. Toshkent, 2012-yil 17-fevral.

4. Karimov I.A "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" T.: Ma'naviyat 2008-y.

**MILLAT ISTIQLOLI UCHUN KURASHGAN QATAG'ON
QURBONLARINI
YOD ETISH - INSONIYLIK BURCHDIR**

Azalshoh Hamroyev

*BuxDU tuzilmasidagi "Qatag'on qurbonlari xotirasi"
muzeyi direktori, O'zbekiston Tarixchilar jamiyati Buxoro viloyati
bo'limi raisi, "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati a'zosi*

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, Vatanimiz istiqloli, xalqimizning ozodligi, erkinligi, kelajak avlodlarning tinch va farovon hayotini ta'minlash yo'lida mardona kurash olib borib, aziz jonlarini fido qilgan, mustabid tuzum davrida qatag'on qilingan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati va merosini o'rganish

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

hamda targ'ib etish borasida qator ishlar amalga oshirildi. 2001 yil 31 avgustda - "Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni" deb e'lon qilindi. "SHahidlar xotirasi" yodgorlik majmuasi barpo etildi. "SHahidlar xotirasi" jamoat fondi, "Qatag'on qurbonlari xotirasi" davlat muzeyi hamda hududlardagi oliy ta'lim muassasalari qoshida uning bo'limlari tashkil etildi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Ishoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid CHO'lpon, Abdulla Qodiriy kabi ulug'ma'rifatparvar ajdodlarimiz xotirasiga bag'ishlangan muhtasham haykallar, muzeylar bunyod etildi, ijod maktablari faoliyati yo'lga qo'yildi. Siyosiy qatag'on yillarida nohaq qurbon bo'lgan yurtdoshlarimizning nomlarini aniqlash, ularning qoldirgan merosini o'rganish va keng jamoatchilikka yetkazishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari, badiiy va hujjatli asarlar yaratildi.

Dunyoda global xavf-xatarlar kuchayib borayotgan hamda milliy o'zlikni anglash va haqiqiy tariximizni tiklash har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etayotgan bugungi davrda mustabid tuzum tomonidan shafqatsiz qatag'on qilingan davlat va jamoat arboblari, ilm-fan, madaniyat va san'at, adabiyot namoyandalarining, oddiy kasb egasi bo'lgan minglab yurtdoshlarimizning nomlari va xotiralarini abadiylashtirish, ularning jasorati va matonati misolida yosh avlodimizni Vatanimiz va xalqimizga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Bu boradagi tarixiy ma'lumotlarni xolis va haqqoniy o'rganish mamlakatimiz mustaqilligi qanday og'ir va mashaqqatli kurashlar bilan qo'lga kiritilganini, bugungi erkin, ozod va obod hayotimizni asrab-avaylab, qadrlab yashash kerakligini yanada chuqur anglashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyev 2020 yil 31 avgust kuni SHahidlar xotirasi xiyoboniga tashrifi vaqtida qatag'on qurbonlari haqida ***"Bu insonlar haqiqiy yetakchilar, adabiyot, madaniyat namoyandalari, boshqacha qilib aytganda, millatimizning, xalqimizning eng sara vakillari edi. Tasavvur qiling, agar ular qatag'on qilinmaganida edi, Vatanimiz rivoji uchun, ilm-fan, iqtisodiyot, madaniyat va adabiyotimiz uchun qanday buyuk ishlar qilgan bo'lar edi, xalqimizni oldinga boshlard",-*** deya ta'kidladi va 100 ming odamning har biri bo'yicha izlanish olib borish, nomlarini tiklash, qilgan ishlari haqida kitoblar chop etish, o'zlari yashagan

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

mahallalar va maktablarga nomlarini qo'yib, xotirasini abadiylashtirish bo'yicha topshiriq berdi. 2020 yil 8 oktyabrda esa, ushbu ishlarni amalga oshirishning huquqiy asosi bo'lgan "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" F-5598-sonli Farmoyishni imzoladi. Bu tarixchi olimlar, adabiyotshunos, huquqshunos va jurnalistlar oldiga 1868-1990 yillarda Rossiya imperiyasi va sovet hukumati tomonidan qatag'on bo'lgan minglab ajdodlarimizni nomma-nom aniqlash va ularning xotirasini abadiylashtirish vazifasini qo'ydi. Buning uchun 2020 yil oktyabr oyidan boshlab, respublika tarixchi-olimlari tomonidan Rossiya imperiyasining mustamlakachilik zulmiga qarshi 1868-1917 yillarda kurashgan milliy ozodlik harakati ishtirokchilari, sovet hukumatiga qarshi 1917-1924 yillarda qurolli chiqishlarda qatnashgan "bosmachi"lar, 1926-1935 yillarda kollektivlashtirish siyosatiga qarshi chiqqan boylar, o'rtahol va kambag'al dehqonlar, 1937-1938 yillarda "xalq dushmani" deb e'lon qilingan mahalliy kadrlar va milliy ziyolilar, 1983-1989 yillarda "o'zbek ishi", "paxta ishi" nomlari ostida qatag'on qilingan ajdodlarimizni nomma-nom aniqlash harakatlari boshlandi.

Qo'qon xonligi o'rnida 1867 yilda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgach, mavjud tuzumning adolatsiz siyosatiga qarshi chiqqan aholi ayovsiz ravishda qirib tashlandi. Bugungi Buxoro, Navoiy, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyati hududlari o'sha paytda Buxoro amirligi tarkibida bo'lganligi sababli 1868 yildan boshlangan dastlabki qatag'onlardan omon qoldilar. 1917 yilda bolsheviklar hokimiyat tepasiga kelgach, Buxoro amirligini tugatib, u yerda sovet davlatini barpo etishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ydilar. 1920 yilda o'z niyatiga erishgan bolsheviklarning Buxoroda yuritgan adolatsiz siyosati vatanparvar kuchlarni qo'lga qurol ko'tarib, sovet adabiyotlarida "bosmachilik" deb atalgan, mustamlakachilarga qarshi ozodlik kurashlarini boshlashga majbur etdi. 1940 yillarga qadar davom etgan istiqloqlilik harakati millionlab kishilarning qurbon bo'lishiga yoki o'z kindik qonlari tomgan joylarni tark etib, o'zga yurtlarga ko'chib ketishlariga sabab bo'ldi. Hozirgi hisob-kitoblarga qaraganda, "bosmachilik" harakati davomida o'lkamizda bir milliondan ortiq aholi qirilgan va chet ellarga ketib qolgan.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

1930 yilda O'zbekistonda 750 ming dehqon xo'jaligi bo'lgan. SHu xo'jaliklardan 40 mingga (qariyb 6 foizi) quloq sifatida hibsga olinib, sud qilingan yoki Ukraina va SHimoliy Kavkazga, O'rta Osiyoning yangi o'zlashtirilayotgan cho'l tumanlariga badarg'a qilingan. Agar o'ziga to'q o'zbek oilalarining har biri kamida 8-9 kishidan iborat bo'lganligini e'tiborga olsak, 1930-32 yillardagi quloqlashtirish davrida Respublikamizda 350-400 ming aholi jabr ko'rganligi oydinlashadi.

1925-1936 yillarda kolxozga kirishdan bosh tortish "sovetlarga qarshi harakat" deb baholanib, odamlar qamoqqa olingan. Birgina Buxoro qamoqxonasida shunday ayb bilan 1380 kishi hibsdan saqlangan.

1937 yilga kelib, sovet hukumati O'zbekiston ziyolilarini yo'q qilib yuborish maqsadida ommaviy qatag'onlarning navbatdagi bosqichini boshladi.

Barcha viloyatlar va o'lkalarda viloyat va o'lka partiya qo'mitasi birinchi kotibi, prokuror va NKVD bo'limi boshlig'idan iborat uchliklar tuzilgan.

1937-1938 yillardagi "katta qirg'in" davrida birgina Buxoro viloyatidan 1157 nafar vatandoshlarimiz qatag'on qilindi.

1980 yillarning o'rtalariga kelib, sovet hukumati o'zbek xalqi boshiga yangi musibatlarni soldi. "Paxta ishi", "O'zbek ishi" nomi ostida boshlangan qatag'onlarning yangi to'lqini nihoyatda fojiali tarzda yuz berdi. Buxorolik 520 nafar vatandoshlarimiz "o'zbek ishi", "paxta ishi" nomi ostida aybdor deb topilib, jinoiy javobgarlikka tortildi va qatag'on qilindi.

Xullas, mustamlakachi sovet hukumati Rossiya imperiyasining sodiq merosxo'ri sifatida O'zbekistonda deyarli har 10 yilda ommaviy qatag'onlar uyushtirib, mahalliy rahbar kadrlardan tortib oddiy dehqonlargacha qo'rquvda saqlab turdilar. Buxoro viloyati 1920-1990 yillar orasida o'tkazilgan ommaviy qatag'onlar natijasida 2889 nafar farzandlaridan judo bo'ldi. Xalqimiz bisotida: "**Ajdodlar xotirasi muqaddasdir**", - degan hikmatli so'z bor. Biz xotirasini e'zozlayotgan, tavof etayotgan ajdodlar esa, sovet davlati qatag'on tegirmonlarida yanchib tashlangan, so'nggi manzillari ham noma'lum bo'lgan jabrdiydalardir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 9 iyundagi № 357 qarori asosida BuxDU tuzilmasidagi "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi va buxorolik tarixchi-olimlar hamkorligida

Buxoro viloyati bo'yicha qatag'on qurbonlari - yurtimiz mustaqilligi uchun o'z jonini ham ayamagan farzandlari xususida ma'lumot beruvchi "**Xotira kitobi**" yaratildi. Keng kitobxonlar auditoriyasiga mo'ljallangan, alifbo tartibida yaratilgan ushbu xotira kitobi yoshlarimizni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalaydi, mustaqillikni ko'z qorachig'idek asrashga o'rgatadi, degan umiddamiz.

**O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-MA'NAVIIY MUHIT
BARQARORLIGINI, MA'NAVIIY TARBIYA UZVIYLIGINI
TA'MINLASHDA MA'NAVIIYAT-MA'RIFAT
TARG'IBOTCHILARINING ROLI**

**KOMIL INSONNI SHAKLLANTIRISH – MA'NAVIIY
JARAYONLARNING PIROVARD MAQSADI**

Nurmatova M. – O'zMU professori, falsafa fanlari doktori

Mustaqillik mamlakatimizda yashayotgan har bir insonning o'z imkoniyati va iqtidorini namoyon etish uchun keng yo'l ochib berdi. Shaxs o'zining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini erkin qondirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Xalqning milliy qadriyatlari qayta tiklanib, shaxs ma'naviy taraqqiyotiga xizmat qila boshladi.

Insoniyat paydo bo'lgandan boshlab, bu davr ichida o'zining turli-tuman va xilma-xil moddiy va ma'naviy ne'matlarini yaratdi. Bu moddiy va ma'naviy ne'matlar umuminsoniy, milliy va shaxsiy qadriyatlar shaklida qaror topdi. Ular xalqlar, millatlar, mamlakatlar ma'naviy taraqqiyotida muhim o'rin tutib kelmoqda.

Ma'lumki, qadriyatlar o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi. Ular uzoq tarixiy jarayonda shakllanadi, ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlari asosida rivojlanadi, xalq, millatning moddiy-ma'naviy shahodatnomasi sifatida sayqal topadi. Inson ana shu qadriyatlarni yaratish, idrok etish jarayonida o'zi ham kamolga etadi. Ana shunday shakllangan qadriyatlar tizimi o'zining dunyoviy va diniy xarakteri, moddiy va ma'naviy asoslari, mohiyati bilan jamiyat va inson taraqqiyotiga xizmat qiladi hamda insonni komillikka etkazuvchi omil vazifasini bajaradi. Demak, inson bir tomondan barcha yaratilgan, hamda yaratilayotgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarning ijodkori, bunyodkori sifatida namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan, ajdodlar bilan avlodlar vorisiyigini

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

ta'minlovchi ijtimoiy-ma'naviy omilga aylanadi. Bu muntazam davom etadigan dialektik jarayondir.

Ma'naviy jarayonlarning pirovard maqsadi komil insonni shakllantirishdan iborat. Komil insonni shakllantirish hamma davrlar uchun xos bo'lgan ijtimoiy muammo sanaladi. Bu borada falsafiy tafakkur tarixida rang-barang qarashlar, g'oyalar, nazariyalar va ta'limotlar mavjud. Jumladan, ma'naviy taraqqiyot bosqichlarining antik davrida Geraklit, Pifagor, Empedokl, Suqrot, Demokrit, Aflotun, Arastu, Epikur kabi faylasuflar insonni barkamol qilib tarbiyalashga doir ko'plab fikrlarni bayon qilganlar. Bu borada Arastuning qarashlarini alohida qayd etish mumkin.

Arastu «Nikomaxning axloq kitobi», «Evdemning axloq kitobi», «Katta axloq kitobi», «Ritorika», «Siyosat», «She'riyat san'ati» nomli asarlarida o'zining axloqiy va estetik qarashlarini bayon qilar ekan, tarbiya orqali insonni komillik darajasiga yetkazish masalalariga alohida e'tibor beradi. U axloqiy va estetik tafakkur rivoji tarixida birinchilardan bo'lib, komil inson uchun zarur bo'lgan fazilatlarni tasniflaydi va ularning har birini alohida tavsiflaydi.

Arastuning tasnifiga ko'ra, komil inson uchun zarur bo'lgan axloqiy fazilatlarga – jasurlik, dovyuraklik, mo'tadillik, saxiylik, muloyimlik, to'g'rilik, dilkashlik, mehribonlik, adolatparvarlik, salobatlilik, himmatlilik kabilar kiradi. Jumladan: «Olijanoblik – kibr va xorlikning, saxiylik – isrofgarchilik va xasislikning, kamtarlik – uyatchanlik va uyatsizlikning, xayrixohlik – xushomadgo'ylik va adolatning, haqgo'ylik – ayyorlik va maqtanchoqlikning, nafrat – hasadgo'ylik va ichi qoralikning, ehtiyotkorlik – buzuqlik va toshbag'irlikning o'rtasidir,» - deydi [1]. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Arastuning axloqiy-estetik qarashlarida me'yor tushunchasi markaziy o'rinni egallaydi. «Me'yor – oltin o'rtalik» degan tamoyilning ustuvorligi mutafakkirning go'zallik haqidagi qarashlarida ham, mardlik va jasorat borasidagi mulohazalarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Biroq, uning fikrlaridagi «o'rtalik» biz nazarda tutgan «me'yor» emas, balki, axloqiylik va axloqsizlikni belgilovchi mezon sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Shuningdek, Arastu insonning vazifasi amaliy va axloqiy fazilatga ega bo'lishdan iboratligini ta'kidlaydi. SHuning uchun u chinakam baxtni anglash ma'naviy yuksak bo'lgan hamda to'g'ri fikrlovchi

kishiga taalluqli ekanligini asoslashga harakat qiladi. Boshqa mutafakkirlardan farqli o'laroq, Arastuning axloqiy va estetik qarashlarida «ma'naviy barkamol inson» iborasini uchratish mumkin. «Ma'naviy barkamol inson» uning fikricha, aql bilan axloqiy fazilat birligiga amal qiladigan kishi. Bunda axloqiy fazilat insonning qo'lga kiritgan ma'naviy mulki bo'lib, uni hayot va jamiyat bilan bog'lovchi qadriyatdir. Aql esa insonni ijtimoiy hodisa sifatida insoniyligini belgilamaydi, balki axloqiy fazilat insonni belgilaydi, degan fikrni o'rtaga tashlaydi.

Arastu komil insonni shakllantirishda axloqiy va estetik tarbiyaning zarurligiga alohida e'tibor beradi. U tarbiyaning samarasini insonlarning turmush tarzi va davlatda qonun ustuvorligining ta'minlanganligida ko'radi. «Agar jamiyatda tegishli qonunlar mavjud bo'lsa, unda to'g'ri tarbiya amalga oshishi mumkin. Samarali ijtimoiy tarbiya uchun yaxshi qonunlar zarurdir», - deydi faylasuf.

Umuman antik davr, xususan Arastuning nazariy qarashlariga ko'ra komil insonni uning faoliyatiga, fe'liga har tomonlama ta'sir ko'rsatish, jumladan, axloqiy va estetik tarbiya orqali shakllantirish mumkin, degan xulosa chiqarish mumkin. Zero, bu davrda faqat aqli yetuk, yuksak fazilat egasi bo'lgan shaxsgina ma'naviy barkamol inson deb tushunilgan.

Komil insonni shakllantirish masalasi atrofidagi fikrlar O'rta asr Musulmon Sharq mutafakkirlarining falsafiy qarashlarida yanada rivojlantirildi. Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, antik davr yunon falsafasidan farqli o'laroq, bu davr allomalari komil insonga xos xususiyatlarni umuman xalq timsolida ham ko'ra oldilar. Bu esa insonga bo'lgan munosabatda yunon falsafiy tafakkuri bir qadar cheklangan va qolipga solinganligidan dalolat beradi. Zero, Abu Rayhon Beruniyning: «Yunon faylasuflari avom xalq uchun emas, balki yuqori tabaqalar (manfaatlari) uchun usul va qoidalar ishlab chiqqanlar,» [2] - degan fikri yuqoridagi mulohazamiz uchun asos bo'ladi.

Jahon estetik madaniyati rivojida O'rta asrlar Musulmon Sharq mutafakkirlarining o'рни beqiyos ekanligi dunyo olimlari tomonidan tan olingan. Chunonchi, Abu Nasr al-Forobiyning axloqiy-estetik qarashlari keyingi davrlar uchun nazariy asos vazifasini o'taydi.

Inson kamoloti masalasi Forobiyning falsafiy konsepsiyasida moddiy olam bilan bog'liq ma'naviy hodisa sifatida ilmiy asoslanadi.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Uning fikriga ko'ra, kamolot va komillik tushunchasi insonga xos va taalluqli bo'lib, u tug'ma xususiyat emas. Inson komillikka jidd-u jahd bilan intilishi natijasida erishadi. Insonning asl ruhiy kamoloti dastlab Haqni tanish orqali hosil bo'ladi va bu ma'rifat, baxt-saodat va kamolot sari qo'yilgan birinchi qadamdir [3].

Voqelikdagi barcha narsalar o'zining mazmun-mohiyatiga ega: ularning nomi, xususiyati, qolaversa, foydasi va zarari ham bor. Bu xususiyat insonga ham xos: uning ismi, fe'l-atvori, fazilati va illatlari bor. Biroq, komillik hammaga ham nasib etavermaydigan ma'naviy hodisaki, insonga xos bo'lgan bunday kamolotni Forobiy «eng yyetuk baxt-saodat» deb ataydi. Bu baxt-saodat shu yuksak kamolotga erishish yo'lida bo'lgan har turli juz'iy narsalarni o'zida birlashtiradi. Juz'iy narsalar eng yetuk baxt-saodatga olib boruvchi fazilatli san'at (kasb-hunar)lardir [4].

Aytish joizki, Abu Nasr al-Forobiy insonning komillik darajasini dunyoviylik bilan ilohiylikning uyg'unligini belgilovchi mezon sifatida baholaydi. Bu mezon, birinchidan, kamolotni Xudoning abadiyligini bilish unga aql, ilm, kasb-hunarni egallash orqali erishishda ko'rinadi. Ikkinchidan, komil inson bo'lish uchun o'n ikkita axloqiy fazilat, ya'ni jismoniy sog'lomlik, mushohadalilik, kuchli xotiralilik, o'tkir zehnlilik, ravon fikrlash va tiniq so'zlashish, qobiliyatlilik, ochko'zlik va qimordan xoli bo'lish, haqiqatgo'ylik, vijdonlilik, pul va mol-dunyodan jirkanish, adolatparvarlik, jasurlik xislatlariga ega bo'lish shart degan talablarni qo'yish bilan axloqiy va estetik qadriyatlarining shaxs ma'naviy kamolotidagi o'rnini aniq ifodalaydi. Uchinchidan, musiqa ilmining barkamol insonni shakllantirishdagi o'rni katta ekanini, to'rtinchidan, shaxs ma'naviy kamolotida tarbiya, mashq qilish va o'qishning zarurligi, beshinchidan, kamolotda shaxs erkinligi ta'minlanishi, mamlakatning tinch-totuv bo'lishi kabi tashqi omillar zarurligi haqida bir qator fikrlarni ilgari suradi. Shuning uchun Forobiy nazdidagi komil inson turg'un, mavhum, harakatsiz emas, balki u inson a'mollarida yashovchi, hayot bilan hamnafas bo'lgan axloqiy-estetik idealdir.

Shuningdek, komil inson muammosi Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino kabi allomalarning axloqiy va estetik qarashlarida markaziy o'rinni egallaydi. Bu haqda Beruniy: «Komil kishi bo'lishning birinchi sababi ilm va ma'rifat, ikkinchisi san'at va amal hosil qilish bilan bo'ladi,»- [5]

deydi. Shuningdek, u inson kamolotini go'zallik, ko'rkamlik, olijanoblik, mardlikda deb bilgan. Mehnat tarbiyasini komillikning kaliti hisoblab, yoshlarni mehnat qilishga o'rgatish zarurligini ta'kidlagan.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, har bir elat, millat, xalq, jamiyat ma'naviy kamolotga erishgan farzandlari bilan kuchli va baxtlidir. Kamolotga erishish qisqa muddatli davrda ro'y beradigan hodisa emas. Odam jamiyat tomonidan qo'yilgan yuksak ijtimoiy-ma'naviy talablarni bajargandan so'ng shaxsga aylanadi. Komil shaxs qanchalik dunyoviy va diniy bilimlarni egallab, hayot zinapoyalaridan yuqoriga chiqib borsa, u insoniyat yaratgan moddiy va ma'naviy, diniy va dunyoviy qadriyatlar mohiyatini shunchalik his qila boshlaydi. Ana shu tuyg'u inson shuurida moddiy va ma'naviy olamdagi narsa-hodisalar, voqea-jarayonlarning qadr-qimmatini bilishga, hamda ularga nisbatan qadriyatli munosabatda bo'lishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аристотель. Сочинение. В 4-х.т. –М.: Мысль, 1984. Т.4. С. 54-55.
2. Abu Rayhon Beruniy. 100 hikmat. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi A.Irisov. –Toshkent: Fan, 1993. -21 b.
3. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. – Toshkent: Yozuvchi, 2001. –B. 13–15.
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. –B. 185–186.
5. To'raqulov E., Rahimov S. Abu Rayhon Beruniy ruhiyat va ta'lim-tarbiya haqida. -Toshkent: O'qituvchi, 1992. -68 b.

TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA TARBIYACHI VA TARBIYALANUVCHILAR FAOLIYATINING O'ZARO HAMJIHATLIGI

Xajiyeva Iroda Adambaevna

*TATU Urganch filiali "Gumanitar va ijtimoiy fanlar" kafedrasi
mudiri, dotsent, "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati a'zosi*

Abdullayeva SHohidaxon Davronbekovna

*TATU Urganch filiali "Gumanitar va ijtimoiy fanlar" kafedrasi
dotsenti*

Har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yer osti va yer usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

birinchi navbatda, o'zining yuksak ma'naviyati bilan kuchlidir. Bu narsa inson shaxsiga nisbatan e'tibor va talabning kuchayganligini ko'rsatadi.

Ta'lim-tarbiya jarayoni tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar faoliyatining o'zaro hamjihatligidan iboratdir. Ta'lim-tarbiya jarayoni individning faqatgina bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirib qolmasdan, balki tarbiyalanuvchi shaxsiga kompleks ravishda ta'sir etuvchi ijtimoiy muhit doirasida amalga oshadi. Bunday jarayonni talab darajasida amalga oshishida murabbiylar, ma'naviyat targ'ibotchilarining roli beqiyosdir.

Odamning komil inson va mukarram inson martabasiga ko'tarilishi uning ma'naviyatining yuksalishi demakdir. SHu o'rinda aytish kerakki, bu sohada olib borilayotgan nazariy va amaliy izlanishlarni chuqur o'rganish, uni amaliyotda qo'llash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Hozirgi kunda yoshlarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash hamda kamol toptirishda sog'lom ijtimoiy-ruhiy muhitning samaradorligini yanada oshirishda murabbiylar va targ'ibotchilarga bir qancha vazifalar yuklatilgan. Har bir murabbiy, komillik targ'ibotchisi ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil qilishga, sog'lom ijtimoiy muhitni yaratib berishga, mas'uliyatli vazifalarni vijdonan bajarishi lozimdir.

Insonni kamolot sari etaklaydigan har qanday ta'limot o'z yo'nalishi, o'z tartib-qoidasi va o'z tamoyillariga asoslanadi. "SHu tariqa, komil insonning o'ziga xos axloq kodeksi ishlab chiqilgan bo'lib, bu sifatlarga ega bo'lish har bir odamning orzu-armoni deb qaralgan. Bundan yana shu ham ma'lum bo'ladiki, o'rta asrlardagi yaxshi axloq, komil inson haqidagi tushunchalar nisbiy xususiyatga ega – bir tomondan, jami ruhiy-ma'naviy qudrat, aqlu-zakovat, yaxshi sifatlarning jamuljami hisoblangan mavhum bir zot tushunchasi, ikkinchi tomondan, shu cho'qqiga intilib, muayyan martabalarga erishgan kishi ham komil inson deb hisoblangan".

Ma'lumki, komil va yyetuk inson bashariyatni qadimdan qiziqtirib kelgan masaladir. Aslini olganda, komil insonni voyaga etkazish asrlar mobaynida kishilarning orzusi, istagi, ideali bo'lib kelgan. Komil inson to'g'risidagi tushuncha va tasavvurlar turli davrlarda turlicha talqin qilingan. Davrlar o'tishi, zamonlar o'zgarishi bilan u haqidagi fikrlar ham o'zgarib borgan. Komil inson to'g'risidagi fikrlarning evolyusiyasi, takomillashuvi, uning qanday bo'lishi tuzumning xarakteri, ishlab

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

chiqarish darajasi, davlatni boshqarish uslubi, ilm-fan va madaniyatning rivojiga bog'liq bo'lgan. SHu nuqtai nazardan qaraganda, taniqli tasavvufshunos Mahmud As'ad Jo'shonning fikriga qo'shilsa bo'ladi. U "Xulqlar o'zgaradimi?" – degan savolga, " o'zgaradi, faqat ta'lim-tarbiya tufayli", - deb javob beradi. Turk olimining aytishicha, insondagi tug'ma yoki ro'yobga chiqmagan fazilat ham tarbiyaga muhtoj. "... potensial (imkoniyat) sifatida insonning ichida yaxshi xulqlar moyasi bo'lishi mumkin. Uning mizojida, zuvalasida bordir bu "moya", bu asos. Ammo uni rivojlantirish kerak. Bu esa ta'lim-tarbiya bilan bo'ladi", - deydi Jo'shon. Xuddi shunday yyetuk va kamolotga etgan insonni tarbiyalash o'z-o'zidan bo'lmaydi. Yyetuk shaxs to'g'risidagi tasavvurlar, go'yo axloq va xulq-odob singari rivojlanib, o'zgarib borgan. Tarixga nazar tashlanganda, komil inson to'g'risidagi g'oyalar xalq og'zaki ijodida, badiiy adabiyotda, falsafiy, tarixiy va axloqiy risolalarda, pandnomalarda, diniy-tasavvufiy va dunyoviy ilmlarga bag'ishlangan asarlarda aks etganiga amin bo'lamiz.

Komil inson g'oyasi o'z mohiyat-e'tibori bilan milliy, umuminsoniy va gumanistik mazmunga egadir. Har bir jamiyat o'z oldiga yyetuk, har tomonlama kamolga etgan, o'zida butun ijobiy, oliyjanob xislatlarni to'plagan barkamol avlodni tarbiyalashni orzu qiladi. SHuning uchun komil inson g'oyasi o'tmishimizning uzoq-uzoq davrlariga borib taqaladi. "Komil inson g'oyasi azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, uning ma'naviyatining uzviy bir qismi bo'lib kelgan. U islom falsafasidan oziqlanib, yanada kengroq ma'no-mazmun kasb etgan. Barkamol avlod haqidagi yuksak g'oyalar Abu Nasr Forobiy va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarimizning asarlarida, ayniqsa, teran ifoda topgan".

Komil inson g'oyasi eng qadimiy dinlardan biri Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da ham o'z ifodasini topgan. Unda yaxshilik bilan yomonlik, haq bilan haqsizlik, yorug'lik bilan zulmat o'rtasidagi kurash tasvirlanadi. Axura Mazda - yaxshilik hamda yomonlik – Axriman xudolari o'rtasida qattiq kurash ketadi. Axura Mazda dunyodagi butun mavjudotlarni yaratgan, u bunyodkorlik kuchiga ega. Axriman esa Axura Mazda bunyod qilgan narsalarni yo'q qilishga harakat qiladi. U vayronkorlik bilan mashg'ul bo'ladi. "Avesto"da yaxshilik yomonlik ustidan albatta g'alaba qozonadi, degan g'oya ilgari suriladi. Zardushtiylik uch asosiy axloqiy qoidaga tayanadi: "Ezgu fikr,

ezgu soʻz, ezgu amal”. Mana shu uchta qoidaga rioya qilgan odam kamolotga etgan hisoblanadi.

“Avesto”da oʻz tugʻilgan eriga muhabbat, toʻgʻrilik, rostgoʻylik, yaramas ishlardan oʻzni tiyish, mehnatsevarlik, ezgulik, dehqonchilik va chorvachilikni eʼzozlash, adolat va haqiqat uchun kurash, mardlik va shijoatkorlik, baxt-saodat kabi axloqiy qadriyatlarga katta eʼtibor berilgan. Bu maʼnaviy-axloqiy qoidalar keyinchalik SHarq mamlakatlari mutafakkirlarining dunyoqarashiga katta taʼsir koʻrsatdi.

Qadimgi Xitoy faylasufi Konfutsiy (mil.avv. 551-479) “Suhbatlar va mulohazalar” (“Lun yuy”) kitobida umuminsoniy mazmunga ega boʻlgan insonparvarlik gʻoyalarini koʻtarib chiqqan va komil inson toʻgʻrisidagi qarashlarini ilgari surgan. Konfutsiy “Hamma odamlar oʻz tabiatiga koʻra bir-birlariga oʻxshaydilar, tarbiyaga qarab ular bir-birlaridan farqlanadilar”, - deb taʼkidlaydi.

Inson fazilatlarni egallamasdan komillik va baxt-saodatga erisha olmaydi. Aql, axloq va ilm-maʼrifat insonni kamolotga va baxt-saodatga eltuvchi asosiy vositadir. Fazilatlarni egallashda aql muhim oʻrinni egallaydi. U nimaiki qilmasin aqlning amr-farmoyishi bilan ish tutishi lozim. Komil inson boʻlish odamdan faol aql, tinimsiz mehnat, bilim va nafsni tiyishni taqozo qiladi.

Inson, asosan, ikki yoʻl bilan tarbiyalanishi mumkin birovlarning bevosita taʼsiri, yaʼni oʻrgatishi, shuningdek, donolar fikrlari, oʻgʻitlari va asarlarini oʻqish orqali, inson oʻzining fikrlashi, odamlar xatti-harakatidan, qilgan va qilayotgan ishlaridan tegishli xulosalar chiqarib olishi; eng qudratlisi – tafakkuri vositasida tarbiyalanishi mumkin, - degan edi tarbiyashunos olim Safo Ochil. Komil insonni tarbiyalovchi omillarning ikkinchi boʻgʻini, inson qalbiga yoʻl hisoblanadi.

Shuning uchun yangilanayotgan jamiyatimizda sogʻlom avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro maʼnaviyatini shakllantirish - maʼnaviy-maʼrifiy ishlarni yuksak darajaga koʻtarish orqali amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. A.Ibrohimov va boshqalar. Vatan tuygʻusi. T.:”Oʻzbekiston”, 16. 110-bet
2. Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. - T.: YOzuvchi, 1996. – B.153.
3. Mahmud Asʼad Joʻshon. Tasavvuf va goʻzallik. – T.: Adolat, 2004. -B. 34

4. Milliy istiqlol g'oyasi: Asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O'zbekiston, 2000. B – 56.

5. Falsafa. E. Yusupov tahriri ostida. (O'quv qo'llanma). – T.: SHarq, 1999. – 56 bet.

**O'ZBEKISTONDA MA'NAVIY TARBIYA UZVIYLIGINI
TA'MINLASHDA MA'NAVIYAT-MA'RIFAT
TARG'IBOTCHILARINING ROLI**

Karimberdiyev Ma'ruf Nematillo o'g'li

*Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qorako'l tuman
bo'linmasi rahbari*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.03.2021 yildagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq joylarda belgilangan ijodiy-madaniy targ'ibotchi lavozimi millatning ma'naviy hayotida muhim ahamiyatga ega oqilona qadam bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Sababi ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari" g'oyasini keng targ'ib etishda, jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirishda, oila va ta'lim tashkilotlarida uzviy tarbiyani kamol toptirishda yetakchilik qila oladigan, eng ma'naviyati yuqori, fikri teran, ijodkor, qalbi vatan tuyg'usi bilan uyg'oq, ergashtira oladigan insonlarga ma'naviyat olamini boyitishi, mamlakat hayotida muhim rol o'ynashi mumkin. Hadisi sharifda shunday deyiladi: "Kishilarning eng yaxshilari - boshqa insonlarga foydasi tegadiganlari". Shunday ekan yaxshi bo'lishni kim ham istamaydi deysiz. Albatta, ona Vatan taqdiriga befarq bo'lmaganlar, go'zal turmush tarzini shakllantirishda hissa qo'shishni xohlaydiganlar, Alloh bergan ne'matlarni qadriga etib, undan oqilona foydalanadiganlar, eng muhimi aziz umrini behuda o'tkazishni xohlamaydiganlar yaxshi nomim qolsin deb intiladilar. Ulargina ikki dunyo saodatiga erishishni istaydilar. Inson qachon ezgulik yo'lida xizmat qilishni xohlaydi, qachonki, qalbi ezgulik suvi ila sug'orilgan, imoni butun, dunyo go'zalliklaridan xabardor bo'lsa. Dunyoda eng go'zal narsa bu - shak-shubhasiz go'zal xulqdir. Biroq, hamma ham ana shunday boylikka ega emas. Afsuski, oramizda atrofdan yomonliklarni qidiradigan, salbiy fikrlovchi, shukrona qilmasdan qalbi huzr-halovatdan yiroqda yashayotgan g'ofil insonlar

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

ham yo'q emas. Bular to'g'ri tarbiya ko'rmagan, jaholat botqog'iga botgan, achinarlisi ilm-u ma'rifatdan bexabar insonlardir. Endilikda ijodiy-madaniy targ'ibotchilarning vazifasi ana o'shalarni qidirib topish hamda ularning qalbiga ezgulik chirog'ini yoqishdir. Buning uchun esa, albatta, juda ilmi, ziyoli har qanday insonning ko'ngliga yo'l topa oladigan qobiliyatga ega bo'lishlari lozim. Mamlakatimiz hayotida har bir insonning o'z o'rnini bor. Ammo, bunda targ'ibotchilarning o'rnini juda muhim. Prezidentimiz ijodiy-madaniy targ'ibotchi lavozimini tashkil etish borasida qaror qabul qilganlarida, ulkan ishonch bilan porloq kelajak uchun eng katta qadam tashlaganlar deb hisoblayman. Chunki, ma'naviyat, ma'rifat masalasi asrlar davomida juda dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Ma'rifatparvar bobomiz Fitratning bir gapini bor: "Insonning eng katta boyligi sog'lom tan, o'tkir aql, va yaxshi xulq" Agarda barcha insonlar shu uch hislat bilan qurollansalar bunday insonni hech kim yengolmaydi. Ular bilan katta qudratga ega bo'lish mumkin. Ilmdan boshqa najot yo'q. Targ'ibotchilar ana shunday qudrat egasi bo'lishlari lozim. Atrofida sog'lom fikrli, yaxshi xulqli, kuchli aql-zakovatga ega insonlarni ko'paytirishlari, ular bilan mamlakat, aholi hayotida muhim o'zgarishlarni amalga oshirishlari zarur. O'shandagina jamiyatda yuksalish bo'ladi, o'shandagina turli-tuman muammolar, dilxiraliklar, yovuzliklar bo'lmaydi. Chunki, ma'naviyati yuksak odamlar hech qachon bekorchi narsalarga vaqt sarflamaydi, loqaydlikdan, yiroq, madaniyatga mushtoq bo'ladilar. Prezidentimiz aytganlaridek: "Iqtisod jamiyatning tani bo'lsa, ma'naviyat uning ruhidir.." Ruhiyati ko'tarinki bo'lgan xalq hayotdan rozi yashaydi. Rozilik, shukronalik, huzr-halovat bor joyda qut-baraka, rivojlanish bo'ladi.

Shunday ekan, Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashash, dunyo ahlini lol qoldiradigan uchinchi renessans qahramonlarini tarbiyalash yo'lida ijodiy-madaniy targ'ibotchilarning roli beqiyos. Mamlakatimiz yoshlari orasidan iste'dodlarni saralab olish, yangi-yangi qobiliyat egalarini kashf qilish hamda ma'naviy muhitni yaxshilash borasida tinimsiz harakat qilib yurtboshimiz bildirgan ishonchni oqlashga astoydil bel bog'lashlari lozim.

Buning uchun ishni bog'cha tarbiyalanuvchilaridan boshlab, xalqning yurak yuragigacha kirib borishlari, madaniyatni yuksaltirish borasida yangidan yangi g'oyalarni o'ylab topib, tarbiya masalasiga

**Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini
ta'minlashning dolzarb masalalari**

keng ommani jalb qilishlari , kerak bo'lsa yoshi ulug' otaxon-u onaxonlar tajribasidan foydalanishlari lozim bo'ladi.

Axir bizning jannatmakon diyorimiz har qanday qurbonlikka, fidoyilikka, ardoqqa loyiq. Tuprog'i zar, mehri gavhar bunday bebaho chaman uchun qancha kuyinsak oz. Inson manfaatlari har nedan ustun bo'lgan, mehr va e'tibor maskaniga jon fido qilsak arziydi.

Maqsad aniq - ezgulikni ko'zlaganmiz,

Niyat tiniq - haqiqatni so'zlaganmiz.

Ko'kda Alloh, erda buyuk sulton panoh,

Buyuklikka erishamiz insholloh.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son Qarori.

2. <https://iiv.uz/news/shavkat-Mirziyoyev-jamiyat-hayotining-tanasi-iqtisodiyot-bolsa-uning-joni-va-ruhi-manaviyatdir>

3. https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/manaviy-marifiy_ishlarni_yangi_darajaga_olib_chiqish_buyicha_chora-tadbirlar

**UMUMIY O'RTA TA'LIMDA MA'NAVIY TARBIYA
UZVIYLIGINI TA'MINLASH OMILLARI**

Hamdamov Farrux Sayfullo o'gli

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani 17- maktabning Ma'naviy- ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

"Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir".

Sh. Mirziyoyev.

Barchamizga ma'lumki bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan yoshlarni ma'naviy- axloqiy tarbiyasini rivojlantirish, ularni milliy mentalitetimizga xos ruhda tarbiyalash, milliy g'ururni ularning ongiga singdirish borasida juda ko'p qaror, farmonlar qabul qilinyapti. Jumladan: Ozbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2019 yil 31 dekabrda qabul qilingan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059- sonli qarori, davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasi, O'zbekiston yoshlarining birinchi forumi, Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida va takomillashtirish chora-

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-sonli qarorlarida ma'naviyat yo'nalishidagi dolzarb vazifalar belgilab berildi. Shu sababdan ham umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchi yoshlarning ta'lim olishlari bilan bir qatorda ularning ma'naviy tarbiyasiga ham alohida e'tibor berish lozim. Chunki o'quvchida qachon bilim bo'ladi, qachonki, unda tarbiya bo'lsa. Shu sababli ham, Prezidentimiz bugungi kunda yoshlarning ma'naviy- axloqiy tarbiyasiga alohida e'tibor berib, bunga birinchi darajali masala deb qarash lozimligini o'zlarining har bir so'zlagan nutqlarida takror va takror ta'kidlab o'tmoqdalar. Eng avvalo, biz pedagoglar har bir yosh avlod qalbiga milliy g'urur, milliy ong, milliy mentalitet kabi tushunchalarning mohiyatini singdirib borishimiz kerak. Biz kimmiz, avlod- ajdodlarimiz qanday insonlar bo'lishgan, ularning tarix sahifalarida qoldirib ketgan izlari haqida gapirib, yoshlarning qalbida mana shunday ulug' ajdodlarimizdan faxrlanish his-tuyg'ularini uyg'otishimiz kerak. Shundagina, ular qalbida ezgulik urug'lari ildiz otadi, ular ham ana shu ulug' ajdodlariga munosib farzand bo'lib yetishishga intilishadi. O'quvchilarga ma'naviy tarbiya berishda, eng avvalo, oila, mahalla, maktabning uzviyligini ta'minlash birinchi o'rinda turadi. Bejizga Prezidentimiz: "Agar kimdir ma'naviyat masalasi – bu faqat Ma'naviyat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi, deb o'ylasa, xato qiladi. Bularning barchasi oldimizda turgan, eng asosiy, eng muhim vazifalardan biridir", - deb ta'kidlamaganlar. Darhaqiqat, bolaga ma'naviy tarbiya, oiladan ilk chaqaloqlik davridan beriladi. Bir hikmatda shunday yozilgan: " Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, axloqimizni kuchlantirmoq, zehnimizni rivojlantirmoq lozim". Tarbiya quyidagi ikki yo'nalishda amalga oshiriladi:

1. Bevosita ta'sir ko'rsatib, diqqatni jalb qilib, so'z sehri bilan.
2. Tafakkur vositasida, ya'ni tarbiyalanuvchi: qarab, ko'rib, havas qilib, yoki nafrat ortidan o'ziga xos axloq- odobga ega bo'ladi.

Tarbianing eng oson usuli bu – ibrat. Xo'sh, savol tug'iladi, oilada bola kimdan ibrat oladi, u dunyoga kelgan oila vakillari, ya'ni bola tarbiyasiga mas'ul bo'lgan shaxs, ya'ni ona ibrat bo'lishga arziydimi, ya'ni ma'naviyatlimi? Bejizga: "Ota- aql, ona – axloq,"-deb aytishmagan donishmandlarimiz. Ha, mana qayerda biz bola tarbiyasida, uning ma'naviyatining mukammal bo'lib shakllanishida kamchilikka yo'l qo'yamiz. Mashhur davlat arbobi Indira Gandining: "Bitta qiz

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

bolani o'qitsangiz, butun oilani o'qitgan bo'lasiz,"- degan so'zlari ayni haqiqat. Sababi, biz musulmonlarda, sharqda ayol kishi farzand tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Agar ayol ilmi, ziyoli ma'rifatli bo'lsa, uning farzandlari ham mana shunday ma'nan yyetuk bo'lib voyaga yetadi, bunga tarixdan juda ko'p misollarni keltirishimiz mumkin: Navoiyning Navoiy bo'lib yetishishida onasining unga o'qib bergan dostonlari, hikmatlari sabab bo'lgan, Hamid Olimjonning adabiy ertak sohasida shuhrat qozonishida, onasi Komila ayadan qorong'u kechalarda eshitgan ertaklarning o'rnini beqiyos bo'lgan. Bu haqda shoirning o'zi "Oygul bilan Baxtiyor" ertagining debochasida shunday deydi:

Bolalik kunlarimda,
Uyqusiz tunlarimda,
Ko'p ertak eshitgandim,
So'ylab berardi oyim.

Mashhur hadisshunos olim, muhaddislar imomi Imom al- Buxoriy ham otasidan erta ayrilgach, onasi tarbiyasida qoladi. Uning mana shu ulug' martabaga erishishida onasidan olgan sharqona tarbiyasi muhim rol o'ynagan. Shu sababli ham Payg'ambarimiz (s.a.v.) : " Hech bir ota-ona o'z farzandiga xulq- odobdan buyukroq meros berolmaydi",- deb bejizga aytmaganlar. Shunday ekan, ota- onalar farzand tarbiyasiga jiddiy e'tibor berib, o'z ishlaridan biroz chalg'ib, bolalari uchun ham vaqt ajratib, o'z vaqtida ularning orzulari, o'y- xayollari bilan qiziqib, ularni hayotga to'g'ri yo'naltira olsalar, Mirzo Abdulqodir Bedil ta'kidlaganidek:

"Avval g'ishtni qiyshiq qo'yarkan me'mor,
Yulduzga yetsa ham qiyshiqdir devor."

Yulduzga ham yetadigan qiyshiq devorlarlar emas, to'g'ri, tik devorlarni qurgan bo'ladilar, chunki ota- onalar - me'morlar.

Mahallaning ham yoshlar tarbiyasida o'rnini juda muhim. "Bir farzandga yetti mahalla ota- ona",- deb bekorga aytishmagan. Darhaqiqat, bugungi kunda mahallalarda ham yoshlar bilan ish olib boradigan shaxslar birlashtirilgan. Prezidentimiz tashabbuslari bilan joriy yilda "Yoshlar daftari", "Temir daftarlar" tashkil qilindi. "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga juda ko'p sohalarda keng imkoniyatlar yaratildi. Davlatimiz tomonidan ularga tadbirkorlik faoliyati turlari bilan shug'ullanishi uchun davlat banklari tomonidan foizsiz kreditlar taqdim etildi. Shuningdek, kam ta'minlangan oilaning qiz farzandlariga OTM

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

larga kirish bo'yicha maxsus qo'shimcha kvotalar ajratildi, mazkur oila farzandlari to'lov- kontrakti asosida o'qishga kirsa, ularning bir yillik to'lov- kontraktini davlat hisobidan qoplab berish tartibi yo'lga qo'yildi.

Umumiy o'rta ta'lim maskani maktablarda ham pedagoglar tomonidan o'quvchilarga ta'lim berish bilan bir qatorda ularga tarbiya ham berib boriladi. Darsdan so'ng o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida ma'naviy- ma'rifiy tadbirlar uyushtiriladi, o'quvchi eng avvalo, ma'naviy ozuqa oladigan manbasi, bu, albatta, badiiy kitoblar mutolaasidir. Shu sababdan ham maktablarda kitobxonlikka bag'ishlangan tanlov, tadbir, badiiy kechalarning salmog'ini oshirish lozim. Yoshlarga ma'naviy tarbiya berishda oila-mahalla-maktabning uzviyligini ta'minlovchi bir qator omillarni sanab o'tamiz:

1. Ota- ona eng birinchi o'rinda farzand tarbiyasida oila-mahalla-maktab uchun muhim ko'prik vazifasini o'tashini to'g'ri yo'lga qo'yish.
2. Tarbiyaga oid badiiy kitoblar, o'quv qo'llanmalar yaratib, ularni o'quvchilar qo'lga yetkazish va ularni mutolaa qilishga qiziqtirish.
3. Maktab-oila-mahalla hamkorligida ma'naviy- ma'rifiy tadbirlarni tashkil qilish.
4. Haftaning ma'lum bir kunida o'quvchilar va ularning ota- onalari uchun mahalla faxriylari, maktabning mohir pedagoglari ishtirokida o'quv- treninglarni tashkil etish.
5. Profilkatika xodimlari, mahalla otinoyilari, masjid imom- xatiblari bilan hamkorlikda o'quvchilar va ularning ota- onalariga sharqona odob-axloqqa doir ma'ruzalar tashkil etish.

Xulosa qilib aytganda: "Bola qalbi toza yuzuv taxtachasiga o'xshaydi, unga nima yozilsa(kiritilsa), shu uning taqdirini yaratadi,"- deb aytgan edi nemis pedagogi Adolf Disterveg. Shunday ekan, biz ota-onalar, pedagoglar bolalarimiz, yoshlarimizning toza qalblarini faqatgina ma'rifat naqshlari bilan bezaylik, zero, ulardan kelajakda Yangi O'zbekistonni barpo etishda, yangicha dunyoqarashga ega bo'lgan, ma'naviy barkamol, ilmi- ma'rifatli, sog'lom fikrli insonlar yetishib chiqib, Vatanimiz taraqqiyotini yuqori bosqichga ko'tarsinlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ozbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2019- yil, 31- dekabrda qabul qilingan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini

tasdiqlash va uni amalga oshirish chora- tadbirlari to'g'risida”gi 1059-sonli qarori.

2. Prezidentning 2021- yil, 26- martda qabul qilingan “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida”gi PQ- 5040-sonli qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning “1- oktyabr – o'qituvchi va murabbiylar kuni” bayrami munosabati bilan o'tkazilgan tantanali maraosimdagi nutqi. 2020- yil, 30- sentyabr.

4. A. Razzoqov. Oila – farog'at qasri – T.: Sano- standart. 2012.

5. Hikmatlar guldastasi - T.: G'afur G'ulom nomidagi “Adabiyot va san'at” nashriyoti. 1982. 70- b.

6. Tarbiya jurnali. 2007- yil 2-son 12- bet.

MILLIY XALQ HUNARMANDCHILIGINING YOSHLAR MA'NAVİYATIDAGI O'RNI

Norova Orifa

Buxoro davlat universiteti doktoranti

Mamlakatimizda milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san'atini rivojlantirish, bu orqali xalqimizning boy madaniy merosi va tarixiy an'alarini to'liq saqlab qolish, band bo'lmagan aholini, ayniqsa yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan oilalarni hunarmandchilikka keng jalb etish orqali ularning ish bilan bandligini ta'minlash masalasi davlatimiz va hukumatimizning diqqat e'tiboridadir.

Oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda kasbiy malaka asosiy o'rin egallaydi. Ta'kidlash joizki, qadim-qadimdan ajdodlarimiz yoshlarni ma'lum bir hunarga o'rgatish, ustoz-shogird tizimida faoliyat ko'rsatishga, mehnatsevar qilib tarbiyalashga juda katta e'tibor berganlar.

Mustaqillik yillarida xalq milliy hunarmandchiligini tiklash va rivojlantirish borasida tizimli chora tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan,

- xalq hunarmandchiligi va ijodiy an'analari keng rivojlangan shahar va tumanlarda hunarmandchilikni rivojlantirish markazlari tashkil etildi;

- hunarmandchilikning noyob turlari qayta tiklanib, yanada rivojlantirildi;

- iste'molchilarga hunarmandchilik mahsulotlari yetkazib berish uchun bozor infratuzilmasi shakllantirildi;

Yangi O`zbekistonda ijtimoiy-ma`naviy muhit barqarorligini ta`minlashning dolzarb masalalari

- hunarmandchilik mahsulotlarini eksport qilish rag`batlantirildi;
- xorijiy mamlakatlarda o`tkaziladigan ko`rgazma va yarmarkalarda milliy hunarmandchilik mahsulotlarining taqdimoti tashkil qilindi.

Yoshlar ma`naviyatini yuksaltirishda hunarmandchilik o`z o`rni va mavqeiga egadir. Chunki har bir hunarmandchilik yo`nalishida xalqning ma`lum bir urf-odatlari mujassam bo`ladi. SHuningdek, tarixiy taraqqiyot davomida hunarmandchilikning turli yo`nalishlarni pado bo`ldi va rivojlandi.

Hunarmandchilik-milliy an`naviy mayda tovar ishlab chiqarish bo`lib, oddiy mehnat qurollari yordamida, yakka tartibda va qo`l mehnatiga asoslangan sanoat turi, shunday mahsulotlar tayyorlanadigan kasblarning umumiy nomidir. Yirik sanoat ishlab chiqarishning vujudga kelishiga qadar ancha taraqqiy etgan bu hunarlarning turlari keng tarqalgan bo`lib, uning ayrim sohalari talab tufayli hozirgi kunga qadar saqlangan bo`lib, rivojlanayotgan mamlakatlarning xalq xo`jaligida hozir ham muhim o`rin egallaydi [1]. O`zbekistonda o`tkazilgan arxeologik tadqiqotlar - bu yerda hunarmandchilik va uy-ro`zg`or kasblari, transport vositalari va savdo-sotiq ikki ming yillar muqaddam keng tarqalganligi va rivojlanganligini isbotladi. O`zbekiston hududida neolit davridayoq hunarmandchilikning dastlabki muhim tarmog`i hisoblangan sopol buyumlar ishlab chiqarish, to`qimachilik vujudga keldi.

Mustaqil taraqqiyotimizning dastlabki kunlaridanoq xalqimizning boy ijodiy, ma`naviy-madaniy merosini, tarixini tiklash masalalari asosiy vazifaga aylandi. Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san`atini rivojlantirish va uni yo`q bo`lib ketgan turlarini qaytadan tiklashning davlat yo`li bilan qo`llab-quvvatlanishi, hunarmandchilik maktablarinining rivojlanishi, yoshlarga hunar o`rgatilishi, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish bilan bir qatorda, bularning barcha - barchasi milliy o`zligimizni anglashga bo`lgan intilish, ma`naviyatimiz poydevorini mustahkamlaydi [2].

O`zbekiston Respublikasining, turli joylarida turli xalq hunarmandchilik turlarini rivojlanishining sababi, ularning geografik joylashgan joyi, tabiati va u yerdagi mahalliy manbalarga bog`liq bo`lgan. Masalan: Buxoro viloyatida zardo`zlik, ganchkorlik, misgarlik, kulolchilik, do`ppichilik kabi turlari; Farg`ona viloyatida naqqoshlik, ganchkorlik, misgarlik, yog`och o`ymakorligi, sangtaroshlik va boshqa

turlari; Andijon viloyatida naqqoshlik, kulolchilik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, kashtachilik san'ati kabi turlari; Xorazm viloyatida kulolchilik, naqqoshlik, gilamdo'zlik, yog'och o'ymakorligi, tosh o'ymakorligi kabi turlari; Samarqand viloyatida naqqoshlik, misgarlik, kulolchilik, yog'och o'ymakorligi, ganchkorlik, kashtachilik, gilamdo'zlik, tosh o'ymakorligi kabi turlari; Namangan viloyatida naqqoshlik, ganchkorlik, kashtachilik, yog'och o'ymakorligi, pichoqchilik kabi turlari; Qoraqalpog'iston Respublikasida esa naqqoshlik, kigizchilik, gilamdo'zlik, yog'och o'ymakorligi kabi turlari yaxshi rivojlangan [3].

Xulosa qiladigan bo'lsak, xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atni tiklash, qo'llab-quvvatlash hamda rivoji uchun imkoniyatlar yaratish, nafaqat ayrim unut bo'lgan hunarmandchilik sohalarining qayta tiklanishiga olib keladi, balki bu jarayonni ishlab chiqarish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat turiga aylantira olish mumkin, qolaversa, shu orqali yurtimizda turizm sohasining rivojini ham ta'minlagan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: Davlat milliy nashriyoti. 2002. –B.- 392.
2. Bulatov S.S. va boshqalar. Naqqoshlik. T. "Iqtisod-moliya". 2010. B. 54.
3. Abdullaev T. XIX – XX asrlarda o'zbek kandakorligi. - Toshkent, "Fan", 1974. –B.-19.
4. <https://hunar.uz/> murojaat sanasi 5.05. 2021

**O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-MA'NAVIY MUHIT
BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MA'NAVIYAT-
MA'RIFAT TARG'IBOTCHILARINING ROLI**

Ishmuxammedova S.M

***Buxoro tuman 28-maktab ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha
targ'ibotchisi***

"Bugungi kunda jamiyatimizning yuzini qora qiluvchi pastkashlar, yomonlar, beboshlar, o'g'rilar, giyohvandlar va nashavandlar... kecha tarbiyalariga e'tibor berilmagan bolalardir". Abdulla Avloniy bu fikrlarni aytgan paytda naqadar haq edi. Darhaqiqat, bir nihol ko'kka bo'y cho'zib daraxt bo'lgunga qadar unga bir qancha omillar ta'siri juda muhim.

Unumdor tuproq, suv, havo, o'g'it va hokazo. Bola ham bamisoli

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

bir nihol. U voyaga yetish mobaynida, avvalo, oilasi, qo'ni-qo'shni, mahalla, atrof-muhit ta'siri ostida shakllanib boradi. Shunday ekan, oila, mahalla, maktab birgalikda hamjihatlikda ish olib borilsa, muammolar osonroq bartaraf etiladi.

Har bir bola Olloh tomonidan in'om etilgan iste'dod va qobiliyatga ega bo'ladi. Ammo bu xususiyatlar hammada ham yaqqol namoyon bo'lavermaydi. Hech bir ekin parvarishsiz hosil bermaganidek, har qanday qobiliyat, iste'dod ham e'tibor hamda e'tirofsiz yuzaga chiqa olmaydi. Mana shu qobiliyatlarni yuzaga chiqarish uchun esa maktab juda muhim rol o'ynaydi, chunki har bir o'quvchi darslar jarayonida o'zidagi qaysidir ijobiy tomoni yoki aqlining teranligi, fikr doirasining kengligi, hisob-kitob borasida tezkorligi, mantiqiy fikrlay olishi, xotirasining kuchliligi, izlanuvchanligi bilan o'zini namoyon qila oladi. Bu xususiyatlar, albatta, sinfning a'lochi, eng oldi o'quvchilariga xos bo'lgan xususiyatlar hisoblanadi, hamda barcha e'tibor mana shu o'quvchilarga qaratiladi. Tanlovlarga ham, bellashuvlarga ham, tadbirlarga ham ko'pincha sinfning eng oldi a'lochi o'quvchilari jalb qilinadi. Mana shu bizning eng katta muammomiz. Bir sinfda 30 nafar o'quvchi o'qiydigan bo'lsa, shundan 10 tasini iqtidorli deb oladigan bo'lsak, qolganlarichi? Qolgan 20 ta o'quvchining kelajakdagi hayoti nima bo'ladi? Ular e'tibordan chetda qolib o'zini sinfga, maktabga keyinchalik esa jamiyatga keraksiz ekanligini his qilgach, yot g'oyalar oqimiga kirib ketishi juda oson bo'ladi. Mana shuning uchun ham biz asosiy e'tiborni mana shu qo'shtirnoq ichidagi "qobilyatsiz, iste'dodsiz" o'quvchilarga qaratishimiz lozim. Maktabda ma'naviy tadbirlarni ko'proq o'tkazishni yo'lga qo'yishimiz kerak, chunki fanga qiziqishi bo'lmagan o'quvchini boshqa sohalardagi, yashirin iste'dod va iqtidorini izlab topishimiz juda muhim. O'ta sinchkovlik bilan yondashsakgina, o'z oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga erisha olamiz. Biz kelajak avlodni maktab partasidanoq katta hayotga tayyorlab borishimiz darkor. Asosiy vazifamiz ma'naviyati yuksak, dunyoqarashi keng, o'zbek millatiga xos urf-odatlarini, an'analarni hurmat qiladigan, o'zbek yigitlariga xos or-nomusli, o'zbek qizlariga xos ibo-xayoli, hech bir davlatda uchramaydigan ma'naviy qadriyatlarimiz davomchilarini shakllantirmoqdir. Buning uchun esa birinchi navbatda kitobga, kitobxonlikka bo'lgan qiziqishini kuchaytirish, musiqaga, san'atga, sportga, hunarmandchilikka e'tiborini orttirish, shu orqali o'quvchi

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

kelajakda qaysi yo'ldan ketishi muhimligini anglab olmog'i lozim. Biz targ'ibotchilar esa buning uchun maktabda turli xil ma'naviy tadbirlar bilan bir qatorda sinflar kesimida turli sohada , besh tashabbus doirasida ko'rik- tanlovlar o'tkazishni yo'lga qo'ysak, nur ustiga a'lo nur bo'lar edi. Bundan asosiy maqsad har bir o'quvchi o'z qobiliyatidan, iste'dodidan kelib chiqqan holda yondashadi, hamda qaysidir sohaga bevosita qiziqishi uyg'onadi. Bu qiziqishga esa takror va takror izlanishlari, o'z ustida ishlashi va rag'batlantirish natijasida o'z mahsulini namoyon qiladi. Masalan, ko'rik-tanlovlarni quyidagicha tashkil qilish mumkin.

1. "Mening sevimli hikoyam".

Bunda sinfning har bir o'quvchisi o'zi xohlagan hikoyani o'qib kelib, o'sha hikoya haqidagi taassurotlari bilan o'rtoqlashadi. Shu asnoda o'quvchilar bir qancha hikoya haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.

2. Qo'shiqlar ko'rik- tanlovi.

Bunda har bir sinfdan qo'shiqchilikka, xonandachilikka qiziqishi bor o'quvchilar o'zi sevgan qo'shig'ini ijro etadi.

3. Milliy raqslar tanlovi.

Bu tanlovda ham har bir sinf bitta milliy kuyga jamoa tarzida raqs tayyorlaydi.

4. "Men bo'lajak aktyorman".

Bu tanlovda har bir sinf o'zi xohlagan hikoyadan, qissadan, asardan parcha sahnalashtirib namoyish qilishi kerak bo'ladi.

5. Kasb-hunarga yo'naltirish borasida esa tikuvchi, to'quvchi, applikatsiya, biser bilan bezak tayyorlovchi, naqqosh, ganchkor, chilangar, oshpazlikka qiziqishi bor o'quvchilar orasida yarmarka tashkil qilish va o'zlari yaratgan mahsulotlarini namoyish qilishlari uchun sharoit yaratib berish lozim.

6. "Yosh musavvirlar" tanlovida esa har bir sinfdan rassomchilikka qiziqishi bor o'quvchilar ma'lum bir mavzuda rang tasvirda o'z qobiliyatlarini namoyon etishadi.

7. "Qalamimda yurtim jamoli" tanlovi.

Bu tanlovda esa she'riyatga qiziquvchi o'quvchilar o'z ijod namunalari bilan o'rtoqlashadilar.

8. G'olib bo'lgan o'quvchilar esa, albatta, faxriy yorliqlar, diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlab boriladi.

Men bu tanlovlar natijasini quyidagicha izohlamoqchiman. Shu asnoda o'quvchi ,avvalo, o'z sha'nini, keyinchalik sinfi sha'nini, maktabi

**Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini
ta'minlashning dolzarb masalalari**

sha'nini, tuman sha'nini, viloyat sha'nini hamda bular natijasi o'laroq Vatan sha'nini himoya qilishni o'rganib oladi. Yaratilgan imkoniyatlar, qulay sharoitlar, Prezidentimizning otalarcha g'amxo'rliqi o'quvchilar qalbiga g'urur-iftixor tuyg'usini shakllantiradi. Qalbida shunday iftixor tuyg'usi bor kishidan esa, albatta, yangi O'zbekistonning zamonaviy, kreativ, yangicha fikrlovchi bunyodkorlari yuzaga keladi. Vatan tuyg'usini his qila oladigan, uning har bir qarich tuprog'ini qadrlay oladigan, har qanday yot g'oyalardan mardlarcha asray oladigan yurt kelajagi, ravnaqi uchun har jabhada o'z hissasini qo'sha oladigan iste'dodli, iqtidorli o'quvchilarni izlab topish, yuzaga chiqarish, ularni har qanday vaziyatda qo'llab-quvvatlash, ularga motivatsiya berish biz targ'ibotchilarning asosiy vazifamizdir. Bizga berilgan bunday imkoniyatlardan unumli foydalangan holda yurt ertasi hisoblanmish yosh avlodning birortasini ham nazardan chetda qoldirmasligimiz lozim. Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Yangi O'zbekistonni yangicha iste'dod, yangi kashfiyotlar bilan birgalikda quramiz va bu qurilishni maktab ostonasidan boshlaymiz" .

**MA'NAVIY TARBIYA UZVIYLIGINI TA'MINLASHDA
MA'NAVIYAT-MA'RIFAT TARG'IBOTCHILARINING ROLI**

Sayidova Nigora Esanboy Qizi

*Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qorako'l tuman
bo'linmasi bosh mutaxassisi*

Dunyo tarixiga nazar tashlasak, har bir xalq avvalo, ma'naviy birlashuvi, milliy g'oyasi bilan yuksalgan. Bugun yangi hayot qurish, rivojlangan davlatlar qatoriga chiqish yo'lidan borayotgan mamlakatimizda ham milliy g'oya masalasi juda muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi zamonning muxim xususiyatlari insonlarning ong-u tafakkurini, qalbini egallash uchun kurashning kuchayganligidir. Turli mamlakatlarning o'zaro to'qnashuvlari, harbiy yurishlar, iqtisodiy siquvga olishlar o'rniga endi ko'proq mafkuraviy vositalar ma'naviy qurollar ishlatilmoqda. Inson - yaratuvchi olim. Texnika texnologiya soxasi shiddatli rivojlanishda davom etmoqda. Internet tarmog'i foydalanuchilari soni kuniga milliondan oshib borayapti. Shunday ekan, milliy urf-odatlarimiz, ming yillik qadriyatlarimiz o'rnini "Ommaviy madaniyat"ning turlicha ko'rinishlari insonlar ongini zaxarlamoqda.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Yolg'on ma'lumotlar tarqalib ketmoqda. Internet tarmog'ida turli pornografik suratlar, axloqsizlikni targ'ib qiluvchi videolar keng tarqalgan. Bulardan ko'zlangan maqsad: insonlarni psixologik jihatdan itoat qildirish, zaiflashtirish, holi qilish va inson ongini egallash. Ruhiyatga salbiy tasir oqibatida xulq atvor buzulishi, asabiylik, ruxiyatni aynitish, maqsadidan chalg'itish, shaxsni mutaassiblashtirish kabi oqibatlarga sabab bo'ladi. Natijada ruxiy zaiflikka uchragan insondan turli maqsadlarda foylanish imkoni kelib chiqadi. Qo'l ostida tarbiyalanayotgan shaxslarning hayot yo'llari ham, manaviyati ham boshqariladi. Mamlakatda ijtimoiy barqarorlik buziladi. Mana shunday holatlarni oldini olish, yagona maqsad yo'lida birlashtirish, jamiyat barqarorligi va farovon istiqbolga erishish, o'z manfaatlarini himoya qilishni o'rganish, ichki va tashki mafkuraviy dushmanlarga qarshi kurashda uyushuvchanlikka erishish, vatanparvarlik ruxiyatini kuchaytirish maqsadida ma'naviyat va ma'rifat soxasiga e'tibor yanada kuchaytirildi. So'nggi yillarda bu borada qator qarorlar qabul qilindi. Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashi raisi Prezident ekani belgilab qo'yildi. Kengashning hududiy bo'limlariga mas'ullik hokimlar zimmasiga yuklatildi. Bu o'zgarish ma'naviy-ma'rifiy ishlarni davlatimiz siyosatida yanada yuksak o'ringa ko'tardi.

Bunday tahlikali vaziyatda hushyor va ogoh bo'lib, xalqimizning tinchligi, mamlakatimiz manfaatlarini o'ylab yashash zarur. Davlatimiz rahbari loqaydlik va beparvolik eng katta xavf ekanini, bugun uchrayotgan ijtimoiy muammolarni kamaytirish uchun nuroniylar tarbiyasi, jamoatchilik nazorati etishmayotganini ta'kidladi. Ijtimoiy-ma'naviy muhitni ilmiy asosda tahlil qilishni davrning o'zi talab etmoqda. Jamiyatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlar shunday asosda yo'lga qo'yilmagani uchun ham kutilgan natijani bermayapti. Shuning uchun Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi ishini tanqidiy o'rganib chiqib, faoliyatini tubdan takomillashtirish zarurligi belgilandi.

Prezidentimiz ushbu markazning "Ma'naviyat targ'ibotchisi" o'quv muassasasi negizida, Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutini tashkil etish taklifini bildirdi.

Prezident tomonidan 2021-yil 26-mart kuni «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaror imzolandi. Ushbu qarorga muvofiq har bir umumta'lim muassasasida joriy etilgan ijtimoiy-madaniy masalalar

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

bo'yicha targ'ibotchi lavozimi joriy etildi. Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi ta'lim muassasida adabiyot va sana'tga qiziqadigan o'quvchilarni o'z atrofida birlashtiradi. Ijodkor yoshlarni saralab ularni turli xil to'garaklarga jalb qiladi. Taniqli yozuvchi va shoirlarni jalb qilib, maktablarda ijodiy-badiiy kechalarni tashkil qiladi. Bu orqali ijodkorlikka qiziqish uyg'otadi. Faol yoshlarni tele ko'rsatuv va radio eshittirishlarga jalb qiladi. O'zining iqtidori, salohiyati faolligi bilan turli tadbirlarni jamoatchilikka namoyish etishda yordam beradi.

Respublikamizda ma'naviyat targ'iboti sohasida amalga oshirilyotgan ishlar albatta o'z samarasini berib kelmoqda. Xulosa qilib aytganda, yoshlarni ma'nan boy, aqlan yetuk, jamiyat tayanchi, kelajak bunyodkorlari qilib tarbiyalash bizning ulkan vazifamiz hisoblanadi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni birgalikda, hamkorlikda, jamoa bo'lib amalga oshirsak, ko'zlangan maqsadga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi ma'ruzasi.
3. M.Jakbarov, SH.Abbasova «Milliy va milliy manfaatlar», Toshkent 2014.

**YOSHLARIMIZ ONGIGA SALBIY TA'SIR ETUVCHI
G'OYALARGA QARSHI SAMARALI KURASH OLIB
BORISHNING MA'NAVIIY-MA'RIFIY USLUBLARI**

**YOSHLAR ONGIDA SALBIY G'OYALARGA QARSHI
IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI VA
VOSITALARI**

Utanova Umida Agzamxodjaevna

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
"Ijtimoiy fanlar, pedagogika va kasbiy ta'lim" kafedrasini mudiri,
f.f.n., dotsent*

O'zbek xalqi o'z madaniyati va ma'naviyatida yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor bergan va bunday komillik darg'alarini etishtirish har bir zamonda muhim sanalgan. Hazrat Navoiy bobomiz ham: "Olamdan g'amsiz o'tay desang, ilm-u hunar o'rgan. Dunyodan kamolotga etmay o'tish – hammomdan toza bo'lmay chiqishning xudi o'zi", - deya ta'riflaganlar. Demak, dunyoga kelmoqdan murod komillikka, yaxshilikka intilmoqlikdir.

Har bir millat o'z kelajak avlodida komillikni ko'rishni orzu qiladi. Bunday insoniy fazilatlar esa oilada shakllanadi. Jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy muhitning sog'lomligi, komil inson tarbiyasi ko'p jihatdan oilaviy madaniyatga, tarbiyaga bog'liqdir. Oila qanday bo'lsa, jamiyat ham shunday bo'ladi.

Inson umrining to'rtinchi uch qismi turar joyida, uyida, xo'jalik hayoti kechadigan makonda o'tadi. U shu makonda tug'iladi, parvarish oladi, yurishni, gapirishni, ijtimoiy borliqqa o'z munosabatini bildirishni o'rganadi. Xalqimizning: "Qush uyasida ko'rganini qiladi,"- degan maqoli nafaqat farzandlarga, barcha insonlarga taalluqlidir. Shuning uchun ham «oila – kichik davlat», «oila – kichik jamiyat» deyishadiki, bu xo'jalik hayoti bilan bog'lik muhitning insonning shakllanishida qanchalik muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi.

Axloqiy munosabatlar dastavval oilada shakllanadi. So'ng oiladagi munosabatlar yasli va bolalar bog'chalarida, maktab va oliy o'quv yurtlarida, jamoa joylarida takomillashadi. "... tarbiyani, - deydi Abdulla Avloniy - tug'ilgan kundan boshlasak, vujudimizni quvvatlandurmak, fikrimizni nurlandurmak, axloqimizni go'zallandurmak, zehnimizni ravshandurmak lozim ekan. Tarbiyani kimlar qilur? Qanday qilinur? Bu

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

savolga "birinchi uy tarbiyasi" deb javob bermak lozim". Demak, adib ham oila tarbiyasiga ahamiyat beryapti

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Yusuf Hos Hojib farzand tarbiyasida ko'proq ma'suliyatni otalar zimmasiga yuklaydi. Bugungi kunda farzand tarbiyasi faqatgina onalar zimmasiga qolib ketmayaptimi, degan haqli savol tug'iladi. Haqiqatdan ham shunday. Natijada yoshlar orasida qonunbuzarliklar ko'payib ketyapti. Oilada otaning roli, ma'suliyati pasayib bormoqda.

Bolalar ma'naviy dunyosining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri, kattalarni namuna deb bilishlari hisoblanadi. Hech qanday narsa bolalarga namuna kuchidek ta'sir ko'rsata olmaydi. Namuna taqlid uchun asosiy manba rolini o'ynaydi.

Hozirgi vaqtda terrorizmning tajovuzidan o'zini xoli his qiladigan birorta qit'a yoki davlatning o'zi yo'q. Yurtimizga qarshi tajovuz va qo'poruvchilik xurujlarini tashkil qilish niyati bilan yurgan kuchlarning tuzog'iga tushganlarning aksariyati birinchi navbatda oilada jiddiy ta'lim-tarbiya olmagan yoshlardir. Ular ijobiy ma'nodagi vorislik, ya'ni avloddan avlodga o'tib boradigan ibratli an'analardan yiroq, muhiti nosog'lom bo'lgan oilalarda o'sgan, omadi yurishmagan, hayotda o'z o'rnini topmagan, jamiyat e'tiboridan chetda qolgan o'smirlardir. Agar o'smir yoki o'spirinda yoshlikdan kitobga, bilimga mehr shakllanmagan bo'lsa, uning bilimi sayoz, tushunchalari tor bo'lsa, u sog'lom g'oyani zararli g'oyadan, dunyoviylikni dahriylikdan, ziyoni jaholatdan farqlay olmaydi.

Har bir oilaviy an'ana va udum mafkuraviy tarbiyaning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Bolalarda yoshlikdan xalq va yurt taqdiri uchun fidoiylilik tuyg'usini shakllantirish mafkuraviy tarbiyada muhim o'rin tutadi. Buning uchun bola hayotining dastlabki yillaridan boshlab, uni narsalar olami bilan tanishtirishning milliy an'analарimizga xos shakllarini qo'llash lozim. Bu jarayonda milliy turmush tarzimizga yot bo'lgan «jangari» o'yinchoqlar, multfilmlar, kinofilmlardan imkon qadar foydalanmaslik. Sharqona odob va bashariyatning ezgu intilishlarini aks ettiruvchi o'yinlar, o'yinchoqlar, rasmlı kitobchalar, milliy ertaklar asosida yaratilgan multfilmlar bolalardagi ilk yoshlikdan mafkuraviy qarashlarning to'g'ri shakllanishida qo'l keladi.

Inson tug'ilganidan so'nggi nafasigacha an'analар, urf-odatlar, bayramlar qurshovida yashaydi. Ular esa kechagi avlodlardan bugungi,

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

bugungi avlodlardan ertangi avlodlarga ma'naviy meros bo'lib o'tib, ma'naviy kamolot sari eltadi. Urf-odat, an'analar bugungi avlodni ajdodlar tajribasi bilan tanishtiradi, ularda o'z burchi, vazifalariga ma'suliyat bilan qarash fazilatlarini shakllantiradi. G'.N.Najimov yozganidek: "An'analarni kishilarga majburlab singdirib bo'lmaydi, ular xalq ijtimoiy ahvoli, turmush tarzi, maishiy hayoti va moddiy ishlab chiqarishining tarixiy ifodasidir. An'analar ijtimoiy borliq tomonidan qabul qilingan, o'tmish tajribasidan o'tgan, hayotni davom ettirish uchun avloddan avlodga etkaziladi. An'analar – olg'a siljish uchun tayanch, saboq, pog'onadir." [2] Shu bilan birga bugun xalq an'analari, marosimlari va ayniqsa, bayramlarida tarixiy-madaniy o'ziga xosliklarni saqlab qolish muammoga aylanib bormoqda. Magnitafon, sintezator vositasida ortiq darajada shovqin, qiy-chuv, soxta "ommaviylik" avj olmoqda. Xalq madaniyatining asrlik an'alariga xos ichki mazmundorlik, mohiyat, xalqning faol harakatlari, ishtiroki soxta tashkilotchilik bilan almashtirilayotgani kuzatiladi. Bizning fikrimizcha, xalq an'analari, marosimlari va bayramlaridagi hatto konservativlik, ibtidoiylik ta'siri bo'lsa-da, ichki o'ziga xoslikni, arxaizmni saqlab qolish zarur.

Bugun oldimizga qo'yilgan maqsad, ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalash ekan, bunda mahallaning o'rnini beqiyosdir. Dono xalkimiz: "Bir farzandga etti qo'shni ota-ona," - deb be'jiz aytmagan. Keksalarning pand-u nasihati, kattalarning shaxsiy ibrati, jamoaning hamjihatligi orqali insonlar ongiga ezgulik g'oyalari singdirib boriladi. Hozirgi kunda yoshlar ma'naviy dunqarashini shakllantirishda mahallaning o'rniga katta e'tibor berilmoqda. Shu sababli mahallaning huquq va vakolatlari kengaytirilmoqda, ular bugun o'zini o'zi boshqarish idorasi sifatida keng ko'lamli faoliyat olib bormoqda.

Diniy qadriyatlarimiz ham yoshlar ma'naviy kamolotining muhim omillaridan biridir. Asrlar mobaynida xalqimizning ma'naviyati, insonparvarlik, adolatparvarlik, ma'rifatparvarlik kabi ezgu fazilatlarini Sharq falsafasi va islom diniy ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlanib kelgan. Ma'naviy qadriyatlarimizni qayta tiklash, o'zligimizni anglash jarayoni kechayotgan hozirgi paytda umuman dinga – islomga munosabat tubdan o'zgardi.

Har qanday jamiyatda komil insonni tarbiyalash uchun asosan uning ruhiy-ma'naviy olamini boyitish, ongiga ezgu fazilatlar va yuksak

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

ahloq ruhini singdirish alohida ahamiyatga ega. Diniy qadriyatlar yurtimizda pok axloqiy va umuminsoniy qadriyatlar, sharqona odob-axloq qaror topishida muhim o'rin egallaydi. Yoshlarda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik, qadriyatlarga hurmat bilan qarash tuyg'usini tarbiyalash dolzarb muammolardan biri. Xalq hayotida, madaniyatida din, e'tiqod, diniy qadriyatlar etakchi o'rinda turgan. "Din, - A. Men ta'kidiga ko'ra, - madaniyatlar, sivilizatsiyalarning mohiyatini, insonga esa butun borliqdagi o'rini anglashga yordam beradi. G'arb sivilizatsiyasining taraqqiyoti tarsolik, Shrq madaniyatining shakllanishi konfutsiylik, daosizm, buddaviylik va islom bilan bog'liqdir"[3]. Demak, dinni anglash, xalq madaniyatini, sivilizatsiyani anglash, diniy qadriyatlarni inkor etish esa xalq madaniyatini, sivilizatsiyani rad qilishga intilishdir.

Ma'lumki, e'tiqod kishiga ma'naviy quvvat, kuch, o'ziga ishonch, g'oyalariga sobitlik beradi. Diniy e'tiqodi barqaror kishi boshqaga dushmanlik qilmaydi, uning moliga ko'z olaytirmaydi, nafsga, takabburlikka berilmaydi. Islomiy ma'naviy qadriyatlar negizida soddalik, beg'arazlik, ezgulik yotadi. Zero haqiqiy e'tiqodli kishi o'zi yashayotgan uy, mahalla, mamlakat va davlat uchun mehr ko'zi bilan boqib uning kelajagi uchun qayg'uradi.

Ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashda adabiyot va san'atning ham ahamiyati katta. San'atning qudratli kuchi shundaki, u nafaqat insonga ma'naviy ozuqa beradi, balki butun bir jarayonlarning, taraqqiyotning qudratli quroli bo'la oladi. Adabiyot va san'at asarlarining kuchi uning xalqchil va tushunarligida, kishilar ichki ruhiy dunyosiga emotsional ta'sir ko'rsata olishidadur. Yoshlar tarbiyasida adabiyot va san'atning ana shu xususiyatini hisobga olish muhimdir. Ma'naviy tarbiyada o'zbek xalqining boy ma'naviy merosidan, jumladan, Yusuf Hos Hojib, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Mashrab, Muqimiy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir, Abdulla Avloniy kabi klassik shoir va yozuvchilarimiz asarlaridan foydalanish, yoshlar qalbini, ruhiy dunyosini ma'naviy boyitishda katta ahamiyatga egadir.

Demak, biz – ota-onalar, o'qituvchilar, jurnalistlar, adabiyot va san'at ahli yoshlar ongiga ajdodlarimizning pokiza va o'tli muhabbatini chuqur singdira olishimiz, shuningdek, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, iste'dod va mahoratlarini namoyon qilishga

qaratilgan shart-sharoitlardan unumli foydalanish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish bo'yicha amaliy takliflar bilan chiqish, hamda yot g'oyalardan asrash uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirish lozim.

ADABIYOTLAR

1. Nadjimov G.N. Народные традиции и культура. –Toshkent: O'zbekiston. 1992.-S.14.
2. Men A. Istoriya religiy.-M.: 1994. –S.17.

YOSHLARNI YOT G'OYA VA MAFKURALARDAN MUHOFAZA QILISHNING MA'NAVIY-MA'RIFIY ASOSLARI

Matyazova Nilufar Sabirovna

*TATU Urganch filiali "Gumanitar va ijtimoiy fanlar" kafedrası
dotsenti.*

Yusupova Mehribon O'ktamovna

TATU Urganch filiali Reja moliya bo'limi boshlig'i

Tarix – bu ma'rifiy qurol. Tarixini, o'tmishini yaxshi bilgan kishi, Vatanini chuqurroq sevadi, ajdodlaridan madad oladi. Inson va xalq ma'naviyatining tarkibiy qismlaridan biri – tarixiy xotiradir. Tarixiy xotira bor ekan, xalq o'zining buyuk kechmishi, qadriyat va an'alarini doimo yodda saqlaydi. Inson xotira bilan tirik, qadr bilan ulug'. Mana shu fikrlarning isbotini quyidagilarda ko'rish mumkin.

Hayot haqiqati shuni ko'rsatyaptiki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda – ezgulik va yovuzlik yo'lida foydalanish mumkin. Agar biz globallashuvning manfiy va musbat jihatlarini bilishni istasak, unda madaniy, ma'naviy-axloqiy jabhaga murojaat qilishimiz lozim. Tabiiyki, "ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzulqik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi". Haqiqatan ham ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan axloqsizlikni madaniyat deb bilib, uni "targ'ib" qilishga urinayotgan kimsalar kam emas. Mana shunday holat hozirgi kun yoshlari tarbiyasiga katta xavf solmoqda. Yoshlarimizning ma'naviy olamida bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umummilliy

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarur. Bizningcha, hozirgi sharoitda yoshlarimiz ma'naviyatini yuksaltirishda ajdodlarimiz qoldirgan milliy ma'naviy merosdan foydalanish, keksa avlod vakillarining o'gitlariga amal qilish juda katta ahamiyatga egadir. Bunday maqsadlarni amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, chuqur o'ylangan, ilmiy asosda tashkil etilgan ma'naviy tarbiya bilan javob berish mumkin.

Ma'naviy tarbiyani muntazam va uzluksiz olib borishda, jamiyatimizni ma'naviy-axloqiy jihatdan mustahkamlash va taraqqiy ettirishda xalqimizning boy madaniy tarixini chuqur o'zlashtirish, jahon madaniyati tarixida munosib o'rin egallagan allomalarimizning merosini har tomonlama o'rganish katta ahamiyatga egadir. Markaziy Osiyo mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqalar o'z asarlarida inson his-tuyg'ulari, uning qadr-qimmatini insonparvarlik g'oyalariga to'laligini aytishadi. Xususan, Forobiy aytadiki, "baxt-saodat osoyishta hayot, kishilar o'rtasidagi hamkorlik, komil inson haqidagi ideallar, ma'naviy barkamollik insonning ko'p ijobiy fazilatlari va xislatlari asosida kishilar jamoasida yuzaga keladi". Uningcha inson o'z-o'zidan baxtli bo'la olmaydi, bu narsa uning harakatlariga, mehnatiga, kasb-hunarni egallashiga, bilimiga bog'liq. "... Inson yuksak kamolotga erishuvi yo'lida harakat qilganidek, aqliy ham harakat qilsa, hech shubhasiz, o'zi o'ylayotgan so'nggi darajadagi baxt-saodatga erishadi".

Birinchi prezidentimiz I.Karimov "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" asarida o'tgan buyuk ajdodlarimiz faoliyatiga atroflicha to'xtalib, bugungi kunda bizning maqsadimiz "bunday ulug' zotlarning hayot yo'li va qoldirgan merosini to'liq tasvirlash emas, balki ularning eng buyuk namoyandalari timsolida ma'rifat, ilmu fan, madaniyat, din kabi sohalarning barchasini o'zida uyg'unlashtirgan xalqimizning ma'naviy olami naqadar boy va rang-barang ekanini isbotlab berishdan iboratdir", deb ta'kidlaydi.

Globalashuv jarayoni tez sur'atlar kasb yetayotgan bugungi kunda mehnat migratsiyasi bilan bog'liq qator ijtimoiy va huquqiy muammolar yuzaga kelmoqda. Chunonchi, odamlarni aldov yo'li bilan chet elga olib chiqib, majburan ishlatish, xotin-qizlarga katta maosh to'lanadigan ish o'rinlarini va'da qilib amalda ulardan fohisha sifatida foydalanish kabi jinoyatlar bugungi kunda ko'plab sodir bo'lmoqda. Jamiyatga yot va

**Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini
ta'minlashning dolzarb masalalari**

begona illatga qarshi kurashish izchillikni, kuchlarni aniq maqsadga yo'naltirishni, keng jamoatchilikni jalb etishni talab qiladi. Milliy, ma'naviy qadriyatlarimizda aynan birovlar mehnatiga yashash, foyda olish qattiq tanqid ostiga olinadi. Jumladan, alloma Jomiy fikricha, yaxshi nom chiqarish uchun doimo xalqqa yaxshilik qilishi, ezgu amallar bilan mashg'ul bo'lishi zarur. Mutafakkir tekin tomoq, ochko'z, ta'magir, faqat birovlarning mehnati hisobiga yashaydigan, o'zlari halol mehnat qilmaydigan kishilardan nafratlanib, yaxshi kishilarni quyidagicha ulug'laydi:

Yaxshilikni fan qil, ey yaxshi odam,
Yaxshilik fanidan topasan karam...
Sabr birla agar topsang yaxshi nom,
Yaxshi nomdan topar inson saranjom.
Bu firuza osmon tagida tamom,
Faqat yaxshi noming qolur vassalom.

Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" asarida ham insonlarning o'zaro to'g'ri munosabatda bo'lishiga, bir-biriga nisbatan jabr-zulm qilmaslikka, xarom-xarish ishlarga berilmaslikka, odamlarga mehr-muruvvat bilan qarashga, ularni hurmat qilish, inson qadr-qimmatini himoya etish kabi insonparvarlikka undovchi o'g'itlarni yozib qoldirgan. Alloma "inson" degan ulug' nomni oqlash, unga loyiq turish, o'zgalar mehnatining qadriga etish xususida shunday deydi:

Birov senga muayyan mehnat singdirsa,
U mehnatni unutma, misli o'lik bo'lma.
Ey asl kishi, odamgarchilikni qo'yma,
Kishilarga doim odamgarchilik qilib tur.
Kimning kimga biror mehnati kirgan bo'lsa,
Sen evazi uchun unga ko'proq mehnat singdir.

Xalqimizda "Qari bilganni pari bilmas", - degan hikmat bejiz aytilmagan. "Keksalar o'rgatish, maslahat berish huquqiga egadirlar. Ana shu ma'naviy huquqni hurmat qilgin", - deb aytgan edi V. A. Suxomlinskiy. "Keksalarni qadrlamagan inson musulmon emas", deyiladi Hadisi Sharifda. "Avesto"da esa, "Insonning yashashdan maqsadi – yurtni obod, elni farovon qilish, e'tiqodli bo'lish, qariyalarni qadrlab, e'zozlab, ularning yoshlar bilan o'zaro ahil yashashini ta'minlashdan iborat" deb aytilgan. Shunday ekan, "Keksalik – donishmandlik", "YOshlar tarbiyasida keksa avlod o'g'itlarining roli",

“Milliy ma'naviy qadriyatlarda yoshlar tarbiyasi masalalari” mavzularida muntazam tadbirlar, insholar tanlovi tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Donishmandlardan biri “Har bir millatning ma'naviy boyligi uning qancha kitob o'qishiga qarab belgilanadi” degan ekan. Ulug' adib Cho'lpon aytganidek, “adabiyot yashasa – millat yashaydi”. Kitob o'qib, ajdodlarimizdan qolgan bebaho merosimizni o'rganish, uni hayotga tatbiq etish va yoshlarimizga o'rgatish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki ota-bobolarimiz ulug'lagan odamiylik, ma'rifat, poklik dini bo'lgan islomning jamiyatni ruhiy-axloqiy jihatdan sog'lomlashtirish borasidagi ta'limoti, xususan, uning uzviy qismlaridan bo'lgan yoshlar tarbiyasiga oid qarashlarini chuqur o'zlashtirish har tomonlama komil nasllarni vujudga keltirishga katta hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Xayrullayev. “Forobiy”. Toshkent., 1963, 260-bet.
2. A.Navoiy “Hayratul Abror”. - T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. 139- bet.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: “Ma'naviyat”, 2008, 44-bet
4. Jamiyat sivilizatsiya. Davlat: ijtimoiy tarixiy taraqqiyot omillari. T.2007 78-bet.

**MA'NAVIY RAQOBAT: MOHIYATI, TURLARI VA
AHAMIYATI**

Negmatova SH.SH.

***Samarqand davlat universiteti, f.f.d., “Ma'rifat” targ'ibotchilar
jamiyati a'zosi***

Kishilik jamiyati paydo bo'lgandan so'ng, uning rivojlanishi yoki inqirozga uchrash sabablaridan birini odamlar, mehnat jamoalari, davlatlar o'rtasidagi har xil shakldagi raqobatlashuv jarayonlari tashkil etadi, deyish mumkin. Tarixdan bizga ma'lumki, har qanday millat yoki xalqning tinch va osoyishta yashashlari uchun doimo turli to'siqlar, muammolar bo'lib kelgan. Iqtisodiy, harbiy jihatdan to'liq ustun bo'lgan davlatlar o'zidan kuchsiz mamlakatning hududlarini egallash, ularning boyliklariga egalik qilish va oqibatda o'z yurti sarhadlarini yanada kengaytirib ulkan davlat tuzishni maqsad qilishgani sir emas. Bunday maqsad yo'lida turli hiyla-nayranglardan ham, harbiy kurashdan ham

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

foydalanilgan va egallangan hududning tub aholisi milliy urf-odatlarini, qadriyatlarini, dinini yo'q qilishga urinib, o'zlarining dinini, urf-odatlarini, tilini singdirishga harakat qilganlar.

Yuqoridagi fikrlarni keltirishimizdan maqsad shuki, hozirgi taraqqiy etgan, rivojlangan, sivilizatsiyalashgan XXI asrda ham bu kabi kurashlar boshqa ko'rinishlarda davom etmoqda. Faqat bugungi kunda bunday kurashlar tarixda bo'lganidek, ochiq harbiy kuch ishlatish yo'li bilan emas, balki, inson qalbi va ongini egallashdek yashirin faoliyat ko'rinishida olib borilmoqda. Zero, «bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega» [1].

Ushbu jarayonlarning tub mohiyatini falsafiy jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, jamiyat hayotining barcha sohalarida shaxs, inson, ijtimoiy guruh, birlashma, uyushma, tashkilot va mamlakatlarning o'z ehtiyoj va manfaatlarini qondirish uchun o'zaro iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan raqobatlashayotganligining guvohi bo'lamiz. Masalan, bugungi kunda o'zbek xalqi o'zining milliy mafkurasi tamoyillariga to'liq amal qilgan holda, uning mustaqilligiga tahdid solayotgan har xil buzg'unchi g'oya va mafkuralar bilan kurash olib bormoqda. Bu esa, mamlakat ichkarisida va tashqarisida ham o'zbek xalqining ma'naviy raqobatbardoshligini ta'minlash masalasini kun tartibiga qo'ymoqda. Bunday masalalar endilikda «raqobat» tushunchasining an'anaviy mumtoz «iqtisodiy qobiq»dan chiqib, yangi «falsafiy qobiq»qa kirganligini ko'rsatadi. Aslida, qadimdan raqobat masalasi ko'pgina mutafakkirlar, olimlar, jamoat va davlat arboblarning diqqatini o'ziga tortib kelgan. Natijada raqobatning jamiyat hayotida tutgan o'rni va ahamiyati, u keltirib chiqargan ijobiy va salbiy oqibatlar haqida ko'plab ilmiy asarlar yozilgan bo'lib, ularda bir qator g'oyalar, qarashlar, nazariyalar ilgari surilgan. Bular, masalan N.P.Fedorenko: «Jahonda qashshoq yashayotgan aholi 25,5 million kishini, ya'ni dunyo aholisining 17,8 % tashkil etadi. Bunga sabab davlatlar o'rtasidagi raqobatning haddan tashqari shiddatli tus olayotganligi, ya'ni insoniylik chegarasidan chiqib kyetayotganligidir» [2], degan bo'lsada, biroq, bu muammoning ijobiy echimlari, xususan sog'lom raqobatni shakllantirish, uning ma'naviy-axloqiy jihatlarini kuchaytirish haqida fikr bildirmaydi. A.P.Gradov milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshlik determinantlari haqida fikr yuritarkan unga birinchidan, mamlakatning geosiyosiy joylashuvi va undagi ijtimoiy mehnat taqsimoti; ikkinchidan,

tabiiy boyliklarning regional joylashuvi; uchinchidan, ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastrukturalarining xarakteri; to'rtinchidan, hokimiyat tomonidan iqtisodiyotning qanday tarzda boshqarilishini kiritadi [3]. U raqobatni sof iqtisodiy mazmunda bayon qilishga harakat qilgan holda, masalaning ijtimoiy falsafiy tomonlariga e'tibor qaratmaydi.

Bugungi kunga qadar «raqobat» tushunchasiga berilgan ta'riflarning barchasi iqtisodiy mazmunda keltirilgan va bu bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlashni tashkil etish masalasi nuqtai nazaridan to'g'ridir. Biroq, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti, iqtisodiyotni deb ma'naviyatni qurbon qilishga aslo yo'l qo'ymaydi. Aniqrog'i, moddiy, ya'ni iqtisodiy ishlab chiqarish bor joyda, ma'naviy ishlab chiqarish jarayoni ham mavjud bo'ladi. Modomiki, ma'naviy ishlab chiqarish jarayoni mavjud ekan, unda albatta, ma'naviy raqobat ham mavjuddir. Hayotning dialektik qonuni shuni taqozo etadi. Demak, iqtisodiyot va ma'naviyatning dialektik birligi, ma'naviyatning iqtisodiy hayotning mazmun-mohiyatini belgilash qonunidan kelib chiqqan holda ma'naviy raqobat tushunchasiga quyidagicha falsafiy ta'rif berish mumkin.

Ma'naviy raqobat – makon va zamonda shaxs, elat, millat, xalqlarning ruhan poklanish, qalban ulg'ayish, iymon-e'tiqodini butun qilish evaziga o'zligini saqlash va kelgusida kamolotga erishish uchun o'zaro kurashuvi, bellashuvidir. *Ma'naviy raqobat* har bir insonning vijdonini uyg'otuvchi, uni harakatga keltiruvchi, g'oyaviy-mafkuraviy maydonda g'oliblikni ta'minlovchi kuchdir.

Ma'naviy raqobatni kurash va bellashuv usullariga qarab quyidagi turlarga ajratish mumkin: g'oyaviy-mafkuraviy raqobat, madaniy-ma'rifiy raqobat, siyosiy raqobat, diniy raqobat.

Bulardan tashqari ma'naviy raqobatni:

- *axloqiy mezonlar asosida*: insofli yoki insofsiz; sog'lom yoki nosog'lom; shafqatli yoki shafqatsiz;

- *huquqiy normalarga muvofiq*: qonuniy yoki noqonuniy; ochiq-oshkora yoki yopiq-xufyona kabi turlarga ajratish mumkin.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, raqobat jarayonida iqtisodiy hamda ma'naviy jihatlar doimo dialektik aloqadorlikda olib borilgandagina uning samarasi ijobiy ahamiyat kasb etadi. SHuningdek, yoshlarimizni ma'naviy raqobatbardosh qilib tarbiyalash davrning

ma'naviy tahdidlariga qarshi kurashishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. «Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch». T.: Ma'naviyat, 2008. 113-b.

2. Федоренко Н.П. Гуманистическая экономика. М.: ЗАО Издательство «Экономика», 2006. – С.34-35.

3. Градов А.П. Национальная экономика. 2-е изд.-СПб.: Питер, 2007.- С.120-124.

**ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ ОСНОВЫ БОРЬБЫ С
ИДЕЯМИ, НЕГАТИВНО ВЛИЯЮЩИМИ НА СОЗНАНИЕ
МОЛОДЕЖИ**

Мукимов Акрам Кадырович

*Заведующий отделом духовности и просвещения Навоийской
области*

Сегодня идеологические угрозы проявляются в виде попыток изменить взгляды определенных слоев населения, особенно молодежи, в сторону, которая им удобна, абсорбировать деструктивные идеи, такие как религиозный экстремизм, аморальность.

Понятно, что в сегодняшнем опасном мире распространяющаяся в Интернете вредоносная информация, различные деструктивные идеи и гнусные пороки, подрывающие мораль, беспокоят каждого сознательного человека.

В последнее время наблюдается рост преследований в Интернете и злонамеренного использования глобальной сети. В результате распространяются вводящие в заблуждение электронные публикации и видео.

Незнакомцы мастерски используют Интернет для ловли молодых людей. Представляя себя «близкими друзьями» или «призывающими к руководству», они вводят молодых людей в заблуждение. На самом деле, они вообще не знают религии или шариата, а только повторяют то, что выучили с самого начала. С другой стороны, они не знают, что этим невежеством тянут других к краю пропасти и играют на чьих-то барабанах. Такие люди сначала произносят разные привлекательные слова о религии,

поклонении, рае, уводят молодых людей из пещеры в заблуждение, а в итоге превращают их в жертв разврата.

Вы должны знать, что все, что вы получаете из Интернета, является правильным, надежным и безвредным. Серьезную озабоченность вызывает то, что молодые люди, не знающие разницы между хорошим и плохим, принимают любую информацию, распространяемую в Интернете, как правду.

Исламское учение решительно осуждает коррупцию, сеет в сердцах людей семена паники, вражды и заговора. Известно, что в последние годы появились течения и категории, маскирующие религию. Преследуя свои корыстные цели, они совершают такие преступления, как вандализм в обществе, несправедливо проливают кровь невинных людей, нарушают покой граждан и пытаются спровоцировать раздор среди людей.

Любой, кто входит в мир Интернета без границ, всегда должен помнить, что время и жизнь дороги. В конце концов, в этой глобальной сети есть бесконечные области, где люди могут потеряться и проводить свои дни неэффективно. В связи с этим, как сказал Президент Ш. Мирзиёев: «Если мы не будем воспитывать наших детей должным образом, если мы не будем осознавать их поведение каждый день, каждую минуту, если мы не будем учить их науке, если мы не найдем достойная работа, мы потеряем этот залог» [Ш.Мирзиёев. Давайте объединяться и решительно работать во имя судьбы и будущего нашей страны. - Т.: Узбекистан, 2017].

В сегодняшнюю эпоху интенсивной глобализации эффективная и надежная защита умов молодых людей от вредных идей и влияний, проникающих через Интернет, приобретает все большее значение. Это требует от учителей, пропагандистов, родителей бдительности и бдительности, расширения масштабов работы по укреплению идеологического иммунитета подрастающего поколения. Мы знаем, что многие сайты и сети были отфильтрованы на большие суммы денег, и такая ситуация наблюдается во многих странах. Конечно, защита людей от опасных угроз, ненужной и негативной информации от различных сил в мире Интернета с помощью запретов или фильтров может быть сложной и только временной.

К сожалению, сегодня большая часть нашей молодежи более увлечена влиянием европейских и зарубежных духовных и культурных течений из-за глобализации, и приверженность нашей национальной духовности жизнеспособным, высоким моральным принципам ослабевает. Человеческое достоинство, ответственность и пренебрежение моралью очевидны в том, как некоторые молодые люди одеваются, ведут себя и ведут себя. На наш взгляд, человеческая ценность должна определяться его нравственной ориентацией. Действительно, сегодня информация поступает так много и так быстро, что требуется глубокое размышление и широкий кругозор, чтобы «переварить» ее. Это особенно верно в отношении некоторых компьютерных игр в современном мире, где Интернет привлекает внимание и интерес наших детей. По оценкам экспертов, 49 процентов компьютерных игр, распространяемых через Интернет, имеют на вид жестокий и злобный вид, в то время как 41 процент воинственных (основанных на различных перестрелках и взрывах) игр используют такое насилие и зло для достижения цели главного героя. В 17 процентах игр главная цель - это насилие и зло. Нельзя сказать, что такие игры, отличные от войны, не укладываются в наш менталитет, а порой превращающиеся в героическую дикость, могут иметь прямое влияние на нравственное и эстетическое воспитание наших детей. Хотя на первый взгляд они могут показаться простой игрой, существует множество реальных примеров того, как насильственные идеи могут привести к множеству негативных последствий.

Информацию, которая оказывает сильное влияние на молодых людей на интернет-сайтах, можно классифицировать следующим образом.

К первой категории информации относятся чуждые, деструктивные идеи (идеи религиозного экстремизма и терроризма, национализма, расизма, садизма и др.).

Вторая категория информации продвигает привычки и навыки, типичные для западного образа жизни, вопреки узбекскому менталитету. Это особенно заметно в одежде, статьях, клипах и фильмах, пропагандирующих привычки западной молодежи.

Третья категория включает порнографическую информацию.

Четвертая категория включает различную оскорбительную информацию, которая еще не проверена и не подтверждена.

Тот факт, что такие чуждые идеи и информация, распространяемые в Интернете, принимаются молодыми людьми, и его последствия беспокоят людей во всех странах мира.

Мы всегда должны проявлять бдительность в отношении любых действий, направленных на захват сознания нашей молодежи, против наших национальных интересов, против нашей духовности, против эгоистичных сил, которые пытаются разрушить нашу историческую память, которая является смыслом нашей жизни. Так никто, ничто не может сбить нас с избранного пути, и мы обязательно добьемся своих славных целей.

Многочисленная культура проникает в нашу страну в основном через Интернет. Эта ситуация доставляет массу неудобств, например, снижение уважения к морали, национальным и религиозным ценностям. Понятно, что в Интернете распространяются такие элементы «моды», как бесстыдная одежда молодых людей, рисование на их телах, прокалывание ушей и носов, ношение «умной» одежды и девочек, одевающихся как мальчики.

Идеологические ловушки в Интернете опасны еще и тем, что они напоминают культуру и сжигают молодежь, как масло. Негативная культура толпы в человеческой морали стирает умы некоторых молодых людей и превращает их в духовных собратьев. К сожалению, молодые люди часто не осознают, что находятся под влиянием этой «культуры» или становятся ее жертвами.

В результате "неотфильтрованного" приема сообщений в глобальной информационной системе умы молодых людей отравляются. Например, молодые люди, которые заходят на сайт за полезной информацией, увидят сенсационную рекламу типа «Такой-то известный человек» и случайно откроют ее. Там открывается другой сайт, на котором читаются остальные ложные новости.

Таким образом пещерная молодежь попадает в ловушку пришельцев.

Подросток, столкнувшийся с такой отвратительной «культурой», вырастает равнодушным, беззаботным, равнодушным

к развитию страны и миру народа. Также дети, попавшие в ловушку многолюдной культуры, знают, что человек может делать все, что хочет, то есть становится мастером маникюра.

Еще одна из самых серьезных угроз, которые социальные сети представляют для стабильности семьи и общества, - это тот факт, что многие мирные семьи терпят крах из-за взаимодействия, которое они проводят.

Каждый родитель, желающий своему ребенку будущее, светлое будущее, должен уделить серьезное внимание вопросу воспитания. Пусть воспитывают ребенка не различные компьютерные игры, Интернет и социальные сети, а в первую очередь его родители, дедушки и бабушки, хорошие книги, призывающие к добру, чистоте и религии.

В эпоху глобализации, когда идет большая борьба за сердца и умы людей, необходимо срочно обратить внимание на воспитание высокой духовности, нравственности. Задача - воспитать подрастающее поколение на основе религиозных и национальных ценностей, укрепить в их сердцах чувство преданности своему народу и Родине, предупредить об информационных атаках различных деструктивных сил, защитить их.

**YOSHLARNI HAR TOMONLAMA BARKAMOL SHAXS
ETIB TARBIYALASHDA MA'NAViy-MA'RIFIY MUHIT
YARATISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI**

Niyozova Shohista Nusratilloevna

*Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Buxoro tuman
bo'linmasi bosh mutaxassisi*

"Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala - bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim-yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan davat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan".

Shavkat Mirziyoyev

Har bir ota-ona uchun farzand tug'ilishi eng katta baxt, eng katta ne'matdir, farzandining munosib inson sifatida kamol topishi esa undanda ortiqroq baxt, buni hech birimiz inkor etolmaymiz, ammo ko'z nurimiz, qalb qo'rimiz ila suyib katta qilgan dilbandimiz tarbiyasida adashsakchi, unda biz bu ne'mat baxtliligini his etmay kuyunamiz... Ha, azizlar, tarbiya masalasi shunday ustivor masalaki, u har bir oila poydevorining mustahkam bandidir. Shuning uchun ta'lim-tarbiya, ma'naviyatga befarqligimiz bu fojiamizdir. Zero, inson zoti tug'ilibdiki, xato qiladi, tuzatadi, adashadi, ammo shunday xatolar bo'ladiki, ularni tuzatish mumkin emas, ular badalini to'lash mushkul. Bu oilamizda berilayotgan noto'g'ri tarbiyamiz, yoxud yoshlar kelajagiga befarqligimizdir. Keling, bir muddat bugungi O'zbekiston haqida, yoshlarga qaratilayotgan e'tibor haqida to'xtalsak...

-Men bugungi O'zbekistonni eng avvalo, jahon shohsupasida o'z bayrog'ini munosib ravishda o'rnatgan, kelajagi porloq, istiqboli farovon, yoshlari bunyodkor, xalqi sadoqatli bir buyuk davlat sifatida tasavvur qilaman. Albatta, bugun barcha sohalarda ustivor bo'lib kelayotgan mustaqil yurtimni jahon tan olyapti, o'zbek yoshlariga bugun dunyo havas qilmoqda.

Darhaqiqat, tarixan qisqa davr mobaynida O'zbekiston mustaqil davlat sifatida jahon hamjamiyati safidan o'rin olishi, mamalakatimizda barcha sohalarning, ayniqsa, ta'lim tizimining tubdan isloh qilinishi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning yangicha tizimda joriy etilishi, Davlat ta'lim standartlari asosida islohotlar olib borilishi, muallim va ustozlar zimmasiga ulkan vazifalarni yukladi. Bu davlat hujjatlarining mazmun-mohiyati, asl maqsadi, har tomonlama yyyetuk barkamol shaxsni voyaga yetkazish, salohiyatli, dunyoqarashi keng, iqtidorli o'quvchilarni kamol toptirishdan iborat. So'nggi yillarda ta'lim-tarbiya, ma'naviyat sohasiga qaratilgan yuksak e'tibor bu sohani eng ustivor vazifa sifatida qo'llab-quvvatlab, davlat siyosati darajasiga ko'tardi.

Haqiqatdan ham, ta'lim sohasiga e'tibor nafaqat maktabda, balki, oiladan boshlab shakllantiriladi, bugun zamonaviy o'qituvchiga qo'yilgan talablarning eng asosiysi, mahalla-oila-maktab hamkorligini chuqur anglab, ana shu konseptsiyaga amal qilgan holda ta'lim-tarbiya sohasiga yondashmog'i lozim, bu har bir pedagog zimmasiga

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

yuklatilgan ulkan mas'uliyatdirki, bu mas'uliyat zamirida xalqning taqdiri, yurtning ertangi kuni, Vatan ravnaqi turibdi. 2021-yilning yurtboshimiz tomonidan "Uchinchi Renessans davri" deb e'lon qilinishi O'zbekistonimizning farovon kelajagiga qo'yilgan poydevordir. Zero, farzandlari ilmi yurtgina kelajakda qudratli bo'lur, maktabda ham sog'lom ma'naviy muhit bo'lsa, unda haqiqiy komil farzandlar ulg'ayadi, o'zbek millatining ertasi gullab- yashnaydi, barkamol avlod vatan bayrog'ini ko'klarga olib chiqadi.

Bugun har bir o'qituvchi, har bir rahbar nafaqat bilimli o'quvchini kamol toptirishga intilishi, balki ma'naviy-axloqiy, jismoniy hamda har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazishni bosh g'oya deb bilishi lozim, chunki bu davlat ahamiyatidagi eng dolzarb masaladir, bu ezgu maqsad ostidagi vazifani qat'iyat bilan, mas'uliyat bilan davom ettirish har bir pedagog uchun zarur deb o'ylayman. Xo'sh, ana shu yurtning ertasi bo'lmish o'zbek yoshlariga qanday ta'lim-tarbiya berilyapti...? Prezidentimiz tomonidan yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlardan qay darajada foydalanilayapti? Bugun bu savol nafaqat rahbarlarni, balki ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan, shu sharafli kasbni nonini yeyayotgan har bir ustoz-murabbiyni o'ylantirishi kerak, uning dardiga, maqsadiga, maslagiga aylanishi kerak. Zero, yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: "Eng muhim vazifa-yosh avlodga puxta ta'lim berish, ularni ma'naviy yyyetuk insonlar etib tarbiyalashdir. Ta'lim-tarbiya maktab ostonasidan boshlanadi"

Har bir rahbar uchun, jumladan, men uchun ham, bugungi yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir etayotgan omillarni shunchaki sanab o'tish mushkul, ming afsuski, bugungi haqiqatlardan ko'z yumolmaymiz, agar raqamlarga e'tibor qaratsak, jinoyatchilik o'smirlar orasida, xususan, voyaga yetmagan maktab o'quvchilari o'rtasidan kundan kunga o'sib boryapti....Nega? degan savol siz kabi meni ham o'ylantiradi, chunki shuncha davlat rahbari tomonidan qaratilayotgan e'tibor, shuncha sharoit negizida ular qachon jinoyat qilishga ulguryapti... Bunday chuqur mulohaza qilsak, hech bir farzand ota-onadan jinoyatchi bo'lib tug'ilmaydi, u farishtadek qalbi toza, beg'ubor go'dak timsolida gavdalanadi. Ammo u tarbiya olayotgan muhit, oila, maktab, mahalla-kuy qolaversa, bizning loqaydligimiz tufayli u yot g'oyalarga beriladi va jinoyat ko'chasiga kirib ketadi. Qachonki, uni qora kursida ko'rsakkina, biz afsuslanamiz, unda kech bo'lganini tushunib yetamiz....

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Bugun yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir qilayotgan illatlar sirasiga biz hech ikkilanmay ijtimoiy tarmoqlar, uyali aloqa vositalari, ommaviy madaniyat niqobi ostidagi turli xil yot g'oyali oqimlar, g'arb madaniyatiga taqlid va hokazolarni kiritishimiz mumkin. To'g'ri, bizni rivojlanayotgan internet tarmog'ini to'xtatishga yoki ta'qiq qo'yishga haqqimiz yo'qdir, lekin farzandimizda ma'naviy immunitet hosil qilishga, uni to'g'ri yo'lga solishga aqlimiz ham, salohiyatimiz ham, bilimimiz ham yetadi-ku...?! Bu muammolarga qarshi yakdil bo'lishimiz kerak, shunchaki bola bilan xo'ja ko'rsinga emas, haqiqiy ma'noda uni qalbiga yo'l topishimiz kerak, bugun qalbi kemptik bolalarimiz talaygina, chunki maktablar hisobotini varaqlab ko'rganimda deyarli har bir maktabdan 30-40 foiz ota-ona chet elda mehnat faoliyati bilan shug'ullanish maqsadida ketgan. Bu degani, to'liqsiz oila farzandlari, nazoratsiz qolgan yoshlarimiz juda ko'p. Ana shu bo'shliqni biz bilan siz to'ldiramiz chunki ma'naviyat shiori ostida bayroqni biz ko'tarib turibmiz

Ularni to'garaklarga jalb etib, ko'nglimizga yaqin olib, kasb-u hunarni o'rgatsak mehr bersak, albatta, samarasini beradi. Men yoshlarimiz ongiga salbiy ta'sir etuvchi g'oyalarga qarshi samarali kurash olib borishning ma'naviy-ma'rifiy uslublari deganda, eng avvalo, bola psixologiyasini o'rganish, ular bilan maxsus treyninglar olib borish, "Sinf rahbar-oila-psixolog" uchlik hamkorligini tashkil etishni tavsiya etgan bo'lardim..

Maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi keng ko'lamda tashkil etish har birimizning oldimizdagi ustuvor vazifa sanaladi. Oldimizda turgan maqsadimiz-kelajakda o'quvchilarimiz ma'naviyatli, ma'rifatli komil inson, harjihatdan yyyetuk, barkamol shaxs sifatida kamol toptirishdan iborat. Tarbiyaviy yo'nalishlarning barcha sohasida o'z hissamizni qo'shish, ana shu maqsad sari intilish esa - har bir fidoyi o'qituvchining shioriga aylanmog'i lozim. Prezidentimiz barkamol shaxsni kamol topishida eng avvalo, uni ma'naviy jihatdan to'g'ri tarbiyalash juda muhim ekanligini alohida uqtiradilar.

Prezidentimizning bizga bo'lgan bunday ishonchlariga javoban men ma'naviy-ma'rifiy sohada yanada ulkan yutuqlarga erishishga, yoshlarimizning har tomonlama ma'nan yyyetuk barkamol shaxs bo'lib kamol toptirishda tomchima-tomchi, zarrama-zarra fidoyilik ko'rsatishni astoydil maqsad qilib qo'ydim. Men ta'lim muassasalarda ma'naviy-

ma'rifiy, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni faqat raqamlarda, yoxud ko'rsatkichlarda deb bilmayman, qo'limizda tarbiyalangan har bir o'quvchi hayotda munosib o'rnini topib yurt kelajagi, millat ravnaqi yo'lida xizmat qila olsagina maqsadimga erishgan bo'laman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Milliy istiqlol g'oyasi, asosiy tushuncha va tamoyillar. T.O'zbekiston. 2000
2. A.Aliyev. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat. T. O'zbekiston. 2003

**ERTANGI KUN YOSHLAR QO'LIDA, YOSHLAR
HARAKATIDA, YOSHLAR ILMIDA, QUDRATIDA**

Sh.T.Temirov

***BMTI "Mexanika va arxitektura-qurilish" fakulteti yoshlar bilan
ishlash va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari,
"Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati a'zosi***

Mamlakatimiz mustaqilligining ilk kunlaridan boshlaboq, yoshlar va ularning kelajagi haqida g'amxo'rlik qilish masalalariga ustuvor darajada e'tibor qaratila boshlandi. Zeroki, jamiyatimizni demokratlashtirish fuqarolik jamiyatini rivojlantirish maqsadlari zaminida aslida inson manfaatlari, yurtimizning, taraqqiyotimizning tayanchi va suyanchi bo'lgan yoshlar turadi. Mamlakatimizning ertangi kuni, jamiyatda o'zgarishlarga sabab bo'ladigan, bunyodkorlik g'oyalarini hayotga tatbiq etuvchi muhim kuch, ma'naviy salohiyatli resurs hisoblangan yoshlarni ma'naviy va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, jamiyatda munosib o'rin egallashlariga qulay shart-sharoit yaratish orqali ularni yurt taqdiri va kelajagini hal qiluvchi katta kuchga aylantirish har birimizning muhim vazifalarimizdir.

Ma'lumki, demokratik davlatda yoshlar o'zining haq-huquqlari va ehtiyojlarini aniq maqsadga yo'naltirilgan davlat siyosati orqaligina ro'yobga chiqara oladilar. Demak, yoshlar jamiyatning kelajagini ta'minlovchi ijtimoiy qatlama aylanishi uchun bevosita davlatning alohida g'amxo'rlikiga muhtojdir. Bizning mamlakatimizda masalaning bu tomoniga har doim ham jiddiy e'tibor qaratib kelinmoqda.

Har bir davlatning barqaror taraqqiyotini ta'minlashda asosiy poydevor-mamlakat yoshlarining intellektual salohiyati bilan uzviy bog'liq. Shu nuqtai nazardan, mamlakat aholisining katta qismi zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega yoshlardan iborat ekanligini

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

inobatga olgan holda, mazkur qatlam ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalardagi manfaatlarini himoya qilish va kuzatilayotgan dolzarb masalalarning nazariy va amaliy jihatdan yechimini topish bugungi kunning muhim vazifasidir. Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo'lmaylik, avvalo, yoshlarga, ularning kuch-g'ayratiga va azmu shijoatiga suyanamiz.

Hayotning o'zgarib boruvchi sharoitlari yoshlarni yangi realliklarga moslashishga, o'zining hayotiy nuqtai nazarini ishlab chiqishga, kelajak rejalarini qurishga undamoqda. Bugungi kunda O'zbekiston yoshlari oldida quyidagi vazifa turibdi: puxta o'ylangan, ilmiy asoslangan yoshlar siyosati vositasida yoshlarning bilimlari, qobiliyatlari va sa'y-harakatlaridan foydalanish uchun qulay zamin yaratish, shuningdek, mustaqil O'zbekiston ravnaq topishida o'zining ijtimoiy manfaatlarini, ehtiyojlarini, hayotiy istiqbollarini belgilab olish va ro'yobga chiqarish.

Hozirgi zamon O'zbekiston yoshlarining qadriyatli yo'nalishlarini, intilishlarini bilish o'z-o'zidan dolzarb bo'lib qolmay, balki O'zbekiston jamiyati rivojlanishining mavjud tendensiyalari va umumiy yo'nalishini tushunish uchun muhimdir. U nafaqat yoshlarning jamiyatning bugungi holati to'g'risidagi tasavvurlarini, balki keyinchalik o'z mamlakatining fuqarosi sifatida ularning turmush tarzida va real hulq-atvorida namoyon bo'luvchi ularning o'ziga o'zi baho berishi, o'zini o'zi identifikatsiya qilishi, o'zini o'zi refleksiya qilishi xususiyatlarini o'z ichiga olishi tufayli ham bunday bilishning ahamiyati ortib boradi.

Vatanimizning kelajagi, xalqimiz ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori, avvalambor, farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmashimiz kerak.

Bugungi kunda yoshlar muammosi - ilmiy tahlilning asosiy va dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bizningcha, yoshlarning qiziqishlari va orzu-umidlari, ularning o'z kelajagiga qarashlari, jamiyatda ular qanday o'rinni egallashni xohlashi to'g'risidaga axborotga ega bo'lish nihoyatda muhim masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo'lgan, bugungi va ertangi

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi. Bu haqda Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz". Darhaqiqat, yoshlarga oid davlat dasturi mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda ularga zamonaviy ish joylari yaratish, ularning hayotda munosib o'rin egallashini ta'minlashga qaratilgan shart sharoitlar yaratilib, -95-tadbirkorlik ishlarini tashkil qilishda yoshlarga davlat tomonidan kreditlar ajratilmoqda. Shunday ekan, bugungi kunda yoshlarimizga yaratilayotgan imkoniyatlar, ertangi kunimiz porloq kelajagi uchun qo'yilayotgan tamal toshidir. Yoshlar tarbiyasiga e'tibor, o'zimizning kelajagimizga bo'lgan e'tibor ekanligini hech qachon yodimizdan chiqarmasligimiz va bu yo'lda barchamiz birday harakat qilmog'imiz lozim.

Bu borada Prezidentimiz yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda mafkura masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Zotan, yoshlarni barkamol insonlar etib voyaga yetkazish, yot mafkuralar, hurujlardan asrash, ularda turli g'oyaviy tahdidlarga qarshi ko'nikmalarni shakllantirish davlatimiz siyosatining muhim yo'nalishlaridan sanaladi. Albatta, ertangi kunimiz, porloq kelajagimiz ana shunday yoshlar qo'lida. Zero, yoshlar ta'lim-tarbiyasiga tikilgan sarmoya kelajakka tikilgan sarmoyadir. Yangi davlatni barpo qilish oson bo'lmagani singari, uning porloq kelajagini shakllantirish ham yengil bo'lmaydi. Buning uchun kuch, g'ayrat, shijoatimizni ayamagan holda ilm va ma'rifatli yoshlarni tarbiyalamog'imiz lozim.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda yoshlar ijtimoiy va iqtisodiy huquq-manfaatlarining qonuniy kafolatlari yanada kuchayotganligini anglatish bilan birga ertangi kunda mamlakatimiz yoshlarining yangi-yangi marralarni zabt etishiga, ularning yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishiga zamin yaratadi. Zero, yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev BMTning 72-sammitida xalqaro hamjamiyat oldida ta'kidlaganlaridek, "... sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi «virusi» tarqalishining oldini olishdir.

Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim".

**MUSTAQILLIK - JADIDLAR VA JADID MATBUOTIDAGI
DEMOKRATIK MILLIY G'OTALARNING AMALDAGI
IFODASI**

O'rinova B.Z.

Buxoro Davlat Tibbiyot instituti dotsenti

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgandan so'ng matbuotimizning eng katta yutuqlaridan biri - o'zbek milliy jurnalistikasining bosib o'tgan yo'lini to'la va yaxlit yoritishga intilish kuchayganligidir. Mustaqillik sharoitida siyosiy-iqtisodiy va madaniy sohalar qatori matbuotga nisbatan ham yangicha munosabat yuzaga keldi. Chunonchi jadidlar matbuoti to'g'risidagi haqiqatni ham tiklanishi bevosita milliy istiqlolni ro'yobga chiqishi bilan ham bevosita bog'liqdir. Zero, sobiq sho'ro tuzumi hukmronligi davrida kommunistik mafkura tazyiqi ostida matbuotimiz, xususan, XIX asr oxiri hamda XX asrdagi milliy matbuotning shakllanishi va rivojlanish jarayonlari o'rganilmagan edi. "Yillar o'tadi, asrlar o'tadi yangi avlodlar mutlako yangi jamiyatda, jahonning eng ilg'or mamlakatlaridan biriga aylangan hur O'zbekistonda yashaydi, ona yurt tarixi, mustaqillik uchun kurash tarixini o'rganadi" - degan edi respublikamizning birinchi Prezidenti Islom Karimov. Milliy davlat mustaqilligi uchun kurashda ozodlik harakatlarining o'ziga xos xususiyatlari hamda shart-sharoitlarini siyosiy-jihatdan tahlil qilishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Xususan, jadidlarning mustaqillik uchun kurash g'oyalarining vujudga kelishi nazarda tutiladi. Millat mustaqil bo'lib, uzining mustaqil davlatini o'rnatmaguncha, ijtimoiy adolatni tiklab bo'lmasligi Behbudiy kelgan birinchi xulosalaridan edi [1]. Ayni paytda, bunday g'oya milliy istiqlolchilik harakatining asosini tashkil etadi.

SHu jihatdan professor Begali Qosimovning so'zlari g'oyat ibratli: "Jadidchilik g'oyalari erta bahorning shiddatli shamollari singari po'rtanak bosib, bijirlab ketgan o'rta asrchilik turmushini eng pastki qatlamlarigacha ochib tashladi. Momoguldurak bo'lib, millat va vatanning hayot-mamot masalasi kun tartibiga qo'yilgani haqida bong urdi. CHaqmoqdek chaqnab, uning bag'ridagi jarohatlarini yoritdi.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Obirahmat bo'lib, Turkiston ko'ksidagi maorif, teatr nihollariga hayot baxsh etdi. Bu g'oyalarning asosida milliy uyg'onish, milliy mustaqillik uchun kurash yotar edi. Jadidchilikni mohiyatini millat va Vatanni anglashdan ular manfaati uchun kurashgacha bullgan qizg'in va hayajonli jarayon tashkil qildi. Ayni paytda bu harakat millatni ham tarbiyalab berdi. Uni o'z boshiga yog'ilgan har bir ofatni taqdir deb ta'bir etishdan tahlil qilib, chorasini izlay olish darajasigacha ko'tardi. Xususan, jadidlarimiz millatning yashamog'i, taraqqiy qilmog'i uchun, birinchi navbatda, ozod, mustaqil bo'lmog'i lozimligini anglab etdilar va keng xalqni uyg'otishga alohida e'tibor berdilar [2].

Haqiqatdan ham jadidchilik rus mustamlakachiligiga qarshi milliy demokratik harakat bo'lib, u o'sha davr Turkistondagi qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma'rifatlashtirish, jamiyat hayotida turli islohotlar o'tkazish, pirovardida mutaqillik g'oyalarini hayotga tatbiq etish maqsadini o'z oldiga qo'ygan edi. Jadidchilik Rossiyaga qaram bo'lgan musulmon xalqlari orasida dastlab Qrimda XIX asrning 80-yillarida paydo bo'ldi. Uning asoschisi diniy va dunyoviy bilimlarni chuqur egallagan Ismoilbek Gaspirali (1851-1914) bo'ldi.

Jadidlarning xalq ma'rifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo'nalishdan iborat bo'lgan:

1. Yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish;
2. Umidli, iqtidorli yoshlarni chet ellargi o'qishga yuborish;
3. Turli ma'rifiy jamiyatlar tuzish hamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etish.

SHu dasturni amalga oshirish borasida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo'ja Asatullaxo'jaev, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'lpon va boshqa ziyolilar jonbozlik ko'rsatishgan.

Jadidlarning xalqaro aloqalari keng qamrovli bo'lib, ular Rossiya, Turkiya, Misr va boshqa mamlakatlardagi jadidchilik oqimlari dasturlaridan xabardor bo'lganlar, o'zaro safarlar, muloqotlar orqali tajriba almashganlar. 1905-1906 yillardagi Rossiya imperiyasidagi inqilobiy harakatlar Turkistonga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Faol kuchlar jipslasha boshlaganlar va jadidlar ma'rifatchilik faoliyatini jadallashtirganlar. Bu faqatgina maktablarda emas, balki jonli matbuotchilik faoliyati, jumladan, ro'znomalarning vujudga kelishida

**Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini
ta'minlashning dolzarb masalalari**

ham ko'rinadi. Chunonchi, 1906-yilda Ismoil Obidovning muharrirligida "Taraqqiy", shu yili Munavvarqori muharrirligida "SHuhrat", Ahmadjon Bektemirov muharrirligida "Osiyo" ro'znomasi chop etildi. Lekin tez orada chor ma'muriti ashaddiy shoviniist N.P.Ostroumov bildirishnomasiga asoslanib, bu ro'znomalarni ham man etdi [3].

Ma'rifatchilikning yangi to'loqida 1913-1915 yillarda "Samarqand", "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona", "Buxoroi sharif", "Turon", 1917-yilda esa "El bayrog'i", "Kengash", "Hurriyat", "Ulug' Turkiston" gazetalari "Oyna" jurnali kabi matbuot nashrlari ham paydo bo'ldi.

Rossiya fevral demokratik inqilobi arafasida Turkiston jadidchiligi yyetuk siyosiy harakatga aylandi. Ayni paytda, milliy siyosiy partiyalar va tashkilotlar, jumladan jadidlar tomonidan "SHo'roi islomiya", "Ittifoqi musulimin", "Turon" kabi bir qator tashkilotlar tuzildi. Jadidlar asosiy e'tiborini jamiyatda ma'naviyatni rivojlantirishga qaratdilar. Ular yangi usuldagi maktablarni tashkil etish, gazetalar chiqarish, darslik va o'quv qo'llanmalarni nashr ettirish, G'arbning yangi madaniy va texnologiya ulublarini joriy etish zaruratini, hamda uni Turkistonda targ'ib etish orqali milliy - dunyoviy ta'limni yuzaga keltirish, ma'naviy hayotni yangilab va boyitib, milliy o'zlikni anglashni yuksaltirishga zamin yaratishga intilganlar. Bunday siyosiy yondashuv, bevosita jamiyatda adolatli davlat qurishning asoslari rivojlanishiga xizmat qiladigan nazariy omillar ekanligini e'tirof etmasdan bo'lmaydi. Albatta, ular demokratiyaning tom ma'nodagi ko'rinishlaridan uzoqda bo'lganlar [4]. Turkistonda mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurash va uning ijtimoiy-siyosiy asoslarini yorituvchi manbalar Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li, Behbudiy, Avloniy, Xuvaydo va boshqalarning asarlarida o'z ifodasini topgan. O'z davrida jadidlar milliy-madaniy muxtoriyat qurilishi tamoyillarini rivojlantirishga Turkistonda davlatchilik shakli va uni boshqarish qonunlarini joriy etish, sud organlarini tashkil qilish, davlat tuzilmalarini yaratish kabi masalalarga katta e'tibor berishgan. Ammo shu davr siyosiy sharoiti, hamda erli xalqlarning tushunchasida Turkistonda mustaqil demokratik jamiyat qurish to'g'risidagi qarashlar bir muncha cheklanganligini ko'ramiz. Behbudiyning "Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi" [5] dasturida to'la mustaqil, demokratik jamiyat to'g'risida emas, davlatning avtonomiya shakli nazarda tutilgan.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

1917-yildagi Umumturkiston musulmonlarining qurultoyida ham davlatchilik qurilishi to'g'risida bahs olib boriladi. Ammo ularning demokratiya va federatsiya to'g'risidagi qarashlari ham aslida konstitutsion monarxiya tuzumidan tashqariga chiqib ketolmaydi [6].

XIX asr oxiri XX asr boshlarida mavjud ijtimoiy voqelik ta'siri ostida shakllangan jadidcha tafakkur tarzi va jadid mutafakkirlarining umummillatimiz tarixiga qo'shgan hissalar, ayniqsa qadrlidir. Bu davrda milliy o'zligini anglashga xizmat qiladigan, Vatan erki, ozodligi g'oyalari targ'ib qilib, milliy ozodlik kurashiga da'vat etadigan kuch maydonga kelgan edi. Mustamlakachilik zulmidan qutilish, mustaqillikni qo'lga kiritish uchun xalq zamonaviy bilim va madaniyatni egallashi lozim edi. Jadidlarning ko'pchiligi nomlari, asarlari mustabit sho'ro tuzumi davrida turli "mash'um tamg'alar" ostida kamsitildi. Aksari hollarda "aksilsho'roviy", "zararli adabiyot" degan hukm ostida millatimiz tarixidan o'chirib tashlangan edi.

SHuni alohida ta'kidlash lozimki, o'zbek madaniyati, ma'naviyati tarixida, umuman ijtimoiy tafakkurida jadidchilik va jadid ijodkorlari muhim o'rin tutganligi ayni tarixiy haqiqatdir. Bu oqimning mohiyatini tubdan oydinlashtirish, sho'ro mafkurachilari tomonidan qo'yilgan "ayblar"dan xalos qilish, uning to'g'ri va ilmiy bahosini berish katta ahamiyatga ega masaladir.

Mustaqillik o'zbek xalqi millati uchun ijtimoiy ideal bo'lgan. Ushbu idealning negizi uzoq tarixga borib taqaladi va u hech qachon xalqimiz qalbidan o'chmagan. Mustaqillik milliy taraqqiyot yo'llarini belgilab olish orqali o'zbek xalqi, millati orzu qilib kelgan ijtimoiy ideallarni real voqelikka aylantirishga imkon berdi. Mustaqillikni ijtimoiy milliy idealga aylantirgan ijtimoiy tarixiy omillar o'rganilgan. Unda jadidchilik harakatiga, yurtimiz ozodligi uchun kurashgan qahramonlarimiz hayotiga murojaat etilgan. Masalan: "Jadidlar harakatining asl mohiyati millat va mamlakat mustaqilligi, ozodligi va erkinligi bilan bog'liq bo'lgani uchun bu g'oyalar o'ngdan ham, so'ldan ham qattiq zarbaga uchragan.

Mustaqillik g'oyasini ochiq-oydin aytish degan so'z jadidlarni chor samoderjaviyasiga oshkora dushman qilib qo'yar, shuning uchun ular asosiy ijtimoiy-siyosiy va falsafiy-estetik g'oyalarni inson kamoloti va ma'naviyati tomon burib yuborgan edilar [7].

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Kurinib turibdiki, jadidchilik mustaqil, millik demokratik davlat barpo etishni o'zlarining ijtimoiy-siyosiy ideali deb bilganlar. Bu boradagi fikrlarni ular ochiq, oshkora aytish imkoniyatiga ega bo'lmaganliklari uchun ushbu idealni ilm, fan, madaniyat va xalqaro ahillik, uyushqoqlik, umumiy Turkiston, ma'naviyat, yangi avlodni tarbiyalashda ko'rganlar. "Jadidchilik fenomeni shundaki, keyingi uch asr ichida bu birinchi bo'lib, milliy davlatchilik qurishga urindi. Yagona mustaqil Turkiston uchun kurashdi va milliy mustaqillik g'oyasiga asos soldi, u uyqudagi SHarkni uyg'otishga va harakatlantirishga, ozodlik, milliy g'urur, o'z buyuk ajdodlari, boy madaniyati va umuman, mustamlaka tuzumining tazyiqi ostida unutilgan barcha qadriyatlarni xotirlashga undadi. Jadidlar ta'limoti - o'z zamonasining haqiqiy ta'limoti edi. Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni, shuningdek barcha taraqqiyparvar ziyolilarni o'z ketidan ergashtira oldi. Ularning faoliyati va dasturi kelajak uchun namuna, ideal bo'ldi.

Muxtasar qilib aytganda, mustaqillik yillarida ham jadid matbuoti o'ziga xos milliy g'oya sifatida namoyon bo'ldi hamda millatni uyg'onishiga turtki bo'lgani tufayli, istiqlol davri matbuotida o'z ifodasini topdi. Ommaviy axborot vositalarida jadid matbuotining, aniqrog'i milliy matbuotimizning tarixiga oid materiallarning o'rganilishi, jadidlar faoliyatining ilmiy tadqiq etilishi jamiyatimizdagi chinakam ma'naviy tiklanish va poklanish, o'zbek xalqining o'zligini anglashi uchun xizmat kildi, desak aslo yanglishmagan bo'lamiz. Zotan, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, madaniyat va ma'naviyatni, milliy qadriyat va an'analarni tiklash, haqqoniy tarix va o'zlikni anglashga qaytish mamlakatimizda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. So'zboshi. -T.: Ma'naviyat. 1999. B-28
2. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. -T.: Ma'naviyat. 2002. B-4.
3. R. Murtazaeva va boshqalar. O'zbekiston tarixi. -T.: 2000. B-82.
4. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti . Oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun darslik. -T.: Navro'z. 2005. B-65.

5. Behbudiy M. Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi. "Jahon adabiyoti". 2003. Avgust. B-146.
6. Do'stqoraev B. O'zbekistonda yangi davlatchilik ma'rifati. "Jamiyat va boshqaruv." 1997. 2-son. B-13.
7. Maxmudova G. Jadidizm va Turkistonda axloqiy -estetik fikr taraqqiyoti. -T.: Davr press. 2006. B-36.

**YOSHLARIMIZ ONGIGA SALBIY TA'SIR ETUVCHI
G'OYALARGA QARSHI SAMARALI KURASH OLIB
BORISHNING MA'NAVY-MA'RIFIY USHLUBLARI**

Obloberdiyeva Nigora Botir qizi

*Buxoro viloyati G'ijduvon tumani, 25-umumiy o'rta ta'lim
maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 12- yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi ayni kunda yechimini kutayotgan qator muammolarni hal etish, yoshlarning yuksak ma'naviyatli bo'lib voyaga yetishida muhim vosita hisoblangan sifatli kitoblarni chop etish, tarqatish hamda kitobxonlikni targ'ib etish kabi ishlarni yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qildi. Bu biz pedagoglar, o'qituvchilar zimmasiga ham ulkan mas'uliyat yukladi. O'quvchilarni kitob mutolaasi, uni tushunishga o'rgatish bo'yicha yangicha metodlarni ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanish, kitobxonlikni targ'ib etuvchi seminar- treninglar tashkil etish, yozuvchi, shoirlar bilan uchrashuvlar uyushtirish, kitob haftaliklarini o'tkazish, unda o'quvchilar tomonidan o'qilgan o'zbek va jahon adabiyoti vakillarining nodir asarlarini muhokama qilishni taqazo etadi. Shuningdek, mazkur farmoyishda kitobxonlarni mag'zi to'q asarlar bilan ta'minlash, chop etilayotgan kitob va kitob mahsulotlarini kutubxonalarga, chekka hududlardagi kitob do'konlari va ARMga arzon narxlarda yetkazib berish, aholi o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish yuzasidan muhim vazifalar belgilangan. Kitobxon o'quvchini tarbiyalash – hozirgi axborot texnologiyalari, internet rivojlangan davrda biroz qiyin masala bo'lib qoldi. Hozirgi yoshlar ko'p qiziquvchan, yangilikka o'ch, har sohada zamon bilan hamnafas yuradiganlardan. Shu sababli ham biz

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

ustozlar bu zamonaviy o'quvchilarga badiiy kitoblarni o'qishga tavsiya etishimizda alohida jihatlarga e'tibor qaratishimiz lozim:

1. Kitobxon o'quvchining yoshi e'tiborga olinib, keyin unga ma'lum bir kitobni o'qish tavsiya qilinishi lozim.
2. Endigina kitobga qiziqishi uyg'onadagan bolalarga badiiy asarlarni janr jihatdan to'g'ri tanlab berish lozim. Masalan: birdaniga bolaga roman o'qishni tavsiya qilmaslik kerak. Yoki bo'lmasa o'ttiz yoshga kirib qo'liga bir dona ham kitob ushlamagan va o'qimagan insonga Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonini o'qishni tavsiya qilish kerak emas. Chunki, bu mazmun jihatdan murakkab, til jihatidan ham qadimiy asar. Bu insonga avvalo, hikoya janrdagi tushunilishi oson bo'lgan, hayotiy asarlarni tavsiya qilish mumkin. Masalan: A. Qahhor hikoyalari, O'. Hoshimov qissalarini.
3. Har bir inson, avvalo, o'zining ajdodlari yaratgan badiiy kitoblardan o'qib, o'zining tarixini, o'zligini, kimlarning avlodi ekanligini anglab yetmog'i lozim. Ya'ni, ba'zi bir odamlar jahon adabiyotidagi asarlarni ko'p o'qishadida, o'zbek adabiyotidagi asarlarni o'qishmaydi, o'zbek bo'la turib. "Nimaga?" deb savol berilsa, jahon adabiyoti asarlarida falsafa, realizm kuchli emish. Balki, ularning ham fikrida jon bordir. Lekin mening fikrimcha, biz sharqona odob- axloq qoidalarini, ota-onaga hurmat, o'zaro andisha, or- nomus, hayo, iffat masalalarini, albatta, o'zimizning "O'tgan kunlar", "Mehrobdan chayon", "Kecha va kunduz", "Bahor qaytmaydi", "Diyonat", "Sinchalak", "Chinor", "Ufq" kabi asarlarimiz orqali anglab yetamiz.

Prezidentimiz tomonlaridan yurtimizda kitobxonlarga barcha sharoitlar, qulaylik va imkoniyatlar yaratib berilyapti. Mana shunday imkoniyatlardan biri sifatida yangicha zamonaviy kutubxonalarning tashkil etilganligi, mavjud kutubxonalarning jahon va o'zbek adabiyotining nodir kitoblari bilan to'ldirilganligini va elektron kutubxonalarning ishga tushirilganligini aytib o'tish joiz. Bu esa ma'naviyati mustahkam, fikri teran o'zbek yoshlarining ertangi istiqboli uchun o'ziga xos imkoniyatlar kaliti demakdir.

Bugungi kunda yoshlarni kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida ta'lim sohasining turli bosqichlarida pedagog o'qituvchilar tomonidan bir qator zamonaviy metodlar qo'llanilyapti. Misol tariqasida, har bir adabiyot darslarida o'quvchilar tomonidan o'qilgan asar qahramonlari xarakterlariga ta'rif- tavsif bergan holda, o'zlarida

**Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini
ta'minlashning dolzarb masalalari**

ham uchraydigan mana shunday qahramon sifatlarini ham sanab o'tayaptilar. Bu esa o'quvchining nafaqat asar qahramonini baholashni, balki, o'zining ham yaxshi va yomon xislatlarini ochib bera olishini ko'rsatadi. Ana shunday adolatli taqqoslashlar orqali, avvalo, o'quvchining badiiy tafakkuri, fikrlash doirasi kengayib boradi va nutqi rivojlanadi, eng asosiysi, o'quvchida erkin fikrlash va o'z fikrini o'zгалar oldida bemalol bayon etish sifatleri shakllanadi. Bejizga ulug' rus adibi M.Gorkiy: "O'zimdagi barcha yaxshi xislatlar uchun kitobdan minnatdorman", - deb ta'kidlamagan. Haqiqatan ham kitob o'qish va uni uqish jarayonida o'quvchi shaxsida faqat va faqat yaxshi xislatlar shakllanadi. Darhaqiqat, kitob o'qigan odamning tuban ishlarni qilishga uning birinchi navbatda vijdoni va ma'naviyati yo'l qo'ymaydi. Shu sababli kitob mutolaasi yoshlarni komillik sari yetaklab, jaholatdan qutqaradi. Hozirgi fan- texnika, axborot- kommunikatsiyalari, internet va bir qancha zamonaviy mobil aloqa dasturlari rivojlangan jamiyatda yoshlarni kitob mutolaasiga qaytarish va qiziqtirish bir qancha qiyin ishdek tuyuladi. Ammo o'qituvchi, ota- ona, mahalla- ko'y bunday vazifaga sidqidildan yondashsagina o'zining samarali natijasini beradi. Shu o'rinda O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning quyidagi fikrlarini keltirishni o'rinli deb bildim: " Istagan adibingizni ham, kitobingizni ham shoxini qayirib, tomirini qirqib beradigan, kompyuter asrida, internet zamonida Navoiy bobomizning "Xamsa"sidan " Farhod va Shirin" dostonini o'qiyotib, noxos o'zim uchun kutilmagan bir qiziq mo'jizani kashf qilganday bo'ldim:

Internet zamonini xo'p mo'jizakor,
Aytay Sharq zakosini qadim sehidan:
Farhod o'z Shirinini ko'rgandir ilk bor,
Hazrat Navoiyning kompyuteridan.

Shuningdek, muhtaram Prezidentimiz SH. Mirziyoyev ham shunday fikrlarni ta'kidlab o'tadilar: "Bugungi bolalar ertangi kun xalqqa aylanadi. Yoshlarni kitobga qaytarishimiz kerak. Axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarni kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishga, ularning kitob bilan do'st bo'lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma'naviyatga erishib bo'lmaydi. Kitob o'qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo'q". Darhaqiqat, bu fikrlar allaqachon o'z

tasdig'ini topgan va shu o'rinda, avvalo, yoshlarni kitob o'qishga qiziqtirish oiladan shakllanadi. Oilada dunyoga kelib, shakllanadigan shaxs kitob mutolaa qilsagina, erkin fikrlaydigan, har qanday salbiy ta'sirlarga berilmasdan, atrofdagi voqea-hodisalarni haqqoniy baholaydigan, jamiyat, davlat, xalq manfaatlarini o'z manfaatidan ustun qo'yadigan, tashabbuskor shaxs bo'lib yetishadi. Masalan oilada ota-ona, maktabda o'qituvchi dars tayyorlashni talab qilsa, ularni mutolaaga qiziqtirsa, bola, alabatta, buni tushunib yetadi. Unda o'z majburiyatini, burchini bajarish ko'nikmasi hosil bo'ladi. Yoshlikdan biror ishni bajarishga intiladi, izlanadi. Oila muhiti bolaning nafosat tarbiyasiga ham katta ta'sir etadi. Bolalarda yoshlikdan badiiy adabiyotga mehr uyg'otish orqali hayotdan zavqlanish, yaxshi-yomonni farqlash, ezgulikka intilish, mulohaza bilan ish yuritish, har qanday vaziyatda o'zini tuta bilish, mustaqil fikriga ega bo'lish kabi ko'nikmalar shakllanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ona Vatanimizning o'zi buyuk va betimsol kitob. Bu ulug'vor kitobni o'qib, anglamoq uchun ham, uning qadr va qimmatiga yetib yurmoq, chin va sadoqatli, ma'rifatli va bilimli farzand bo'lib sharaflamoq uchun ham ko'p-ko'p, juda ko'p go'zal va chiroyli kitoblarni mutolaa qilishi shart va zarurligini anglab yetgan har bir o'g'il-qiz shu Vatanning eng ko'rkam va baxtli dilbandi bo'la oladi va kitob bilan doimiy hamroh tutingan ko'nglida buzg'unchi g'oyalarga o'rin qolmaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil, 12- yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi.
2. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: "O'zbekiston" 2017.
3. Tafakkur gulshani. T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989-y.
4. I. Sulton. Navoiyning qalb daftari. T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1969-y.
5. Rasulov T. Badiiy asar qanotlari. – T.: G'afur G'ulom, 1977

INTERNETDA MILLIY G'OYA TARG'IBOTI

Qobilova Gulasal Shuhrat qizi

*Buxoro viloyati G'jduvon tumani 24-umumiy o'rta ta'lim
maktabining "ijodiy –madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchisi*

Hozirgi kunda eng global muammolar va eng tez rivojlanayotgan mavzulardan biri bu "INTERNET" mavzusidir. Demak, Internet o'zi nima?, U nimaga kerak?, Internetdan to'g'ri maqsadda foydalanish nimayu, nima uchun uning yechimi qiyin? Internet kimlar uchundir uzoqni yaqin qilayotgani va shu bilan birga ko'plarning mablag'larini tejayotgani hech kimga sir emas. Bularning barchasiga javobni "Milliy g'oya", "Milliy mafkura"dan javob topamiz.

Milliy g'oya – bu nima ? U qanday paydo bo'ladi? Biz uni idrok etishimiz va unga biz ham ta'sir etishimiz uchun nimalar qilishimiz kerakligi haqida bir o'ylab ko'rganmisiz? Milliy g'oyaning negizida yana qanday g'oyalar chiqib keladi? kabi savollarga javob topa olishimiz kerak. Bizda bunyodkor g'oya mavjud ekan, demak, biz bunaqa savollarga, albatta, javob bera olamiz!!!

Biz yoshlar va barcha uchun internetda ma'lumotlar juda ko'plab topiladi. Xohlagan ma'lumotingizni topa olasiz va bu ma'lumotga oid manbalar turlicha. Siz izlayotgan ma'lumotlar manbai sifatida sizga ko'plab variantlar taqdim etadi. Youtube, telegram, instagram, facebook, like, tiktok va shunga o'xshash ko'plab tarmoqlar bor bu – INTERNETda.

Agar biz ulardan bir ma'lumot izlayotgan bo'lsak, ularning hammasida har xil chiqarib beradi. Ularni solishtiradigan bo'lsak hattoki bir-biriga ziddir. Va yana foydalanuvchi ularning qaysi to'g'ri va qaysi noto'g'ri ekanligini bila olmaydi. Shuning uchun bugungi kunda mamlakatimizda ko'plab yigit-qizlar internet tarmog'idan noto'g'ri foydalanib yomon yo'llarga kirib ketayotgani hech kimga sir emas. Buning sababi,eng avvalo, ularda ma'naviy g'oya yetishmovchiligida va internet tarmog'i ularga buzg'unchi g'oya vazifasini o'tayapti. Shuning uchun milliy g'oya targ'ibotini kuchaytirishimiz zarur.

Kun sayin jadal rivojlanib borayotgan axborot asrida zamonaviy texnika vositalaridan foydalanmaslikning, yoki ularga murojaat etmaslikning hech bir iloji yo'q. Chunki, inson dunyoqarashining shakllanishida, ma'naviy olamining yanada kengayishida, ayniqsa kamyuter texnologiyasi asosiy vosita rolini bajarmoqda. Bu — bir

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

tomondan quvonarli holat. Bugungi kunda, biz yoshlar, mana shunday katta imkoniyatlardan xohlagancha foydalanib, o'qish yoki ish davomida vaqtimizdan ancha unumli foydalanmoqdamiz. Hozirgi kun nuqtai nazar bilan qaraydigan bo'lsak, allaqachon global tarmoqqa aylanib ulgurgan internet o'zining tezkorligi chegara bilmasligi bilan ommaviy axborot vositalari orasida eng muhim sohaga aylanib ulgurdi. Unda faoliyat yuritayotgan ijtimoiy tarmoqlar: Kun.uz, Daryo.uz kabi saytlar orqali har soatda yurtimiz va jahonga oid eng so'ngi yangiliklardan boxabar bo'lib turamiz. Ammo... Shiddat bilan yuksalib borayotgan fan-texnika asrida, internet va ijtimoiy tarmoqlarining ijobiy jihatlari bilan bir qatorda uning yoshlar ma'naviyatiga, ularning yangiliklarga chanqoq ongiga salbiy ta'sirining ham guvohi bo'lyapmiz. Zimdan e'tibor bersak, internet kafelariga serqatnov yoshlar (ayniqsa o'smirlar) u yerga borishib, har xil buzg'unchi g'oyalar ruhidagi ur-sur, o'ldir-yondir kompyuter o'yinlarini tomosha qilayotganligini, tuturuqsiz narsalar bilan vaqtlarini besamar o'tkazayotganligiga guvoh bo'lapmiz. Bunday yoshlarni biz internet imkoniyatlaridan to'laqonli, faqat bilim olish bilan mashg'ul deya ayta olamizmi? Eng achinarlisi, ayrim befarq ota-onalar farzandim internetda o'tirib, bilim olyapti, deb o'ylashadi. Shu o'rinda talabalarning ba'zi dars paytlarida qo'l telefonlari orqali internet saytlariga kirib, bemalol foydalanib o'tirishlariga munosabat bildirmoqchiman. To'g'ri talaba mustaqil izlanuvchi shaxs sifatida, bilimni ko'proq boyitishi, turli xil manbaalarga murojaat etishi yaxshi. Lekin dars hisobidan emas... Chunki, har narsaning ham o'z vaqt-soati bor, shu jumladan, internetdan foydalanishning ham. Internetdan foydalanishning ijobiy va salbiy jihatlari sanab o'taman:

Birinchi, o'z-o'zini anglash uchun cheksiz imkoniyatlar mavjud. Internetda har qanday narsani o'rganish uchun ko'plab kurslar mavjud: hatto sahifalarni qanday buzish kerak. Bu erda sizga biron bir joyga borishning hojati yo'q - uyda o'tirib, choy iching va o'qing. Masalan, chet tilini o'rganishni xohlaysizmi? Skype repetitorlari, barcha mumkin bo'lgan manbalar sizga yordam beradi. Siz o'zingizning ruhingizga yaqinroq narsani topishingiz kerak, va endi siz istagan vaqtingizda mashq qilishingiz mumkin (yana bir ortiqcha). O'qish kerak emasmi? Biror narsa haqida keng ma'lumotingiz bormi? Ulashing, kimgadir

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

o'rgating, veb-sayt yarating, auditoriyani jalb qiling, kimgadir foyda keltiring. Tanishishning yana bir imkoniyati. Shu kabi qiziqishlarga ega va ehtimol boshqa mamlakatlardan do'stlar topish XXI asrda muammo tug'dirmaydi. Va yana ko'p narsalar ...

Ammo ijobiy tomonlaridan tashqari, kamchiliklari ham bor:

Birinchi salbiy: nafaqat oddiy odamlar Internetdan foydalanadilar. Monitoring narigi tomonida o'tirgan odamni ko'rish, uning boshida nima bo'layotganini bilish imkonsiz bo'lgani uchun, bu darhol xavf tug'diradi, bunday odamlar ta'siriga tushib, pul yo'qotishingiz, hatto o'ldirishingiz ham mumkin (bunday holatlar bo'lgan). Shuning uchun xakkerlar. Viruslar - 21-asrning ofati. Va qanday kompyuterlar saqlamaydi, qancha sirlarni bilishadi. Va bunday ma'lumotni egallab olganingizdan so'ng, siz odamni almashtirishingiz mumkin, sharmandalik va oxir-oqibat shantaj qilish mumkin, bu oddiy odamlarning hech biriga yoqmaydi.

So'nggi paytlarda kompyuterlar hayotimizni to'ldirmoqda. Endi ular deyarli har bir oilada. Biz ularga o'rganib qolganmiz va bo'sh vaqtimizni ushbu mo'jizaviy mashinasiz tasavvur qilmaymiz. Kompyuterlar yordamida Internet bizning hayotimizga kirib keldi. Bu har bir inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Endi odamlar pochmani tekshirmasdan va sevimli saytlariga kirmasdan bir kun yashay olmaydilar. Internet nafaqat kundalik ishlarda yordamchi, balki boshqa dunyoda ham pochta qutilari, kutubxonalar, fotogalereyalar, o'yinlar, do'konlar mavjud. Internet yordamida odamlar turli shaharlarga sayohat qilishlari, sayyohlik joylariga tashrif buyurishlari, odamlar bilan muloqot qilishlari mumkin. Yaqinda ko'plab odamlar savol berishadi: "Internet zararli yoki foydalimi?". O'ylaymanki, bu savolga aniq javob yo'q. Aslida, Internet bir tomondan juda yaxshi va foydali narsadir. Boshqa tomondan, u ko'plab salbiy funksiyalarga ega: qaramlik, vaqtni yo'qotish, pul, sog'liq.

Shubhasiz, Internet ma'lumot qidirishda eng yaxshi yordamchi bo'lishi mumkin. Ammo ko'p vaqtni Internetda o'tkazadigan bo'lsak, bizda ba'zi muammolar bo'ladi. Biz haqiqiy dunyo bilan aloqani yo'qotamiz, kompyuterga to'liq qaram bo'lib qolamiz. Haqiqiy hayot va Internetdagi hayot o'rtasidagi tomonni ajratib olishni o'rganish juda muhim deb o'ylayman. Buning uchun Internetda nima muhimligini va nima muhim emasligini tushunish kerak. Va keyin Internet dahshatli

dushman emas, balki, ajralmas yordamchi bo'ladi. Va Internet o'zi barqaror daromad manbaiga aylanishi mumkin. So'nggi bir necha yil ichida Butunjahon Internet tarmog'iga Internetdagi vaqt foydali dasturlarni tomosha qilish, yangi bilimlarni olish, chet tillarini puxta o'rganish uchun sarflanishi mumkin. Ba'zilar hatto, uning yordamida yangi kasbni egallashga yoki yaxshi ish topishga muvaffaq aloqador ko'plab kasblar paydo bo'ldi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yurtimizda biz yoshlarga berilyotgan imkoniyatdan to'g'ri foydalangan holda kuchli bilimli kadrlar bo'lib yetishishimiz zarur. Zeroki, davlatimiz kelajagi -bu biz bugungi yoshlar qo'limizda. Butunjahon tarmog'i bizga aqlliroq, bilimlir oq bo'lishimizga, ko'plab qiziqarli narsalarni o'rganishimizga yordam beradi.

INSON MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM VA TARBIYANING ROLI

Raxmatov N.N.

*BuxDTI assistenti, O'zMU mustaqil tadqiqotchisi, "Ma'rifat"
targ'ibotchilar jamiyati a'zosi*

O'zbekiston Respublikasida ta'lim va tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlar va yangilanishlar mazkur tizimni tubdan isloh qilib, dunyoning rivojlangan mamlakatlarining ta'lim tizimi darajasiga olib chiqishga qaratilgan. Shuningdek, ta'lim bilan birga tarbiyaning olib borilayotganligi zamirida zamonaviy bilimga ega bo'lgan komil shaxslarni tarbiyalash nazarda tutilgan.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimini rivojlantirib, innovatsion ishlanmalar va yangi texnologiyalarni yaratmoqdalar, intellekt uchun sarmoyalar ajratmoqdalar. Natijada ularning ijtimoiy va iqtisodiy hayotlari yaxshilanmoqda, yanada rivojlanmoqda. Shuningdek, intellektual salohiyatlarining natijalarini avval o'zlarida qo'llab, keyin boshqa mamlakatlarga sotmoqdalar, foyda va manfaat topmoqdalar. Ammo ta'limda ilgari ketgan mamlakatlarda tarbiyaviy jarayonlarga e'tiborning kamligi yoki tarbiyaviy jarayonlarda erkinlik, axloq va odobning insoniyat tarbiyasi jarayonidan chetga chiqib qolayotganidan darak bermoqda. Ayniqsa, intellektual salohiyat egalari olimlarning faoliyatidan axloqning chetga chiqishi yoki ikkinchi darajaliga aylanishi, moddiy manfaat ketidan

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

quvish, shon-shuhrat va obro'-e'tiborga ega bo'lishga intilish, ilmni ortidan hashamatli xayot tarziga intilish natijasida jahonda turli katta-katta ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy global muammolar vujudga kelmoqda. Bularga misol sifatida ijtimoiy tengsizlik, ekologiya muammolari, turli buzg'unchi g'oyalar asosida urush va noroziliklarni keltirib chiqarish, tabiiy va inson resurslarini qo'lga kiritish uchun turli iqtisodiy, siyosiy va g'oyaviy-psixologik hamda madaniy kurashlarni keltirishimiz mumkin. Bularni keltirib chiqarayotganlar kimlar degan savol tug'ilishi mumkin. Albatta, buni javobi bitta, bular ilm, ta'lim va tarbiyani ustozidan olib, axloq va ma'naviyatdan uzoqlashgan, ilmning ma'naviy-axloqiy jihatlaridan uzoqlashgan insonlardir. Chunki odamzod ta'lim va tarbiya orqali buyuk olim bo'lib etishishi mumkin, ammo undan axloq ko'tarilsa, u insoniyatga juda katta va uzoq muddatli xavotir, zararlarni keltirishi mumkin. Ikkinchi jahon urushidan keyin AQSHda atom bombasini ixtiro qilishda qatnashgan olim Albert Enshteyndan jurnalistlar butun jahonning kuchli mamlakatlari ushbu yadroviy qurol bilan qurollanishga kuch sarflayotgani, bir kun kelib ular bir-biri bilan urushlar olib borishi mumkinligi, insoniyatning hayotini bunday xavfli quroldan nima qutqaradi deb savol berishganida olim ularga hokimiyatga yuksak axloqli insonlar kelsagina, ular hamkorlikda dunyoni qutqarishi mumkinligini e'tirof etib o'tadi. Ya'ni Enshteyn yadroviy qurolni yaratishda ishtirok etib, uning qanchalar katta sotsial zarar keltirishini ko'z oldidan o'tkazib, endi uni faqat ahloqli hokimiyat egalari qo'lga topshirish kerakligini anglab etadi.

Axloq bu inson ma'naviyatning bir tarkibiy qismidir. Ma'naviyat esa, ta'lim va tarbiya asosida shakllanadi, rivojlanadi va insonni kamolotga etkazadi, uning ichki va tashqi dunyosini shakllantiradi. Fozil odamlar shahrini orzu qilgan Abu Nasr Forobiy «Daraxtning etukligi uning mevasi bilan bo'lganidek, insonning barcha xislatlari ham ahloqiy tarbiya bilan yakunlanadi» deb, axloqiy tarbiyaning inson hayoti uchun katta ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etadi. Antik davr olimlari va SHarq davri mutafakkirlari ijtimoiy qarashlarining mazmunida inson axloqi va ma'naviy dunyosini shakllantirish, komillikka erishish yo'llari va farovon hayotni qurishning asosida faqatgina ikkita narsa ta'lim va tarbiya yotganini bilishimiz mumkin. Buyuk ma'rifatparvar jadid Maxmudxo'ja Behbudiy ham dunyoda ustun bo'lish uchun zamonaviy ta'lim va tarbiyaga ahamiyat berishi, ma'rifatparvar Abdulla

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” deya tarbiya masalasining dolzarbligini e'tirof etishi, tarbiya masalalariga e'tiborsiz qaralgan vaziyatda yuzaga keladigan ko'ngilsizliklar ham, u keltirib chiqaradigan zararli oqibatlardan ogohlantiradi. Shuningdek, islom olamining buyuk olimi Imom G'azzoliy “Bolalar ota-onalariga berilgan bir omonatdir. Bolaning qalbi har qanday naqshu tasvirdan xoli bir qimmatbaho gavhardir. U qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, qayoqqa bukilsa, egiladi. Agar yaxshilikka o'rgatilsa, shu bilan o'sadi va dunyoyu oxiratda saodatga erishadi. Uning savobiga ota-onasi ham, har bir muallimu ustozlari ham sherik bo'ladilar. Agar yomonlikka odatlantirilsa, hayvonlardek o'z holiga tashlab qo'yilsa, oxir-oqibat halok bo'ladi. Gunohi esa uning tarbiyasi uchun javobgar bo'lganlarning gardaniga tushadi” deb, ta'lim va tarbiyaning avvalo, oilada ota-onaga tushadigan mas'uliyati va keyin muallim va ustozlarga tushadigan mas'uliyati naqadar katta ekanligini va bunda ota-ona va ustozlar birdek javobgar ekanliklarini aytib o'tadi.

2021 yil 19 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag'ishlangan videosektor yig'ilishida jahon tarixida har bir xalqning avvalo ma'naviy birlashuvi, milliy g'oyasi bilan yuksalganini ko'rish mumkinligi e'tirof etib o'tildi. Davlat rahbari bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surayotgani, manfaatlar to'qnashuvi kuchayib borayotganini tilga oldi. Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarayotgani, milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortayotgani ta'kidlandi. Xudbinlik, mehnatga munosabat, oila engil qarash, iqtisodiyotda iste'molchilik kayfiyatining turli yo'llar bilan odamlar va yoshlar ongiga singdirilayotganligini qayd etib o'tdi. Terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiber-jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi oshib borayotgani, ba'zi hududlarda atayin beqarorlik yuzaga keltirilib, norozilik kayfiyati avj oldirilayotganiga e'tiborni qaratdi. Prezident bunday holat sodir etilmasligi uchun esa, ma'naviyat masalasini yuqoriga ko'tarib, “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir” deya mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlarda

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

ta'lim va tarbiya, ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyalari hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar hammavaqt ustun bo'lishi kerakligini e'tirof etib o'tdi. Bu borada bog'cha, maktab, oliy ta'lim, mahalla hamkorligida olib borilayotgan ishlarga e'tibor qaratish muhimligini aytib o'tdi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz o'rinliki, ta'lim va tarbiyaning asosida ma'naviyat va ma'rifat, ilmu hikmat hamda tarbiya komil inson va zamonaviy kadrlarni etishtirib chiqarishda indikator sifatida muhim rol o'ynaydi hamda jamiyatda doimo ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Buyuk sotsiolog olim Ogyust Kont jamiyatning ijtimoiy qonuniyatlarini ilgari surganida "sotsial statika"da "tartib" va "sotsial dinamika"da "progress"ni nazarda tutgan edi. SHuningdek, ijtimoiy tartibotni saqlashda hamda ijobiy davlatni barpo etishda "axloq"ning o'rni katta ekanligini e'tirof etgan edi. Jamiyat rivojining uchinchi bosqichi pozitivizmga axloqiy tarbiya olimlarning zimmasiga tushishini bashorat qilgan edi. Chunki jamiyat rivojining pozitivizm davrida olimlar, ziyolilar, muallimlar, mutaxassislar, umuman olganda intellektual salohiyat egalarining ahamiyati tobora orta boradi. SHuningdek, insoniyatning ongi va qalbiga pozitiv g'oyalarni singdirish va axloqli qilib tarbiyalashda ularning mas'uliyati katta bo'lishini aytib o'tgan edi.

Demak, axloqiy tarbiya, ma'naviyat va ta'lim uzviy bir-biri bilan bog'liq bo'lib, biri-birini rivojlantiruvchi va kelajakda ijtimoiy barqaror hayotni ta'minlab beradigan insoniyatning eng asosiy qadriyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2021 yil 19 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi// <https://president.uz/uz/lists/view/4089>

2. Abdulla Sher "Axloqshunoslik", "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2003 yil.

3. M.N.Boltayev "Ogyust Kont – sotsiologiya asoschisi", "Buxoro" nashriyoti 2020 yil.

4. Islom.uz sayti. <https://islom.uz/view/farzand-tarbiyasi>

**YOSHLARIMIZ ONGIGA SALBIY TA'SIR ETUVCHI
G'OYALARGA QARSHI SAMARALI KURASH OLIB
BORISHNING MA'NAVIIY-MA'RIFIY USLUBLARI**

Barotova Gulshod

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani,

6-maktabning "Ijodiy-madaniy targ'ibotchisi"

Inson hayoti bir necha bosqichlarga bo'linadi. Bu bosqichlar ichida umrning yoshlik bosqichi alohida ahamiyatga egadir. Yoshlik insonning eng nozik davri hisoblanib, insonning quvvatga to'lgan va harakatchanligi ziyoda bo'lgan vaqtdir. Shu bilan birga bu davr insonning hayot yo'llarining chorrahasida turgan payti hamdir.

Darhaqiqat, bugun dunyo ko'zda halqalangan yoshdek qalqib turgan bir paytda yoshlarni chalg'ituvchi, ularni o'z domiga tortishni istovchi turli kuchlar ko'payib boryapti. Eng achinarlisi, dunyoning qaysi burchagida biror jinoyat sodir etilsa, albatta, bu jarayonda yoshlarning "qo'lidan" foydalanilyapti. Shu sababdan, yoshlar ongiga mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirishda yot g'oyalar kirib kelishining oldini olish va ularni yo'qotishga qaratilgan chora – tadbirlar majmuini o'z ichiga oladigan mafkuraviy profilaktikani ishlab chiqish va takomillashtirish kerak. U ijtimoiy institutlar tomonidan xilma – xil shakllarda amalga oshiriladigan g'oyaviy – tarbiyaviy, ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy ishlar majmuini to'g'ri tashkil etadigan butun tarbiya tizimini qamrab oladi. Shu bois: "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan",-deya ta'kidladi Prezidentimiz.

Shunday ekan, yoshlarimizda turli xil yot va zararli g'oyalarga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni yanada rivojlantirish ularni turli xil g'oyaviy va mafkuraviy tahdidlardan asrash, jamiyatda mafkuraviy immunitet hosil qilish orqali taraqqiyot qonunlarini chuqur aks ettiradigan sog'lom, barkamol avlodlarni tarbiyalab voyaga yetkazish

lozim. Shundagina biz istiqbolda ma'naviy barkamol insonni, sog'lom avlodni tarbiyalashga erishamiz.

Vaholanki, bunga erishish uchun, endilikda quyidagi vazifalarni bajarish lozim:

7. globallashuv jarayonida yoshlar ongiga ta'sir etuvchi ijobiy omillarni ilmiy-falsafiy tahlil qilish;

● globallashuv jarayonida milliy axloqiy qadriyatlarning tutgan o'рни va ahamiyatini tadqiq etish;

● chet davlatlardan kirib kelayotgan turli vosita va mafkuraviy omillarning targ'ibot mavzu va g'oyalari haqida hamda usullarini o'rganishni ta'minlashga oid taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish zarur.

Hozirgi kunda hayotni internetsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Demak, o'z-o'zidan uni mutlaqo man etib, uning faoliyatini to'xtatib qo'yishga imkoniyat yo'q. Shuning uchun ham yoshlarni ongida ularga ijobiy ta'sir qila oladigan uslub bilan internetdan foydalanish qonun-qoidalari va birinchi o'rinda dinimiz belgilab bergan odoblar bilan tanishtirish kerak va bu borada tanishtiruvchilarni o'zlari ibrat bo'la olar darajada bo'lishlari maqsadga muvofiqdir.

Yoshlarning ongida har xil ko'ngilochar o'yinlar yoki bo'sh vaqtlarni zerikmaslik uchun har xil bekorchi mashg'ulotlar bilan zoye qilishni o'rgatadigan har qanday tashviqot va targ'ibot uslublariga qarshi kurashish kerak.

Yoshlarni mazkur illatlardan ogohlantirib, qaytarish bilan birgalikda ularni ko'ngillarini egallay oladigan, har taraflama foydali va samaraliroq bo'lgan g'oyalar bilan ta'minlash kerak.

Ota-onalarimiz, murabbiy va muallimlarimiz, qolaversa, barchamiz yoshlarimizni ma'naviy barkamol bo'lib voyaga yetishlari uchun mas'ulligimizni unutmaylik. Ularni qarovsiz qoldirmaylik va ularga ota-bobolarini yuksaklarga ko'targan ma'naviyat malhamidan berishni hargiz yodimizdan chiqarmaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. www.egovernment.uz internet sayti.

2. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent-2017

3. "Ommaviy madaniyat" – ma'naviyat kushandasi. Islom.uz .

4. X.TO'XTAYEV.//SH.BOBOYOROV//Abu Ali Ibn Sino yoshlar ta'lim-tarbiyasi to'g'risida. 2019

**YOT G'OYALARGA QARSHI SAMARALI KURASH
OLIB BORISHNING MA'NAVIY -MA'RIFIY USLUBLARI"**

Hikmatova Anora

*Buxoro viloyati G'ijduvon tumani 50-umumiy o'rta ta'lim maktabining
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi va targ'ibotchi*

Darhaqiqat, inson hayoti bir necha bosqichlarga bo'linadi. Bu bosqichlar ichida umrning yoshlik bosqichi alohida ahamiyatga egadir. Yoshlik insonning eng nozik davri hisoblanib, insonning quvvatga to'lgan va harakatchanligi ziyoda bo'lgan vaqtidir. Shu bilan birga bu davr insonning hayot yo'llarining chorrahasida turgan payti hamdir. Agar o'sha chorrahada yaxshi yo'lga kirib olinsa, o'zi, oilasi, xalqi, vatani uchun juda katta yaxshilik sari yuzlangan bo'ladi. Agar Alloh taolo ko'rsatmasin, mazkur chorrahada yomon yo'lga burilib ketsa, o'zi, oilasi, xalqi, vatani uchun ko'ngilsiz hodisalar sari qadam qo'ygan bo'ladi.

Yoshlar har bir millatning kelajagidir. Bu esa yoshlarga jiddiy ahamiyat berilishi lozimligini bildiradi. Har bir shaxsning kim bo'lishligi yoshlik paytidan bilina boshlaydi. Yoshlik paytida shakllanib qolgan sifatlar insonga butun umri davomida hamroh bo'ladi. Shuning uchun jamiyatda yoshlarning odobli, aqlli, halol, tarbiyali inson bo'lishlari uchun harakat qilinadi.

Yoshlarning tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar ijobiy va salbiyga bo'linadi. Alloh taoloning oxirgi va mukammal dini, qiyomatgacha boqiy qoluvchi, barcha zamonlar va makonlarda insoniyatga ikki dunyo saodati yo'lini ko'rsatib beruvchi dini — Islomda yoshlarning tarbiyasiga oid ko'plab oyat va hadislar vorid bo'lgan. Mana shu oyat hadislariga og'ishmasdan, to'laligicha amal qilinsa, Allohning tavfiqi bilan, o'sib o'nayotgan farzandlar chiroyli xulqli, odobli, tarbiyali bo'lib o'sadilar va umrlarining oxirigacha shunday yashaydilar. Ulardan barcha mamnun bo'ladi, insonlarning hurmatiga, muhabbatiga sazovor bo'lishadi. Islom diyini hech kimni hech qachon yomonlikka chaqirmaydi balki doimo yaxshilik qilishga, go'zal xulqlar bilan xulqlanishga, halol yashashga chaqiradi. Bu tarbiyaning islomiy ko'rinishi. Buni ijobiy tarbiya deyiladi.

Endi salbiy tarbiya qanday bo'ladi, nimadan kelib chiqadi? Salbiy tarbiya bu ijobiy tarbiyaning aksi bo'lib, uning salbiy ekanligi faqatgina ta'lim orqali bilinadi. Uning kelib chiqishi johillik sababidan, qaysarlik

va bo'yinsunmaslikdan, havo nafsga berilib ketishdan kelib chiqadi. Hozirgi kunda ommaviy axborot vositalarida, yoshlar orasida mashhurlik darajasiga erishgan «Ommaviy madaniyat» deb ataluvchi ofat yoshlarning orasiga chuqur singib ketgan bo'lsa-da, uning yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sirlari mana endi endi muhokama qilinmoqda. «Ommaviy madaniyat»ni yoshlarning yurish turishida, salomlashishida, ayniqsa, kiyinishida yaqqol ko'zga tashlansa-da, ko'pchilik bunga oddiy holdek yondoshib, «bu moda, zamonning talabi shunday» deb bahona izlashadi.

Yoshlarning tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillardan yana biri internetdan noo'rin foydalanishdir! Darhaqiqat, internetning imkoniyatlari cheksiz. Agar undan samarali foydalanilsa katta yutuqlarga erishish mumkin. Biroq, bugungi globallashuv davrida yoshlarni turli tahdidlardan asrash, ularda xalqaro tarmoq tomonidan taqdim etilayotgan turli axborot oqimidan haqqoniy ma'lumotlarni saralay bilish, to'g'ri va maqsadli foydalanish madaniyatini yuksaltirish, axborot xavfsizligini ta'minlash g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunday ekan yoshlarni internet saytlarga kirishida axborotdan to'g'ri va maqsadli foydalanish madaniyatini yuksaltirish zarur.

MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA AXBOROT XAVFSIZLIGI KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Muzaffarova Iqbol To'xtamishevna

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani

17- maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Insoniyat tarixida mavjud bo'lgan siyosiy, iqtisodiy, harbiy tahdidlar qatoriga endilikda mafkuraviy, ma'naviy tahdidlar ham qo'shilganligi bugungi kunga kelib ko'p e'tirof etilmoqda. Bu tahdidlarning asosiy obyektini esa, birinchi navbatda, o'sib kelayotgan yosh avlod tashkil etib, bu – ularda hayotga nisbatan turli ko'rinishdagi salbiy va zararli qarashlarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

Hayotga negativ yondashuvlar (salbiy qarashlar)ning shakllanishi insonning ma'naviyatdan uzilgan holda harakat qilishiga sabab bo'ladi. Ushbu jarayon jamiyatda munofiqlik, millatchilik, shafqatsizlik kabi illatlarning rivojlanishiga yo'l ochadi.

Ma'lumki, mustaqil hayotga qadam qo'yish ostonasi aynan maktab bitiruvchilari, ya'ni 9-11- sinf o'quvchilari ongi va tafakkurida tub

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

burilishlar yuz beruvchi palla hisoblanib, bu davrda turli yot zararli g'oyalarga ta'sirchanlik ortadi. Ayniqsa, bugungi kun informatsion xurujlari bu borada yetakchi rol o'ynaydi. Ommaviy axborot vositalari va internet sahifalaridagi ommaviy madaniyatni targ'ib etuvchi sahnalar, nosog'lom ijtimoiy muhit ularning ma'naviyat va jamiyatdan uzoqlashishiga turtki bo'ladi. Ma'naviyatdan uzoqlashish esa, asrlar davomida o'zbek milliy mentaliteti, tarbiyasi ustunlari bo'lgan imon, e'tiqod, fidoyilik, vatanparvarlik, sabr, mas'uliyat, g'urur, shukronalik, halollik, oriyat, vijdonlilik kabi vaziyatlarning tanazzuliga yuz tutishiga olib keladi. Shu sababli ham mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2019- yil 19- mart kuni "Yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini singdirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin- qizlar bandligini oshirish" masalalariga bag'ishlangan videoselektrdagi nutqida yoshlarni internetdagi zararli xurujlardan asrash, ularni axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga o'rgatish masalalari haqida alohida to'xtalib o'tdi. Shuningdek, Prezidentimiz tomonidan Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga ilg'or xalqaro tajribalar asosida barcha shahar va tumanlar markazlarida raqamli texnologiyalar, o'quv markazlarini tashkil etish bo'yicha topshiriq berildi. Bu markazlarda elektron tijorat va dasturlash bepul o'rgatiladi, axborot texnologiyalari sohasida tadbirkorlik bilan shug'ullanish bo'yicha innovatsion ko'nikmalar beriladi, "Startup" loyihalariga yordam ko'rsatiladi. Bugungi kunda barcha maktablarda kompyuter texnologiyalari bo'lishiga qaramasdan internet xizmatidan yetarli darajada foydalanilmayotgani tanqid qilindi. Xalq ta'limi vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga 2021- yilgacha barcha maktablardagi kompyuter sinflarini zamonaviy texnologiyalar va yuqori tezlikdagi internet tarmog'i bilan ta'minlash bo'yicha chora- tadbirlar rejasini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Bugungi kunda axborot xavf- xatarlar guruhiga quyidagilar kiradi:

Kontent xavfi— yosh avlodning axloqiy va ma'naviy tarbiyasiga salbiy ta'sir etuvchi (matnlar, tasvirlar, audio, video fayllar, havolalar) noqonuniy, axloqsiz va zararli bo'lgan turli axborotlarning (zo'ravonlik,

yovuzlik, hayosizlik, odob-axloq me'yorlariga zid so'zlashuv, irqiy, diniy va millatlararo nizolarni keltirib chiqaruvchi, terrorizm va diniy ekstremizm, narkotik va psixotrop moddalar targ'iboti, joniga qasb qilish, ta'qiqlangan o'yinlar) Internet tarmog'ida doim mavjud.

Kommunikatsion xavf— Internet tarmog'ida noma'lum (yaxshi tanish bo'lmagan) shaxslar bilan muloqot jarayonida paydo bo'ladi. Tarmoqdagi anonimlik va javobgarlikka tortilmaslikni anglash hissi ko'p foydalanuvchilar tomonidan haqorat, qo'rqitish, kiberbulling, xiralik hamda shantaj qilish kabi holatlarga yo'l ochadi.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash joizki, maktabda ta'lim olayotgan o'qituvchi va o'quvchilarimning axborot xavfsizligi bo'yicha bir qancha chora- tadbirlar ishlab chiqib, buni amaliyotga bosqichma-bosqich, izchillikda tadbiq etish lozim:

7. Eng avvalo o'quvchilarga davlat tomonidan himoyalangan axborot tizimlaridan foydalanishni o'rgatish;

8. Maktabning informatika o'qituvchilari va rahbar xodimlari bilan hamkorlikda turli xil internet tarmog'idagi zararli saytlar, asossiz axborotlarni asosli axborotlardan farqlash bo'yicha tushunchalar beradigan seminar o'quv- treninglarni tashkil etish;

- O'quvchilarning ota- onalari bilan hamkorlikda o'quvchining uyda foydalanadigan internet tarmog'i vositalaridan qay darajada va qanday maqsadlarda foydalanayotganligini bilish va nazorat qilishni yo'lga qo'yishda hamkorlikda ishlash

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni (lex.uz)

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2018 yil 14 avgustdagi PQ-3907-son Qarori /Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.08.2018 y., 07/18/3907/1706-son).

3. Sh. Mirziyoyevning 2019- yil 19- mart kuni "Yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini

singdirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin- qizlar bandligini oshirish” masalalariga bag'ishlangan videoselektrdagi nutqi.

4. Axrarov B., Djuraeva K. “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ulardan foydalanish”. O'quv qo'llanma. T.:”El-press”, 2012 y.

5. <http://www.google.com> – ommabop axborot-qidiruv tizimi

BARKAMOL AVLOD-TARAQQIYOT POYDEVORI

SH.SH.Olimov

BUXDU Pedagogika kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari doktori

Komil insonni tarbiyalash borasidagi izlanishlar bugungi kunda va istiqbolda ham davlat siyosati darajasida uzluksiz kuchayib borayotganligini va umumxalq harakatiga aylanayotganligi bolalikning ilk pog'onalaridanoq yoshlarda ijtimoiy qimmatga ega faoliyatni tarbiyalash, boshlang'ich ta'limni yanada takomillashtirishdek muhim vazifani qo'ymoqda.

Barkamol inson tarbiyasini tashkil etish azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi, millat ma'naviyatining uzviy bir qismi bo'lib kelgan. Bu g'oya nafaqat alohida shaxslarni, balki butun-butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari boshlagan, ularni ma'naviyat va ma'rifat sohasida ulkan yutuqlarga erishishga undagan. Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga etkazish haqida qayg'urmagan xalqning, millatning kelajagi yo'q. SHu bois, mamlakatimizda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning ahamiyati tobora o'sib borayotganligi ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashni muhim masala sifatida kun tartibiga qo'ymoqda.

Talaba-yoshlarning ilm-fan yutuqlarini egallashlarida axborot-kutubxona faoliyatining o'rni beqiyosdir. Prezidentimizning 2017 yil 13 yanvardagi “Kitob mahsulotlarni chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish ,kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishiga asosan bolalarni mutolaa qilishga o'rgatish va kitobxonlik madaniyatini oshirishdan iborat. Bo'lajak mutaxassislarni ma'naviy-axloqiy, madaniy va mustaqil bilim olish ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan shart-sharoitlar yaratilgan.

YAngilangan tafakkur yoshlarda Vatanga sadoqatni milliy qadriyat va an'analarga muhabbatni, ota-onasi, qarindosh-urug'i, ustoz-

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

murabbiyi, do'stlariga nisbatan mehribonlikni, tanlagan kasb-hunariga sodiqlikni nazarda tutadi. Fikr tarbiyasi, yangicha dunyoqarash, ma'naviy-axloqiy yetuklik aynan mustaqillik mafkurasi ruhida sayqal topgan milliy ong, milliy tarbiya va milliy e'tiqodning mahsulidir.

Keyingi yillarda yosh avlodning jismonan sog'lom bo'lib voyaga etishini ta'minlash maqsadida shaharlarimiz va tumanlar markazlarida sportning barcha turlari bo'yicha o'g'il-qizlarning shug'ullanishlari uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida zamonaviy sport komplekslari, o'yingohlar qurilib, foydalanishga topshirildi. Keyingi yillarda jamiyatimizda sog'lom oila qurish maqsadida bo'lg'usi kelin-kuyovlarni nikohdan oldin tibbiy ko'rikdan o'tkazishga katta e'tibor qaratilmoqda. Tani sog' yigit-qizlar voyaga etishi uchun nafaqat ota-ona, balki ta'lim-tarbiya maskanlarida faoliyat ko'rsatayotgan ustoz, murabbiylar, tibbiyot xodimlari, mahallalarning faollari, jamoatchilik vakillari sharaflil burchni o'z zimmalariga olishlarini davr taqozo etadi.

Zero o'zimizdan keyin ozod va obod Vatan qoldiradigan bo'lsak, umidli, ishonchli, har jihatdan barkamol vorislarimiz sog'lom avlod vakillari bo'lishlariga daxldormiz.

Insonning ma'naviy to'kislik sari intilishi – tabiiy jarayon. SHu tabiiy taraqqiyotga tayangan holda fuqarolari erkinligini ta'minlash, xalqining ma'naviy to'kisligi sari intilish har qanday mamlakatning kuchli bo'lishi garovidir. SHu ma'noda, yurtimiz ta'lim-tarbiya jarayonida yangilangan pedagogik tafakkur sharoitida o'z qarashiga ega bo'lgan, e'tiqodi sog'lom fuqaroni shakllantirish yo'lida jiddiy ish olib borilmoqda. YA'ni ko'ngil tarbiyasiga, inson ma'naviyatining sog'lomlashuviga, uning yaxshi sifatlar bilan to'yinishiga birlamchi yumush sifatida yondashish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim-tarbiya amaliyotida ham muayyan o'zgarishlar sodir bo'layotir.

Ta'lim kechimi insoniylashdi, mazmuni insonparvarlashdi. Ta'lim jarayoni oliy maktabga kiruvchi talabgor yoki bo'lajak mutaxassis tayyorlashday tor yondashuv o'rniga barkamol shaxs shakllantirish, sog'lom ma'naviyatli barkamol shaxsni tarbiyalashday keng qamrovli maqsadga yo'naltirildi. Tarbiyalanuvchilar o'zgarlar tomonidan o'qitilishi kerak bo'lgan ta'lim ob'ektidan o'qitish va tarbiyalash kechimida o'zi bevosita faol ishtirok etadigan sub'ekt darajasiga ko'tarilmoqda. YA'ni tarbiyalanuvchi xuddi o'qituvchi singari dars jarayonining ijrochisiga aylanib bormoqda.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Ma'naviy kamolotni ta'minlashda o'quvchi-talabalarlarning o'z ishtiroki, ularning bilim olish va tarbiyalanish yo'lida bevosita qatnashishi masalasi yangilanayotgan milliy pedagogikada dolzarb ahamiyat kasb etyapti. Bugungi kunda ochun pedagogika ilmi va amaliyotida hech qanday ta'lim-tarbiya tizimi hech kimni tarbiyalash va unga ilm berishga etarlicha qodir emasligi anglab etildi. Har qanday ta'lim-tarbiya tizimining vazifasi o'quvchilardagi ichki imkoniyatni uyg'otib, uni o'qiydigan va tarbiyalanadigan qilish, bu jarayonda uning o'zining tashabbuskor, ehtiyojmand bo'lishiga erishish lozimligi hamda butun kuchni shunga yo'naltirish zarurligi tushunib etildi.

Har bir insonning ijtimoiylashuvi, jamiyatga aralashuvi, birinchi navbatda, oila bag'rida, uyda yuz beradi. Bu jarayonning badiiy asarlar ko'magida olib borilishi juda ijobiy samara beradi. Chunki badiiy asar kishining tafakkuri bilan birga sezimlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Tafakkur yordamida bilib olingan tushuncha va haqiqatlar tuyg'ular yordamida shaxsning tabiatiga singdirilib, e'tiqodga evrilishi mumkin. Shuning uchun ham har bir shaxsning ijtimoiylashuvida badiiy adabiyot hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Xalqning fikrini uyg'otish, ko'zini ochish, atrof olam, jamiyat va o'zi to'g'risida o'ylab ko'rishdan tashqari, ommani faoliyatga undash, harakatga da'vat etish kabi ijtimoiy-siyosiy funksiyalarning barchasini adabiyot amalga oshirishi mumkin. Hamma zamonlarda ham badiiy asarda ijtimoiy munosabatlar, turmush muammolari, ro'zg'oriy yumushlarga doir tashvishlar aks ettiriladi. Negaki, odam ijtimoiy mohiyatga ega va ijtimoiylashgandagina o'zini namoyon eta oladigan yaratiq sifatida shunday munosabatlar qurshovida bo'lishga, binobarin, adabiyot ham insonni shunday muammo-munosabatlar og'ushida tasvirlashga mahkum. Lekin bosh mo'ljal: har qanday katta-kichik hayotiy muammoga inson ko'ngil holatini anglatish, uning ruhiyati tovlanishlarini tasvirlash vositasi sifatida qaralsagina adabiyotning asl tabiatiga zug'um qilinmagan bo'ladi.

Bolasini badiiy adabiyotga oshno qilish uchun, avvalo, ota-onaning o'zida, ayniqsa onada bunga moyillik kuchli bo'lishi zarur. Har bir inson ruhiy dunyosining shakllanishida ona muhim o'rin tutadi, ayni vaqtda, onaga munosabat uning ma'naviy qiyofasini belgilovchi asosiy omil ham sanaladi. Bizda shaxsiy va kasbiy faoliyatdagi rivoj, baraka va omad aynan onaga munosabatga bog'liq deb qaralishi sir emas.

Bugun ziyolilar orasida «yoshlar kitob o'qimay qo'ydi», degan fikr hukmronlik qilib qoldi. Buning o'ziga yarasha asoslari ham bordir, ya'ni bir iqtisodiy tizimdagi tartibotdan ikkinchisiga o'tish asnosida mamlakat fuqarolari ma'naviyatida yuz bergan bo'shliq albatta, o'zidan iz qoldirdi. Qolaversa, mamlakatda imloning o'zgarishi ham bu jarayonga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. SHu sabab millat ma'naviy taraqqiyotida bir qadar kechikish sodir bo'ldi. Lekin bir haqiqatdan ko'z yumib bo'lmaydi: o'qiydigan oilada hamisha o'qilgan, o'qilyapti, o'qiladi. Bugungi yoshlarning kitob o'qish borasidagi imkoniyatlari shunchalar kattaki, ular nafaqat o'zbek adabiyotini kitob shaklida yoki internet orqali, balki chet el adabiyotidan istagan asarini «kindle»lar (kindllar) – elektron kitoblar ko'magida asliyatda o'qishlari mumkin. Bugungi yoshlarning ko'pchiligi rus tilini bilmasliklari mumkin, lekin ingliz tilini, kompyuterni juda yaxshi o'zlashtirib oldilar. Har ikki yo'nalishdagi bilimlari bilan yoshlar amalga oshirayotgan ishlardan bizning avlod faqat hayratga tushadi xolos. Bolalarimizning bizdan ko'ra aqlli, bilimli bo'lib borayotgani davr talabidir.

Bizning yurtimiz, o'zbek degan xalqning, ming-ming yillik tarixi va hech kimnikiga o'xshamagan ma'naviy qadriyatlari bo'lgan xalqning avlodi o'zligini asrab qolishi uchun mas'ul bo'lgan kattalar va ta'lim muassasalari yoshlarning ma'naviy sog'lom shakllanishida kitobning o'rni va rolini yaxshi tushunishlari va bundan to'g'ri foydalana bilishlari davr talabidir.

BARKAMOL AVLOD TARBIYASINING MA'NAVIIY- MA'RIFIY USLUBLARI

Nuritov Ilyosjon Olimovich

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi

G'ijduvon tuman bo'linmasi mutaxassisi

Bugungi kunda yoshlar tarbiyasi muammolari deyarli barcha mamlakatlar uchun umumiy masaladir. Yoshlar tarbiyasi mavzusi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida shunday degan edi: "...Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olish. Buning

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz. Shu munosabat bilan O'zbekiston globallashtirish va axborotkommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif etadi. Bizning nazarimizda, mazkur hujjatni imzolaydigan davlatlar ushbu sohani o'z ijtimoiy siyosatining asosiy va muhim hayotiy ustuvor yo'nalishlaridan biri darajasiga ko'tarish bo'yicha qat'iy majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi kerak”.

Ushbu nufuzli tashkilotning 75-sessiyasida esa Prezidentimizning oliy minbarda turib aytgan quyidagi so'zlari butun dunyo ahlini chuqur mushohadaga chorladi: “Mamlakatimiz aholisining yarmidan ko'pini yoshlar tashkil etadi. Respublikamizda har bir yigit-qizning jamiyatda munosib o'rin egallashi va o'z salohiyatini namoyon etishi uchun ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda Yoshlar parlamentlari, Yoshlar ishlari agentligi faoliyat ko'rsatmoqda.

Avgust oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida yoshlar huquqlariga bag'ishlangan Samarqand xalqaro forumi muvaffaqiyatli o'tkazildi. Fursatdan foydalanib, yana bir bor **"Yoshlar huquqlari to'g'risida"gi Birlashgan Millatlar Tashkiloti konvensiyasini** qabul qilish bo'yicha O'zbekiston tashabbusini qo'llab-quvvatlashga chaqiraman.”

Davlatimiz rahbarining yoshlar borasida bu qadar kuyinib gapirishlari bejiz emas. Bugun turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan ayni kunda yoshlarni har tomonlama himoya qilish, ularning ma'naviy immunitetini mustahkamlash dolzarb bo'lib bormoqda. Binobarin, Ayni paytda yana va yana global ko'lamlarda aynan yoshlar tarbiyasida yechimini kutayotgan muammolar mavjudligini tan olishimiz, e'tirof etishimiz kerak. O'zi va o'zgalarning taqdiriga, kelajagiga befarqlik, shafqatsizlik, ishyoqmaslik, halol mehnatdan bo'yin toblash, axloqsizlik, yengil-elpi va boshqalar hisobiga kun kechirish, giyohvandlik, o'g'irlik, jinoyatchi guruhlar, ekstremistlar va terroristlar faoliyatida ishtirok etish ham jamiyatning aynan navqiron yoshdagi a'zolarini o'z domiga tortayotgani sir emas. Ilm o'rganish, ma'lumot olish uchun sharoit yaratib berayotgan axborot texnologiyalari, jumladan, Internet ham

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

muammolar manbaiga aylanib borayotganini ta'kidlash zarur. Vaholanki, aynan shu Internet tarmoqlarida buning oqibatlarini namoyish etayotgan lavha yoki hujjatli filmlarni ko'rish mumkin. Dahshatga tushib ketasan kishi. Xayriyatki, bizda bunday emas, degan o'y kechadi xayoldan. Biroq, aslo beparvolikka berilish kerakmas. Agar qonunlar ijrosi qo'llanilmas, har qanday jinoyatga jazo muqarrarligi aholi va yoshlar ongiga singdirilmas, korrupsiya degan balo yo'qotilmas ekan, har qanday davlat yuqoridagiga o'xshash holatga tushib qolishi ehtimoldan xoli emas.

Shu o'rinda yana bir hayotiy haqiqatni qayd etish lozim: qonunlar ijrosini ta'minlash, yuridik savodxonlik tadbirlarini amalga oshirishdan tashqari, ta'lim, tarbiya, ma'naviyat va madaniyatni shakllantirish kabi sohalar borki, ularning ahamiyati har bir mamlakatda tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda katta o'rin tutadi. Yoshlar o'rtasida axboriy-psixologik xavfsizlik muammolari haqida so'z borganda oilaning o'rnini alohida ta'kidlash joiz. Modomiki, farzandning dunyoqarashi, maslak, qadriyat, e'tiqodlari, asosan, oila bag'rida tarkib topar ekan, shu sababli oilaga haqiqiy ma'naviyat qo'rg'oni, deya ta'rif beriladi. Zero, bolaning kelajagi ushbu maskanda qanday tarbiya olganligi, bola tarbiyasida ota-onaning o'z burch va vazifalariga qanday yondashuviga bog'liqdir. Ammo bugungi globallashuv davrida, shiddatli zamonda farzandlarning sog'-omon yurishini ta'minlashning o'zigina yetarli bo'lmay qoldi. Zamonga xos va mos yuksak ma'rifatli, bunyodkor, shijoatli avlodni tayyorlash zarurati jamiyat, eng avvalo, oila instituti zimmasiga g'oyat katta mas'uliyat yuklamoqda.

Muxtasar aytadigan bo'lsak, jahonda yuzaga kelayotgan zamonaviy tahdidlar yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirish, ularni ona Vatanimizga muhabbat va sadoqat ruhida kamol toptirishni taqozo etmoqda. Bu borada joriy yilning 26 martida muhtaram Yurtboshimiz tomonidan imzolangan "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror yurtimizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samarasi va ta'sirchanligini oshirish, ko'lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratishda barchamiz uchun dasturilamal bo'ldi.

FALSAFA TARIXIDA INSON MOHIYATI TALQINI

Yunusova G.S.- Bux MTI, f.f.d.,

*«O'zbek tili va adabiyoti» kafedrasini mudiri, "Ma'rifat" targ'ibotchilar
jamiyati a'zosi*

Insonlar uchun eng qadrlil bo'lgan fazilatlar orasida sharm-hayo, vijdon va aql kabi ilm, tafakkur, qalb va ruh uning kamolotida muhim sanaladi. Lekin inson haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishda qadriyatlar tizimida bu fazilatlarining o'rnini bilish kerak. Chunki inson tabiat va jamiyatda dialektik birlikni ta'minlab turgan aqlli mavjudotdir.

Faylasuf Q.Nazarovning ta'kidiga ko'ra, «Sharq uyg'onish davri faylasuflaridan bo'lgan Beruniy – «inson» eng asosiy kadriyatlardan biridir, «tafakkur» esa uni boshqa jonzotlardan ajratib turadigan ma'naviy omildir, deb hisoblagan. U ma'naviy qadriyatlar tizimini o'ziga xos tarzda ifodalaydi, ya'ni yaxshi va yomon xulqlarga ajratadi. Mutafakkirning fikricha, yaxshi xulqlarga – rostguylik, odillik, oqillik, mardlik, botirlik va muruvvatlilik kabi qadrlil xususiyatlar, yomon xulqlarga esa, yolg'onchilik, zolimlik, qalloblik, o'g'rilik, hiylagarlik, nomardlik kabi jihatlar mansub. SHarqning ko'pgina ma'rifatparvar mutafakkirlari kabi Beruniy ham odamzotni olamdagi hamma mavjudotlardan ustun qo'yadi. Uning fikriga ko'ra, «inson zoti barcha hayvonlardan yuqori turadi, er yuzini obod etishi va uni boshqarib turishi uchun insonga aql-zakovat kuchi hadya etilgan». Mutafakkir «Hindiston» asarida hindlar turmushini tadqiq etar ekan, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, marosimlarning ahamiyatini, ularning turli-tumanligini ta'kidlaydi. Inson uchun asosiy qadriyatlardan bo'lgan jamoa va tilning vujudga kelishini odamlarning birlashishga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan, deya izohlaydi. Beruniy hunar, savdo-sotiq, mamlakatlararo madaniy aloqalarni kuchaytirish, ijtimoiy hayotda ilm-fanni rivojlantirish, uning ahamiyatini oshirish tarafdori edi» [1]. Shuningdek, insonlar jamoa bo'lib yashar ekan, ularda bir-biriga bo'lgan qo'shnichilik, qarindosh-urug'chilik munosabatlarida ehtiyoj katta. Chunki jamoa bo'lib yashash qonuniyatiga ko'ra o'zaro mehr, oqibat, yiqilganga yordam qo'lini cho'zish, qiyin vaziyatga tushganda hashar yo'li bilan uning og'irini engil qilish kabi muqaddas qadriyatlarimiz hali hanuzgacha saqlanib qolganligi hozirgi kun yoshlarimiz tarbiyasida ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillardan desak o'rinli bo'ladi.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Shuningdek qomusiy alloma Ibn Sino asarlarida ham qadriyatlar muammosi diqqat markazida turgan. Olim asarlarining katta qismi falsafa muammolariga bag'ishlangan. Qadriyatlar muammosi Ibn Sinoning «Risolatut tayr» («Qushlar tili»), «Donishnoma», «Solomon va Ibsol» kabi bizgacha etib kelgan asarlarida xam o'z ifodasini topgan. Uning nazarida, o'z ibtidosini Allohdan olgan borliq va tabiat insonni o'rab turuvchi abadiy makondir. SHu jihatdan uning qadri beqiyos, inson esa hamma boyliklarni tabiatdan oladi, undan o'ziga davo topadi. Ibn Sino inson, uning o'z-o'zini idora qilish haqidagi fanlar /insonshunoslik/ ahamiyatini ham to'g'ri ta'kidlaydi. Afsuski, Sharq falsafasida asosiy mavzulardan biri bo'lgan bu yo'nalishdagi fanlarga sobiq ittifoq davrida etarli e'tibor berilmadi. Holbuki, bu borada yaxlit «Insonshunoslik» fanini yaratish imkoni mavjud edi. Ibn Sino ma'naviy-axlokiy kadriyatlarining ahamiyatiga ham katta e'tibor bergan [2] Uning fikricha, odamzot qadri boshqalar bilan xamkorligi, yaxshi axlokiy fazilatlarga ega bo'lish uchun intilishi, donoligi, boshqalarga yaxshilik qila olishidadir. Faylasuf nazarida, yaxshilik rohat-farog'at va lazzatlanishga olib kelishi, yomonlik esa azoblanish va uqubatga olib borishi bilan tavsiflanadi. Ibn Sino «Axloq ilmi haqida risola»sida «Iffat», «shijoat», «hikmat», «adolat», «saxiylik» kabi insoniy-ma'naviy qadriyatlarni ta'riflaydi.

Biz yuqorida Shayx Abdulqodir Giyloniyni inson hayoti mazmunini belgilaydigan yaxshilik va yomonlik, axloqiy sifatlar xususidagi qarashlarini tahlil etish bilan birga mutafakkirlar Beruniy va Ibn Sinolarning inson hayotidagi qadriyatlar xususidagi qarashlarini solishtirar ekanmiz, o'xshashlik jihatlari yaxshilik va ezgulikka olib keluvchi insoniy fazilatlar kamolotga olib kelishiga guvoh bo'lamiz. Aslida ruhiyatshunoslik fani talqiniga ko'ra inson nimani niyat qiladi, o'sha niyatlar, fikrlar albatta bir kun kelib moddiylashadi.

Endi inson ruhiyati masalasini o'rganish jarayonida bir narsani aniqladikki, o'z davrida akademik olim Ibrohim Mo'minov inson ruhi va tana kamoloti uyg'unligini tadqiq etar ekan, ruhiyat sirlari xususida betakror ma'lumotlar bergan.

Falsafa tarixida inson muammosini o'rganar ekanmiz, akademik olim Ibrohim Mo'minovning mehnatlari diqqatga sazovordir [3]. Ayniqsa, tasavvufning bir necha buyuk namoyandalari ilmiy merosini tahlil qilish jarayonida I.Mo'minov inson mavzusiga alohida e'tibor

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

qaratgan. Xususan, Abu Homid G'azzoliyning ma'naviy merosini o'rganish jarayonida mutasavvifning inson bilish qobiliyatining o'ziga xos tomonini ko'rsatib bergan.

Tasavvuf falsafasiga binoan inson tanasiga joylashgan latif ruh to'liq olami (tana)ga kelib kirishiga qadar bir necha olamlardan o'tadi. Albatta ruhlarning olamining ilohiylik xususiyatini o'zida jam' etgan ruh tanaga kirgach xiralashadi, bunga sabab tananing dunyoviy-nafsoniy xohishlaridir. I. Mo'minov tahlil etgan G'azzoliy ta'limotida inson bilish jarayonida nimadir yangi narsani o'rganadi yoki anglaydi. Aslida esa o'sha lahzada qalb bundan oldin bilgan narsasini xotirasida qayta tiklaydi. Inson faqatgina his etuvchi tanasidan chalg'ib, qalbini mavhum nurlanish holatiga berilib, qalbiy bilish jarayonini engillatishi mumkin. SHuningdek, G'azzoliy bilish jarayonida hissiy va aqliy bilishning cheklanganligini qayd etgan holda aqlning ortidan boshqa bir bosqich kelishini ta'minlab, insonda yangi olam namoyon bo'lishini va buning natijasida maxfiy qavatlar ochilib, kelajakda sodir bo'lishi lozim bo'lgan narsalarni ham bilish jarayoni sodir bo'lishini uqtiradi. Asarning davomida G'azzoliy bu bosqichga erishganini sistemali dalillash va tartibli mushohada bilan emas, balki Alloh qalbinga solgan nur bilan erishdim deya ta'kidlaydi [4].

Demak, G'azzoliyning fikridan shuni anglash mumkinki, u hissiy va aqliy bilishdan yuqoriroq bosqich g'aybiy (intuitiv) bilishning rolini alohida ta'kidlaydi.

Giyloniy ijodida ham G'azzoliy qarashlari aksini ko'rish mumkin. Abdulqodir Giyloniy insonning bilishi eng avvalo nur vositasida qalbdan paydo bo'ladigan bilish jarayoni xususida o'zining «Sirrul asror» [5] asarida ta'kidlaydi. U bilishni dastlab zohiriy keyin botiniyga bo'lib, ularning bir-biri bilan uzviy bog'liqligini qayd etadi. Zohiriy bilish jarayonida insonning ko'zi nur orqali ko'rish, qulog'iga nur orqali tovushlarning eshitilishi va burni nur orqali hid bilish qobiliyatiga ega ekanligi ta'kidlanib, botiniy bilish jarayonida qalbgacha Allohning nuri orqali ayon etilgan ilmlar qalb ko'zi orqali ko'rish natijasi ekanligi aytiladi. Qalb ko'zi bilan ko'rish va qalb qulog'i orqali eshitish o'z navbatida qalbiy bilishning eng oliy darajasi intuitiv bilish ekanligini falsafaning gnoseologiya bo'limi ham alohida ajratib ko'rsatgan.

Shuningdek o'z davrida tasavvufni izchil islom ta'limoti bilan yaqinlashtirib, uni keyinchalik rasmiy ta'limot sifatida tan olinishida G'azzoliy, Abdulqodir Giyloniyning xizmati katta deb baho berilgan [6].

Umumiy xulosa qilib aytish joizki, akademik Ibrohim Mo'minov hali 80-yillardayoq insonning bilish jarayonini tasavvuf ta'limoti nuqtai nazaridan o'rganganligining o'zi katta bir jasoratdir. Chunki sobiq mustabidlik mafkurasi so'fiylar, darveshlar, valiylar hayotini biryoqlama yoritib, karomat, bashorat va g'aybiy bilishni sehrgarlik deb kamsitganligi bois biz ma'naviy merosimizdan to'liq bahra ololmaganligimiz bois ilmiy-tadqiqot ishlarida ham sub'ektivizmni kuzatish mumkin. Mustaqillik sharofati bilan barcha to'siqlar bartaraf etildi, yangi manbalar tarjima etildi, ilmiy muomalaga kiritildi. Bugungi kunda bemalol tasavvufni anglash, tadqiq etish borasida birinchi manbalarga murojaat etib, uning asl mohiyatini ochishga imkon yaratildi. Buning natijasida biz tariximizning noyob durdonalarini xalqqa taqdim etish borasida hali anchagina izlanishimiz, ulardan ko'pgina hayotiy tajribalarni o'rganishimiz kerak. Shundagina tasavvuf mohiyatan insonni kamolotgaetaklovchi mumtoz ta'limot ekanligini anglab etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navro'zova G.N., Karimov B. X. Dinshunoslik asoslari kursidan o'quv qo'llanma. I – qism. Buxoro «Muallif», 1994 yil, 8-9 betlar.
2. Nazarov Q. Aksiologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent, «Uzbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti 2011. –B. 26
3. Очерки истории общественно-философской мысли в Узбекистане. Ташкент: Фан, 1977. С.169-184
4. С.Н.Григорян. Из истории философии Средней Азии и Ирана (VII-XII вв) М., Издательство АН СССР, 1960. С. -221.
5. Abdulqodir Giyloniy. SIRRUL ASROR. Maktubot. Tarjimon O.Jo'raboev. - T., Movarounnahr, 2005. 220 bet.
6. Islom ensiklopediya. -T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. –B.226.

“OMMAVIY MADANIYAT”GA QARSHI SAMARALI KURASH OLIB BORISHNING MA'NAVIY-MA'RIFIY USLUBLARI

Feruz Qurbonov

*Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Olot tuman bo'linmasi
rahbari*

Bugungi kunda globallashuv jarayoni dunyoning hayot tarzini keskin o'zgartirib, barcha jabhalarga, jumladan, yoshlar tarbiyasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Bu zararni shartli ravishda ikki bosqichga ajratish mumkin. Birinchisi – “ommaviy madaniyat” yorlig'i ostida kechayotgan jarayonlar. Qurol-yaroqsiz, faqat shovqin-suronli musiqa va barchani bir xil o'ylab, bir xil kuylashga undaydigan qarashlar orqali yoshlar ongu tafakkurini zabt etishga urinishlar tobora xavfli tus olmoqda.

Ikkinchi bosqich –muqaddas islom dini asoslarini buzib talqin etish, yoshlarga ana shu buzg'unchi g'oyalarni singdirish va ularni manqurtga aylantirishdir. Bu yo'lda g'oyaviy raqiblarimiz har qanday makkorlikdan qaytishmaydi.

Ma'lumki, muazzam Sharq azaldan o'zining og'ir-vazminligi, mulohazakorligi bilan tanilgan. Bu fazilatlar uning milliy musiqasida ham aks etadi. Bugungi globalchilar ana shu ming yillik qarashlarni sindirishga, uning o'rniga boshi-keti yo'q, maza-matrasiz yovvoyi musiqalarini tiqishtirishga urinishmoqda. Yoshlarni jazavaga tushiradigan, qonini ko'pirtiradigan, tafakkurini karaxt qiladigan bu kabi shovqinlar bora-bora ularni hissiz-tuyg'usiz robotlarga aylantirishni g'arblik “allomalar” yaxshi bilishadi. Bu xavfga qarshi biz o'zimizning milliy qadriyatlarimizni, asriy merosimizni, maqomlarimiz va mumtoz ohanglarimizni qo'yishimiz lozim. Muhtaram Prezidentimizning so'nggi yillarda klassik merosimizga, milliy san'atimizga, ayniqsa, maqomlarimizga ko'rsatayotgan alohida g'amxo'rliqi barchamizga ibrat bo'lmog'i kerak.

Yosh yurak xuddi ekin ekilishini kutib yotgan hosildor qo'rik erga o'xshaydi. Unga nimani eksang, o'shaning hosilini olasan. Mamlakatimizdagi din va vijdon erkinligi bois mustaqillikning ilk yillaridanoq bu borada fuqarolarga imkoniyatlar eshigi keng ochildi. Biroq, oq-qorani tanib ulgurmagan yoshlarning ongini vayronkor g'oyalar bilan zararlashni niyat qilgan buzg'unchilar ushbu imkoniyatlardan o'z maqsadlari yo'lida foydalanishga harakat qilmoqdalar. O'tgan o'ttiz yillik tajriba shuni ko'rsatdiki, “Hizbut-

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

tahrir”, “Akromiyalar”, “Vahobiyalar”, “Nurchilar” kabi turli zararli oqimlar yoshlar ongu tafakkurini zabt etishning turli usullaridan foydalanib, o'z maqsadlari sari intilishdan to'xtashmayapti. Maqsad esa bitta –hokimiyatga intilish, hukmronlik qilish.

Xo'sh, bugun ana shu real xavf – “ommaviy madaniyat” va zararli diniy oqimlarga qarshi biz qay tarzda kurash olib borishimiz lozim? Avvalo, yoshlarimizni aql-u farosatli, ilmi va ajdodlar merosiga sadoqatli qilib tarbiyalashimiz kerak. Qolaversa, ko'pni ko'rgan qariyalar, ulamolar, oqsoqol va kayvonilar yoshlar huzurida tez-tez bo'lishib, ularga milliy qadriyatlar, o'zbekona urf-odatlar, muqaddas dinimiz asoslariga oid fikrlarni sodda va tushunarli tarzda bayon etib berishlari lozim. Murakkab jumlar, uzundan-uzoq fikrlar va iqtiboslar tinglovchini tez zeriktiradi, shu bois targ'ibotchi va ma'ruzachilar lo'nda va tushunarli tilda muloqot olib borsalar, samaraliroq bo'ladi.

Aslida bu kabi ma'naviy-ma'rifiy ishlar bog'cha va maktab yoshidanoq boshlanishi kerak. Chunki, inson umri bo'yi o'rganadigan narsalarining 70 foizdan ortiqrog'ini, aynan, 10 yoshgacha bo'lgan davrida qabul qilib oladi. Oliy ta'lim dargohlarining o'quv dasturlarida ham ma'naviyatga, din asoslarini o'rganishga ko'proq vaqt ajratish maqsadga muvofiqdir.

Diniy ta'lim olgan insonlar el orasida, yoxud televideniya'dagi chiqishlarida silliq va chiroyli gapirishlari, har bir fikrni Qur'on oyatlari va hadislar bilan asoslab berishlari orqali tinglovchini ram etishadi. Sababi – madrasalarda mantiq va notqlik fanlari o'qitiladi. Oliy o'quv yurtlarida ham shu narsani yo'lga qo'yish yaxshi samara berishi mumkin.

Taraqqiyotni ortga qaytarib bo'lmaydi, shu ma'noda endi matbuot va televideniya, ijtimoiy tarmoqlarni ham jilovlash mushkul bo'lib qoldi. Bugun axborot maydoni g'oyat keng, imkoniyatlar cheksiz. Bu ulkan maydonda faqat ma'rifat, chuqur bilim va teran tafakkur bilangina mag'lub bo'lmay yashash mumkin.

Maktabgacha ta'lim, xalq ta'limi, jismoniy tarbiya va sport, ma'naviyat va ma'rifat, oliy ilm dargohlari va mahalla - bularning bari oltin zanjir bo'lib, yoshlar tarbiyasini qamrab olishi, ularni eng yaxshi an'analar ruhida tarbiyalashda o'z hissasini qo'shishi lozim. Faqat ana shu hamkorlikka yosh avlod tarbiyasida asosiy negiz bo'lishi mumkin.

**Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini
ta'minlashning dolzarb masalalari**

Olamdagi barcha yomonliklar, buzg'unchiliklar ilmsizlikdan, jaholatdan kelib chiqadi. Faqat ma'rifatli yoshlarga mamlakat kelajagini ta'minlashi, shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda millatning munosib o'rnini belgilashi mumkin. Buyuk ajdodlarimiz ta'kidlashganidek, ilmdan boshqa najot yo'qdir.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-dekabrda Yashlar forumidagi nutqi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlis Senati va xalqqa murojaatnomasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-yanvarda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi yig'ilishidagi ma'ruzasi.
4. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.

SOG'LOM OILADA MEHNATNING AHAMIYATI

Gadoyeva Lobar Ergashevna

*Buxoro Davlat Tibbiyot Istituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida
o'qituvchisi*

Sog'lom turmush tarzi insonning jismoniy, aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlash bilan bevosita bog'liq ekan uni ijtimoiy-falsafiy, antropologik, sotsiologik, tibbiy nuqtai nazardan tizimli o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, jahonda yuz berayotgan ekologik, demografik, iqlim, fauna va floraning buzilishi, ichimlik suvining tanqislashib, oziq-ovqatlarda qo'llanilayotgan turli qo'shimchalar, spirtli ichimliklar iste'moli, tamaki chekishning ommaviy tarzda oshib borayotgani bilan bog'liq global inqirozlar inson salomatligiga, sog'lom avlodni tarbiyalashga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani ochiq e'tirof etilmoqda.

Er-xotin birgalashib ota boshchiligida oilaning mavqeini, obro'sini saqlash, yuksaltirish uchun kurashadi. Oila baxti bola-chaqaning baxt saodatiga erishib, uvali-juvali er-xotinning hamkorligi o'zaro hurmatda, bolalarini tarbiyalashi, ularni voyaga etkazib, uyli-joyli qilishi, o'g'il to'yi, nevara to'yi, farzandlarni jamiyat uchun foydali insonlar qilib tarbiyalash kabilarni o'z ichiga oladi.

Oilaning baxtli va farovon bo'lishi har bir oila a'zosidan mehnat va ijtimoiy faollikni talab etadi. Oila – ijtimoiy borliqning bir qismi sifatida mavjud. Ijtimoiy borliq doimo sub'ekt borlig'iga ta'sir etadi,

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

undagi tasavvurlarni u yoki bu tomonga o'zgartirada. Ijtimoiy makon, muhit onga qanday ta'sir etsa, ong ham muhitga, ijtimoiy makonga shunday ta'sir etadi. Inson ongi beorom izlanishga, yangi muammolar va ularning echimlarini topishga moyil. Yangilik, betakrorlik izlash orqali o'z "Men"ini topish va namoyon etish sub'ektlar xislati hisoblanadi." [1] Inson mudom biror yangilik qilishga, ijtimoiy borliqqa yangilik olib kirishga intiladi, uning ongida kechadigan asosiy effektiv kechinmalar nimanidir yaratish va qilish bilan bog'liq. Bu xatti harakatlar yo xususiy manfaatlarni ifoda etadi yoki guruh, ijtimoiy manfaatlarga qaratiladi. Bu jarayonlar albatta ijtimoiy faollik va mehnat orqali amalga oshiriladi.

Ijtimoiy faollik o'ziga xos voqelik bo'lib, "ijtimoiy munosabatlarning ongli, beg'araz tahliliga hamda ularning u yoki bu elementlarini o'zgartirishga intilish darajasini tavsiflaydi. Inson ijtimoiy ahamiyatga ega biron bir jiddiy muammoga duch kelgan hamda ularni hal etish uchun yangi qonunlarni qabul qilish yoki mavjud qonunlar mexanizmini takomillashtirish kerakligini anglagan taqdirda ijtimoiy faollikka intilishi yanada kuchayadi" [2] Ana shunday "jiddiy muammo" mehnat, ijtimoiy munosabatlarda qatnashishdir. "Mehnat maqsadga yo'naltirilgan, ongli faoliyat sifatida namoyon bo'lib, bu faoliyat natijaga erishishga yo'naltiriladi hamda ongli maqsadga muvofiq iroda bilan boshqariladi. Umumiy belgilangan qoidaga ko'ra ishlab chiqarishga, ma'lum mahsulotni yaratishga qaratilgan mehnat bir paytning o'zida shaxsni shakllantirishning asosiy yo'li hamdir. Mehnat jarayonida nafaqat mehnat faoliyatining u yoki bu mahsuloti yuzaga keladi, balki sub'ektning o'zi shaxs sifatida shakllanib boradi. Mehnat faoliyati jarayonida inson iqtidori shakllanadi, uning xarakteri tarkib topadi, uning duyoqarash tamoyillari mustahkamlanadi hamda amaliy faol qoidalarga aylanadi. O'z tabiatiga ko'ra mehnat hamma vaqt ma'lum vazifani bajarish bilan bog'liq bo'lib, faoliyatning butun jarayoni ko'zlangan natijaga erishishga qaratilmog'i lozim: shuning uchun mehnat rejalashtirish va ijro nazoratini talab qiladi, u hamma vaqt ma'lum majburiyatlarni o'z ichiga oladi hamda ichki intizom va uyushqoqlikni keltirib chiqaradi" [3].

Mehnat qilishning inson kamolotidagi o'rni xamisha o'tmish avlodlar ta'limotlarida ustivor ahamiyat kasb etgan. Jumladan Buxoro Etti Pirlari - Abdulxoliq G'ijduvoni, Xoja Orif Mohitobon, Mahmud

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Anjir Fag'naviy, Xoja Ali Romitaniy, Boboyi Samosiy, Mir Said Kulol, Bahouddin Naqshband kabi SHarq mutafakkirlari dunyoqarashidagi g'oyaviy uyg'un bo'lgan axloqiy qarashlar, ularning insonparvar umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan munosabati, xususan inson hayoti va taqdirida mehnatning o'rni haqidagi g'oyalari mustaqil O'zbekiston yosh avlodini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilalarda mehnat tarbiyasini yo'lga qo'yishda ma'naviy merosimiz darg'alarining asarlari, ta'limotlaridan foydalanish, oilaviy kitobxonlikda aynan ushbu asarlardan foydalanish o'zining ijobiy samarasini beradi.

Buxoro zaminining faxri Bahouddin Naqshband va naqshbandiya oqimining hammaga ma'lum bo'lgan tamoyili: «Dil ba YOru, dast ba kor!» – «Dilimiz Xudoda, qo'llarimiz mehnatda!». YA'ni naqshbandiyaga ko'ra, «Naqsh band bar dil band» – «Dilimizda Alloh, Uning ijodining naqshlarini va qudratini naqshlash». YA'ni doimo mehnat qilishga chaqirish, halol mehnat orqali oila boqish g'oyalari muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, farzandlar tarbiyasida, ayniqsa ularda mehnatga mehr uyg'otishda mislsiz ahamiyat kasb etuvchi qadriyatlarimizdandir.

Bugun ijtimoiy mehnat turlari va ularning mohiyati ham o'zgarmoqda. Mavsumiy, yollanma yoki shartnomaviy mehnat turlari paydo bo'ldi. Kasbsiz, hunarsiz yoshlar asosan shunday mehnatda ishtirok etmoqda. Qishloq yoshlarining fermerlarga mavsumiy yollanib ishlashi odatga aylandi. Ko'pgina yoshlar boshqa davlatlarga borib mavsumiy ishlab keladi. Bular ham ijtimoiy mehnatning foydali va zarur turlari hisoblanadi. To'g'ri, bunday mehnatda qonunlarga amal qilish, yollangan shaxsning salomatligini kafolatlash, zavqli dam olishini uyushtirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish haqida kam qayg'uriladi. YOllanuvchilarning o'zi ham buyurtma ishni tez bitkazib, tezroq hisob kitob qilishga intilishadi, shuning uchun ular hatto mehnat sharoitlari haqida surishtirib o'tirmaydi. Ular notoza, noqulay va dam olishi ta'minlanmagan sharoitda ham ishlayverishadi, demak, ular mehnat qonunlaridan mutlaq bexabar. Vaholanki, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Mehnat kodeksi va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlar har bir ishchi mehnatchi uchun zarur mehnat sharoitlari yaratilishini, mehnat saoti va dam olish vaqti o'rnatilishini, biror baxtsiz hodisa ro'y bersa, shaxs o'z salomatligini tiklash huquqiga

ega ekani ta'kidlanadi. Mehnat shartnomasining ixtiyoriy tarzda tuzilishi va uni to'la bajarilishi buyurtmachi zimmasidadir [4-5]. (Mazkur huquqiy talab umuminsoniy huquqiy normalarga ham etnoaxloqiy talablarga ham muvofiq keladi.

Mehnat qilishning inson kamolotidagi o'rni masalalari oila mustahkamligini ta'minlashda eng muhim omillardandir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyundagi "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-3808-son qarorida farzand tarbiyasida oilaning javobgarligini oshirish masalasi echimi kutib turgan vazifalardan biri sifatida ko'rsatib o'tilgan. Oiladagi mehnat tarbiyasini yaxshi yo'lga qo'yish esa bu aynan oldimizga qo'yilgan vazifalarni bajarishning samarali usullaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Norqulov S. Fuqarolik jamiyati va ijtimoiy ongda transformatsiya jarayonlari. Toshkent: Navro z, 2015. 29 b.
2. Qodirova Z.R. va boshqalar. YOshlar ijtimoiy faolligi va tolerantligini yuksaltirishning ijtimoiy falsafiy masalalari. Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2006. 10 11 b.
3. Рахманкулов М.Х. Договор: возникновение и исполнение обязательств. Ташкент: Фан, 1994
4. Рахманкулов М. Роль и сущность гражданского правового договора в условиях рыночной экономики. Ташкент: Фан, 1994
5. Рахманов А. Сущность договоров и обязательств а исламском праве и национальном законодательстве Республики Узбекистан. Тошкент: Академия МВД РУз.

XXI ASR – MA'RIFAT ASRI

O'rinova B.Z.

Buxoro Davlat Tibbiyot instituti dotsenti

O'tgan asrning so'nggi o'n-o'n besh yilida dunyo miqyosida yuz bergan olamshumul tarixiy o'zgarishlardan kelib chiqib, hozirda biz yashab turgan XXI asrga kamtargina "Axborot asri" deb nihoyatda munosib ta'rif berildi. XX asrning so'nggi choragida ham dunyo axborot oqimining shiddati juda kuchli edi va bu shiddat yil sayin kuchayib bordi. Insoniyat navbatdagi asrga axborot oqimi tezligida sakrab o'tdi va yangi asr uni nafaqat shiddatliroq, balki axborot oqimi axborot to'foniga

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

aylangan holda qarshiladi. Ommaviy axborot vositalari va boshqa kommunikatsiya imkoniyatlari shu qadar rivojlanib ketdiki, axborot oqimi zo'raygan ustiga endilikda u chek-chegara bilmay qoldi.

O'zbek matbuotining demokratlashuvi dunyo axborot makoninig ana shu tariqa globallashuvi davriga "jahon jurnalistikasi", "sarhadsiz jurlalistika" tushunchalari taomilga dadil kirib kelayotgan davrga to'g'ri keldi [1].

Xolis va tezkor axborot olish, aytish mumkinki, milliy jurnalistikamizning eng jiddiy muammolaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. XXI asrda yashayotgan zamondoshlarimiz uchun axborotning ahamiyati suv va havoning ahamiyatidan kam emas. "Dunyo axborot makoni" tushunchasi ong va shuurlarga shu qadar chuqur singib ketdiki, dunyo hamjamiyatining haqli a'zosi- sub'ektiga aylanish istagidagi har qanday davlat va shu davlat fuqarolari mazkur axborot makonidan mustahkam o'rin egallashining ahamiyatini so'z bilan ifodalash qiyin.

Jamiyatni bir tirik organizm deb tasavvur qilsak, ommaviy axborot vositalarini organizmning qon tomirlariga, axborotni esa, mana shu qon-tomirlarida to'xtovsiz harakatda bo'ladigan qonga o'xshatish mumkin. Tiriklik va sog'lomlikning asosiy sharti esa-barcha a'zolarining, hujayra to'qimalarning qon bilan yetarlicha va uzluksiz ta'minlanishida ko'rinadi. Zamonaviy insonning ma'naviy-mafkuraviy, fuqaro sifatidagi tirikligi, sog'lomligi esa, uning axborot bilan nechog'lik to'liq ta'minlanganligi bilan belgilanadi. Bunday sharoitni mamlakatdagi ichki axborot makoni yaratadi.

Mamlakatimizda ichki axborot makonini yaratuvchi asosiy vositalar- televideniye, radio, gazeta, jurnal. Bunga aholining butun dunyoni qamrab olgan axborot kommunikatsion vositalarni, ya'ni internet tarmog'i va ijtimoiy tarmoqlarni qo'shish mumkin.

Aholining aksariyat qismi axborotni asosat televideniye va radiodan oladi. Respublika aholisining necha foizi televizor ko'rishi va radio tinglashidan qat'iy nazar, uning qamrovini qoniqarli deya olmaymiz. Qolaversa ko'rish, eshitishdan ko'ra, bevosita o'qish orqali olingan axborot dunyoqarashni ko'proq boyitadi, samarali bo'ladi. Ayni paytda Respublikamizdagi OAVlar soni 2mingga yaqin bo'lib, ularning aksariyati nodavlat tashkilotlardir. Ularning xili, turi, qiyofasi xilma-xil.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Lekin axborotga bo'lgan munosabatidan kelib chiqilsa, ularni shartli ravishda uch guruhga bo'lish mumkin:

- ishni asosan bozor talabidan kelib chiqib tashkil yetayotgan, ya'ni "axborot birinchi navbatda tovar" degan aqidaga rioya qilayotgan OAV;
- Muassasaning maqsad - vazifalarini birlamchi o'ringa qo'yayotgan, ya'ni "axborotni ko'proq targ'ibot vositasi" sifatida ko'rayotgan OAV;
- birinchi va ikkinchi xil yondashuvlarni qorishiq holda olib borayotgan OAV.

Bugun yangi axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va keng miqyosda tarqalishi o'z-o'zidan axborot sohasidagi global o'zgarishlarga olib kelmoqda. Ular bevosita davlat tuzilishi va fuqarolik jamiyati institutlari iqtisodiy va ijtimoiy soha, ilm-fan, madaniyat va insonlar faoliyatiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Axborotlarning yangi texnologiyalar asosida keng tarqalishi tufayli XXI asr axborot asri sifatida e'tirof etilmoqda. Ammo shuni esdan chiqarmaslik kerakki, ishlab chiqarishning keskin ravishtda o'sishi, bizni axborot jamiyati sari yetaklovchi asosiy vosita bo'lgani yo'q. YAqin o'tmishda kompyuterlar bir-biri bilan mutlaqo aloqasiz ishlar edi. Lokal tarmoqlar, ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi, hatto multimedia texnologiyalari biror-bir firma yoxud kompaniyaning ichki avtomatizatsiyasida oddiy bir uskuna sifatida ishlatilgan. Axborot inqilobining keyingi bosqichi global kompyuter tarmoqlarining paydo bo'lishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, maxsus kompyuterlarning beqiyos qudratga ega bo'lishi hamda axborot imkoniyatlarining oshishiga olib keldi.

Internetning paydo bo'lishi va jahon miqiyosida boshlangan bozor liberalizatsiyasi natijasida kommunikatsion xizmatlarning narxlari pasaydi. Bu esa, ikki muhim omil axborot muhitining rivojlanishini tezlashtiradi va ijtimoiy sohani kuchaytiradi. Kompyuter va aloqa xizmatlari narxining pasayishi nafaqat davlat muassasalari hamda xususiy biznes, balki keng ommaga ham foydalanish uchun yo'l ochdi. Buning natijasida axborot industriyasida millionlab yangi iste'molchilar va turli-tuman bozorlar vujudga keldi. AQSH savdo vazirligining ma'lumotiga ko'ra, radio o'z auditoriyasini 50 mln odamga yetkazish uchun 30 yil, televideniaga 13 yil ketgan bo'lsa, internetga bor-yo'g'i 4 yil kerak bo'ldi.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Endilikda mamlakatimizda bir necha tillarda faoliyat yuritayotgan qator axborot vositalari materiallari bilan internet orqali ham tanishish imkoniyati paydo bo'ldi.

Ma'lumki, 1996-yilning may oyida O'zbekiston axborot vositalarining Amerika Qo'shma Shtatlarida joylashgan jahondagi yirik kompyuter tizimi orqali aloqa o'rnatilib, undan eng so'nggi yangiliklarni qabul qilib olish imkoniyatiga erishdi.

Axborot sohasi globallashtiruvining hozirgi bosqichida internetning milliy va xalqaro kompaniyalar, davriy matbuot, TV va radio bilan munosabatlari yanada kengayib, boyib bormoqda. Demak, ommaviy axborot vositalari faoliyatini erkinlashtirish - davr talabi. O'zbekiston matbuotining jahon ommaviy axborot vositalari tizimiga uyg'unlashuvi, internetning global axborot maydoniga integratsiyalashuvi ko'zga yaqqol tashlanmoqda. SHunday qilib, hozirgi vaqtda jahonning turli nuqtalarida ro'y berayotgan voqea-hodisalar haqida ommaviy axborot vositalari orqali to'g'ridan-to'g'ri axborot olish imkoniyatiga ega bo'ldik. Kelgusida bu jarayonning yanada kengayishi, yangicha ma'no-mazmun kasb etishi, matbuot va axborot vositalarining yanada erkinlashuvining kuchayishi shubhasizdir. Umuman olganda, bugungi kunda mamlakatimiz matbuoti va axborot vositalari erkin fikr maydoniga aylanib borayotgani bois demokratiya, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, jamiyatdagi yaratuvchilik muhiti, fikr va so'z erkinligi, rang-barangligi mahsuli sifatida namoyon bo'lmoqda. Jumladan, ommaviy axborot vositalarining mustaqillik g'oyalarini yurtdoshlarimiz qalbi va ongiga singdirishda xizmatlari katta bo'lmoqda; ular o'lmas madaniy merosimiz milliy-istiqlol mafkurasi, bunyodkor xalqimizning boy ma'naviy qadriyatlarini, tarix saboqlari va bugungi zamon hodisalarini atroflicha yoritishga harakat qilmoqda. SHu bilan birga, matbuot va axborot vositalari insonni o'z-o'zini idrok etishga, kimligini anglab etishga, hayot ma'no va mohiyati nimadan iborat ekanligini teran tushunishga xizmat qilmoqda, bilish va yuksalishning o'ziga xos vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Hozir jahonning eng chekka burchagida ro'y berayotgan voqea-hodisa haqida ommaviy axborot vositalari orqali to'g'ridan-to'g'ri axborot olish imkoniyatiga egamiz. Demak, XXI asr - axborot asri. Unda jahon xalqlarining o'zaro munosabatlari ham yangidan-yangi yo'nalishlarda o'z ifodasini topaveradi.

Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, axborot maydonining kengayishi, uning yanada ochiq -oshkoralashuvi, jahon axborot tizimi bilan to'g'ridan -to'g'ri aloqa o'rnatilishi XXI asr - axborot asri, ma'rifat asri ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Bunda ommaviy axborot vositalarining faoliyatini yanada erkinlashtirish yo'llaridagi say' - harakatlar o'z ijobiy natijalarini bermoqda.

Bugungi eng dolzarb vazifalar sirasiga mamlakatimiz ommaviy axborot vositalarining jahon andozalari darajasida rivojlantirish, bu sohada chinakam raqobat muhitini vujudga keltirish, yuksak malakali, burch hamda mas'uliyatni chuqur his etadigan jurnalist kadrlarning yangi avlodini paydo bo'lishiga mustahkam zamin yaratish kabilarni keltirish mumkin.

Matbuot, jurnalistika, yozuvchilik mahorati xususda ko'plab maqolalar yozgan ulug' adib Abdulla Qodiriy so'zlari bilan aytganda, "Yaxshi bilish kerakki, qalam-o'qlog'i, matbuot ketmon bozori emas. Yo'sinsiz ravishda xotiraga kelgan har so'zdan jumlar tuzmak- fazilat sanalmaydir. So'z qolip, fikr uning ichiga qo'yilgan g'isht bo'lsin, ko'pchilik xumdonidan pishib chiqqach, yangi hayot ayvoniga asos bo'lib yotsin [3].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Do'stmuhammad H. Ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishning demokratik andozalari. T; O'zbekiston., NMIU, 2005. B-25.
2. Muksimova H. Global axborot jamiyatining shakllanishi. Jamiyat va boshqaruv. 2011. № 3, B-51.
3. Abduazizova N. Milliy jurnalistika tarixi. (Milliy istiqlol davri). Ikkinchi jild. T; SHarq. 2008. B-353.

SHAXS MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARGA EHTIYOJNING OSHIB BORISH QONUNIYATLARI

Yaxshilikov K.U., Muyassarov B.Q.

Jizzax politexnika instituti

Globalashuv va integratsiyalashuv jarayonlari shiddat bilan rivojlanib borayotgani innovatsion texnologiyalar va axborot kommunikatsiyalariga bo'lgan talab va ehtiyojlarning keskin oshishiga olib kelmoqda. Dunyo davlatlari tajribasidan ma'lumki, hech bir

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

davlatda biron bir soha innovatsiya va zamonaviy texnologiyasiz, yangicha yondashuv, innovatsion g'oyalarsiz rivojlanmagan.

“XXI asr – texnologiyalar va innovatsiyalar asri. Shunday ekan, har bir sohada fan yutuqlaridan, yangiliklaridan unumli foydalanish samarali mehnatni kafolatlaydi. Zero, rivojlanib borayotgan globalashuv jarayonlarida zamondan ortda qolib ketish faoliyat davomida ko'plab qiyinchiliklar paydo bo'lishiga olib keladi”. [1]

Zamonlar o'zgarishi, ilm-fan taraqqiyoti hamisha yangi o'zgarishlarni talab etgan. Shu boisdan, mamlakatimizni innovatsion rivojlantirish ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalar bilan uyg'un holda olib borilmoqda. Zero, islohotlar eng avvalo, ma'naviy jihatdan samarali, ya'ni moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligini ta'minlashi, shuningdek, jamiyatdagi ma'naviy barqarorlik holati buzilishining oldini olishi kerak. Aynan shu jihatni hisobga olib, yurtimizda ma'naviy-ma'rifiy sohani tubdan takomillashtirishga doir muhim qaror va farmonlar qabul qilinayotganligi bu sohada muhim qadamlar tashlanganligidan dalolat beradi. Jumladan, mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, PQ-5040-son qarori bu sohadagi ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qilmoqda. Mazkur qarordan ko'zlangan asosiy maqsad, “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” degan hayotbaxsh g'oya asosida mamlakatimizdagi har bir yosh avlodni barkamol, jamiyatdagi salbiy illatlarga, milliy ma'naviyatimizga zid bo'lgan voqeliklarga o'z munosabatini bildiradigan, o'zining mustaqil, teran fikr va dunyoqarashiga ega, uchinchi renessans poydevori bo'ladigan, ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan milliy g'oya ruhida tarbiyalangan, yuksak ma'naviyatli shaxs etib shakllantirishdir” [2].

Ma'naviy kamolotga erishish ta'lim-tarbiya, bilim - ma'rifat, ezgu fazilatlar va yaxshi xulq bilan birga zamonaviy rivojlanish tamoyillari, innovatsion texnologiyalarni ham taqozo etadi. Har bir sohada modernizatsiya, diversifikatsiya va innovatsiyalar joriy etilsagina ham iqtisodiy, ham ma'naviy yuksalish bo'ladi, raqobatbardoshligi oshadi. Ma'naviy – ma'rifiy ishlarda an'anaviylik va zamonaviylikning uyg'unlashuvi ta'lim jarayonida innovatsiyalarni qo'llash bilan bevosita bog'liq jarayon hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fiklari ham fikrimizni tasdiqlaydi: “Hammamiz yaxshi bilamiz, bugungi davr yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar zamonidir”. [3]

Ma'naviyatni yuksaltirish tizimida ta'lim vositasi orqali innovatsiya va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash zarurati har qachongidan ham oshib bormoqda. Shaxs ma'naviy kamolotida innovatsiyalarning qo'llanilishi va ularning samaradorligini oshirish usullari va vositalarini tahlil qilish, uning qonuniyatlarini ilmiy - nazariy jihatdan falsafiy asoslash bugungi ilm – fan uchun eng muhim masalalardandir. Fikrimiz dalili sifatida taniqli olim I.Ardakshinning fikrlarini keltirish o'rinlidir: “Innovatsiya va innovatsion rivojlanish mavzusini falsafiy mushohada qilish, uni ilmiy jihatdan umumlashtirish uning inson va jamiyat hayotidagi ko'rinishi va rolini ifodalashga xizmat qiladi”. [4]

Shaxs ma'naviyatini yuksaltirishda innovatsion texnologiyalarga bo'lgan ehtiyoj ham ma'lum qonuniyatlar asosida vujudga keladi. Bunda eng avvalo, ma'naviyatni rivojlantirishning o'ziga xos qonunlari muhim o'rin tutadi. Bu borada, taniqli olim A. Erkaev ma'naviyatni yaxlit tizim sifatida quyidagi qonuniyatlarni keltirib o'tadi:

“Ma'naviyat yuksalishining xususiyatlarini hisobga olib, uning quyidagi qonunlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) jamiyat taraqqiyoti jarayonida sog'lom ijtimoiy - ma'naviy ehtiyojlar muttasil o'sib borish qonun;
- 2) ma'naviyat rivojlanishining umumtamadduniy (svilizatsion) taraqqiyot darajasiga bog'liqligi qonuni (yoki lug'atda “ma'naviy hayotning ijtimoiy hayotga bog'liqligi qonuni”);
- 3) ma'naviyat rivojlanishining ijtimoiy ong va ijtimoiy munosabatlar rivojlanish darajasi bilan o'zaro bog'liqligi qonuni”. [5]

Bundan ko'rinadiki, shaxs ma'naviyati “Jamiyat taraqqiyoti jarayonida sog'lom ijtimoiy - ma'naviy ehtiyojlar muttasil o'sib borish qonuni” bilan uyg'unlikda bo'lishi lozim, ya'ni jamiyatda shaxs ma'naviyatini rivojlantirish uchun innovatsiyalarga bo'lgan ehtiyoj paydo bo'lishi zarur. Hozirgi davrda mamlakatimizni innovatsion rivojlantirish dasturiga ko'ra aynan shunday ehtiyoj mavjud va har bir sohada bo'lgani kabi ma'naviy rivojlanishda ham innovatsion yondashuv jamiyat va davlat taqdiriga daxldorlikni keltirib chiqarishi aniqdir.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi davri innovatsion rivojlanish maqsadini ko'zlaydi. Negaki, ma'lum bir mamlakatdagi innovatsion taraqqiyot uning barcha sohalarini qamrab oladi. "Ma'naviyat rivojlanishining umumtamadduniy (svilizatsion) taraqqiyot darajasiga bog'liqligi qonuni"ga ko'ra, shaxs ma'naviyatini yuksaltirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish ehtiyoji o'z-o'zidan vujudga kelib qolmaydi. Mamlakat miqyosidagi innovatsion taraqqiyot ma'lum bir sohalarni chetlab ham o'tmaydi. Bu esa, svilizatsion taraqqiyot ma'naviy yuksalishni ham taqozo etishini ko'rsatadi. Yurtimizda ma'naviy sohadagi islohotlar ham jamiyat va davlatning umumiy taraqqiyotga intilishi asnosida yuzaga kelmoqda. Shaxs ma'naviy kamolotida innovatsiyalardan foydalanish samaradorligi jamiyatdagi barcha shaxslarning ijtimoiy hayoti va ma'naviy ong darajasiga bog'liq. Ma'naviyatni yuksaltirishda har bir inson avvalo shaxs sifatida ma'lum bir fikr, dunyoqarash, bilim va ma'rifatga, ma'lum ma'nodagi ma'naviy va madaniy ongga ega bo'lishi lozim. "Ma'naviyat rivojlanishining ijtimoiy ong va ijtimoiy munosabatlar rivojlanish darajasi bilan o'zaro bog'liqligi qonuni"ga ko'ra shaxs ma'naviy yuksalishi ijtimoiy ongning barcha shakllari va ijtimoiy munosabatlardagi ishtiroki darajasi bilan ham belgilanadi. Xalq, jamiyat va davlatda ijtimoiy ong va ijtimoiy munosabatlar innovatsion rivojlanishga qanchalik ehtiyoj sezsa, shaxs ma'naviyati yuksalishida innovatsiyalarga ham shunchalik ehtiyoj vujudga keladi va yuqoridagi qonuniyatga mos keladi.

Mazkur qonuniyatlar ijtimoiy sohaning har bir tizimida makon va zamonda o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'ladi va uning dinamik rivojlanishini ta'minlaydi. Bundan ko'rinadiki, shaxs ma'naviyatini yuksaltirishda innovatsiyalar turli tuman xususiyatlar va tendensiyalarga oid bo'lgan o'zaro aloqador qonuniyatlarga bo'ysunadi. Bu faoliyat ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarning tizimli xarakterga ega ekanligi uning maqsadga yo'naltirilganligi bilan ham bog'liq bo'ladi, shuning uchun innovatsion jarayonlarning barcha tarkibiy qismlari manfaatlar muvozanati va taraqqiyotning umumiy rivojlanish dinamikasini aniqlaydi. Shuningdek, bu jarayon natijasida jamiyatda istiqbolga mo'ljallangan yangicha an'analar vujudga keladi, uning barqaror rivojlanishi ta'minlanadi hamda ijtimoiy sohaning barcha tizimlarini innovatsion rivojlanishi xususiyatlari belgilab olinadi.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Innovatsion texnika va texnologiyalar qanchalik takomillashib borgan sari, shuncha karradan ortiq inson, shaxs ma'naviyati yuksalib borishi darkor. Shaxs ma'naviyatini rivojlantirish orqali jamiyat va davlatning ma'naviy qiyofasini yuksaltirish buyuk kelajak barpo qilish yo'lidagi ildam qadamdir.

Xulosa o'rnida, shaxs ma'naviyatini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish:

- jamiyat va davlatdagi innovatsion rivojlanishga;
- har bir yosh avlod va shaxslarning bilim-ma'rifatli bo'lishiga, kitobxonlik darajasiga oshishiga;
- ma'naviyatni yuksaltirishda innovatsion texnologiyalarga bo'lgan ehtiyojning ortishiga;
- innovatsion ong va madaniyat yuksalishiga;
- shaxs ma'naviyatini yuksaltirishda innovatsiyalarga bo'lgan tabiiy va ijtimoiy, innovatsion yondashuvning samarali ekanligiga bog'liq ekanligi mamlakatimiz taraqqiyotining yangi davrida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. T., "O'zbekiston" NMIU, 2017. – B. 168.
2. <https://lex.uz/docs/5344692>
3. Suyarov A.Sh. Xalqaro ijtimoiy internet tarmoqlarining mexmonxonalar faoliyatidagi o'рни // SamDU ilmiy axborotnomasi. Samarqand. 2017 y, № 2 (102/1).– B.151
4. Ардакшин И. Инновации и инновационное развитие: социально-философский подход. // Вестник Томского государственного университета. 2017, № 422,–С. 45.
5. <http://new.manaviyat.uz/news/view/37>

ARTPEDAGOGIK YONDOSHUV ASOSIDA BADIY TO'GARAKLAR RAHBARLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

M.Ramazanova - mustaqil tadqiqotchi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 20 aprel, PQ-2909-son Qarori bilan oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida oliy ta'limning ma'naviy-axloqiy mazmunini oshirish,

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

talaba-yoshlarga mustaqillik g'oyalariga, yuksak ma'naviyat va insoniylikning milliy an'analariga sodiqlik ruhini chuqur singdirish, ularda yot g'oya va mafkuralarga nisbatan immunitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish vazifasi alohida belgilab qo'yildi [1]. Qarorda belgilangan "oliy ta'limning ma'naviy-axloqiy mazmunini oshirish", "yuksak ma'naviyat va insoniylikning milliy an'analariga sodiqlik ruhini chuqur singdirish" bo'yicha keng ko'lamli ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish vazifasini amalga oshirishda artpedagogika boy imkoniyatlarga ega.

Go'zallikning inson ma'naviyatiga, g'oyalariga ta'sir qilish imkoniyatlari haqidagi fikrlar Abu Rayhon Beruniy, Faxriddin Ar-Roziy, Alisher Navoiy, Najmiddin Navkatiy, Darveshali CHangiy va boshqalarning asarlarida ham uchraydi. SHarqning buyuk mutafakkirlari, qomusiy olimlari san'atni inson ma'naviyatiga ta'sir etuvchi samarali vositalardan biri sifatida qaradilar va san'atning komil inson ma'naviyatini shakllantirishdagi imkoniyatlarini ochishga katta hissa qo'shdilar.

Artpedagogik jarayon sub'ekt va ob'ektning o'zaro hamkor munosabatlarining hosilasi sifatida o'z badiiy va pedagogik natijalariga ega bo'ladi. Bunda ta'lim va tarbiya jarayonlarida sub'ekt, ya'ni Ustoz - shogirdga, professor-o'qituvchi - talabaga biror ijodiy g'oya, mavzuni tushuntirish, suhbat, mashq, uqtirish, ijro qilib ko'rsatish, ishontirish, inontirish, rag'batlantirish metodlarini qo'llashda san'at vositasidan foydalanishda namoyon bo'ladi. Natijada, ustoz istagan mazmun, obraz talaba-shogirdning badiiy tafakkuri predmetiga aylanadi, uning badiiy obrazlari galereyasiga ko'chadi, ijodiy mashq, xatti-harakatlarida, xulqida namoyon bo'la boradi.

Hozirgi kunda maxsus ta'lim amaliyotida, deydi tadqiqotchi G.Kuttibekova, "art-terapiya" va "art-pedagogika" kabi atamalardan keng foydalanilmoqda. Ushbu atamalarning o'xshashligini faqat tushunchalarning birinchi qismida ko'rish mumkin, ya'ni art – "badiiy", "san'at" so'zining sinonimi. Ikkinchi qism esa farqni aniqlaydi: terapiya-tibbiyot yo'nalishi, davolash ta'siri; pedagogika ilmiy bilimlar, o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish fanidir, maxsus ta'limda esa – korreksiyalash. Demak, tushunchaning ikkinchi qismi turli yo'nalishlar, maqsadlar, vazifalar, texnologiyalar va mohiyatlarni aks ettiradi. Biroq,

“art-pedagogika” atamasining mazmuni hali to‘liq aniqlashtirilmagan. “Art-psixologiya” va “art-terapiya” atamalari ham turlicha talqin qilinadi.

Ilmiy-nazariy tahlilarga ko‘ra, “art” tushunchasi mazmuniga badiiy-ijodiy faoliyatning haqiqiy shakllarini aks ettiruvchi san’atning barcha turlari kiradi, ular, asosan, badiiy mohiyatni (badiiy ma’lumot) o‘zida mujassam etganligi bilan ajralib turadi.

Artpedagogikaning vazifasi, funksiyasi, imkoniyatlari nimalarda namoyon bo‘ladi? Masala shundaki, agarda artpedagogika ishtirok etmasa, yuqoridagi badiiy ta’lim-tarbiya jarayonlarida asosan ratsional tushuntirish, ishontirish jarayonlari kechadi, xolos. SHu bois L.S.Vigotskiy estetik taassurotlarning boy manbasi bo‘lgan borliqning badiiy ifodasini “bizning ijtimoiy hayotdagi mavjudligimizning eng maxfiy, eng shaxsiy tomonlari” deb ataydi. U: “san’at ma’naviyatning in’ikosi va badiiy shakli sifatida o‘ta murakkab va ko‘p qirrali hodisadir. Unda talaba shaxsiga ta’sir qiladigan axloqiy, estetik omillar uzviy birikib ketadi”, [2] – degan edi.

O‘smirlarning ruhiy salomatligi bugungi kunda shifokorlar va o‘qituvchilar uchun jiddiy tashvish tug‘dirmoqda. Asabiylashishlar soni ortib bormoqda; o‘qishga va ijtimoiy hayotga qiziqish susayib bormoqda; umumiy apatiyaning tez-tez namoyon bo‘lishi yoki, aksincha, asabiylashish va tajovuzkorlikning kuchayishi; tamaki, alkogol va giyohvand moddalarga bo‘lgan xohish kuchayib bormoqda. Bularning barchasi bunday salbiy ko‘rinishlarning oldini olish uchun yangi psixologik-pedagogik vositalarni izlashga undaydi.

Bunday vositalardan biri art-pedagogika – o‘quvchilarni turli tadbirlarga jalb qilish (rasm chizish, modellashtirish, musiqa tinglash, raqs, harakat va nutqni rivojlantirish). CHunki art-pedagogikaning mohiyati, birinchidan, uning tarbiyaviy funksiyasida shaxsning axloqiy, axloqiy-estetik, kommunikativ-refleksiv asoslariga ta’sir qiladi va san’at yordamida ijtimoiy-madaniy moslashuviga yordam beradi.

Bundan tashqari, badiiy pedagogika psixoterapevtik funksiyani ham amalga oshiradi, bu bolalarga, xususan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga psixologik muammolarni engishga, hissiy muvozanatni tiklashga va salbiy tajribadan ijobiy rangdagi tuyg‘ular va fikrlarga o‘tishga yordam beradi.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida his-tuyg'u madaniyatini, obrazli va abstrakt tafakkurni, tasavvurni o'stirishda san'atning ahamiyati beqiyosdir. Masalan, teatrning xususiyati uning sahnaviy ifodaliligida: spektakldagi badiiy o'qish, pantomima, dekorativ bezash va musiqiy hamrohlikning o'ziga xos muhitida aktyorlarning tomoshabinlar bilan to'g'ridan-to'g'ri ijodiy muloqoti o'rnatiladi, birgalikda qayg'urish, adabiy qahramon kechinmalari bilan yashash uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi. SHuningdek, hozirgi zamon san'atining keng tarqalgan, ommaviy turlaridan kino va televidenie o'zlarida barcha san'atlarning imkoniyatlarini va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning eng yangi yutuqlarini mujassamlashtirmoqda. Badiiy to'garaklar va turli madaniy-ma'rifiy tadbirlarda qatnashish talabalarni tasavvur qilinyotgan badiiy-estetik jarayonlarda ishtirok etishga, yangiliklar yaratishga undaydi, ularning ijodiy kuch-quvvatini yuzaga chiqaradi, g'oyaviy taassurotlarini uyg'otadi. Kuzatuvlarimiz talabalar badiiy faoliyat jarayonida badiiy obrazlar yaratish bilan bevosita bog'langan adabiyot, musiqa sahna asarlaridagi go'zallikni yaxshi his qilishlarini ko'rsatdi. Bularning barchasi mazkur imkoniyatlardan unumli foydalanish uchun badiiy to'garaklar faoliyatini artpedagogik asosga qurishni taqozo qiladi.

Mavzuimiz doirasida SH.Mustafojevning suggestiv modulli texnologiyalar to'g'risida olib borgan tadqiqotlari e'tiborga molikdir [3]. Tadqiqotlarda san'atning artpedagogik suggestiv ta'sir imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan ilmiy qarashlaridan to'garak rahbarlarini tarbiyalashda va ularda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishni artpedagogik nuqtai nazardan yondoshuv foydalidir.

Artpedagogika orqali yoshlarga taqlid uchun asos, namuna beradi, jozibali qilib, ishonarli qilib, buyuk insonlarning nomi bilan bog'lab, buyuk insonlarni obro'lari bilan, hurmatlari evaziga mana shu yaxshi xulqlarni qilish namunalarini beradi va taqlid qilishga, jasoratga ilhom, emotsional impuls beradi. Boshqacha qilib aytganda, pedagogika shaxsga muayyan vaziyatda qanday yo'l, tutum tutishni ilmiy tahlil orqali tushuntirsa, artpedagogika esa biror vaziyatda qanday yo'l tutishning taqlidiy, badiiy, estetik namunasi, emotsional energiyasini beradi. San'atning ta'sirchanligi, jozibadorligining kuchi ham mana shunda.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Besh muhim tashabbus doirasida badiiy faoliyatda tarbiyaviy jarayonni tashkil qilishga texnologik yondashuv xarakteri san'at turlarining xususiyatlaridan kelib chiqishi talab etiladi. SHu sababli ushbu masalani hal qilishda hozirgi davrda amalda bo'lgan, qo'llanilishiga, qamrov hajmiga ko'ra umumiy pedagogik, xususiy pedagogik va modulli kichik universal texnologiyalar tasniflaridan kelib chiqib yondashildi. YA'ni umumiy pedagogik texnologiyalar o'z ichiga yirik, ya'ni butun ta'lim tizimiga tegishli bo'lgan masalalarni qamrab olishi, xususiy pedagogik texnologiyalar esa ma'lum fan doirasida qo'llanilishi inobatga olindi. Bunda badiiy faoliyatning bosh vazifasi – badiiy ijodiyot yoki san'atning biror tor yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash emas, balki har tomonlama komil insonni tarbiyalash uchun axloqiy pok, go'zallik va ezgulikni yaxshi his eta oladigan, o'z axloqi bilan boshqalarga o'rnak bo'la oladigan ma'naviy etuk insonlarni tarbiyalash ishiga ko'maklashishdir” [4], degan ilmiy xulosalardan kelib chiqildi.

To'garak rahbarining ma'naviy-estetik ehtiyojlari uning artpedagogik dididan dalolat berib turadi. SHu sababli talabaning g'oyaviy-estetik rivojlanishi haqidagi mavjud bilimlariga tayangan holda, murabbiy uning didini mukammallashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Foyaviy-estetik did talabaning adabiyot va san'at obrazlariga shaxsiy munosabati natijasida yuzaga keladi.

Tadqiqotimiz jarayonida “Badiiy to'garaklar rahbarlarida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan artpedagogik jarayonni qanday tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi?”, savoli qo'yildi va ushbu yo'nalishda quyidagi texnologik talab va mezonlar asosida ish tutish ijobiy natijalarga erishish imkonini berishi aniqlandi:

1. San'at va pedagogikani o'zida mujassam qilgan asarlardan foydalanishda ularni artpedagogik mezon va talablarga ko'ra tanlash. YA'ni:

a) san'at asarlarining milliy g'oya va ma'naviyat talablariga mosligi;

b) san'at asarlari to'garak rahbarlarining kasbiy-ma'naviy xususiyatlari hamda qiziqishlariga mosligi;

v) tanlangan asarlarning pedagoglar pedagogik dunyoqarashi va tafakkurini, pirovard natijada, milliy madaniyatini shakllantirishga xizmat qilishi;

g) to'garak rahbarlarida ijodga, ma'rifatga, o'qishga, mehnatga, ijodiy izlanish, ijtimoiy foydali ishlarga rag'bat uyg'otishi;

d) san'at asarlarining umumxalq bayramlari, madaniy-ma'rifiy va ommaviy tadbirlar mavzulariga mosligi;

e) san'at asarlarini o'rganishda "Ustoz-shogird" ma'naviy tamoyili asosiga qurilishiga e'tibor qaratilishi.

yo) san'at asarlaridan ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarda foydalanishda "ommaviy madaniyat"ga qarshi g'oyaviy-estetik qarashlarni mustahkamlash nuqtai nazaridan yondashishga ustuvorlik berish lozim.

Mazkur artpedagogik talablar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining asosiy faoliyat turlari mazmuni va mohiyatiga muvofiq holda ish yuritishni nazarda tutadi. YA'ni, erkin tanlov asosida foydalaniladigan badiiy asar ayni vaqtdagi asosiy pedagogik maqsad va hal etilayotgan tarbiyaviy vazifalarni hal qilishga yordam berishi lozim.

Albatta, bunda talaba yoshlarni bugungi kunda dunyoda kechayotgan murakkab siyosiy, mafkuraviy kurashlardan muntazam xabardor qilish, jahonda va yon-atrofimizda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga nisbatan to'g'ri munosabatni shakllantirish, ularda milliy manfaatlarimizni chuqur anglash va himoya qilish, shu aziz Vatan uchun, uning buguni va ertasi uchun daxldorlik va mas'ullik tuyg'usini yanada kuchaytirishda san'at va pedagogika uyg'unligini ta'minlashga o'rgatish artpedagogikaning eng muhim vazifalaridan biri bo'lishi taqozo qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017 yil 20 aprel, PQ-2909-son Qarori.

2. Маклаков А.Г. Общая психология. Учебник для вузов. — СПб.: Питер, 2003. — 287 с.

3. Mustafoyev SH.N. Badiiy to'garaklarda talabalarni g'oyaviy-estetik tarbiyalash. Ped. Fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. Toshkent, 2018. 178 b.

4. Toshmatov O'. Badiiy jamoalar bilan ishlash uslubiyoti /Respublika metodika va axborot markazi. —T.: 2006. — 102–B.

**YOSHLARIDA FUQAROLIK MAS'ULIYATINI
SHAKLLANTIRISH – USTUVOR VAZIFA**

Ziyotova Adolat Ergashevna

*Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti, "Ma'rifat"
targ'ibotchilar jamiyati a'zosi*

O'zbekiston yoshlarida fuqarolik mas'uliyatining shakllanishi va uning takomillashishi jamiyatdagi demokratik o'zgarishlarning davomi va uzviy qismi hisoblanadi. Chunki jamiyat o'z demokratik rivojlanishida fuqarolarga tenglik, ozodlik, birodarlikni hayotiy voqelikka aylantiruvchi turli huquqlarni berish bilan cheklanmaydi, balki shu huquqlarga rioya qilishni, o'z huquqlaridan ijobiy, jamiyat manfaatlarini ko'zlab foydalanishni talab qiladi. Bu borada mahalla idoralari, xotin-qizlar, nuroniylar, yoshlar tashkilotlarining o'rnini va rolini yanada kuchaytirish zarur. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek, "Inson manfaatlarini yurt tinchligi, jamiyatimizdagi o'zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitidan ajratgan holda tasavvur etolmaymiz. Bularning barchasi bizning bebaho boyligimiz va uni ko'z qorachig'idek saqlash har birimizning muqaddas burchimizdir. Ayni vaqtda hozirgi murakkab zamon, tinch- osoyishta hayotimizni asrash va mustahkamlash, xalqimizning kafolatlangan xavfsizligini ta'minlash masalasini yanada dolzarb qilib qo'yimoqda. SHu maqsadda biz hozirgi vaqtda ichki ishlar vazirligi tizimini tubdan o'zgartirish chora-tadbirlarini ko'rayapmiz. SHuningdek, har bir tuman hokimi va tuman ichki ishlar bo'limlari rahbarlarining yoshlar bilan ishlash bo'yicha o'rinbosari lavozimi joriy etildi. Bu rahbarlarning asosiy vazifasi mahallada uchastka inspektorlari bilan ishlashni tashkil etishdan iboratdir"[1].

SHu sababli, jamiyat qanchalik yuksak darajada demokratik bo'lsa, undagi fuqarolarning mas'uliyati ham shu darajada jiddiy va keng qamrovli bo'ladi. Haqiqiy demokratik jamiyatda fuqaro mavjud huquqlardan foydalanuvchi boqimanda emas, balki bu huquqlarga suyanib, jamiyatning muammolarini hal etishda faol shaxs bo'lishi lozimligi tabiiy holdir. Barkamol insonni voyaga etkazish va mafkuraviy immunitetni mustahkamlash masalalari bir kunda yoki bir lahzada o'z echimini to'la topadigan oddiy muammolar tizimiga kirmaydi, balki uzoq yillar davomida hal qilinadi. Bu yo'nalishda ham pirovard maqsadlarga erishish uchun tadrijiylik asosida ish ko'rish, o'zgarishlarni

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

bosqichma-bosqich amalga oshirish davr talabidir. Bu borada fuqarolarning ma'naviy barkamolligi darajasini yanada oshirish, o'tmishdan qolgan nuqsonlarni bartaraf etish, aholi, ayniqsa, yoshlarda Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, YUrt tinchligi, Xalq farovonligi g'oyalari sadoqat tuyg'ularini takomillashtirib borish mafkuraviy immunitetni shakllantirishning eng muhim va ustuvor yo'nalishi bo'lib qolmoqda.

“Vatanimiz himoyasini ishonchli kafolatlayotgan, mudofaa qobiliyatimizni mustahkamlayotgan va davlat chegaralarimiz daxlsizligini ta'minlayotgan tizimli chora-tadbirlar kompleksini joriy etishni qat'iyat bilan davom ettirishimiz zarur”[2], – deb ta'kidlaydi SHavkat Mirziyoyev.

SHuningdek, Respublikamiz Prezidenti ta'kidlab o'tganlaridek, “Umumta'lim maktablari, litsey va kasb-hunar kollejlari, shuningdek, oliy o'quv yurtlaridagi o'qitish sifati bilan bog'liq, zamonaviy o'quv reja va uslublarini joriy etish talab darajasida emas. Bolalar va yoshlarga maxsus fanlar mamlakatimiz va jahon sivilizatsiyasi tarixini, xorijiy tillarni va zamonaviy kompyuter dasturlarini chuqur o'rgatish vazifalari hali sifatli va to'liq holda echilgani yo'q. Yana bir muammoni hal etish ham o'ta muhim hisoblanadi: bu – pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur. Uchinchi vazifa – ta'lim muassasalarini, iqtisodiyot, ijtimoiy soha va har bir hududning zarur mutaxassislariga bo'lgan talabini to'g'ri aniqlashni tanqidiy tahlil qilishdir. Barchamizning farzandlarimiz to'g'risida, hech bir mubolag'asiz aytish kerakki, mamlakatimizning kelajagi haqida ketyapti”[3].

YOsh avlod ta'lim-tarbiyasi, unda yuksak ma'naviyat tamoyillari va mafkuraviy immunitetni shakllantirish hamma vaqt jamiyat oldidagi muhim vazifadir. Zero, jamiyat kelajagi, xalq, millatning davomiyligi, Vatan taraqqiyoti ana shu tarbiyaning to'g'ri yo'lga qo'yilishi va samaradorligiga bog'liq. Bu yana shuning uchun ham zarurki, keyingi paytlarda ba'zi xorij ommaviy axborot vositalarida yoshlarni ma'naviy jihatdan buzishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilayotganligi ma'lum bo'lib qolmoqda. Ayrim muxoliflarimiz, xorijdagi bir qancha matbuot organlari, Internetdan ustakorona

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

foydalanuvchilar noxolis xulosalar, buzg'unchi g'oyalarni tarqatishni davom ettirmoqda.

Aholi, ayniqsa yosh avlod ma'naviyatini buzishga intilayotgan kimsalar chet eldagi homiylaridan madad oladi. Ilgari ular ashaddiy aqidaparast homiylardan moddiy va ma'naviy madad olgan bo'lsa, endi esa "rangli inqilob" ijodkorlari, "demokratiya tranziti" g'oyalarini tarqatuvchi mafkuraviy poligonlar bilan ham aloqa bog'lagan. Bunday qora niyatli kuchlarning o'z vaqtida mahv etilishi O'zbekistonda tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlash, mustaqillik va milliy xavfsizlikni qo'riqlash uchun kuchli davlatning bo'lishi zarurligini isbotladi. Kuchli davlat bo'lmasa, demokratiya va taraqqiyotni saqlash, islohotlarni muvaffaqiyatli davom ettirish mumkin emas. Biz istiqlolni ko'z qorachig'iday asrash uchun jonajon davlatimiz atrofida yanada jiplashishimiz lozim. Bu borada xalqimizga xos bo'lgan el-yurt, mahalla-ko'y nazaridan qolmaslik, dinu diyonatdan tashqari chiqmaslik, or-nomus, hamiyat, mardlik, vijdon amriga itoat etish adolatparvarlik, haqgo'ylik sifatleri yo'qolmasligi kerak. Hayo, andisha, lafz, omonatga xiyonat qilmaslik, rostgo'ylik xalqimiz tafakkuridan mustahkam o'rin olib kelgan. SHunday qilib, ma'naviy tarbiya, odob-axloq, ma'rifat - yot g'oyalar, zararli tahdidlarni bartaraf etishda asosiy kuchdir. Qaysiki, "YOshlarimiz, farzandlarimizning yonib turgan ko'zlari, g'ayrat-shijoati, bilimga intilishi, dunyoda hech kimdan kam bo'lmayman, degan harakatini yorug' kelajagimizning, ezgu maqsadlarimizga erishishning asosiy omili va garovi sifatida ko'ramiz" [4, 246-247-betlar].

Xullas, bugungi kunda jamiyat hayotida kechayotgan jarayonlarni chuqur tahlil qilish, turli g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlardan ogoh bo'lish, xoriждан kirib kelayotgan mamlakatimiz manfaatlarini, milliy an'ana va qadriyatlarimizga yot g'oya va qarashlar qanday maqsadni ko'zlayotganini anglab etish ham mafkuraviy profilaktikaga yordam beradi. Bu borada ommaviy axborot vositalari, radio, televidenie orqali aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida izchil targ'ibot va tashviqot ishlarini yo'lga qo'yish, ularning ta'sirchanligini oshirishga erishish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashda yosh avlod mas'uliyatini oshirish va uni takomillashtirish zarur. Buning uchun eng avvalo, fuqarolarimizning bilimlari, ko'nikma, malaka va hissiyotlari

**Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini
ta'minlashning dolzarb masalalari**

bilan hisoblashish zarur. Zeroki, ushbu xususiyatlarni takomillashtirishda milliy g'oya va uning amal qilishida, asosan, uchta jihatni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

a) muayyan millatga oid kishilarning ijtimoiy ongi bilan bog'liqlik;
b) uni shu millatga xos o'zaro munosabat va faoliyat orqali amalga oshirish;

v) iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, moddiy va ma'naviy sohadagi biror maqsad yoki ideal tarzida namoyon bo'lish. Bu jihatlar haqida fikr yuritganda, avvalo, milliy g'oyaning millatga mansub kishilar jumladan yosh avlod ongida aks etishi, ularda xilma-xil tuyg'ular, ehtiyoj va maqsadlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lishini alohida ta'kidlash lozim. Bundan tashqari, milliy g'oya ijtimoiy ongda biror bilim yoki haqiqat sifatida saqlanadi, avloddan avlodga uzatiladi, meros sifatida qoldiriladi. Muayyan millatga mansub kishilar tabiatga, ijtimoiy muhitga, iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar va boshqalarga, hatto o'zlariga nisbatan munosabatda ham milliy g'oya talablariga e'tibor beradi. Bir tomondan, u bilan bog'liq voqelik qonunlariga, talab va qoidalariga amal qilsalar, ikkinchi tomondan esa, o'z faoliyat va xatti-harakatlarida bu boradagi odat va an'analarni bajarishga harakat qiladilar. Vorislik tarzida meros qoldirilgan milliy g'oya va uning tamoyillari shu ma'noda kishilarning ushbu yo'nalishdagi faoliyati va xatti-harakati orqali namoyon bo'ladi hamda voqelikka aylanadi.

YUqoridagi fikrlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

a) har qanday millat ijtimoiy-tarixiy birlik sifatida o'ziga xos, betakror jihatlarga ega. O'z milliy g'oyasining ob'ekti va sub'ekti sifatida har bir millat uni rivojlantirib, takomillashtirib boradi. SHu bilan birga, o'zi ham ijtimoiy taraqqiyot jarayonida o'zgarib, yangilanib, rang-barang jihatlar kashf etadi;

b) milliy g'oya milliy makonda shakllanadi, rang-barang tarzda namoyon bo'ladi, yoshlar ongiga ta'sir qiladi, ular uchun ma'naviy mezon rolini o'ynaydi, ijtimoiy rivojlanish jarayonida doimo yangilanib, avloddan avlodga o'tib boradi;

v) mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashda yosh avlod mas'uliyatini oshirish va uni takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligini unutmasligimiz;

g) milliy g'oya yosh avlodning o'zaro munosabatlari, ijtimoiy faoliyati, xatti-harakatlari hamda ular bilan bog'liq bo'lgan ehtiyoj, qiziqish va

intilishlar uchun asos bo'ladi, maqsad va ideallar sifatida O'zbekiston yoshlarini ulkan ishlarga safarbar qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi - "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi". // "Xalq so'zi", 2016 yil 8 dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutq. // "Xalq so'zi", 2016 yil 9 sentyabr.
3. Mirziyoyev SH.M "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak".// "Xalq so'zi" 2017, 16 yanvar.
4. Dinshunoslik asoslari. O'quv qo'llanma / Ochildiev A. va boshqalar. - Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi. 2013.
5. Haqqulov N.Q. Perfect generation - personality of private education and humanity facilities // "МИРОВАЯ НАУКА" международное электронное научно-практическое периодическое издание. -2019.- №2(23). - С.62-63
6. Сафаров А.И., Хаккулов Н.К. Свойственные качества совершенному человеку в суфизме // Современная наука как социально-политический факторразвития государства: материалы международной научно практической конференции (10 мая 2019г., Москва) Отв. ред. Зарайский А.А.– Издательство ЦПМ «Академия Бизнеса», Саратов 2019. С. 48-50.

**MILLIY SHARQONA TARBIYA MEZONLARI VA
YOSHLARNI OILADA HAMDA MAKTABDA TARBIYALASH**

Gulboyev Akbar To'xtayevich

Buxoro Davlat Universiteti dotsenti

Xalqimiz azal-azaldan axloqiy fazilatlarga boy bo'lgan. Ota-bobolarimiz farzand o'stirar ekanlar, ularning xulq-atvorlariga, gap-so'zlariga, kishilar oldida o'zlarini qanday tutishiga, o'z maqsadlarini qanday so'zlar bilan tushuntirishlariga katta ahamiyat berishgan. Ular farzandlarining qo'rslik qilishi, kattalar suhbatiga aralashishi, nojo'ya ishlariga zinhor-bazinhor yo'l qo'ymaganlar. Bu kabilarga farzand tarbiyasining eng muhim tomoni deb qaraganlar. Ammo, ming taassufki, yaqin tariximizda sharqona tarbiya, axloq-odobning ming yillik tajribalaridan «eskilik sarqiti» deb voz kechdik, o'zligimizni unutayozdik.

Sharqona odob ming yillar maboynida islomiy tarbiya qoidalari asosida tarkib topib, takomillashib borganligi tarixdan ma'lum. Jumladan, Qur'oni karim oyatlari mazmuni, Payg'ambar alayhissalom hadislarini, sharq allomalari va faylasuflarining hikmatomuz kitoblari tarbiyamizning manbai bo'lib xizmat qilgan. Islomiy tarbiya musulmonlar hayotining barcha qirralarini, hatto mayda jihatlarigacha qamrab olgan. U go'daklarni emizishdan tortib, qanday kiyintirishgacha, ovqatlanish odobidan tortib, ko'cha-ko'yda, kattalar oldida o'zini qanday tutish lozimligigacha barcha jihatlarni o'z ichiga olgan. Eng asosiysi, islomiy odob farzandlarning halol, pok, mehnatkash, ilmga intiluvchi, kattalarni, ayniqsa, ota-onani hurmatlash ruhida tarbiyalashni shart qilib qo'ygan. Masalan, Rasululloh hadislarida: «Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilanglar!», «Hech bir ota o'z farzandiga xulqu odobdan buyukroq meros bera olmaydi», deyilgan. Demak, o'tmishda tarbiya berish hammaning vijdoniy burchi deb qaralgan.

O'zbek xalqi o'z madaniyati va ma'naviyatida komil insonlarni voyaga yetkazishga katta e'tibor bergan. Buning natijasida asrlar davomida aqlu zakovatga, qomusiy bilim va qobiliyatga ega bo'lgan yuqorida aytib o'tgan allomalarimiz kabi komil insonlar yetishib chiqdi va olamga tanildi.

Bugungi kunda mustaqil davlatimizda milliy tarbiya an'analari tiklanib, oilaviy hayotimizda muhim mezonga aylanmoqda. Bu esa, o'z

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

navbatida, sobiq sho'ro tarbiya nazariyasida o'rganilishi mumkin bo'lmagan milliy odob, milliy e'tiqod, iymon-diyonat kabi insonning butun milliy xususiyatiga bevosita bog'liq fazilatlarni yosh avlodning shaxsiy sifatlariga aylantirishni dolzarb vazifa qilib qo'ydi.

Milliy tarbiya O'zbekistonning davlat mustaqilligini mustahkamlash va amalga oshirishga tayyor farzandlarni tarbiyalab voyaga yetkazishga xizmat qiladi. Hozirgi davrda ushbu maqsadlarga erishishning o'ziga xos muammolari ham bor. Shulardan biri – milliy tarbiya nazariyasining asosiy qoidalari va ilmiy tushunchalari yaratilmaganligidir. Bularning barchasi O'zbekiston maktablarida milliy istiqlol tarbiyasining mezonlarini ilmiy asoslash zaruratini vujudga keltirmoqda.

Milliy tarbiya mezonlarini belgilashda mustaqil O'zbekistonning ijtimoiy buyurtmasi bo'lmish ijobiy sifatlar: milliy iftixor, vatanparvarlik, millatlararo muloqat madaniyati, milliy odob, vijdoniylik, iymon-e'tiqod, milliy istiqlol mafkuraviy ongini rivojlantirish zarur. Ularning aksi bo'lgan sifatlar: vatanpurushlik, mahalliychilik, vijdonsizlik, mafkurasizlik kabilarga yoshlarda nafrat uyg'otish darkor. Bu ishlarni bir-biri bilan uzviy bog'lab olib borish o'qituvchi-tarbiyachi va ota-ona tomonidan tarbiyaviy mezon qilib olinishi kerak. Ayniqsa, oilada milliy tarbiyani yoshlarga singdirishda dastlab miliy odobni (avval salomlashish, keyin so'z boshlash, yaxshi va yomonni ajratish, kattalarga hurmat va kichiklarni izzatlash, ustozlarni e'zozlash kabilarni), milliy g'urur asoslarini (o'zbek millatiga mansubligini anglash, O'zbekiston-Vatanim mening tuyg'usini chuqur anglash), vijdoniylik (andishali bo'lish, rostguylik, yolg'on gapirmaslik, yaxshi va yomon xulqqa o'zining to'g'ri fikrini bildirish) kabilarni tarbiyalash, o'qtirish, ularni axloqiy Nizomga aylantirish milliy tarbiyamizni yanada ravnaq toptiradi va kelajagimizni yuksaltiradi.

Maktabda ta'lim-tarbiya ishlarining samaradorligi faqat o'qituvchining tayyorgarligi, ma'naviy qiyofasi va o'z vazifasini qanday bajarishigagina bog'liq bo'lmay, balki bola yashaydigan muhit va oilaning ta'siriga ham bog'liqdir. Oila bolani axloqiy tarbiyalash, uning ma'naviy-axloqiy yo'nalishlarini shakllantirishning muhim omilidir.

Oila erkaklar va ayollarning to'la teng huquqligi, oila uchun babbaravar javobgarligi asosida quriladi. Ota-onalarning o'z hayotlari, turmush tarzlari, bola shaxsida ilmiy dunyoqarash asoslari, ma'naviy,

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

axloqiy, nafosat, mehnat va boshqa ijtimoiy omillarni shakllantirish maqsadida tizimli ta'sir ko'rsatish jarayoniga oilaviy tarbiya deyiladi. Oila bola tarbiya oladigan eng birinchi jamoa bo'lib, bola unda axloqiy qoidalar, urf-odatlarini bilib oladi, dastlabki axloqiy tajriba orttiradi. Ayni paytda oilaviy hayot va oilaviy tarbiya o'zining milliy xususiyatlariga ham ega. Bu esa, o'z navbatida, oilaviy tarbiya usullari va mazmunining umumiy hamda xususiy tomonlari rivojida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Har bir inson yoshlikda ona qo'lida tarbiyalanadi. Ona allasi bilan birga bola qalbiga ona muhabbati singadi va onaning erkalatishlari bir umr yodda qoladi, oilada bola yaxshi bilan yomonning farqini ajratishni o'rganadi. Oila tarbiyasi orqali bola ongida umuminsoniy va milliy qadriyatlar, yashashdan maqsad haqida dastlabki tasavvurlar hosil bo'ladi. Oilada shaxsning ijtimoiy-qimmatli fazilatlari o'sa boshlaydi. O'zbekiston sharoitida oilaviy tarbiya mazmuni tashkil etilishiga oid pedagogik omillar mavjudki, ularni hisobga olishga majburdirmiz.

Bola maktabga qadam qo'yganda yaxshi va yomon narsalar haqida o'z tasavvuriga ega bo'ladi. O'qituvchi bolada qanday axloqiy tushunchalar mavjudligini va axloqiy fazilatlar qanday sharoitda shakllanganligini ham bilmog'i kerak. Shuning uchun ham muallim o'quvchilarning ota-onalari bilan aloqa bog'lab, bolani tarbiyalashda ular bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi darkor. Tarbiyaning samaradorligi ko'pincha oila va maktabning bolaga nisbatan bir xil talab qo'ya bilishiga bog'liq. Shuning uchun ham pedagogik axloqda o'qituvchi bilan ota-onalarning o'zaro munosabatlari, muomalasiga katta e'tibor beriladi, muallim oila bilan aloqa va hamkorlik qilmasdan turib, bolani axloqiy tarbiyalash vazifasini bajara olmaydi. Chunki maktab oilada shakllangan axloqiy fazilatlarni mustahkamlashi yoki illatlarni yo'qotishi lozim bo'ladi. Maktabda bolaga chuqur bilim, ta'lim-tarbiya mafkuraviy g'oya, o'zbekona milliy qadriyatlar, xalol mehnat, biror bir kasb-hunarni egallashlari uchun mustahkam poydevor yaratishdek mas'ul vazifani zamonaviy talab darajasida amalga oshirish lozim. Ularga ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalar, zamonaviy o'quv-metodik dasturlar asosida bilim berish, o'quv jarayonlarini jahon andozalariga mos didaktik jihatdan ta'minlab, o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini tahlil qilish kerak.

O'qituvchi pedagogik jarayonda asosiy figura, yetakchi kishidir. Unga yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan. Shuning uchun ham o'qituvchiga, uning axloqiy sifatlariga, xulqiga o'quvchilar bilan muomalasiga nisbatan alohida, yuksak talablar qo'yiladi. Muallim hayotga endigina kirib kelayotgan, barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan yoshlarga ta'lim-tarbiya berib, ularni umuminsoniy va milliy axloq mezonlarini o'zlashtirishini ta'minlaydi. Shu boisdan ham o'qituvchi bola uchun bir umr idel, ibrat va namuna bo'lib qolishi keark. Afsuski, hamma o'qituvchilar haqida ham shunday deb bo'lmaydi. Kasbiy salohiyati yetarli emas, axloqiy fazilatlarida nuqsonli, o'zining dag'al muomalasi bilan yoshlarning ko'nglini o'qishdan sovitib, dilini o'rinsiz ranjitadiganlar ham uchrab turadi. Bundaylar yoshlar tarbiyasiga, ularning axloqiga salbiy ta'sir etadilar. Tarbiyaviy ishlarga tuzatish qiyin bo'lgan darajada ziyon yetkazadilar.

Xullas, axloqiy tarbiya tizimining barcha qismlari talabalarning xilma-xil faoliyati bilan bevosita bog'liq. Bu faoliyat jarayonida talabalar jamoasida ob'ektiv axloqiy munosabatlar vujudga keladi. Mashg'ulotlar va faoliyat turlarini bajarish natijasida ob'ektiv munosabatlar talabalarning shaxsiy odob, muomala-munosabatlariga aylanadi va shu jarayonda bo'lajak mutaxassisning axloqiy fazilatlarini shakllanadi.

ILM-FAN – UCHINCHI RENESSANS POYDEVORI

O'ZBEKISTONDAGI ISLOHOTLAR UCHINCHI RENESSANSNING DEBOCHASI

Jumayev Ismoil Istamovich

*Ma'naviy – ma'rifiy tarbiya va bolalarni ijtimoiy himoya sho'ba
mudiri Buxoro tuman xalq ta'limi bo'limi*

Qòldashev Rafiq Raxmonovich

Ma'naviy - ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

Buxoro tumani 32-umumiy o'rta ta'lim maktabi

Hozirgi kunda dolzarb va muhim ijtimoiy vazifamiz kelajagi buyuk davlatni barpo etish uchun sog'lom mafkurali, ma'naviy barkamol avlodni va komil insonni tarbiyalashdir. Shu maqsadda, ajdodlarimiz tomonidan qolgan ma'naviyatning insonparvarlik

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

mohiyatini keng jamoatchilikka, xususan, yoshlarga tushuntirish borasidagi ishlarni davom ettirish ehtiyoji tug'iladi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 29-yanvar kuni O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi qurilishi jarayonini ko'zdan kechirar ekan, mazkur muassasa oldiga qo'yilgan vazifalar haqida so'z yuritib, u ilm-fan taraqqiyoti tarixini ifoda etishi, aniqrog'i, mamlakatimizda ro'y beradigan uchinchi Renessansga ilmiy fundament yaratishi lozimligini ta'kidladi. Islom dini Makkai mukarramada "tug'ilgan", Madinai munavvara uning beshigi vazifasini o'tagan bo'lsa, ko'hna Movarounnahr muqaddas dinimiz ta'limotini ilmiy quvvatlantirgan zamindir. Sahobai kiromlar va tobeinlarni hisobga olmaganda, islom ilmlarining aksariyat ulamo-ustunlari bizning zaminimizdan yetishib chiqqan.

Imom Buxoriydek yoki Imom Moturidiydek allomalar hayotga bir marta keladi. Movarounnahr zamini dunyoga hali-hamon yuksak aql-zakovat va chuqur tafakkur egalarini taqdim etishga qodir. Imom Buxoriyning quvvai hofizasi, yoxud Imom Moturidiyning mantiqiy falsafasi singari sifatlarga ega yurtdoshlarimiz bugun ham mavjud ekaniga barchamiz qat'iy ishonamiz.

Islomning yirik ulamolari aynan Movarounnahrdan yetishib chiqqan. Olti buyuk muhaddisning to'rt nafari vatandoshimizdir. Binobarin, mana shunday ulug' ajdodlari bo'lgan xalq bugun hech bir mubolag'asiz uchinchi Renessansni yaratishga haqli. Nafaqat haqli, balki bunday buyuk maqsadni belgilash uchun ota-bobolar xotirasi oldida burchlidir.

Prezidentimiz tashabbusi bilan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy ilmiy-tadqiqot markazlari, xalqaro islom akademiyasi, Hadis ilmi maktabi ochilgani bu yo'ldagi g'oyat muhim qadamlar bo'ldi. Poytaxtimizda O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi qad rostlayotgani esa bu boradagi ishlarni yangi darajaga ko'tardi. Ya'ni yangi O'zbekiston uchinchi Renessans uchun ilmiy-ma'naviy poydevorni mukammal asosda, kompleks tarzda mustahkamladi, deyish uchun bugun barcha asoslar mavjud. Bu muassasalarning hammasi va har biri belgilangan ezgu maqsad yo'lida bor ilmiy salohiyatini safarbar etib, jo'shqin faoliyatga kirishib ketdi. «Hadis» ilmiy maktabida Imom Buxoriyning «Al-Adab al-Mufrad» asaridagi 1322 ta hadisni tinglovchilar yod olishlari asosiy vazifa qilib qo'yilgan.

**Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini
ta'minlashning dolzarb masalalari**

Uchinchi Renessansning shakllanishi uchun zarur omillar quyidagilar deb bilamiz:

Jamiyat: Hayot sifati indeksi, Inson omili, Baxt indeksi, Maosh: Notenglikning bartaraf etish, Xayriya indeksi;

Iqtisodiy erkinlik indeksi: Matbuot erkinligi indeksi, Demokratiya indeksi, Tinchliksevarlik indeksi, Terrorizm xavfi indeksi, Barqaror davlatlar indeksi;

Ekologiya: Ekologik samaradorlik indeksi;

Makroiqtisodiyot: Global raqobatbardoshlik indeksi, YAIM, Davlat byudjeti bo'yicha davlatlar ro'yxati.

Ta'lim indeksi: Global savodxonlik darajasi, O'rta ta'lim indeksi, PIRLS, TIMSS, ICILS

«Aqida» ilmiy maktabida «Abu Mu'in an-Nasafiy» hazratlarining asarlari yurtimizdagi Hanafiy mazhabiga oid aqoid kitoblari asosida darslar o'tiladi. «Tasavvuf» maktabida tasavvuf shayxlari, xususan, naqshbandiya shayxlarining hayot yo'llari, turmush tarzi haqidagi kitoblar o'qitiladi. Tariqat pirlari nasihat sifatida aytgan hikmatli so'zlar sharhlanadi. Ruhiy tarbiyaga oid kitoblar o'qitiladi. Tinglovchilarga muntazam ravishda arab va fors tilidan saboq beriladi, tarixiy manbalarni o'qish jarayonida til qoidalari tushuntirilib, bilim va ko'nikmalari mustahkamlab boriladi. Tasavvuf maktabida tinglovchilarga asosan naqshbandiya ta'limoti o'rgatiladi. Shuningdek, yurtimizdan yetishib chiqqan va aholimiz o'rtasida keng tarqalgan, mamlakatimiz tarixida o'ziga xos ijtimoiy-madaniy ahamiyat kasb etgan kubraviya, yassaviya hamda qodiriya tariqatlari o'rganilishiga ham alohida e'tibor qaratiladi.

«Islom huquqi» maktabida tinglovchilarga Burhoniddin Marg'inoniy hamda Hanafiy mazhabining mo'tabar fihiy asarlari chuqur o'rgatiladi, qolaversa, sohaga oid asarlar ustida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish ham rejalashtirilgan. Markaz tomonidan shu choqqacha 7 ta xalqaro konferensiya va 14 ta onlayn seminar tashkil etildi. Markazning ilmiy xodimlari yurtimizda va xorijda bo'layotgan ilmiy anjumanlarda faol ishtirok etib, forum qatnashchilari bilan alohida tadbirlar o'tkazishni an'anaga aylantirmoqda. Buyuk Britaniyada o'tgan xalqaro ijtimoiy fanlar festivali doirasida Lester universiteti bilan hamkorlikda O'zbekistonning madaniy va tarixiy merosini targ'ib qilish, islom dinining insonparvarlik tamoyillarini ochib berish maqsadida

“Sahih-ul Buxoriy” asari asosida “Buxoriy: islom san’ati” xalqaro onlayn ko‘rgazmasi tashkil qilindi.

Bunday sa’y-harakatlar xorijda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi faoliyatiga qiziqishni orttirmoqda. Turkiyaning Marmara universiteti bilan o‘tkazilgan “Sahih-ul Buxoriy”ning Turkiya fondlarida saqlanayotgan nusxalari va buxoriyxonlik” mavzuidagi seminar Misrdagi “Al-xabar al-yavm” axborot saytida “Imom Buxoriy tavalludi munosabati bilan O‘zbekistonda onlayn seminar bo‘lib o‘tdi” sarlavhasi ostida yoritildi.

Alloma ajdodlarimiz barcha foydali — diniy va dunyoviy ilmlar ravnaqiga beqiyos hissa qo‘shgani jahonda e’tirof etilgan. Bugungi ilm-fanda “Al” bilan boshlanuvchi atama borki, barchasi arab tiliga ishora qiladi. Ularni yaratganlarning aksariyati esa Movarounnahrda tavallud topgan. Birgina “algebra” va “algoritm” so‘zlarining o‘zi ko‘p narsadan darak beradi.

Insoniyat tarixidagi ilk ilm-fan markazlaridan biri — Ma’mun akademiyasi ham o‘zining shon-shavkati, yuksak ilmiy salohiyati uchun Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino kabi allomalarimiz oldida qarzdor. Mirzo Ulug‘bek tadqiqotlaridan foydalanayotgan ilmi nujum ahli ham hali-hanuz mana shu bobomiz oldidagi qarzini uza olgani yo‘q. Bularning barchasi bugungi avlodga faxr va g‘urur bag‘ishlaydi. To‘g‘ri, biz bunga haqlimiz. Lekin Prezidentimiz aytganidek, faqat faxr va g‘urur bilan cheklanib qolmaslik kerak.

Ajdodlarning boy merosini chuqur o‘rganish, keng targ‘ib qilish, eng muhimi, ularga har tomonlama munosib bo‘lish lozim. Munosib bo‘lish mas’uliyati keng qamrovli vazifa va burchlarni keltirib chiqaradi. Ya’ni o‘rganish va targ‘ib etish barobarida yangi ilmiy kashfiyotlar qilish, ilm-fanning mutlaqo yangi dovonlarini zabt etish, jahonda ulug‘ ajdodlarimiz kabi buyuk iqtidor va iste’dod orqali nom qozonish zarur.

Davlatimiz rahbari uchinchi Renessansning poydevori ilm-fan bo‘lishini ta’kidlaganida aynan mana shunday ulug‘ maqsadlarni nazarda tutganini bugun har bir yurtdoshimiz qalban his qilishi, o‘ziga shunga mos vazifa, majburiyat va mas’uliyatni belgilab olishi lozim.

Ushbu o‘rinda shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish o‘rinliki, diniy bag‘rikenglik, boshqa din vakillari bilan hamjihatlik borasida ajdodlarimiz butun dunyoga o‘rnak bo‘lishgan desak to‘g‘ri bo‘ladi. Buyuk olim va mutafakkir Abu Mansur Moturidiy ilmiy merosidan o‘rin

olgan qimmatli fikrlar bu borada yuksak o'rnak bo'la oladi. Olim o'zining Qur'oni Karim tavsifiga bag'ishlangan "Ta'vilot-u ahlis sunna" asarida: "Dinda majburlash yo'qdir. Haq yo'l zalolatdan ajralib bo'ldi," (Baqara surasi 256 oyat)- oyatini "Majburlik bilan qabul qilingan narsa din emas, hatto iymon ham bo'la olmaydi. Din majburlash bilan emas ochiq tanlov asosida qabul qilinadi [1].

Buyuk alloma, muhaddis, faqih Imom Termiziy va termiziyilar boy merosini o'rganish hamda ularning jahon sivilizatsiyasi va ilm-fan taraqqiyoti rivojiga qo'shgan bebaho hissasini chuqur tadqiq etish va keng targ'ib qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-fevralda qabul qilingan "Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi [2].

«Hadis» ilmiy maktabida Imom Buxoriyning «Al-Adab al-Mufrad» asaridagi 1322 ta hadisni tinglovchilar yod olishlari asosiy vazifa qilib qo'yilgan. «Aqida» ilmiy maktabida «Abu Mu'in an-Nasafiy» hazratlarining asarlari yurtimizdagi Hanafiy mazhabiga oid aqid kitoblari asosida darslar o'tiladi. «Tasavvuf» maktabida tasavvuf shayxlari, xususan, naqshbandiya shayxlarining hayot yo'llari, turmush tarzi haqidagi kitoblar o'qitiladi. Tariqat pirlari nasihat sifatida aytgan hikmatli so'zlar sharhlanadi. Ruhiy tarbiyaga oid kitoblar o'qitiladi. Tinglovchilarga muntazam ravishda arab va fors tilidan saboq beriladi, tarixiy manbalarni o'qish jarayonida til qoidalari tushuntirilib, bilim va ko'nikmalari mustahkamlab boriladi. Tasavvuf maktabida tinglovchilarga asosan naqshbandiya ta'limoti o'rgatiladi. Yurtimizdan yetishib chiqqan va aholimiz o'rtasida keng tarqalgan, mamlakatimiz tarixida o'ziga xos ijtimoiy-madaniy ahamiyat kasb etgan kubraviya, yassaviya hamda qodiriya tariqatlari o'rganilishiga ham alohida e'tibor qaratiladi.

«Islom huquqi» maktabida tinglovchilarga Burhoniddin Marg'inoniy hamda Hanafiy mazhabining mo'tabar fiqhiy asarlari chuqur o'rgatiladi, qolaversa, sohaga oid asarlar ustida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish ham rejalashtirilgan edi [3]. Mazkur maktablar birinchi renessansning ilmiy merosidan hozirgi kunda ham samarali foydalanishni targ'ib qilib ilm-fanning rivojlanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. www.moturidiy.uz Imom Moturidiy xalqaro ilmiy –tadqiqot markazi
2. **Joniyev Muzaffarxon.** <http://termiziy.uz/> Imom Termizi Xalqaro ilmiy –tadqiqot markazi
3. <https://kun.uz/uz/85874567>

TARIXIY XOTIRA YOSHLAR MA'NAVIYATINING ASOSI

Axmedova Zebiniso Azizovna

Buxoro davlat tibbiyot instituti dotsenti,

*Ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri, “Ma’rifat” targ’ibotchilar
jamiyati a’zosi*

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston boshqa taraqqiy etgan mamlakatlarga nisbatan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojlanish darajasidan ancha orqada edi. U yagona markazlashgan davlat bo'lmay, Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklariga bo'lingan edi. Xonliklar o'rtasidagi nizolar mamlakat iqtisodiy-madaniy hayotining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatar edi. SHarqning feodal musulmon madaniyati markazi bo'lgan Buxoro mang'itlar hukmronligi yillarida jaholatparastlik, istibdod, ijtimoiy taraqqiyotga qarshilik ko'rsatish markaziga aylandi.

Akademik A.Bogoutdinov [1], B.G'ofurov [12], tadqiqotchilar I.S.Braginskiy [3], A.YUnusov [4], Z.SH.Rajabov [5], J.Toshqulov [6], N.Yo'ldoshev [7], S.Aliev [8], D.Omonov [9], D.Alimova [10] ilmiy ijodida Ahmad Donish va uning ma'rifatchilik g'oyalari o'ziga xos o'rin tutadi. Akademik I.Mo'minov [11] tadqiqotlarida ham Ahmad Donish ijodiga katta ahamiyat berilgan. U Turkiston ma'rifatparvarligini tahlil etib, Donish, Furqat, Muqimiy, Berdaq va boshqalar ijodiga to'xtalib o'tgan.

Tadqiqotda ilmiy bilishning dialektik, tarixiylik, mantiqiylik, analiz va sintez, kompleks yondashuv kabi usullariga tayanildi.

Mang'itlar davrini Muhammad Rahimxon (1753-1758) boshlab berdi. XIX asr boshida Amir Haydar (1800-1826) taxtga ko'tarildi. Uning olib borgan doimiy urushlari iqtisodiyotning pasayishiga olib keldi. Harbiy xarajatlarning ko'payishi soliq turlarining ko'payishiga sabab bo'ldi. Bunday siyosatdan norozi bo'lgan xalq ko'zg'olon ko'tarib turdi.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Amir Nasrulloxon (1826-1860) davrida Buxoro va Xiva o'rtasida janglar bo'ldi. 1842 yilda Qo'qonga katta qo'shin yuborilib, Ma'dalixon qo'shinlari tor-mor keltiriladi. Qo'qon shahri va uning atrofidagi hududlar talon-taroj qilinadi. Keyinroq Toshkent qo'lga olinadi, lekin u erlarni Nasrulloxon uzoq vaqt o'z qo'lida saqlab turolmaydi.

Buxoroda o'sha vaqtda asosiy soliq – xirojdan tashqari kapsan, mushtak (amlokdor foydasiga galladan va paxtadan olinadigan soliq; mushtak – amin va oqsoqol foydasiga olinadigan soliq) olinar edi. Zakot xazina foydasiga majburan olinadigan soliqdan bojning bir turiga, ya'ni molning qiymati ustiga qo'yiladigan qo'shimchaga aylandi. Bu davrda shariatda ko'rsatilmagan yangi zakotlar(hokim, amir, beklar foydasiga olinadigan chakana zakotlar) paydo bo'ldi. Daryodan qayiqda olib o'tilgan yuklardan suv puli olinar edi. Dehqonlar xirojdan tashqari sabzavot va boshqa ekinli erlaridan tanob puli, bedapoyalaridan esa alaf puli to'lar edilar. Ish hayvonlaridan yaksara olinar edi. Amir Muzaffar esa aminona(mollar qiymatining bir yarim foiziga teng keladigan miqdordagi soliq) deb nomlangan yangi soliq joriy qildi.

Buxoro aholisining asosiy qismi hunarmandchilik va savdo-sotiq, qolgan qismi qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanar edi. Buxoroda 360 ko'cha va tor ko'chalar bo'lib, kengligi bir yarim-ikki sarjin kelar edi. SHahar markazida namozgoh, maydon chekkasida Masjidi Kalon, Mir Arab madrasasi, Minorai Kalon qad ko'targan. O'n bitta kirish darvozalarining yo'llari shu markaziy maydon orqali o'tardi. Davlat ma'muriyati, amir saroyi Registonda joylashgan edi.

Buxoro aholisi o'sib borardi. XVIII asrning II yarmida Buxoro shahrida taxminan 15 ming xonadon bo'lib, 70 ming kishi yashagan. Buxoroda o'zbeklar, tojiklar, yahudiylar va boshqa millat vakillari istiqomat qilgan. XIX asr boshida 9 ta ikki qavatli karvonsaroy bo'lib, doimo chet el savdogarlari yashagan. XIX asrning 40-yillarida 38 ta karvonsaroy, 9 ta tim, 16 ta shahar hammomi, 45 ta shahar ichida va 22 ta shahar tashqarisida bozor bo'lgan.

Bu davrda amirlikning markazi Buxoro shahri devor bilan o'rab olingan shahar maydoni 1739 tanob erni egallagan. Devorning uzunligi 14 chaqirim, balandligi 4 sarjin, qalinligi 2 sarjin, unda 130 gumbaz qorovulxona, 11 ta darvoza(Samarqand, Qorako'l, Imom SHayx va h.z.) bor edi.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Buxoroda qonunlar ham amirning manfaatlariga xizmat qilishga moslashtirilgandi. Hamma sudlar tepasida oliy qozi – qozikalon turar edi. U amir tomonidan tayinlanib, davlatdagi boshqa qozilarning boshlig'i hisoblanardi. Qozi muftilar fatvosiga asoslanib hukm chiqargan. Bu haqda Ahmad Donish shunday yozgan: “Mang'it hokimlari hamma narsaga xohlaganlaricha egalik qildilar: etim-esirlarning haqiga xiyonat qildilar Hatto beva ayolning o'chog'idan o'tin o'g'irladilar. Hokimlar orasida qimorbozlik, mayxo'rlik, ayshishratlar avj oldi, nohaq soliqlar, jabru-sitam xalqning sho'ri bo'ldi. Qo'l qo'lni yuvadi deganlaridek, amiru vazirlarning, ulamoyu-amaldorlarning tili bir. Sulton fosiq va zolim, qozikalon ochko'z va munofiq, ichkilikdan bosh ko'tarmaydigan qimorboz mirshabboshi ham shularning bittasi”[12].

Amir va zodagonlarning tayanchi bo'lgan Buxoro qo'shini 13 ming piyoda askar, 500 otliq askar, 620 to'pchidan iborat edi, ya'ni Buxoro shahrida 8 ming askar, SHirobudunda 2 ming, SHahrisabzda mingta, Ko'lobda mingta, Baljuvonda mingta. Otliq askarlar va to'pchilar Buxoro qal'asida joylashgan (50 ta to'p mavjud edi). Bulardan tashqari 2 mingdan ortiq mirshab amir ixtiyorida edi.

XIX asr boshlarida Buxoro va Rossiya o'rtasida savdo va diplomatik aloqalar kuchaydi. 1825 yilda Beknazar Abdukarim boshchiligidagi elchilar Peterburgga yuborildi. Karvon yo'llarining xavfsizligini ta'minlash, Buxoroda madrasa va Peterburgda Buxoro elchilari uchun masjid qurish masalasi muhokama qilindi. 1830 yil avgust oyida harbiy qo'mondon Sultonquli Raxmatbek boshchiligida 30 kishidan iborat elchilar Peterburgga jo'natildi. 1835 yilda Rossiya davlatining elchisi Vitkevich Buxoroga keladi va davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy va siyosiy masalalar yuzasidan muzokara olib boradi. SHu bilan birga Buxorodagi iqtisodiy-siyosiy vaziyat, qo'shni davlatlar bilan munosabatlarini o'rganadi. Rossiya bilan Buxoro o'rtasida savdo munosabatlari mustahkamlanib borayotgan edi. Buxorodan Rossiyaga paxta, jun, qora ko'l, mo'ynalar chiqarilardi va Rossiyadan mis, temir, cho'yan va turli xil asboblari olib kelingan.

XIX asrning 40- yillarida Nijegorod yarmarkasiga Buxorodan 657745 so'mlik mol yuborilgan, ya'ni Rossiyaga chiqarilgan molning 60 foizidan ortigi yarmarkaga jo'natilgan (jami 1 mln.11229 so'mlik mol chiqarilgan). Rossiyada doimiy savdo ishlari olib boradigan Usmonxo'ja

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

SHarif, Saidamin Avyozbadaev, Said Ma'ruf kabi savdogarlar o'sha erda yashaganlar. SHu tariqa rus davlatining Buxoroga ta'sir o'tkazishi kengaygan. Uzoq vaqtlardan buyon qiziqtirib kelayotgan o'lkalar birin-ketin bosib olingan. CHorizmning Turkistonni ishg'ol etishi qisqa muddatli harbiy siyosiy harakat bo'lmay, balki chorak asrni o'z ichiga olgan va Turkiston xalqlari hayotida muayyan iz qoldirgan ziddiyatli tarixiy hodisadir. Ilk istilo Qo'qon xonligining g'arbiy chegarasi hisoblangan Oq machit qal'asi (Qizil O'rda) ning 1853 yilda bosib olinishi bilan boshlangan. 1865-66 yillarda Toshkent va Xo'jand, 1867 yilda YAngiqo'rg'on, 1868 yilda Samarqand, Qarshi, Buxoro bosib olinadi. Buxoro amirligi va Xorazm xonligi rasman saqlanib qolgan bo'lsa-da, amalda ular 1868 va 1873 yil shartnomalariga asosan Rossiya vassaliga aylantirilgan. 1868 yil 23 iyun shartnomasiga muvofiq Buxoro amirligi 500 ming so'm tovon to'lashi kerak edi. CHorizmning Turkistondagi istilochilik harakati 1876 yilda Qo'qonning taslim bo'lishi bilan tugallangan.

CHor xukumati Turkistonni egallab olgach, mahalliy xalqlarning ahvoli yanada og'irlashgan. CHorizm bu erda harbiy-byurokratik mustamlakachilik tartibi o'rnatgan. CHor istibdod hukumati Turkistonni egallab olar ekan, unga birinchi navbatda xomashyo manbai, o'z mamlakatining korxonalarida ishlab chiqarilgan mollarni xarid qilish bozori sifatida qaragan. Xon, boy, mulla, sudxo'rlar tomonidan ayovsiz ezib kelinayotgan, son-sanoqsiz soliqlar og'irligidan qashshoqlashayotgan mehnatkashlar ommasi endilikda ikki tomonlama zulm ostida ezila boshlagan.

O'rta Osiyo chor Rossiyasi tomonidan bosib olingach, chor hukumatining fikriga ko'ra, O'rta Osiyo mustamlakachi davlatning agrar xom-ashyo manbaiga aylanishi lozim edi. O'rta Osiyo viloyatlari Sirdaryo, Farg'ona, Kaspiyorti, Ettisuv, Samarqand viloyatlariga bo'lingandi. SHu tariqa bo'linish O'rta Osiyo erlari va xalqlarini kichik bo'laklarga ajratib, istagancha qul qilib ezish uchun sharoit yaratib berar edi. O'rta Osiyo hududlariga ko'chib kelgan rus aholisining asosiy qismi boylik orttirish maqsadida edi. Joriy etilgan harbiy-mansabdorlik tuzumi mahalliy aholini talar va xo'rlardi. Bu davrda poraxo'rlik, tovlamachilik, adolatsizlik odat tusiga kirdi. Mahalliy aholining erlari egallab olinar va og'ir shartlar bilan dehqonlarga ijaraga berilar edi.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

O'rta Osiyo xalqlari bunday ikki tomonlama zulmga javoban bir necha marta bosh ko'tardi, ammo har safar shafqatsizlarcha bostirilar edi. O'lkani boshqarish uchun tayinlangan hamda cheksiz haquhuqlarga ega bo'lgan chor general-gubernatori va uning to'ralari mahalliy ezuvchilarning vakillari bilan til topishib, xalqni ochiqdan-ochiq talay boshlagan. Chorizm siyosati mahalliy xalqlarni qoloqlikda, johillikda saqlab turishga qaratilgan edi. Shuning uchun ular o'lkada diniy taassubni avj oldirar, xalq o'rtasida paydo bo'la boshlagan har qanday yangilikni bo'g'ishga harakat qilar edilar. Shu bilan birga ular mahalliy xalqlarni ruslashtirish siyosatini ham olib borganlar. Bu hodisalarning hammasi xalqlarni siyosiy, madaniy jihatdan nisbatan orqaga qolishiga sabab bo'lgan.

Bu jangu qon to'kilishlar obod shaharlar va mamlakat iqtisodiyotini xarob ahvolga olib keldi. Aslida qashshoq bo'lgan xalq hayotini bundan ham og'irroq, qashshoqroq, ayanchliroq ahvolga soldi. Buxoro Rossiya podshohiga 500 ming so'm miqdorda jang to'voni topshirdi, asosiy qiyinchilik esa mehnatkash xalq zimmasiga tushdi. Ikkiyoqlama zulm xalqning sabr kosasini to'ldirdi. Shu sababli mamlakatning ba'zi tumanlarida isyon, jabru-sitamlardan norozilik kuchaydi. Xususan, Buxoro tumanlarida norozilik sadolari balandroq ko'tarilib, feodallar, hokimu-amirga qarshi isyon ko'tarildi. Bunga misol sifatida 1885 yil Baljuvon hokimligidagi Xatlonzamin nohiyasida ro'y bergan Vose boshchiligidagi ko'zg'olonni ko'rsatish mumkin. Jabrdiyda dehqonlar Vose boshchiligida tenglik, birodarlik, hayotning to'kinligi uchun zolimlarga qarshi chiqdilar, isyonchilar Baljuvonni qo'lga kiritdilar va bir oz muddatdan keyin qo'zg'olon rahmsizlarcha bostirildi.

Ko'pgina olimlar Buxoroning chorizm istilosigacha va undan keyingi hayotini tahlil qilganlar [13]. Shunga ko'ra bu davrda Buxoro amirligi hududida 4 ta cho'l (Qora Qum, Qizil Qum, Sunduqli, Malik), 126 ta quduq, 7 ta sardoba, 17 ta ko'l, 3 ta tog' tizmasi (Hisor, Darvoz-Mozor, Pyotr I), 4 ta daryo basseyni (Amudaryo, Zarafshon, Qashqadaryo, Qo'shtangdaryo) bo'lgan. Amirlik 27 ta beklikka bo'lingan. Ularda 12 xil millat (o'zbek, tojik, qirg'iz, arab, afg'on, turkman...), 102 xil o'zbek urug'i vakillari yashagan. Amirlik aholisi 300 ming, ruslar 30 ming kishini tashkil etgan.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Amirlik hududida oltin, mis, temir, topaz, rubin, neft va boshqa foydali qazilmalar aniqlangan. Buxoroda gilam-namat, ip-gazlama, ipak-shoyi, charm ishlab chiqarish, temirchilik, kulolchilik, yog'och o'ymakorligi, zardo'zlik, zargarlik, naqqoshlik, moy ishlab chiqarish, sovungarlik yo'lga qo'yilgan edi.

Olamshumul tarixiy jarayonning ob'ektiv natijalari shundan iborat bo'ldiki, chor hukumatining ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holda ilg'or rus ijtimoiy ongi, madaniyati, adabiyoti, fan-texnikasi turli yo'llar bilan Turkistonga kirib kela boshladi. Bu olimlarning hammasi o'lka ma'naviy hayoti, adabiyoti, madaniyati ziyolilari ongida sekinlik bilan bo'lsa ham o'zgarish yasadi, fikriy uyg'onishi uchun mustahkam tarixiy zamin yaratdi. O'lkada milliy ozodlik g'oyalari yanada rivojlandi. Bu buyuk g'oyaning O'rta Osiyoga tarqalishi milliy va mustamlaka zulmiga hamda chorizmga qarshi harakatning yuzaga kelishi va o'zbek xalqi tarixida muhim rol o'ynadi.

SHarq hech ham G'arbdan qolishmas edi, aksincha, ma'lum tarixiy jarayongacha G'arbdan ilgari edi (SHarq xalqlari Evropaga nisbatan ancha ilgariroq tarixga kirganliklarini misol qilsa bo'ladi).

SHarqda tarix avvalroq boshlanib, uzoq vaqt SHarqning asosiy kuchini tashkil etgan, desak mubolag'a bo'lmas. Bu barcha sohalarni o'z ichiga oladi, badiiy madaniyat-adabiyotga ham taalluqli. Insonparvarlik adabiyotning merosi bu erda shunday darajaga etgan ediki, Evropa bu jarayondan hali ancha uzoq edi. SHarq madaniyatining rivoji bu insoniyat rivoji, umumtarixiy qonuniyatlarni hayotga tadbiiq etish edi [14].

Rus fani va texnikasining O'rta Osiyoga kirib kelishi va mahalliy xalqning ilm-ma'rifatga, fan-texnikaga, madaniyatga bo'lgan intilishlarining kuchliligi natijasida XIX asrning 60-80 yillardan boshlab Turkistonda bir qator bosmaxona va litografiyalar qurila boshlandi.

Toshkentda (1868), keyinroq esa Xorazm (1878), Buxoro, Samarqand, Qo'qon, Kogon, Andijon, To'raqo'rg'on kabi shaharlarda bosmaxonalarning ishga tushirilishi o'zbek madaniy hayotida juda katta tarixiy voqea bo'ldi. Bosmaxonalarda tarixiy, tabiiy-ilmiy, falsafiy asarlar bilan bir qatorda har xil she'riy to'plamlar, bayozlar, devon va qulliyotlar ham salmoqli o'rinni egalladi [15]. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Lutfiy, Navoiy, Jomiy, Fuzuliy, Ogahiy, Tabibiy kabi shoirlarning devon va qulliyotlari nashr etildi.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

1870 yilda Toshkentda birinchi bor xalq kutubxonasi ochildi, hamda Turkiston ijtimoiy-siyosiy, madaniy-adabiy hayotida muhim voqea bo'lgan "Turkiston viloyatining gazetisi" o'zbek tilida nashr etila boshlandi. Gazeta mahalliy millatlarni jahon adabiyoti, madaniyati, Evropa xalqlari urf-odatlarini bilan tanishtirishda katta rol o'ynadi. Unda o'zbek, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman adabiyoti, madaniyati, tarixi, etnografiyasiga oid materiallar ham o'rin olib boshlandi. Uning sahifalarida badiiy adabiyotga, san'atga, tarixga, falsafaga, tibbiyotga, xalq og'zaki ijodiga oid materiallarga ham keng o'rin berildi.

1869 yilda Toshkentda kimyoviy laboratoriya, 1894 yilda Turkistonda seismologik stansiya, 1896 yilda qishloq xo'jalik tajriba stansiyasi, 1902 yilda meteorologik stansiya ishga tushdi. 1888 yilda Kaspiydan Samarqandgacha temir yo'l ochildi [16]. Tashkil etilgan ilmiy jamiyatlarga olimlar taklif etildi. Jamiyatlar ishiga Olimjon YUnusov, Mirzo Hakim kabi geograflar jalb qilindi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi madaniy hayot rivojiga o'sha davrda Turkistonda tashkil etilgan adabiy to'garaklar, aktyorlik truppalari, adabiy kechalar katta ijobiy ta'sir qildi.

Evropa usulidagi muzeylar, klublar, teatrlar ochildi, san'at va xalq xo'jaligi ko'rgazmalari tashkil etildi. Bir qator jamiyat va to'garaklar ochildi. Bularning hammasi Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida, o'zbek adabiyoti, san'ati rivojida katta ijobiy rol o'ynaydi. Turkistonda tashkil etilgan bu madaniyat dargohlariga Ahmad Donish, Sattorxon, Saidrasul Caidazizov, Furqat, Komil, Kamiy, Nodim kabi ma'rifatparvar adiblar va boshqa hurfikrli ziyolilar tez-tez borib turganlar.

XIX asr ikkinchi yarmida tangashunoslik ham rivojlandi. Toshkentlik savdogar Akram Asqarov Rus arxeologiya jamiyatiga qabul qilindi va kumush nishon bilan taqdirlandi. U tanlagan 2 mingdan ortiq oltin, kumush, mis tangalar Peterburgdagi Ermitajdan o'rin oldi. Ettisuv viloyatida Turdi Mirg'ienov arxeologiya bilan shug'ullanib, 16 yil davomida izlanishlar olib bordi. Ip-gazlama fabrikasi xo'jayini, savdogar Mirza Abdulla Buxoriy 1878 yilgi Toshkent ko'rgazmasini tashkil etishda ishtirok etadi va gazlama, ayollar bosh kiyimlaridan iborat kolleksiyasini taqdim etadi. 1889 yilda 13 ta oltin va mis tanga, 1891 yilda esa 11 ta sopol idishni Ermitaj uchun Peterburgga yuboradi. SHu tariqa xalqimizning noyob merosi chetga chiqa boshlaydi.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Turkistonni qo'lga kiritish uchun CHor Rossiyasi ilmiy josuslik xizmatidan foydalangan, ya'ni o'lkaning harbiy quvvati, boyliklari, madaniyati, iqtisodiyotini o'rgangan. SHunga ko'ra rus muarrixlari yurtni bosib olish, idora qilish, boyliklarini egallashda beqiyos omil hisoblangan qo'lyozma manbalarga asosiy diqqatni qaratganlar. Xonlar, amirlar ham elchilarga mulozamat ko'rsatib, noyob qo'lyozmalarni tuhfa etganlar. Masalan, N.Xanikov 166 ta nodir asarni Buxorodan Sankt-Peterburgga olib ketgan. V.L.Vyatkin yiqqan asarlar 190 jildni tashkil etgan. Olib ketilgan asarlar ichida "Xamsa", "Ziji Ulug'bek", "Tuzuki Temur", "SHohnoma" va boshqalar bo'lgan. Ma'naviy xazinamizni tashib ketishda imkoniyati cheklanmagan general-gubernator fon K.Kaufman Sankt-Peterburg Davlat kutubxonasiga 150 jilddan ortiq qo'lyozmalarni tortiq qilgan. Ular "Kaufman yig'masi" deb nomlanadi.

Bu davrda bir qancha olimlar O'rta Osiyo tabiati, qazilma boyliklarini o'rganishga harakat qildilar. Seversov N.A. (1827-1886) Pomir tog' tizmasini, P.P.Semyonov-Tyanshanskiy Tyan-shan tog' tizmasi jo'g'rofiyasini o'rgandi. A.P.Fedchenko (1844-1873) Farg'ona va Oloy, Zarafshon, Qizilqumni tekshirib chiqdi. I.V.Mushketov (1850-1902) esa SHimoliy Tyanshanning geologik asoslarini o'rganib, Turkistonning birinchi mineralogik xaritasini tuzdi va "O'rta Osiyoni o'rganish tarixi" asarini yozdi. V.V.Dokuchaev O'rta Osiyo tuproqlari tarkibini o'rganishga harakat qildi [17].

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Buxoro me'morchiligi yanada rivojlandi, ko'pgina iste'dodli ustalar etishib chiqdi. Bular orasida Obloqul va Ibrohim Hafizovlar, Mo'minjon Solihov, SHirin Murodov va boshqalar mashhur edi. Buxoro me'morchilik maktabi an'anasi turar joy qurilishida alohida ajralib turadi. Bu paytda qurilgan binolarning devorlari asosan qo'sh sinjli bo'lib, ko'p hollarda yozlik uylar, boloxonalar qurildi. Qishloq me'morchiligida uy-joylar shaharlardagidan farqli bo'lib, oilaning asosiy istiqomat joyi tashqi hovli edi. Odatda, kishloq hovlisining atrofi paxsa devor olingan bunday hovlilar "qo'rg'on" deb ham atalgan.

Saroy qurilishida Sitorai Moxi Xosa o'ziga xos uslubda bezatildi. Bino qurilishida ham G'arb, ham SHarq me'morchiligi an'analariidan foydalanildi. Undagi maxsus zalga pardozi berishni Usta SHirin Murodov boshliq bir guruh usta va ganchkorlar amalga oshirdilar. Buxoro va Samarqand binokorligida ganch, yog'och va toshga o'yilgan

badiiy naqsh solish juda ommalashgan edi. Asosan ustunlar, eshiklar hamda shift sinjlariga o'ymakor naqsh ishlash keng rasm bo'lgan.

Buxoroda yog'ochga va misga mohirlik bilan o'yma naqsh berish, sopol va chinni idishlar, qurollar, turli gazlamalarni tayyorlash keng tarqalgan bo'lib, Buxoro uslubi mukammalligi bilan farq qilar edi. Buxoro ustalari yog'ochga naqsh o'yib, zargarlar qimmatbaho toshlar bilan bezalgan zeb-ziynatlar yasash bilan badiiy buyumlar yaratganlar. O'ziga xos ornamentli gilamlar, tojik va o'zbeklarning shoyiga, ip-gazlamaga, guldor gazlamaga, duxobaga gul solib tikkan kashtalari ham xalq ijodining ajoyib namunalari sanaladi. Madrasalar va ulardagi ta'lim-tarbiya usullari o'rta asrlardayoq o'zini har tomonlama oqlagan bo'lib, ulardan taniqli olimlar etishib chiqqani va ular fanlar beshigini tebratganligi dunyoga ma'lumdir.

O'lkaning yirik shaharlarida madrasalar qurilishi davom etdi. Ular odatda ulug'vorligi bilan ajralib turar edi. Yirik madrasalar oliy ta'lim vazifasini bajarib, ularda bir necha mudarrislar dars berganlar. Mudarrislarining ko'pchiligi islom falsafasi, musulmonchilik huquqlari, shariat qonunchiligidan ta'lim berar edilar.

Madrasalarda mudarrislar kamchilikni tashkil qilardi. Mudarrislar bu ta'lim tizimida arab-fors grammatikasidan, mantiq usullari, shariat asoslaridan saboq berar edilar. SHaharda ba'zi bir muallimlarning rafiqalari yoki savodxon ayollar otinoyilik qilib qizlarning savodini chiqarganlar.

XIX asrning ikkinchi yarmida mahalliy xalq maktab va madrasalardagi o'quv tizimida ham o'zgarishlar yuz berdi. Gimnaziya va o'qituvchilar seminariyasi, har xil o'quv kurslari ochila boshlandi. Aniq fanlar o'qitiladigan bu ilm dargohlariga mahalliy xalq bolalari ham qatnay boshladi.

Buxoro amirligi xonliklar orasida faqat iqtisodiy, siyosiy markaz emas, balki ilmiy markaz ham hisoblanar edi. O'sha davrda Buxoro hatto O'rta Osiyoning Afinasi deb atalar edi. SHuning uchun ham Hindiston, Qashg'ar, Tatariston, Afg'oniston va boshqa yurtlardan Buxoroga o'qish uchun kelar edilar. Buxoro madrasalarida obro'li, o'z ilmi bilan SHarq mamlakatlarigacha tanilgan mudarrislar dars bergan. XIX asrning 40-50 yillarida Buxoroda 103 madrasa bo'lib, talabalar 9-10 ming kishini tashkil qilar edi. Mudarrislarining har biri yiliga 100 tilladan 700 tillagacha olar edi. Har bir talaba yiliga 3,5 tilladan 20

tillagacha olar edi[6]. Qozon shahri bosmaxonasida bosilgan «Qur'on» va «Haftiyak», Hindiston va Erondan shoirlarning litografiyada bosilgan to'plam-devonlari olib kelina boshlandi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Богоутдинов.А.М. Из истории общественно-политической мысли таджикского народа // Вопросы философии. – Москва, 1951. - № 3; Очерки по истории таджикской философии. - Сталинобод: Таджикиздат, 1961.
2. Гафуров Б. История таджикского народа. - М.: Госполитиздат, 1955. Т.1.
3. Брагинский И.С. Очерки из истории таджикской литературы. - Душанбе.: Ирфон, 1956.
4. Юнусов А. Ахмади Дониш. - Сталинобод: Ирфон, 1960.
5. Ражабов З.Ш. Выдающиеся просветитель таджикского народа Ахмад Дониш. - Сталинобод: Ирфон, 1961
6. Ташкулов Дж. Гуси. Дониш. - М.: Наука, 1990.
7. Юлдашев Н. Развитие демократического движения в Бухарском эмирате и предпосылки народной революции // Материалы научной сессии. 50 лет Бухарской народной революции. - Ташкент: Фан, 1972. – С. 105.
8. Aliev S. Vuxoroda bitilgan baytlar. –Т.: G'.G'ulom, 1992.
9. Omonov D. Ahmad Donish / O'zbek pedagogikasi tarixi. –Т.: O'qituvchi, 1997.
10. Alimova D. Jadidchilik: islohot yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. - Т.: Universitet, 1999. - 83 b.
11. Муминов И.М. Материалы по истории прогрессивной общественно-философской мысли в Узбекистане. -Ташкент: Фан, 1976
12. Donish A. Navodir ul-vaqoe'. - Toshkent: Fan, 1964. – 85 b.
13. Хаников Н. Описание Бухарского ханства. – СПб.: В.Березовский, 1843.
14. Суровцев И. Национальное своеобразие и национальный характер // Интернациональное и национальное в литературах Востока. Сб. статей. - М: Наука, 1972. - С.47-49.
15. Jalolov A. XIX asr oxiri XX asr boshlarida o'zbek adabiyoti. – Т.: Fan, 1991. - 7 b.

16. Муминов И.М. Из истории развития общественно - философской мысли в Узбекистане в конце XIX и начале XX вв. - Ташкент: Госиздат, 1955. – 20 с.

17. Хаников Н. Описание Бухарского ханства.- СПб.: В.Березовский, 1843.

УПРАВЛЕНИЕ ОБРАЗОВАНИЕМ И НАУКОЙ КАК АКСИОЛОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА ТРЕТЬЕГО ВОЗРОЖДЕНИЯ

Мансурова Малохат Юнус кызы

Главный специалист отдела духовности и просвещения

Навоийской области

С первых дней своего президентства глава нашего государства Ш. Мирзиёев подчеркивал, что самая большая проблема для нашей страны - это нехватка современных кадров, необходимость новаторского и творческого мышления во всех сферах, владение передовыми технологиями.

Поскольку в трудный переходный период качество образования в школах снизилось, посещаемость колледжей снизилась. Отсутствие творческих школ, культурных центров, невнимание к деятельности клубов породило ряд серьезных проблем. Наша молодежь растет невежественной, некоторые заблудились, а некоторые скитаются за границу.

Поэтому Президент Ш.Мирзиёев счел этот вопрос своей заботой и болью, подчеркнув, что будущее нашей страны зависит от современных кадров, для которых первоочередной задачей является кардинальное совершенствование системы образования, воспитание молодежи в духе патриотизма. выдвигается как задача.

Действительно, если мы посмотрим на историю развитых стран, то увидим, что их реформы, направленные на изменение жизни общества, начались, прежде всего, с системы образования, детских садов, школ, воспитания.

Потому что невозможно изменить человека, общество без регулирования школы, образования. Как отметил глава нашего государства, чтобы укрепить уверенность в завтрашнем дне Узбекистана, чтобы он был достоин своих предков, реформы

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

должны начинаться с науки. Потому что без науки нет результата ни в одной области.

В последние годы проводится масштабная работа по реформированию, решению проблем в этой сфере, кардинальному совершенствованию системы обучения в нашей стране. С этой целью принят ряд указов и постановлений, создающих прочную правовую основу для комплексных усилий в этом направлении.

Система дошкольного, общего и высшего образования обновляется по содержанию и качеству.

В Узбекистане есть школы для одаренных детей имени наших великих ученых Мирзо Улугбека и Мухаммада Хорезми, школы творчества имени известных людей нашего народа, Школа Темурабеков. Создание новых и современных учебных заведений, таких как президентские школы и частные школы, открывает новые возможности для обучения детей в нашей стране.

В ходе своего визита в Республику Каракалпакстан Глава нашего государства подчеркнул необходимость подготовки нового поколения кадров для поднятия страны на новый уровень развития, а для этого в каждом регионе страны - по одной новой категории специалистов. школы - Президентские школы. 20 февраля 2019 года Президент принял постановление «О мерах по созданию президентских школ». По его словам, первая Президентская школа была построена в Ташкенте в короткие сроки.

В 2020-2021 годах во всех регионах планируется открыть Президентские школы.

Нет сомнений в том, что эти учебные заведения станут важной базой для развития кадров нового поколения. Ведь президентские школы станут единой системой выявления талантливых детей, обучения и воспитания их с использованием передовых технологий. Он служит для поддержки и поощрения талантливой молодежи к формированию духовно зрелого и интеллектуально зрелого поколения.

Президентские школы организованы в виде специализированных учебных заведений. Эти школы принимают учеников на основании результатов тестов на логическое мышление, письменных экзаменов и собеседований с выпускниками 4-х классов. Ежегодная квота приема в школу

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

составляет 24 ученика, по 12 учеников в классе. Учебный процесс ведется на английском языке по учебным планам и программам, разработанным в сотрудничестве с зарубежными учебными заведениями. Наряду с естественными и точными науками, иностранными языками особое внимание уделяется воспитанию школьников в духе патриотизма, узбекскому языку и литературе, истории и другим предметам для понимания национальной идентичности.

Президентские школы представляют программу STEAM (Science - естественные науки, Technology - технологии, Engineering - техническое творчество, Mathematics - математика).

144 из 7000 учеников, поступивших в 5-10 классы, были приняты в Президентскую школу в Ташкенте. В сотрудничестве с канадской кадровой компанией Teach Away и британской кадровой компанией TIC Recruitment для школы было отобрано 30 иностранных специалистов. Кроме того, было нанято 72 квалифицированных и опытных местных учителя. В августе для всех учителей был организован специальный тренинг по внедрению кембриджской учебной программы STEAM. Были привезены учебники и пособия по программе STEAM.

Глава государства ознакомился с созданными в школе условиями, пообщался с учениками и сказал: «Это первое испытание в вашей жизни. Вы видите, что такое работа, какие знания, что такое справедливость. Как сказал наш предок Амир Темурали: «Справедливость сделает мир процветающим». Если нет справедливости, просветление будет темным, в жизни не будет смысла. Поскольку мы хотим построить свободную и процветающую жизнь для нашего народа, я прошу вас как главу государства, чтобы только справедливость и еще раз справедливость восторжествовали в нашей жизни» [Ш.Мирзиёев «Мы решительно продолжим наш путь национального развития и поднимем его на новый уровень». - Т.: Узбекистан, 2019 - В 447.].

Наша дорогая Родина, независимость Республики Узбекистан.

В поздравительной речи по случаю 29-летнего юбилея Президент Ш. Мирзиёев подчеркнул, что целью нашего развития должно быть Третье Возрождение. Эта великолепная стратегическая идея

показала свое величие и важность национального прогресса во всех сферах. На практике глава государства выражает новое и уточненное содержание национальной идеи Узбекистана на современном этапе развития.

Идея Третьего Возрождения должна быть сначала глубоко осознана нашим обществом. В каждой сфере, наша работа в этой сфере, наши планы и программы на будущее, образовательная и кадровая политика, инвестиционная политика - все это должно быть направлено на создание условий и среды для этого.

«Возрождение» буквально означает «возрождение» на французском языке. Как термин он имеет гораздо более широкое значение: в культуре, науке, искусстве, образовании и обществе в целом после длительного периода застоя он возрождается и быстро развивается, а система общественного сознания и ценностей входит в новый качественный этап. Этот термин впервые был использован в средневековой Европе после 15 и 16 веков. Это социальное явление, получившее название Ренессанс, было переведено на узбекский язык как Ренессанс.

В 1909 году выдающийся австрийский востоковед Адам Мес опубликовал фундаментальный труд «Мусульманское возрождение».

С тех пор появились идеи и исследования о том, что Ренессанс был не только европейским феноменом, но что народы Востока испытали его раньше, чем европейцы.

Великий русский академик-востоковед Н.Н. Конрад Ренессанс Он начинается в Китае в VII и VIII веках и продолжается в Индии в VIII веке, от которой исламские страны переняли эстафету в IX и XII веках. Он распространяет Восточное Возрождение до времен Алишера Навои. Джавахарлал Неру описал Бобура как типичного представителя эпохи Возрождения.

С XV века Ренессанс переместился в Европу. Европа к этому времени За 300-350 лет исламские ученые, в том числе труды наших великих предков, особенно труды Хорезми, Фергани, Ибн Сино, перевели их на латынь и усвоили их. Одно из самых сильных влияний на европейское Возрождение. Ибн Рушдир. До середины 14 века аверроизм (движение, основанное на учении Ибн Рушда)

сохранял свои позиции в европейской философской и научной мысли.

К сожалению, в 30-40-х годах 16 века у нас было традиционное общество решительно решил. Социальная потребность в научных и художественных исследованиях снизилась. Служение достижениям прошлого, попытки их идеализировать и просто повторять, сформировали негативное отношение к новостям.

После обретения независимости ему в течение четверти века сначала пришлось заниматься национальным возрождением. Теперь, когда мы перешли от национального возрождения к национальному подъему, достижение Третьего Возрождения стало стратегической задачей президента. Действительно, исторически мы пережили два Возрождения: первый в IX-XII веках, второй в последней четверти XIV века - первой четверти XVI века в первом Возрождении. великие исследователи хадисов - Бухари, Термези, мутакаллим - Мотуруди и Абул Муин Насафи и другие известные светские и религиозные ученые просвещали мир.

Во времена Второго Возрождения - Улугбек. Гиёсиддин Джамшид Каши, Казизода Румий, Али Кушчи, Лутфи, Джами, Навои, Бехзод, великие архитекторы, композиторы, художники, историки вышли и создали произведения, которые до сих пор поражают мир.

Во время обеих эпох Возрождения мы были одной из самых передовых наций в мире. Если мы хотим снова достичь этого уровня, нам нужно заняться Третьим Возрождением.

Национальная идея - это, по сути, концепция или лозунг, в нескольких словах или фразах выражающий конечную цель конкретной нации. Для этого он объединяет и мобилизует людей. Люди координируют все свои усилия, стремления и творческую деятельность. При необходимости он радикально реформирует свои экономические и социальные отношения, политические, правовые и идеологические основы страны, а также систему образования. Одна из главных задач национальной идеи - это, прежде всего, сохранение и укрепление единства народа, целостности страны. Во-вторых, он определяет высшие цели, задачи развития и задачи нации в целом. Национальную идею

можно выразить по-разному. Но независимо от формы выражения он должен показывать людям будущее, социальную цель.

В первые годы после обретения независимости продвигался лозунг «Узбекистан - страна с большим будущим». На практике он служит национальной идеей и сыграл важную роль в объединении и мобилизации людей. Акцент в этом броском лозунге был сделан на государстве, а не на обществе. Позже, когда форма национальной идеи была усовершенствована, была выдвинута фраза «Свободная и благополучная Родина, свободная и благополучная жизнь». Акцент делается не на политической организации (государстве), а на свободе и процветании для всех, независимо от политических или идеологических взглядов, для Родины, для личности и общества, которые никогда не останутся равнодушными. Такое концептуальное выражение национальной идеи стало более совершенным.

Но к нему не отнеслись достаточно серьезно, чтобы раскрыть его содержание и задачи по его реализации. В частности, он не был привязан к направлениям, направлениям, различным этапам реформирования, текущим и потенциальным проблемам, в результате остался на уровне идеологического призыва, сухого лозунга. Влияние на людей постепенно ослабевало по мере того, как они уходили от конкретных проблем и задач.

«Свободная и процветающая Родина, свободная и благополучная жизнь», встреченная с большим интересом и доброй волей, сегодня не оказывает реального влияния на нашу экономическую, социальную, политическую и духовную жизнь. Чтобы возродить национальную идею, необходимо обогатить ее идеей Третьего Возрождения. Только осознав Третье Возрождение, мы сможем построить свободную и благополучную жизнь на свободной и процветающей Родине. Или, что более удобно, наступление Третьего Возрождения уместно объявить новым выражением национальной идеи.

В заключение, национальная идея представляет собой стратегическую цель, а не текущую. В этом смысле идея Третьего Возрождения очень склонна смотреть в будущее. Мобилизационная сила этой идеи в целом имеет очень высокий идеологический потенциал. В то же время славные страницы нашего прошлого. Это

связано с творчеством и творческим потенциалом наших великих предков. На пути к Новому Возрождению наш народ не должен отвлекаться на разные мелкие временные вопросы, различные формы сектантства, местничества, сепаратизма, идеологического фанатизма.

UCHINCHI RENNESSANSNING POYDEVORI

Egamberdiyeva Aziza Mustafayevna

Navoiy Davlat Pedagogika instituti

Yurtimizda ta'limning barcha bug'inlarida ijtimoiy-siyosiy transformatsiya, demokratlashtirish, axborotlashtirish va globallashtirish jarayonlari vujudga keldi. Natijada yoshlar tashabbuskorligini jamiyatda kuchaytirish, ta'lim jarayonida faol fuqaroni tarbiyalab voyaga yetkazish asosiy maqsadga aylandi. Ta'limda professional mutaxassislarning faoliyat olib boruvchi sub'ekt sifatida o'zo'zini to'liq namoyon etishga keng shart-sharoit yaratildi. Bunday o'zgarishlar esa, o'z navbatida, yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan tashabbuskorlik tuyg'ularini shakllantirmoqda. O'zbekistonda ham fuqarolik jamiyatining rivojlanish darajasi yoshlarning ta'lim tizimidagi tashabbuskorligi bilan bog'liq. Bu borada davlatimiz rahbari SH.M.Mirziyoyev so'z yuritarkan ekan, "Biz ko'plab dasturlarni qabul qilmokdamiz, lekin ularni amalga oshiradigan, tashabbuskor va vatanparvar, yuqori malakali kadrlar yetarlimi? Oliy o'quv yurtlarida tayyorlanayotgan mutaxassislar oldimizga qo'yilgan bunday ulkan vazifalarni bajarishga qodirmi? Ularga ta'lim berayotgan o'qituvchi va professorlarning bilim va malakasi davr talabiga javob beradimi?" degan savolni o'rtaga tashlaydi[1]. Biz mana shu savolga faol fuqarolik pozitsiyasiga ega yoshlarimizning tashabbuskorligi bilan javob berishimiz lozim. Jamiyatda yoshlarning faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda, avvalo, fuqarolik pozitsiyasining mohiyatini chuqur anglashimiz kerak. "Fuqarolik pozitsiyasi" deganda shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlardagi faol harakati, samarador faoliyati, chuqur mas'uliyati, mavjud muammolarni ongli ravishda idrok etish qobiliyati, ijtimoiy hodisa va hodisalarning o'zaro munosabati, bu munosabatdan kelib chiqadigan xatti-harakatlarni anglash xislati; ijtimoiy jihatdan uyetukligi va o'z vatanining ravnaqi kurashishi kabi ongli faoliyati tushuniladi. SHu boisdan ham S.I.Sergeyechik "Fuqarolik

***Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini
ta'minlashning dolzarb masalalari***

faolligi shaxsning fuqarolik huquq va majburiyatlariga bo'lgan mas'uliyatli munosabatida, shuningdek, jamiyat uchun ahamiyatli bo'lgan o'quv, kasbiy va shaxsiy rejalarining ijtimoiy yo'nalganligida namoyon bo'ladi", deb yozadi [2]. SHuningdek, faol fuqarolik pozitsiyasi har bir insondan o'z vatani, yurtdoshlarining siyosiy, huquqiy, ma'naviy huquqlari va burchlarini anglash darajasi bilan ham belgilanadi. Fuqarolik pozitsiyasi jamiyatga, kasbiy faoliyatga, umuman odamlarga, xususan, o'ziga nisbatan mas'uliyatli munosabatni ham ta'minlaydi. M.Barishevskiyning ta'kidlashicha, "Fuqarolik pozitsiyasi bu sub'ektiv ahamiyatga ega bo'lgan va u hayot jarayonida bunday qadriyatlarni amalga oshirish uchun o'z-o'zini rivojlantirish uchun ichki motiv sifatida harakat qiluvchi shaxs tomonidan shakllantirilgan hamda aynan fuqarolik qadriyatlari asosida vujudga keladigan nisbatan barqaror motivlar tizimidir" [3]. Bizning nazarimizda fuqarolik pozitsiyasi shaxsning ichki ehtiyoj sifatida harakat qiladigan fuqarolik qadriyatlari mazmuni bilan birgalikda o'z-o'zini ma'naviy-madaniy jihatdan identifikatsiyalash va o'zini o'zi anglash vositasidir. Ta'limda yoshlar faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish ularning individual ehtiyojlari va sabablarini jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yorlar bilan bog'lash orqali amalga oshiriladi. SHu bilan birga, axloqiy qadriyatlar turli guruhlarning, shu jumladan, jamiyatning xatti-harakatlarini tartibga soladi, ularning barqarorligi va o'z-o'zini tarbiyalash mexanizmlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. SHuning uchun axloqiy qadriyatlar insonlararo munosabatlarni tartibga solib turuvchi muhim omil vazifasini o'taydi. CHunki aynan axloq har bir insonning butun hayoti davomida amalga oshiriladigan va uning hayot ma'nosi bilan bog'liq bo'lgan murakkab insoniy munosabatlarni o'z ichiga qamrab oladi. YOshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish ularning jamiyatda yangi axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga bo'lgan ehtiyoji, o'ziga xos istagi va faol fuqarolik burchga egaligi bilan belgilanadi. Bu esa mavjud axloqiy me'yor va ijtimoiy tartibni, ularni yangi talablar asosida shakllantirish, o'zgartirish, aksincha, sof holatda saqlash, mustahkamlash bilan belgilanadi. Bu jarayonda tarbiyachi ustozlarning o'rni katta hisoblanadi. SHu boisdan V.I.Filonenko, "tarbiyachilar, o'qituvchilar, psixologlarning, butun jamoatchilikning tarixiy vazifasi shunday ijtimoiy-siyosiy sharoitlarni yaratishga hissa qo'shish, yoshlar orasida milliy xususiyatni shakllantirish, qo'llab-quvvatlash, saqlash va

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

rivojlantirishga yordam beradigan fuqarolik pozitsiyasini yaratishdir”, degan edi [4]. Jahon hamjamiyatida ro'y berayotgan integratsion jarayonlar, birinchi navbatda, oliy ta'lim tizimiga ta'sir qiladi. Chunki bugungi kunda dunyoning turli mamlakatlarida ta'lim standartlari, yondashuvlari, o'quv dasturlari va mutaxassisliklarini uyg'unlashtirishda namoyon bo'ladigan yagona ta'lim makoni shakllanmoqda. Bunday ochiq ta'lim maydonini shakllanishi talabalarning tashabbuskorligi, harakatchanligi va turli mamlakatlardagi oliy o'quv yurtlarining xalqaro hamkorligi o'sishini anglatadi, bu esa ularning tanlagan kasblari bo'yicha katta yutuqlarga erishishi, universitet bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash tizimini yaxshilash, ushbu mamlakatlarning ta'lim sohasidagi mavqeini oshirishga yordam beradi. Oliy ta'lim tizimida bunday munosabatni shakllantirish jarayoni dunyoning ko'plab mamlakatlaridagi universitetlar faoliyatining muhim yo'nalishi bo'lib, bunday maqsad va vazifalar BMT, YUNESKO, yevropa Kengashi kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan ham qo'llab-quvvatlanmoqda. Shu o'rinda biz yevropa va AQSH oliy o'quv yurtlarida bu yo'nalishda islohotlar amalga oshirilmoqda:

- ◆jamiyatda demokratik qadriyatlar va ularni amalga oshirish jarayonini faol qo'llab-quvvatlash;
- ◆demokratik qarashlarning dunyo bo'ylab tarqalishiga faol hissa qo'shish;
- ◆universitet, mahalliy hamjamiyat darajasida va jamiyatda demokratiyani rivojlantirishga katta hissa qo'shish va boshqalar shular jumlasidandir [5].

Evropa universitetlari yoshlarida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish holatini o'rganish bu borada tanqidiy hamda tahliliy fikrlarni uyg'otdi. Bu esa barcha universitet talabalari o'rtasida demokratik tashabbuslarni rivojlantirishni rag'batlantirishi kerak degan xulosaga olib keldi. Bunday rag'batlantirish tizimi yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga yordam beradigan yangi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda zarur turtki bo'ladi, albatta. Chunki aynan universitetlarning bugungi kundagi asosiy ishi va xizmati o'zining demografik tarkibi, moliyaviy xavfsizligi va maqomidan qat'iy nazar, yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga qaysi darajada o'ziga xos yondashuvlarni jalb qilish bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Hozirgi davrda biz xorijiy

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

universitetlarda talabalarning faol fuqarolik pozitsiyasi va tashabbuskorligini rivojlantirish uchun quyidagi choralar ko'rilayotganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin:

–talabalarni universitet ta'lim tizimini boshqaruv siyosatidagi faol ishtirok etishi va faol demokratik qadriyatlarni qaror toptirishdagi faoliyatini universitet rahbari tomonidan qo'llab-quvvatlanishi;

–demokratik qadriyatlarni qabul qilish va rivojlantirish maqsadida talaba-yoshlar o'rtasida fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan samarali ishlarni faol amalga oshirish;

–yoshlar faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda universitetning rolini yana-da oshirish;

–universitet yoshlarining atrofdagi jamiyat vakillari bilan o'zaro munosabatlarini yaqinlashtirish va ularning ijtimoiylashuvi uchun keng imkoniyatlar yaratish;

–universitet ichida faoliyat ko'rsatadigan o'quv yurtlari organlari va tuzilmalarini boshqarish usullariga demokratik o'zgartirishlarni kiritish;

–yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish bo'yicha maqsadli va integratsiyalashgan o'quv dasturlarini joriy etish [6].

SHu o'rinda, yevropa universitetlarida yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga to'sqinlik qiluvchi quyidagi omillarni ajratib ko'rsatishni maqsadga muvofiq deb topdik: birinchidan, yevropa universitetlarida fuqarolik ta'limi milliy, siyosiy va etnik kontekstlarda olib boriladi, ular faol fuqarolik pozitsiyasini va demokratiyaga sodiqlikni shakllantirishga yangi yondashuvlarni jalb qilishda turli darajadagi muammolarni keltirib chiqaradi. Universitetlarning institut sifatidagi o'rni jamiyatni rivojlantirishda juda muhim, shuning uchun ularda demokratik qadriyatlar yoki fuqarolik javobgarligini yuksaltirishga qaratilgan islohotlar ularning "foydali" ta'lim beruvchisi sub'ekt sifatida an'anaviy roliga ziddir. Ikkinchidan, o'ziga xos maqomi va tuzilishi fuqarolik ta'limi sohasida islohotlar yoki siyosatning o'zgarishi sifatida universitetlar ishlashi kerak bo'lgan parametrlar va yo'nalishlarni belgilaydi. O'z navbatida, universitetlarning raqobati jamiyatning har bir sohasidagi o'zgarish mexanizmlariga ta'sir qiladi va ularning sharhlari va nizomlariga asoslanib, yangi tashabbuslarga bo'lgan ochiqligini ta'minlaydi. Biroq, aksariyat Evropa universitetlari nizomida o'rnatilgan boshqaruvning tarixiy qoidalari bilan bir qatorda, qarorlarni qabul qilish tartibi va talabalar huquqlarini himoya qilish

ko'pincha istalgan va amaldagi o'rtasida qarama-qarshiliklar mavjud. Nihoyat, tarixan rivojlanib kelgan ma'muriyat va talabalar o'rtasidagi an'anaviy ijtimoiy va kasbiy munosabatlar talabalarning faollikka ko'proq jalb etilishi tomon o'zgarishiga to'sqinlik qiladi. Uchinchidan, yevropa universitetlarida fuqarolik ta'limi tizimini yana-da rivojlantirishda yevropalik va amerikalik olimlar, amaliyotchilar va oliy ta'lim sohasidagi mustaqil ekspertlar o'rtasidagi hamkorlikning rivojlanishi muhim rol o'ynaydi. Hozirgi bosqichda yevropa fuqarolik ta'limining jahon amaliyotiga murojaat qilish faol fuqarolik pozitsiyasini ushlab turish bilan belgilanadi, bu esa, o'z navbatida, jamiyat a'zolarining ongli va mustaqil ijodiy faoliyatga o'z mintaqasida, shuningdek, butun yevropada ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal qilishga tayyorligini anglatadi. O'z navbatida, A.A.Akramov shaxsga yunaltirilgan ta'lim jarayonida talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning muhim shartlari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tadi: –shaxsga yunaltirilgan ta'lim jarayonini talabalar uchun hayotiy jihatdan muhim bo'lgan bilimlar va ma'lumotlar bilan to'ldirish; –talabalarda kasbiy bilimlar va jamiyat hayoti uchun zarur bo'lgan qonun-qoidalarga nisbatan ijobiy munosabatni qaror toptirish; –talabalarga o'quv materiallari va faoliyat uchun zarur bo'lgan vositalarni erkin tanlash imkoniyatini berish; –talabalarda o'z shaxsiy faoliyatlarini dolzarblashtirish, ta'lim jarayonida ularda shaxsiy rivojlanish istagini uyg'otish uchun tayanch bilimlarni taqdim etish kabilar [7].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1jild, T., "O'zbekiston", 2018, 90-b.
2. Сергейчик С.И. Факторы гражданской социализации учащейся молодежи. «Социологические исследования», 2002, с. 107.
3. Психологические закономерности развития гражданской направленности личности: монография. Авт. кол., М.И.Баришевский и др. Ин-т психологии. М., «Миллениум», 2016, с. 297.
4. Самсонов Н.А. Формирование гражданской позиции молодежи. Студенческий: электрон.научн. журн., 2019, №23 (67). URL: <https://sibac.info/journal/student/67/146456> (дата обращения: 30.03.2020), с. 246.

5. Трегубова Т.М., Белякин А.М., Фахтутдинова А.В. и др. Академическая мобильность студентов учебных заведений: отечественный и зарубежный опыт ее формирования. Казань, «Отечество», 2008, с. 31.
6. Gilardi S., Lozza E. Inquiry-Based Learning and Undergraduates' Professional Identity Development: Assessment of a Field Research-Based Course/ Innovative Higher Education, 2010, Vol.34, Issue 4, p. 245.
7. Akramov A.A. Bo'lajak o'qituvchilar fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning o'rnini. "Zamonaviy ta'lim"// "Сovremennoye obrazovaniye", 4-son, Toshkent, 2017, 56-b.

ALISHER NAVOIYNING BADIY-ESTETIK MEROSIDA TA'LIM VA TARBIYA MASALALARI

Egamberdiyeva Nafisa Mustafayevna

*Navoiy davlat pedagogika instituti, "Ma'rifat" targ'ibotchilar
jamiyati a'zosi*

Navoiyning badiiy-estetik dunyoqarashida go'zallikka munosabat, nafosat sirlarini anglash, yuksak aql-zakovat bilan ifodalagan fikrlarni yoshlar ma'naviy ozuqa sifatida qabul qiladi. Alisher Navoiyning adabiy-estetik dunyoqarashi uning badiiy ijodida, «Majolisun-nafois», «Muhokamatul-lug'atayn», «Tarixi anbiyo va hukamo», «Nasoimul-muhabbat» kabi ilmiy asarlarida ham o'z ifodasini topgan. Navoiy o'z faoliyatida adabiyot va san'atning tub nazariy asoslarini tahlil qilib, zamonasini qiziqtirgan muammolarga javob topadi, adabiyotning badiiy-estetik vazifasini eng muhim masala sifatida o'rganadi. Navoiy talabchan ustoz va xayrixoh, ham odil kitobxon sifatida yoshlarga o'z merosini qoldirgan. Navoiyning o'zidan keyingi avlodga ustozlik qilganligi borasida SH.M.Mirziyoyev ham o'z fikrlarini bildiradi. "Ulug' shoir qalamiga mansub «Boy bo'lay deb, izzatingdan ayrilma», «Ta'lim bergan ustozingdan ayrilma», «YUZ yil yashab, tushsang ajal qo'lga, O'ngingdan chapingga boqqancha bo'lmas», «Har yigitning aslin bilay desangiz, Davrada o'tirib-turishin ko'ring» singari hikmatli satrlari xalqona maqolga aylanib ketgan. Maxtumqulining Xivadagi SHerg'ozixon madrasasida tahsil olgani, Alisher Navoiydek buyuk san'atkorni o'ziga ustoz deb bilgani xalqlarimiz o'rtasidagi abadiy

do'stlikning ajoyib namunasi. Ta'kidlash joizki, Maxtumdulining otasi, shoir Davlatmamat Ozodiy ham o'z vaqtida Xivada tahsil olgan edi. Maxtumdul Xivada juda ko'p xonadonlarda bo'lib, tuz totgan, ustozlar, do'st-yorlar orttirgan, u yerda kechirgan yillarini minnatdorlik bilan eslab, go'zal she'rlar bitganini o'zbek kitobxonlari yaxshi biladilar [1]. Demak, Navoiyni o'ziga ustoz deb bilish har bir davr ijodkori uchun faxr va iftixor bo'lgan. Yangi badiiy-estetik g'oyalarning yoshlar ta'lim-tarbiyasi bilan bog'liq jihatlari doimo adabiyotshunos va faylasuf olimlarning diqqat markazida turgan. Barcha yozilgan asarlarida "uning merosi falsafiy fikrlarga boy bo'lib, jamiyat taraqqiyoti, insonning baxt-saodati, komil inson va fozil jamoa, ta'lim-tarbiya haqidagi fikr-o'ylari o'z ifodasini topgan. Shoir ijtimoiy-falsafiy qarashlarining muhim xususiyati shundan iboratki, unda falsafiy fikrlar majoziy tarzda, badiiy o'xshatish va ramziy iboralar yordamida, zohiriy va botiniy ma'nolarda bayon qilinadi" [2]. Bu esa, Navoiyning o'z davrida insonni qadrlash, uning yuksak ma'naviy olamini boyitish uchun barchaning hammaslak bo'lib mehnat qilishlari lozimligini ko'rsatadi. Mutafakkirning asarlarida falsafiy g'oyalar panteistik tarzda ifodalangan bo'lib, unda birinchi galda insoniy xususiyatlarning har bir fuqaro kamolot uchun zarurligi ko'rsatib o'tiladi. Insoniyat Odam Atoning avlodi sifatida Olloh tomonidan yaratilgan mavjudot ekanligi, unda salbiy va ijobiy g'oyalarning aks etishi xudo bilan bog'lab tushuntiriladi. SHuning uchun ham Navoiy asarlarida islomning axloqiy arkonlari bo'lgan imon, e'tiqod, tavhid, vijdon, shariat, tariqat, komillik masalalari diniy va dunyoviylikka bog'lagan. Bunda olamning estetik qiyofasini Ollohning jamoli sifatida e'tirof etilishi, inson esa ongu tafakkuri orqali uni o'zgartirib, badiiy-estetik qadriyatlarni yaratishiga ishora qilinadi. Uning Olloh ishqiga oshiqlik bilan sug'orilgan g'azallarida komillikning sir-sinoatlari tahlil etiladi. So'zning buyuk qudrati, ezgu niyatning butun borliq nazokatiga egaligi, shijoatning salobati, hasratning hayrat bilan uyg'unligi Navoiy asarlarida sevishgan qalblar misolida namoyon bo'ladi. Uning komillikka intilish g'oyasi olamning nafosati orqali Ollohni anglashni o'zida ifodalaydi. Uning adabiyot orqali borliqni badiiy-estetik tarzda ifodalishi o'ziga xos xilma-xilliklarni aks ettiradi. Uningcha, "adabiyotning vazifasi – o'sha borliqni, voqelikni xalqning manfaatlarini ko'zlash nuqtai nazaridan to'g'ri, foydali, o'rnak olarli, aktiv holda aks ettirishdir, go'zal liboslar bilan bezab ko'rsatish,

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

ifodalash, izohlash, yomonlarni fosh etish, insonlarni yomonlikka, yomonlarga qarshi kurashga chorlash, ularga baxt yo'lini ko'rsatib berishdir"[3]. SHu yo'llar barchasi insonni oxir-oqibat yagona olamga olib kirishi, maqsad esa olamda odamning benuqson ezgulikka intilishi va bu jarayonda haqiqat(Olloh)ni topishi zarurligi ta'kidlanadi.

SHoirning yaratgan g'azallari, ruboiylari, hikmatlari va asarlarida insonning oliy zot sifatida e'tirof etilishi diqqatga sazovordir. Uningcha, inson barcha mavjudotlarning eng go'zali, uning tafakkuri esa o'ziga xos badiiy-estetik merosni yarabi qolmasdan, ularni asrab-avaylaydi, kelajak avlodlar uchun vorislik vazifasini bajaradi. Borliqning sir-sinoatlarini anglab yetishdek noizk xilqatni inson o'z qalbi bilan anglab yetadi. SHu asosdada Ollohga bo'lgan ishqni ham o'z ko'ngliga tuyadi. Navoiy nazdida, "tabiatda turli-tuman go'zalliklar, g'oyat yoqimli, qiymatli narsalar, voqeliklar bordir. Lekin ularning oralarida bir borliq bordirki, u o'zining qiymatbaholigi, go'zalligi, martabasi bilan boshqalarning hammasidan yuqori turadi. U, insondir. Navoiyning eng asosiy mahbubi shu insondir. Butun boshqa narsalar, butun boshqa mavjudot shu inson uchundir, shu inson xizmatiga, uning baxti, saodatiga xizmatiga qo'yilgandir. Inson mavjudotning markaziy figurasidir, eng qiymatli "javhari pokdir"" [4]. Navoiyning asarlarida poklik, ezgulik va ma'naviyat masalalari yuksak axloqiy ideal bilan uyg'unlashgan. Unda komil insonni turlicha ko'rinishlarda ifodalaydi. Jumladan, uning asarlarida orif, zoxid, darvesh kabilar asosida insonlar axloqi borasida fikr yurititadi. Navoiyning badiiy-estetik asarlaridan bo'lgan "Nasoyim ul-muhabbat" hamda "Lison ut-tayr"larda darveshlarning siyrati, xulq-atvoridagi ishqqa muhabbat va javonmardlikni targ'ib etuvchi xususiyatlar ta'riflanadi. Navoiy dunyodagi barcha haqiqatlar va hodisalarga o'zining muonsabatiin bildirishga harakat qiladi. Bunda u ezgulik va poklik, to'g'rilik va rostlikni insonning yuzi sifatida baholaydi. Bunda badiiy-estetik jihatlar obrazlar orqali yoritib beriladi. Mutafakkirning asarlarida insonning qadri ulug'lanib, axloq birinchi darajaga chiqadi. CHunki or-nomus, uyat va oriyat, nafs va nafsoniyat, go'zallik va ishq tushunchalari insonning bezagi sifatida o'ziga xos tarzda talqin etiladi. Ollohning izmida bo'lgan dunyo, tabiat hamisha go'zaldir, yoqimlidir,lazzatlidir. U aldanchilikni yoqtirmaydi, undan faqat oqilona foydalana olish zarur. Uningcha, xudo oliy borliq bo'lib, bu tabiat va undagi hayot go'zalliklaridan, lazzatlaridan foydalanishda

bosh tortish kerak emas. SHu bilan birga bu dunyodan, tabiatdan, undagi hayotdan boshqa dunyo, hayot ham mavjuddir. SHu boisdan, "Navoiy o'z falsafasida butun olam, borliq, koinotning xudo tomonidan yaratilganligini e'tirof etadi. Butun olam jumladan, tabiat va jamiyat ollohning namoyon bo'lishi, zuhr etilishidir. Uning bu fikri tasavvuf ta'limotidagi xudo butun mavjudotning, borliqning yaratuvchisi, qolgan barcha narsa va hodisalar jumladan, inson ham uning zarralaridir"[5], deyiladi.

Navoiyning badiiy-estetik qarashlarida borliqni tushunib yetish, voqelikdagi go'zallikni inson bilan uyg'unlashtirish muhim sanaladi. U imkoniyati boricha voqelikning estetik qiyofasini chuqur anglab yetishga, borliqdagi ichki va tashqi ziddiyatlarni mohirona o'rganishga, turli lahzalardagi holatlarni shoirona yoritishga intiladi. Unda yaxshilikning ertasi farovonligi, xalqqa xizmat qilish foydali ish ekanligi, olamning bu go'zalaliklaridan bahra olish inson uchun nozik hislar ekanligini o'rtaga tashlaydi. Yaratgan asarlaridagi qahramonlarining qiyofalari orqali ishqqa yetish yo'llarini izlaydi. Navoiy shaxs bilan jamoa orasida turgan ommaga o'zining munosabatini bildirib, davrning g'oyalarini o'zi yaratgan qahramonlar hayoti orqali osib berishga intiladi. Uning qahramonlari orqasida muayyan ijtimoiy guruhlar, xalq ommasi turishi asosiy o'rinda ko'rsatiladi. SHular orqali jamiyatning, insoniyatning xarakteri va badiiy-estetik qiyofasini yaratib beradi. SHoir mohirlik bilan ob'ektni tadqiq etib, unga jozibadorlik, yangicha hayot va go'zallik baxsh etish yo'llari bilan ijod qiladi. Har bir qiyofani o'rganar ekan, mohiyatni yaqqol ko'rsatadigan, zamonaviylik kasb etadigan estetik dunyoqarashni yaratishga intiladi. O'z davrida "Navoiy madrasa talabalari, yosh iqtidorli shoirlar, rassomlar va olimlarni moddiy jihatdan qo'llab turganligi manbalardan ma'lum". Demak, boylik egasi bo'lish solikning bu dunyoni ishlari sirasiga, zohiriy foliyatiga kiradi. Agar u qalbida Ollohni esdan chiqarmay, ma'rifat bilan shug'ullansa, boylik xudoning fasliga yetishishi uchun xalaqit bermas, u holda boylik to'plash qoralanmaydi"[6]. SHoir barcha to'plagan boyliklarini o'z yurtining kelajagi uchun sarf qilgan. U xayrli ishlarni rivojlantirib, jamiyat va xalq uchun masjid va madrasalar, ko'priklar, rabot va karvonsaroylar, hammom va shifoxonalar qurdirib, odamlarning dehqonchilik qilishlari uchun kanallar qazdirgan. SHu boisdan Navoiy davrida san'at, me'morchilik, rassomchilik, she'riyat,

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

haykaltaroshlik kabi sohalarning rivojlanganligini “Xamsa” va boshqa asarlardagi o'xshatishlar orqali bilib olishimiz mumkin. Ularda tabiatdagi go'zallik, turli-tuman manzaralar, odatiy turmush uchun ishlatiladigan estetik qiyofadagi narsalar, insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqalari, fikrlash tarzi, insonni zavqlanish va ilhom berish kabilar asosiy o'rinni egalaydi. Taniqli tarixchi va faylasuf Muxammadjon Abdurahmonov Navoiy va Bobur ijodi, ularning tarbiyaviy ahamiyati haqida so'z yuritarkan, “Navoiydan so'ng adib, san'atkor, rassom va hunarmandlarga Bobur xuddi Navoiy kabi sarparastlikni zimmasiga olib, yosh qalamkashlarga sharoit yaratish, ularni moddiy ta'minlash, davr tashvishlaridan holi ijod qilishlariga bosh bo'lgan. Boburning o'zi Alisher Navoiy va o'sha davr shoiru adiblari, mo'yqalam ustalari, san'atkorlari ijodining munaqqidi sifatida yuksak adabiy-estetik qarashlari bilan adabiyotni xalq manfaati sari yo'llashga, asarlarga xolisona baho berishga harakat qilgan, yozuvchi yoxud shoirning axloqi, asarlari qadar go'zal va ma'naviy yuksak bo'lishini tilab fikr bildirgan”[7], deb yozadi.

Navoiy badiiy-estetik merosida ta'lim-tarbiya masalasi asosiy o'rinlardan bo'lib, unda tarbiyaning nozik jihatlari badiiy qiyofada ifodalanadi. Badiiy adabiyot vositasi orqali Navoiyning asarlarida inson ko'ngiliga yo'l topuvchi nozik xilqatlar, qahramonlar siymosining ifodasi, umuminsoniy fazilatlar, chuqur falsafiy mazmun, yuksak badiiy tasvirlar qiyofasi ifodalanadi. Badiiy-estetik ideallar asosida davrning mafkuraviy qiyofasida tarbiyaning roli ochib beriladi. Jamiyatning axloqini esa faqat mafkuraviy tarbiya yo'llari bilan amalga oshirishning samarasi xususida so'z yuritadi. Navoiyning asarlarida go'zallikni inson va dunyo o'rtasidagi hamohanglik holati sifatida qaraladi. Bunda, tarbiyani eng avvalo qalbning go'zalligi bilan she'riyatning ma'nosini anglash asosida tushunish va uni ruhiyatga singdirish, his etish lozimligi ta'kidlanadi. Navoiyning fikricha, yoshlar ta'lim-tarbiyasi avvalo maktabdagi faoliyatga uyg'unlashishi kerak. Maktab jamiyatda ta'lim-tarbiya va bilimning o'chog'iga aylanishi, yosh avlodni yoshi ulug'lar pand-nasihatlari bilan bog'lashi lozim. Navoiyning bu qarashlari ayni paytlarda ham muhim faesafiy-estetik ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, yoshlarning ta'lim-tarbiyasi jarayonida estetik madaniyat, estetik tuyg'u, estetik did va tasavvur, e'tiqod va ideallarni shakllantirishda Navoiyning badiiy-estetik merosi ulkan ma'naviy manba va nodir xazina bo'lib

xizmat qiladi. Ikkinchidan, yoshlarning axloqiy-estetik tarbiyasi jarayonida maktabgacha ta'limdan tortib, oliy ta'lim muassasalaridagi ma'naviy-mafkuraviy ishlarni tashkil etishda shoir asarlari o'ziga xos va betakror rang-baranglik kasb etadi. Ajdodlarimiz o'tmishda yoshlarning jismonan baquvvat, ruhan sog'lom, aqlan yyetuk bo'lishlariga katta e'tibor qaratganlar. Ushbu zavqiy munosbat yoshlar estetik tarbiyasi va dunyoqarashi rivojlanishiga katta xizmat qilgan. Navoiy badiiy-estetik merosining yoshlar kamolotidagi o'rni halol mehnat bilan tarbiya topishda ham dolzarb omil sanaladi. Naqshbandiyning "Dast ba koru dil ba yor" shioriga amal qilish har bir insonni halol mehnat qilishga, oilaviy farovonlikka, jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishga undab kelgan. Bu da'vat yurtimizda fuqarolarning ijtimoiy faolliklarini oshirishga, moddiy vama'naviy ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirishga xizmat qiladi. Yoshlarning tasavvurlari, aql-idroki,estetik tafakkuri falsafiy dunyoqarashni boyitadi, ularning irodasini chiniqtiradi va xarakterini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O'zbekiston, 1-jild, 2017. 368-b.
2. Nazarov Q. O'zbek falsafasi.–T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati,2013.139-b.
3. Zohidov V. Ulug' shoir ijodining qabi. –T.: O'zbekiston, 1970. 422-b.
4. Zohidov V. Ulug' shoir ijodining qabi.–T.:O'zbekiston,1970.233-234-b.
5. Davronov Z. Falsafa. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2006. 165-b.
6. O'zbekistonda ijtimoiy-axloqiy va gumanistik fikrlar tarixining muhim bosqichlari. –T.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2007.198-b.
7. Ma'naviy tarbiya: Xrestomatiya.-T.: Turon zamin ziyo, 2014. 111-b.

**ZAMONAVIY TA'LIMDA INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

Zebiniso Ahmadova

*Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti
a'zosi, Fan-ta'lim masalalari qo'mitasining matbuot kotibi*

Aziz Hakimov

*Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markaz Buxoro shahar
bo'linmasi rahbari*

Yangi O'zbekiston sharoitida kuchli, bilimli, aqlli, dono, mustaqil fikrli barkamol avlodni voyaga yetkazish, tarbiyalash va bunga hissa qo'shish, mas'uliyat bilan yondashish ta'lim sohasi mutaxassislarining vazifasi, burchidir. Shiddat bilan o'zgarib, rivoj topib, yanada taraqqiyotga erishilayotgan zamonda barkamol avlodni tarbiyalash, davr bilan hamnafas bo'lish, unga zarur axborotlarni to'g'ri tanlay olishiga ko'maklashish bosh masala bo'lib hisoblanadi.

Davlatimiz Rahbari ta'kidlaganidek, "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim".

Axborotlar, manbalar ko'lami kengaygan, ko'paygan bir davrda o'sib-unib kelayotgan kelajak avlodni to'g'ri ma'lumotlar bilan ta'minlash, ota-bobolarimiz, ajdodlarimiz ma'naviy merosidan bahramand etish va ular xotirasidan mustahkam joy olish, ko'z o'ngida jonli namoyish ettirish uchun bizga ilg'or innovatsion texnologiyalar yordamga keladi.

Zero, ona Vatanimizning ertangi kuni, porloq istiqboli yoshlarning nechog'lik bilimli, yuksak ma'naviyatli shaxs bo'lib kamolga yetishishi bilan bog'liq. Ushbu mas'uliyatli, sharaflil vazifani asosan ustoz, o'qituvchilar amalga oshiradilar.

Navqiron avlodni buyuk ajdodlarimizga munosib etib tarbiyalash, ularga chuqur bilim berish, berilgan bilimni ular ongida mustahkam muhrlab qoldirish kabi vazifalar ustozlar zimmasidadir. Shunday ekan, mashg'ulotlarni qanday shaklda tashkil etish o'qituvchining bilim

**Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini
ta'minlashning dolzarb masalalari**

saviyasi, ijodiy salohiyati, ilg'or pedagogik va axborot kommunikasiya texnologiyalarini o'zlashtirganligi darajasiga bog'liq bo'lib qoladi.

Bugungi kunga kelib interfaol ta'lim metodlarining 300 dan ortiq turi vujudga kelganligining guvohi bo'lar ekanmiz, bularning barchasi shaxsga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Qaysi interfaol metodni qo'llamaylik, jumladan, "Aqliy hujum", "Ajurli arra", "Munozara", "O'z o'rnini top", "Zinama-zina", "Sinkveyn", "Skarabey", "Akvarium", "Labirint", "Piramida", "Galereya", "Muammo", "Swot-tahlil", "Insert", "Kvadrat testlar", "Tezyurar savol-javob", "Tarmoqlar" (Klaster), "Debat", "Mini test", "Blits-so'rov", "Blits testlar", "Kichik guruhlarda ishlash", "Muammoli vaziyatni o'rganish", "Test ekspress", "Rezume", "Kim topqir", "O'rnida qo'lla", "Tinglashni o'rgan", "Bahs", "Ta'limiy o'yin" kabilarning barchasidan ko'zlangan maqsad o'quvchiga, yosh avlodga ham ta'limiy, ham tarbiyaviy jihatdan ta'sir ko'rsatib, barkamol avlodni voyaga yetkazish, komil shaxsni tarbiyalash, har tomonlama mustahkam, ildizi baquvvat poydevor yaratishdir.

Dastur bo'yicha umumta'lim maktabining 10-sinfida Hazrat Alisher Navoiy ijodi, jumladan ulug' mutafakkir "Xamsa"sining dostonlari o'rganiladi. Ma'lumki, buyuk ijodkor "Panj ganj"ining uchinchi dostoni "Layli va Majnun"dir. Layli va Majnun chin va samimiy muhabbat kuchi, jozibasi, qudrati to'g'risidagi badiiy asar sifatida 530 yildan beri avlodlar dili va tilida e'zozlanib keladi. Dostonning bosh qahramoni Qays. Uning tug'ilgan lahzadayoq ishq sohibi bo'lishi qismatida bitilgan. Ulug' mutafakkir talqinicha, sevgi kishiga latofat bag'ishlaydi, ezgu xulq, fayz va ma'rifat ato etadi. Shaytoniy nafsni jilovlash va rahmoniy xislatlar kasb etish kalitini beradi.

Men ma'naviy ozuqa bera oladigan asarni, ya'ni "Layli va Majnun" dostonida ishq-muhabbat, inson erki talqini mavzusidagi darsni innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda o'tish yuzasidan ayrim mulohazalarimni bayon etishga jur'at etdim. "Rezyume" texnologiyasi murakkab va ko'p tarmoqli, imkon qadar muammoli mavzularni o'rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati bunda bir yo'la mavzuning turli jihatlarini bo'yicha axborot beriladi va har biri alohida nuqtalarda muhokama etiladi.

Ushbu texnologiya o'quvchilarda sinchiklab o'rganish ko'nikmasini hosil qiladi. "Aqliy hujum" metodidan dars jarayonida foydalanish ham o'quvchida diqqatni bir joyga jamlash va aqliy zo'riqish orqali yangi bir fikr yoki g'oyani o'rtaga tashlash ko'nikmasini tarbiyalaydi. Uning mohiyatini quyidagicha sxemada ifodalash mumkin: "Klaster" usulidan foydalanish ham samara beradi. Ushbu texnologiyani darsning oxirida qo'llash qulayroq. Masalan, doskaning o'rtasiga "Layli va Majnun" dostoni deb yoziladi va o'quvchilar asarda ko'tarilgan mavzu, g'oyalarni asar atrofida birlashtiradilar.

Shuningdek, mustahkamlash darslarida "Galereya" texnologiyasidan foydalanish o'quvchida mustaqil fikrlash, olgan bilimlarini jamlash va umumlashtirish va amalda tadbiiq qila olish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bunda biror mavzu yoki asar to'liq qamrab olinadi, kichik guruhlarda tashkil qilinadi. Masalan, "Layli va Majnun" dostonining tarkibi va tuzilishini kichik sarlavhalar vositasida ko'rsatish o'quvchilarga topshiriladi.

Shundan so'ng guruh a'zolari topshiriqni oddiy qog'ozda bajaradilar va uni sinf xonasining istalgan joyiga (doska, devor, eshik) ilib, yopishtirib qo'yadilar. So'ng taqdimot o'tkaziladi, barchalari taqdimotni tinglab, shu asosida savollar beradilar.

Umuman, shaxsga yo'naltirilgan innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etiladigan o'quv mashg'ulotlari ta'lim oluvchilarda o'qishga, yurtimiz tarixiga nisbatan qiziqishni kuchaytiradi, o'quv materialini yengil o'zlashtirishlariga ko'maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr. Elektron manba: www.lex.uz

UCHINCHI RENESSANS : YOSHLAR ILM-MA'RIFTI VA AXLOQIY TARBIYASI

Aziz Zokirov

Buxoro davlat tibbiyot instituti talabasi

Ma'lumki, yangi O'zbekiston sharoitida kelajagimiz poydevori bo'lgan yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda sog'lom ijtimoiy-ruhiy muhitni yaratib berishga katta ahamiyat berib kelinmoqda. YOshlar ma'naviyatini yuksaltirmasdan turib, xalqimiz

hayoti va turmushi yuksalishida hamda mamlakatimiz taraqqiyotida muvaffaqiyatlarga erishish qiyin. Qolaversa, ma'naviyat davlat ahamiyatiga molik masalaga aylandi. Sog'lom kishi deganda, faqat jismoniy sog'lomlikni emas, balki sharqona axloq-odob va umumbashariy g'oyalari ruhida kamol topgan insonni tushunamiz. SHarqona axloq-odob va umumbashariy g'oyalarni ongiga singdirib olgan yoshlar yuksak ma'naviyatli kishilardan hisoblanadi.

2020 yilning Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev tomonidan **“YOshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”** deb e'lon qilinishi ma'naviy tarbiyada doimiy hamkorlik va muloqot doirasini kengaytirish yo'lida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni belgilab berdi.

Mamlakatimizning barqaror taraqqiyotiga, qadriyat va urf-odatlariga hamda insonparvarlik g'oyalari xavf soluvchi turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi samarali targ'ibot ishlarini olib borish; aholining ijtimoiy-ma'naviy hayotida bunyodkorlik g'oyalari kuchaytirish, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik muhitini yanada mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyevning “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4307-sonli Qarori [1] qabul qilingan edi.

2019 yil 31 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 1059-sonli Qarori [2] e'lon qilinib, 8 bob va 70 banddan iborat uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi ilova qilindi. SHuningdek, ushbu konsepsiyada uzluksiz ma'naviy tarbiyani oilada, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim tizimi, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan hamda band bo'lmagan yoshlar o'rtasida amalga oshirish bo'yicha vazifalar ko'rsatib berildi.

Ta'kidlash joizki, yoshlar axloqiy tarbiyasida o'rta asr SHarq mutafakkirlari qarashlarining roli beqiyosdir.

XV asrda Movarounnahr, Eron va Xurosonda ijtimoiy-falsafiy, ma'rifiy fikr taraqqiyotiga ulkan xissa qo'shgan olim Jaloliddin Davoniydir. Bizga ma'lumki, SHarq Uyg'onish davrida, Amir Temur va Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat yuksalgan davr edi. Davoniy ham ushbu davrning ilm-fan va axloqiga ulkan xissa qo'shgan qomusiy

olimdir. U Foniylahallusi bilan ijod qilgan. Uning she'rlari Eron va Iroqda chop etilgan. Davoniylahning eng mashhur asari bu "Axloqlah Jaloliylah" deb nomlanadi. Mutafakkir o'z asarida yosh avlodni tarbiyalash va uni yaxshi kasb hunar va malakalarni egallashi to'g'risida so'z yuritarkan ekan, avvalo inson jamiyatda, atrofdagilar bilan o'zaro munosabat natijasida kamol topishini uqtiradi.

Husayn Voiz Koshifiylah o'zining "Futuvvatnomai Sultoniylah yohud javonmardlik tariqati" asarida futuvvat ilmining mohiyati, uning mavzui, kelib chiqishi, piru muridlik, shayxlik va shogirdlik munosabatlari, so'fiylah va futuvvat axliga qo'yiladigan talablar, firqa shartlari, ular kiyadigan liboslari, bosh kiyimlar xulq-odobi haqidagi fikrlah batafsil bayon qilinadi [3]. Koshifiylah futuvvat ilmi to'g'risida so'z yuritarkan ekan, tasavvuf va tavhid ilmining bir bo'lagi sifatida ta'riflaydi va uning asosiy mavzusi inson ruhini tarbiyalash deb biladi. "Zero insonning ruhini fazilatli qilib etishtirish mumkin" [4], deydi mutafakkir. Allomaning fikricha, futuvvat tariqatiga mansub inson yaxshi axloqli, javonmard, shijoatli, sahovatli, xalq g'amini o'ylaydigan, insonparvar, xushfe'l, kamtar, xokisor, xushfe'l bo'lmog'i zarur deyiladi. Koshifiylahning ushbu risolasida, javonmardlik tariqati, uning xususiyatlari, sifatlah shartlari, futuvvat axlining xislatlah, tariqatning maqomlah va boshqalar haqida ma'lumot beradi. Yana mutafakkir javonmardlikning ruknlari haqida gapirib, ular oltilah botiniylah ruknlardan iborat ekanligini aytadi. Xusayn Voiz Koshifiylah asarlahrini o'z davrining ilmiylah tili –fors tilida yozgan bo'lib, undan ko'pgina ilmiylah, badiiylah tarjima asarlahrilah ham meros qolgan. U falsafa, axloq, tilshunoslik, adabiyotshunoslik siyosat, tarix, kimyo, astronomiylah, matematika, musiqa, voizlik, she'r san'ati, din tarixi, fiqh, tibbiyot kabi fanlarga oid 200–dan ortiq asarlahr yozganligi manbalardan ma'lum. Allomaning O'zbekiston Fanlahr Akademiyasi Abu Rayxon Beruniylah nomidagi SHarqshunoslik insitutida asarlahrining qo'lyozma va toshbosma nusxalahr saqlanmoqda. Olim o'z davrining ko'zga ko'ringan ilohiyotchisi bo'lib, Hadisni, Qur'oni Karimni yoddan bilgan, hatto Qur'onga to'rt kitobdan iborat sharh ham yozgan [5]. Koshifiylahning "Axloqlah Muhsiniylah", "Anvari Suxayli", "Risolati Xotamiylah", "Futuvvatnomai Sultoniylah", "Tasviri Xusayniylah", "Javohirnoma" kabi o'nlab asarlahr arab, tatar, eski o'zbek, urdu, turk, nemis, ingliz, fransuz va boshqa tillarga tarjima qilingan. Bugungi kunda allomaning asarlahr

Parij, London, Berlin, Sankt–Peterburg, Moskva kabi shaharlarda, Iroq, Turkiya, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Bangladesh va boshqa sharq mamlakatlarining kutubxonalarida saqlanmoqda. CHet el mamlakatlarida allomaning asarlariga qiziqish XVIII–XIX asrlardayoq juda kuchli bo'lib, G'arbiy Ovropaning X.G.Kin, M.Duayt, D.D.Donal'son, E.Braun, A.A.Arberri, E.S.Kennedi, E.Rozen'tal', X.Masse, K.S.Lambton, R.Levi, A.M.SHasteri kabi mashxur olimlari Markaziy Osiyo va Eronning XIV–XV asrdagi madaniyati tarixini atroflicha o'rganganlar va allomaning boy tarixiy merosiga yuksak baho berganlar. Xusayn Voiz Koshifiy Hirot madrasalarida talabalarga ta'lim – tarbiya berib, ularga hamda Xuroson shahri axolisiga axloq–odobdan ham ma'ruzalar o'qigan.

Koshifiyning bebaho axloqiy merosi barkamol avlod tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. U o'z asarida bola tarbiyasiga juda katta e'tibor qaratadi. Bolaga iloji boricha yaxshi ta'lim tarbiya berish kerak, shunda u ezgu xislatlarni o'zlashtiradi. Bolaning ongi beg'ubor va musaffo, uni zararli illat va salbiy odatlardan saqlamoq lozim, deydi alloma. Koshifiy bolani yoshligidanoq o'z qiziqishi va qobiliyatiga qarab, biror kasb hunarga yo'naltirish va unga o'z ustida izlanishi uchun shart–sharoit yaratib berish lozim deydi. Bunda bevosita ota–ona va muallimning naqadar ma'sul bo'lishini uqtiradi. Koshifiy komil insonning o'n xil fazilatlarini keltiradi:

Birinchi, xayrli ishlarda insonlar bilan nizoga bormaslik;

Ikkinchi, har qanday holatda ham, his tuyg'u va ehtirosni jilovlay olish.

Uchinchi, birovlarning aybini, nuqsonini qidirmaslik.

To'rtinchi, insonlar baxtsizligiga hamdard bo'lish.

Beshinchi, bir inson ayb ish qilsa, va u o'z aybiga iqror bo'lsa, uni kechirmoq.

Oltinchi, yordamga muhtoj insonlarga, qo'ldan kelgancha yordam bermoq.

Ettinchi, insonlar baxt–saodati uchun g'amxo'rlik qilish.

Sakkizinchi, inson o'zidagi bor kamchilikni ko'ra bila olishi va uni tuzatmog'i.

To'qqizinchi, go'zal xulq odobga ega bo'lmoq.

O'ninchi, shirinsuxanlik va xushmuomlalikdir” [5].

Husayn Voiz Koshifiy "Axloqi Muxsiniy" asarida barkamol inson haqida va u egallashi zarur bo'lgan ma'naviy-axloqiy go'zal fazilatlar haqida so'z yuritadi. Ushbu fazilatlar inson komilligining zamini bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O'rta asrlardagi komil inson ta'limoti xalqning orzu-istaklari, fikr-o'ylarini aks ettirgan bo'lib, undan ko'zlangan asosiy maqsad xalqni komil inson qilib tarbiyalash, jamiyatga foyda keltirish, turli aqida va toifaga mansub kishilarning ongi-shuuriga ilohiy xislatlar, iymon-e'tiqod, hamida axloq, go'zal fazilat va xulq-odob qoidalarini singdirish bo'lgan. Mutasavviflar tomonidan komil insonga xos xususiyatlarning ochib berilishi keyingi allomalar, faylasuflarning asarlari, qarash va g'oyalarining ma'naviy asosi bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyevning "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4307-sonli Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sonli Qarori.

3. X.Aliqulov, R.Nosirov, M.Qodirov, R.Omonboeva, A.Ashurov. Tasavvuf ta'limoti va uning yoshlar tarbiyasidagi o'рни. O'quv qo'llanma. Andijon. 2005y.36–b.

4. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniy yohud javonmardlik tariqati.–T.,1994–y. 7–b.

Ma'naviyat yulduzlari. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2001y. 242–b.

5. X.Aliqulov. Mutafakkirlar axloq va adolat haqida.T. Adolat. 1995–y.30–b.

ЗДОРОВЬЕ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ – ОСНОВНАЯ ЦЕЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ОБЩЕСТВА

Хамидова Мохигул

*Студент 3-курса Бухарского инженерно-технологического
института*

Современные исследования определения сущности и структуры здоровья, в основном, относятся к взрослым.

Характеристика здоровья ребенка более сложна, чем у взрослых. Она включает уровень их физического, умственного, функционального развития в различные возрастные периоды, физическую и нервно-психическую адаптацию к меняющимся условиям внешней среды, уровень неспецифической резистентности и иммунной защиты. С этих позиций здоровье ребенка следует рассматривать, как соответствующее биологическому возрасту состояние жизнедеятельности, гармоничного единства физических и интеллектуальных характеристик, обусловленных генетическими, внешнесредовыми факторами и формированиями адаптационно – приспособительных реакций в процессе роста.

Здоровье подрастающего поколения – это основная цель каждой семьи и человеческого общества в целом, так как именно они очень скоро станут определять статус нашей страны, ее экономику, культуру и науку. Здоровье ребенка, в свою очередь, зависит от уровня здоровья семьи, общества, социально-экономического и культурного развития страны, условий окружающей среды. Становится очевидным, что при определении термина «здоровье» приоритет во всех случаях должен быть отдан здоровью детского населения. Нации, не заботящиеся о здоровье своих детей, обречены на вымирание. Ничто не может быть принесено в жертву детскому здоровью.

«Здоровый образ жизни», меняясь в сознании людей, должен изменить сложившиеся стереотипы в отношении своего здоровья и способствовать ее формированию. Это понятие рассматривается разными авторами с разных позиций. Следовательно, здоровье необходимо рассматривать как неотъемлемую часть развития человека и как показатель истинности культуры, в которой живет индивид. Так, здоровый образ жизни – это социально-практическая деятельность обучающегося по сохранению, укреплению, развитию физического и психического здоровья. Она представляет собой совокупность достижений в сохранении здоровья людей и отражает уровень валеологических знаний, умений, навыков и опыта в освоении норм, принципов, традиций здорового образа жизни.

Такой подход к здоровому образу жизни способствует раскрытию этого понятия в многообразии его связей, отношений и

отражает определенный уровень развития валеологического мышления, степень овладения практическими знаниями, умениями, сформированность валеологических качеств личности. Под физическим здоровьем обучающихся рассматриваются знания о состоянии физического здоровья, формирование умений и навыков сохранения физического здоровья, отношение к физическому здоровью, консультации родителей по состоянию здоровья с медицинскими работниками. Умения и навыки сохранения физического здоровья включают в себя: утреннюю зарядку, гимнастику во время учебных занятий, лечебная физическая культура, поход, спортивные секции.

Под психическим здоровьем понимаются психологические установки и убеждения на здоровый образ жизни, саморегуляция эмоционально-волевой сферы, отношение к психическому здоровью, состояние психического здоровья.

Таким образом, анализ понятия позволил отметить различные подходы к его определению. Возможно, такое разнообразие подходов обуславливается многогранностью, сложностью самого понятия здоровый образ жизни как общественного явления.

YOSHLARDA QAT'IY FUQOROLIK POZITSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA TASVIRIY SAN'ATNING O'RNI

Dilfuza Jumaniyozova

Kamoliddin Behzod

Milliy Rassomlik va dizayn instituti dotsenti, f.d (PhD)

Yangilanayotgan O'zbekistonning bugungi taraqqiyoti jarayonida tasviriy san'at asosida yoshlarning dunyoqarashini shakllantirish, xususan ularda estetik did va badiiy saviyasini yanada oshirish dolzarb vazifalaridan biri.

Bugungi kunda milliy san'atni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan birini tashkil qilmoqda. Oxirgi yillarda san'atni rivojlantirish borasida ko'plab farmon va qarorlar qabul qilindi. 2020-yil 21-apreldagi PQ-4688-son «Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga [1] binoan, O'zbekiston madaniyati va san'atining taraqqiyoti yo'lida tasviriy va amaliy san'at, dizayn va xalq hunarmandchiligi sohalari bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

badiiy ta'lim muassasalarining faoliyatini xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish hamda bu boradagi vazifalarni amalga oshirishning zamonaviy, ta'sirchan usul va shakllarini tizimli asosda rivojlantirish borasida Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida vazifalar belgilangan.

Tasviriy san'at ilm-fan kabi dunyoni, hayotni, tabiatni, xalqlar tarixini bilishga xizmat qiladi. Tasviriy san'atning paydo bo'lishi ibtidoiy jamoa davriga borib taqaladi. Bu vaqtda kishilar voqealarni, odam va xayvonlarni toshlarga tasvirini chizib, ularni kesib turli ko'rinish va mazmunda haykallar yasaganlar. Qadimdan kishilar san'at, tabiat xodisalari va kishilarning o'zaro munosabatlari, faoliyatlariga, xulqiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb hisoblaganlar. Ma'lumki, tasviriy san'at asarlari insonlarga ayniqsa, yoshlarga kuchli ta'sir ko'rsata olishga ega. Yoshlar tasviriy san'at asarlarini tomosha qilib, ularda ifodalangan go'zallikni ko'rish, his qilish orqali o'z hayotiga ana shunday go'zallikni kiritishga harakat qiladilar, asarlardagi qahramonona harakatlarni ko'rib ularga o'xshashga intiladilar. San'at asarlaridagi xunuk voqealar, harakatlarni ko'rish orqali ulardan jirkanadilar. Shuningdek, tarixiy janrdagi san'at asarlarini tomosha qilganda o'sha davrdagi tabiat manzaralari, narsalar, kishilar hayoti, mehnat va jang qurollari, ularning kiyimlari, urf-odatlarini bilan tanishadilar, qurilishlar, binolar haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Ko'pgina rassomlar jumladan O'zbekiston xalq rassomi Alisher Aliqulov ijodiga mansub turkum asarlar tarixiy haqiqatlar tasviriga bag'ishlangan va yuqoridagi fikrimizning isboti bo'la oladi. Rassomlar o'z asarlarida hayotni qanday ko'rsalar to'liq real emas, balki undagi xarakterli ko'rinishlarni tanlab oladilar, ular nazarida ortiqcha ikkinchi darajali ko'rinishlarni tushurib qoldiradilar, muhimlarini bo'rttirib ko'rsatadilar. Ranglar yorqinligi, ramziylik va bo'rttirish orqali rassomlar narsa va hodisalarni yoshlarning tafakkuri va hissiyotlariga samarali ta'sir ko'rsatishga erishadilar. Rassom olamni shunchaki biladigan shaxs emas, balki u boy tasavvur olamiga va rangli tafakkur qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kishidir. U o'z ijodida borliqni shunchaki aks ettiribgina qolmay, balki unga asoslangan holda nimalarnidir o'ylab topadi, tasavvur etadi va to'qiydi. San'at asarlari mazmun va mohiyatiga ko'ra borliq in'ikosini aks ettiribgina qolmasdan, u rassomning g'oyalarini ifodalaydi, uni boyitadi.

Jumladan:

Birinchidan, g'oyalar qarama-qarshiligi, fikrlar xilma-xilligi kuchayib borayotgan bir sharoitda g'oyaviy yetuk, aniq hayotiy mo'ljallarga ega bo'lgan, jamiyatning faol fuqarosiga aylanish instinkti kuchaygan aholi qatlamini tarbiyalab etishtirish hozirgi kunning eng dolzarb muammosiga aylandi. Aniq hayotiy pozitsiya, buzg'unchi g'oyalarga qarshi tura oladigan, mafkuraviy immunitet, estetik didi yuqori, san'atni chuqur tushunadigan, jumladan, tasviriy san'at mazmuni va mohiyatini etarli darajada anglaydigan kishida kuchli bo'ladi. Demak, bevosita yoshlarning estetik didini takomillashtirishning turli chora va tadbirlarini ishlab chiqish;

Ikkinchidan, san'at jumladan tasviriy san'at, badiiy g'oyalar yoshlar dunyoqarashini, falsafiy va badiiy tafakkurini ijobiy o'zgarishiga xizmat qilgan holda, barkamol avlod qiyofasini shakllantirish, yoshlarda yangicha tafakkurni, yangicha hayotiy munosabatlarni rivojlantirish orqali faol fuqarolik jamiyatini rivojlantirish;

Uchinchidan, yoshlarni bunyodkorlikka, yaratuvchilikka da'vat etish, ularning ichki qobiliyatlarini ruyobga chiqarish, kasbiy mahoratini chuqur egallash orqali yetuk mutaxassisga aylanishida tasviriy san'atning tarbiyaviy va yo'naltiruvchilik imkoniyatlaridan keng foydalanish;

To'rtinchidan, yoshlarda milliy san'at va madaniyatga sadoqatini, qiziqishi va mehr-muhabbatini yanada oshirish, shu orqali ularning turli buzg'unchi g'oyalarga qarshi tura oladigan qat'iyatli, aniq hayotiy mo'ljallarga ega bo'lgan shaxs sifatida shakllanishida tasviriy san'atning keng imkoniyatlarini targ'ib qilish va ularni o'zlashtirishga ko'maklashish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 21-apreldagi «Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4688-son qarori. <https://lex.uz/docs/4795687>.

2. Arastu. Poetika. Axloqi Kabir. -T.: Yangi asr avlodi, 2007.

3. Бычков В.В. Эстетика./Учебное пособие. –М.:Академический проект, 2011.

4. G'aybullaev O.M. Shaxs ma'naviy kamoloti va estetik madaniyat. – T.:Chashma print, 2008.

XALQ PEDAGOGIKASI VA ZAMONAVIY PEDAGOGIKADA TA'LIM- TARBIYA USULLARI

Rajabova Nasiba Fayziyevna

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani

17- maktabning Fizika fani o'qituvchisi

Xalq uchun nondan so'ng eng muhimi maktabdir. Maktab o'z sistemasida mujassamlangan asosiy predmet va prinsiplariga ko'ra, xalqlar va davlatlar turmushi va taqdirini belgilashda bag'oyat buyuk kuchdir. Bu ulug' dargoh voyaga yetayotgan avlod tafakkurini shakllantirish ustaxonasidir. Unib- o'sib kelayotgan har bir yosh avlod ma'nan, aqlan, jismonan, ruhan, huquqiy jihatdan mana shu maktab atalmish ustaxonada shaxs sifatida tarbiya topib, shakllanadi. Agar biz kelajakni qo'ldan chiqarishni istamasak, maktabda o'quvchi yoshlarga beriladigan ta'lim- tarbiya jarayonini yuksak saviyada zamonaviy, innovatsion, integratsiyalashgan, multemediya vositalarini tadbiiq etgan holda tashkil etishimiz lozim. Albatta, bu jarayonda o'quvchi bilan bir qatorda o'qituvchi ham birdek ishtirok etadi va mas'ul shaxs hisoblanadi. Chunki o'qituvchi eng mas'ul vazifani ado etadi- u insonni shakllantiradi.

Turkiy xalqlarning pedagogik tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning qamrovi nihoyatda keng va shu xalq paydo bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Dostonlar, ertaklar, asotirlar, mif, afsonalar, naqlar, rivoyatlar, mavsumiy marosim qo'shiqlari, maqollar, matallar, hikmatlar, aforizmlar, topishmoqlar, tez aytishlar, bolalar o'yinlari, allalar, to'y va aza qo'shiqlari, erkalashlar, ovutmachoqlar, lapar, aytishuv, o'lan- termalarda uzoq ajdodlarimizning ta'lim usullari o'z aksini topgan. Shuningdek "Alpomish", "Ravshan", "Go'ro'g'li", "Kuntug'mish" kabi dostonlarimizda ajdodlarimizning pedagogik nazariyalari aks ettirilgan. Misol tariqasida, Ibn Sino o'zining "Donishnoma" asarida ona allasining tarbiyaviy ahamiyati haqida to'xtalib: "Bolaning talabini qondirmoq uchun unga ikki narsa qo'llamoq darkor: biri- bolani ohista tebratish, ikkinchisi, uni uxlatish uchun odat tusiga kirgan musiqa- allalashdir". Mana shu tarixiy ta'lim-tarbiya usullari bugungi kun uchun ham bizlar uchun dasturamal bo'lib kelyapti.

Shuni alohida aytish joizki, o'zbek folklorida maktab, ilm- ma'rifat, yosh avlodning ilm, bilim olishga da'vat etilishi alohida o'rin

egallaydi va u o'zbek xalqi pedagogikasining eng muhim materiallarini belgilashda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Shu paytgacha bizgacha yetib kelgan maqollar, matallar, qo'shiqlar, afsonalar, rivoyatlar, ertak va dostonlarda bolalarga xat- savod chiqarishga, ilm olishga qaratilgan alohida qarashlar fikrlar o'z aksini topgan.

O'zbek xalq ijodi materiallari tahlili ko'rsatishicha, qadim zamonda oddiy xalq ya'ni fuqarolar ham, shoh-u davlatmandlar ham o'z farzandlarini xat- savodli, ilmi bo'lishlarini xohlashgan. Lekin shu davrdagi ijtimoiy- tarixiy jamiyatda bir tipdagi maktablarda hamma ijtimoiy tabaqa bolalari teng huquqda o'qitilgan. Ammo ayrim bir xalq og'zaki ijodi materiallariga tayanadigan bo'lsak, o'sha davr jamiyatidagi ayrim maktablar ijtimoiy tabaqaviy xarakterga ega edi. Ya'ni hukmron tabaqalarning bolalari uchun maxsus saroy qoshida uch turdagi maktablar tashkil etilgan. Bu haqida mashhur hadisshunos olim Imom Al- Buxoriyning tarjimayi holida ham muallifning o'zi tarafidan quyidagi jumlar keltirilgan: " Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad farzandini alohida o'qitishi uchun Imom al- Buxoriyni saroyga taklif etib shu yerda farzandiga ta'lim berishini so'raydi. Shunda hadisshunos olim shunday javob beradi: " Men ilmni xor qilmayman, uni hukmdorlar eshigiga olib bormayman". Bu bilan Imom al- Buxoriy barcha insonlar teng huquqli, ya'ni bolaga ta'lim-tarbiya berish jarayonida tabaqalashuv yo'q. Garchi u podshohning farzandi bo'lsa-da, el qatori, boshqa bolalar bilan birga bir joyda, bir xonada o'tirgan holda ta'lim olishi zarurligini podshoga yuqorida aytgan fikri orqali bayon etadi. Ammo shunday bo'lsa-da ba'zi hududlarda :

1. Savdogarlarning bolalari o'qiydigan alohida maktablar;
2. Hukmron tabaqalarning bolalari o'qiydigan alohida yopiq maktablar;
3. Saroy ahli, yirik amaldorlar va badavlat kishilarning xonadonlaridagi yopiq maktablar tashkil etilgan.

Masalan: " Moxistra", "Orzusi ushaldi" kabi ertaklar va "Alpomish", "Nurali" kabi dostonlarda bolalar o'z xonadonlaridagi yopiq maktablarda o'qitilganligi tasvirlangan. Masalan: "Orzusi ushaldi" ertagida : ...Oqilaxon vaqti- soati yetib, shersumbat o'g'il ko'rdi... otini Bahodir qo'ydi...Bahodir to'rtga kirdi. Oqilaxon madrasadan o'tkir bir mullani olib kelib, o'g'li Bahodirni o'qita boshlaydi" deyilsa, "Nurali" dostonida esa, "Oydan- oy, kundan- kun o'tib, Hasanxonning xotini o'g'il tug'adi, otini Ravshanxon qo'ydi... Bir kun Go'ro'g'li (bobosi)

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

“bular avom bo‘lib ketmasin, o‘qitayin “ deb madrasadan mashhur bir mullani aytirib keldi. Mullaning qoshiga Ravshanxon bilan Nuralixonni yetaklab bordi. Mullaga aytdi: “Mana shu mening o‘g‘illarim, besh yoshda , o‘n yil o‘qitasan deb buyurdi”.

Xullas, o‘zbek xalq og‘zaki ijodida podshoh, saroy ahli va hukmron tabaqalarning bolalari uchun vujudga kelgan maxsus yuqori tipdagi yopiq maktablar va oddiy fuqarolarning bolalari o‘qiydigan maktablar haqida ko‘pgina materiallar uchrasa-da, u maktablardagi ta’lim- tarbiya ishining mazmuni, ta’limni tashkil qilish shakllari va o‘qitish metodlariga oid materiallar uchramaydi. Shunga qaramay, turkiy xalqlar og‘zaki ijodida tasvirlangan faqat bolalarga xat- savod o‘rgatadigan maktablarning ba’zilarida o‘z shogirdlarini zamonaviy, dunyoviy bilimlar bilan qurollantirgan va shunday dunyoviy bilimlar berishga qodir bo‘lgan yyetuk o‘qituvchi va mudarrislar , xalq donishmandlari ham bo‘lganligi shubhasizdir.

Zamonaviy pedagogikada ta’lim- tarbiya berish usullari tubdan farq qiladi. Birinchi o‘rinda zamonaviy pedagogikada o‘quvchilarga ta’lim- tarbiya berish jarayonida tabaqalanishning mavjud emasligi. Ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 41- moddasida qayd etib o‘tilganidek: “Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir”. Bu bilan har bir yosh avlod O‘zbekiston hududida teng huquqli, hech qanday tabaqalanish mavjud emas va bir joyda ya’ni davlat tomonidan belgilangan hamma borishi majburiy etib qo‘yilgan muassasa ya’ni dunyo imoratlari ichida eng buyugi hisoblanmish maktabda ta’lim olishi mumkin. Bu ham zamonaviy ta’lim olishning bir shakli. Shuningdek, hozirgi globallashuv, axborot- texnologiyalar, rivojlangan davrda zamonaviy pedagogikamizda ta’lim – tarbiya berish jarayoniga bevosita internet, media dasturlar, axborot kommunikatsiya vositalari, interfaol metodlar, interaktiv o‘yin usullari, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi ta’lim- tarbiya jarayoning yuksak saviyada rivojlanishi va o‘quvchilarning zamon talablariga javob bera oladigan bilim , ko‘nikma va malakalar bilan shakllanishiga ulkan ko‘mak beradi. Zero, prezidentimiz SH. Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Bugungi yosh avlod ertaga xalqqa aylanadi”. Demak, u xalqqa aylanar ekan o‘zbek xalqi yana yashashda davom etadi. O‘zbekistonning taqdiri esa mana shunday xalqqa aylangan yosh avlodlarning qo‘lida.

**AHMAD G'AZZOLIYNING MA'NAVIYATIMIZDA
TUTGAN O'RNI**

*Xodjayeva Fotima Nabixonovna
BuxDU 1-bosqich doktoranti*

Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Barchangizga ma'lumki muhtaram Prezidentimiz tomonidan "Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo'ladi", - deb ta'kidlab o'tgan edilar [1].

Jahon tarixida Markaziy Osiyo IX-XII asrlardan Uyg'onish davrida ulkan madaniy yuksalish yuz berib, ilm-fan, falsafa, adabiyot, san'at, tibbiyot, ilohiy va dunyoviy bilimlar kuchli rivojlandi. Insoniyat to'g'risidagi qarashlar bu Renessans davrida yuksaklikka ko'tarila boshlandi. Bu davrda qomusiy bilim sohiblari, mashhur mutafakkir olimlar yetishib chiqdi. Musulmon dunyosining eng buyuk mutasavvuflaridan biri Ahmad G'azzoliy (1061-1123) shu davr mahsulidir.

Avvalgi manbalarda Ahmad al-G'azzoliy olim, fiqhshunos (fiqh) so'fiy va voiz sifatida tanilgan bo'lsa, keyingi manbalarda u shayx va hattoki, shayxlarning shayxi (shayx al-mashoyix yoki shayx ash-shuyukh) sifatida e'tirof etilgan.

Garchi keyingi so'fiylar Ahmad al-G'azzoliyni mohir ma'naviy ustoz sifatida ko'rishgan bo'lsa-da, avvalgi tabaqa adabiyotida u tez-tez o'zining taniqli Abu Hamid al-G'azzoliyning ukasi nigohida qaraladi. Ammo XIV asrlardan boshlab Ahmad G'azzoliyga so'fiylar asarlarida sharafli o'rin berilgan, uning tarjimai holi Imom Abu Hamidnikiga qaraganda ancha kengroq va u doimo o'zining katta, mashhur akasining ma'naviy ustoz sifatida tasvirlanadi.

G'arbda, zamonaviy islom dunyosida ham Ahmad Al-G'azzoliy odatda faqat Imom Abu Homidning ukasi sifatida tanilgan. Ba'zilar uning yutuqlarini yanada chuqurroq baholaydilar va uning bir necha so'fiylik tariqatining boshlang'ich zanjiridagi o'rni bilan taniydilar.

Ammo Ahmad al-G'azzoliy asarlari orasida eng ko'p o'qilgan "Savonih ul-ushshoq" nomli ishq haqidagi yuksak risolasi bilan tanilgan. "Savonih ul-ushshoq" butun fors tilida so'zlashadigan dunyoda keng o'qilgan va shu kungacha saqlanib qolgan fors adabiyotiga ta'sir

ko'rsatgan. Hozirgi kunda jahon olimlari tomonidan bu asar nemis, ingliz va rus tillariga tarjima qilingan.

1942-yilda birinchi marta Istanbulda Germaniya maslahatchisi Helmut Ritter tomonidan olti xil nusxada nashr etilgan. Bugungi kunda turli xil sanalarda turli xil odamlar tomonidan yaratilgan Savonihning sakkiz xil nashrlari mavjud. Asar 1976-yilda Richard Gramlich tomonidan nemis tiliga, 1986-yilda Nasrulla Pircevodiy tomonidan ingliz tiliga, 2004-yilda Turan Koch va M. Chetinkaya tomonidan "Sevgi Halleri" nomi bilan turk tiliga tarjima qilingan [2, 12].

"Savonih ul – ushshoq" – bu fors tasavvufi tarixidagi birinchi risola, ilohiy ishq psixologiyasiga bag'ishlangan, tasavvufning keyingi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi [3, 3].

Ahmad G'azzoliy tasavvufining mohiyatini anglash uchun, avvalo, uning g'oyalari tug'ilgan manbalar to'g'risida aniq tasavvur hosil qilish kerak. Mutafakkir dunyoqarashiga turli xil mafkura va manbalar, shuningdek, turli xil falsafiy, diniy maktablar va diniy e'tiqodlar ta'sirida kirib borgan turli elementlarni ko'rib chiqish, albatta, Ahmad G'azzoliyning tasavvuf ta'limotini shakllantirish jarayonini tushunishga oydinlik kiritadi. Shundagina biz Ahmad G'azzoliy tasavvufiy qarashlarining falsafa tarixidagi o'rni va tarixiy rolini anglay olamiz.

Ahmad G'azzoliyning tasavvufga oid asarlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, uning davridagi ko'plab ilmlar, bilimlar va e'tiqodlar uning dunyoqarash tizimining shakllanishi va rivojlanishida chuqur iz qoldirgan. Uning tasavvuf tizimining asosiy manbalaridan biri bu Qur'on va Sunnatdir. Bu Qur'on va Sunnat, axloqiy va madaniy me'yorlarning asosiy manbai sifatida Ahmad G'azzoliy qarashlari tizimini shakllantirishda juda katta rol o'ynadi.

Ahmad G'azzoliyga tegishli bo'lgan asarlar ro'yxatida yuzdan ortiq nomlar mavjud bo'lib, ulardan yigirmaga yaqini shu kungacha to'liq saqlanib qolgan va boshqa ko'plab asarlarining parchalari yetib kelgan. Ular asosan arab va fors tillarida yozilgan va so'fiylik muammolariga bag'ishlangan.

Ahmad G'azzoliy ko'plar asarlar yozganligidan tashqari u so'fiylarning ustozlari sifatida ko'plab shogirdlarga dars berib, Ayn-al-Quzzot Hamadoniy va Abu al-Najib as-Suxravardiy singari taniqli so'fiy ustozlarini kamolot darajasida chiqishiga yordam bergan. O'sha davrning mashhur hamda mohir voizi bo'lgan.

So'nggi yillarda turli jahon sharqshunoslari mutafakkirning va uning maktablarini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab yirik tadqiqotlar, ko'plab maqolalar, nashr etilgan so'fiy asarlari bo'yicha tanqidiy va sharhiy matnlarni bag'ishladilar. Shunday bo'lsada, Ahmad G'azzoliyni na Sharqda, na G'arbda falsafiy ilm-fan sohasidagi tasavvufiy merosi hali ham keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmagan.

Sharq va G'arb mamlakatlarida faqat cheklangan miqdordagi tadqiqotchilar o'zlarining e'tiborlarini ushbu buyuk islomiy tasavvufning hayoti va ijodini o'rganishga bag'ishladilar.

Buyuk mutafakkirlar hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyatini, yaratgan asarlarini chuqur tadqiq etish, ulardagi qimmatli ma'lumotlarni aniqlash, saralash, ulardan bugungi kunda ijodiy foydalanish, hamda hayotda keng tadbqiq etish hozirgi kunning muhim vazifasidir. Allomaning ilmiy merosini o'rganish yosh avlodni yuksak ma'naviyatli insonlar etib tarbiyalashga xizmat qilishi shubhasizdir.

Xulosa o'rnida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev aytganidek: "Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-manaviy me'rosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib bizga doim kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim. Avvalombor, milliy ta'lim tizimini ana shunday ruh bilan sug'orishimiz kerak. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma'naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari zarur"[4].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi nutqidan — Xalq so'zill gazetasi.2020- yil,1-sentabr №186 (7688)

2. Halil Baltachi Tasavvuf- ilmiy tadqiqot jurnali "Sof muhabbat sohibi": Ahmad G'azzoliy va So'fiylik Konsepsiya 32 [2013\2],12-bet

3. Ahmad G'azzoliy "Savonih al – ushshoq" Forscha nashrga kirish so'zi qismidan olingan.-M.:Rieletiveb 2013,3-bet.

4. Mirziyoyev Sh.M . O'qituvchi va murabbiylar – yangi O'zbekistonni barpo etishda kata kuch, tayanch va suyanchimizdir//<https://president.uz/uz/lists/view/3864>

**MAKTABDA ZAMONAVIY DASTURLASH TILLARINI
O'QITISHDA KOMPYUTER GRAFIKASINING O'RNI**

Zaripov Sherzod Sharif o'g'li

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani

*17- maktabning informatika va axborot texnologiyalari
fani o'qituvchisi*

Kompyuter grafikasi raqamli tasvirlarni kompyuter xotirasiga kiritish, qayta ishlash hamda saqlash bilan bog'liq algoritm va metodlar bilin shug'ullanadi. Ushbu maqolada kompyuter grafikasi haqida tushuncha, turlari va kompyuter grafikasi bilan ishlovchi dasturlar Adobe PhotoShop, CorelDraw va MacromediaFlash dasturlari vazifasi va amaliy topshiriqlarni bajarish usullari yoritib berilgan.

Kompyuter grafikasi tushunchasi hozirgi keng qamrovli sohalarni o'zida birlashtirgan bo'lib, bunda oddiy grafik chizishdan toki real borliqdagi turli tasvirlarni hosil qilish, ularga ko'rinish berish, dastur vositasi yordamida tasvirga doir yangi loyihalarni yaratishga mo'ljallangan. Bu esa multimedia muhitida ishlash imkoniyatini yaratadi. Kompyuter grafikasi jamiyatning barcha sohalarida keng qo'llaniladigan dastur ta'minoti bo'lib, u mavjud va yangi yaratilayotgan dasturlarga asoslanadi. Kompyuter grafikasi jarayonlarni uch o'lchovli fazoda qanday kechishini aniq tasvirlash imkoniyatini yaratdi. Shu boisdan hozirda mavjud amaliy dastur paketlari orqali ko'rilayotgan masalaning asosiy qiymatlarini kiritgan holda uning natijasini grafik shaklda olishimiz mumkin.

Yurtimizda ham dasturlashga bo'lgan talab va e'tibor oshib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy majlisga qilgan murojaatnomasida ta'kidlangan «Soha uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida xorijiy hamkorlarimiz bilan birgalikda 1 million dasturchi» loyihasini amalga oshirilishi dasturlashga bo'lgan e'tibordan darak beradi. Bu loyihadan ko'zlangan maqsad kelgusida jamiyatimizning qurilish, energetika, qishloq va suv xo'jaligi, transport, geologiya, kadastr, sog'liqni saqlash, ta'lim, arxiv sohalarini raqamlashtirishdan iborat.

Hozirda kompyuter grafikasi ilmiy xodimlar uchungina emas, balki rassomlar, loyihachilar, dizayn va reklama bilan shug'ullanadigan mutaxassislar, web sayt yaratuvchilar, o'qitish jarayoni va boshqa

sohalarda keng qo'llanilmoqda. Shuning uchun kompyuter grafikasi sohasida yyetuk kadrlarni tayyorlash, yosh kitobxonlarga kompyuter grafikasiga doir adabiyotlarni yetkazish oldimizda turgan vazifalardan biri hisoblanadi. Hozirgi paytda kompyuter grafikasi bilan ishlovchi dasturlar Adobe PhotoShop, CorelDraw va MacromediaFlash dasturlari hisoblanadi. PhotoShop dasturning eng yangi versiyasi Adobe PhotoShop CC 2018 hisoblanadi. PhotoShop yordamida quyidagi amallarni bajarish mumkin. Fotosuratning chekka qismlarini va undagi keraksiz obyektlarni olib tashlash, rasm o'lchamini va undagi piksellar zichligini o'zgartirish, rasmning saqlash formatini o'zgartirish, rasmni yoki uning bir qismini boshqa tekislik yoki sirtida ko'rinadigan qilib transformatsiyalash, fotosuratni olish paytida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf qilish, masalan, uni olish paytida ko'p ushlab qolingan, oq rangning balansini o'zgarib ketishi, yorqinlik yoki kontrastlik ko'payib yoki kamayib ketishi oqibatida vujudga kelgan kamchiliklarni bartaraf qilish va yana ko'plab amallari bajarishni PhotoShop yordamida oson amalga oshiriladi.

CDR (CorelDRAW hujjati). CDR fayl formati - bu vektor tasvirlari yoki CorelDRAW bilan yaratilgan grafik. Ushbu fayl formati Corel tomonidan xususiy dasturiy ta'minot mahsulotlarida foydalanish uchun ishlab chiqildi. CDR fayllari ko'plab rasmni tahrirlash dasturlari tomonidan qo'llab-quvvatlanmaydi. Ammo, fayl CorelDRAW yordamida boshqa, keng tarqalgan va mashhur rasm formatlariga eksport qilinadi. Bundan tashqari, CDR fayl Corel Paint Shop Pro dasturi tomonidan ochilishi mumkin.

Ushbu format oldindan taniqli barqarorlik va yomon fayllar muvofiqligi uchun ma'lum, ammo CorelDRAW yordamida juda qulay. Ushbu versiyalarning fayllari vektor va raster tasvirlar uchun alohida siqishni ishlatadi, shriftlar ko'milishi mumkin, CDR fayllari 45x45 metrli katta ish maydoniga ega va ko'p tarmoqli ishlaydi.

Bugungi kunda web-sahifalarni yartish va ularni bezashda Java Script, Macromedia Dreamweaver, Macromedia Flash kabi dasturiy vositalardan foydalaniladi. Ushbu dasturiy vositalar yordamida web-sahifa yaratish, ularga rasmi, grafikli ma'lumotlarni turli usullarda joylashtirish va animatsiyalar yaratish hamda ularni o'rnatish usullari, tovushli ma'lumotlarni joylashtirish, web-sahifalarni o'zaro bir-biri bilan bog'lash kabi imkoniyatlarga ega.

Macromedia Dreamweaver 8 dasturi Macromedia kompaniyasining dasturiy mahsuloti bo'lib, ushbu dastur web-sahifa va web-saytlar yaratish uchun qulay dasturiy vosita hisoblanadi. Dasturga turli rasmlar, jadvallar, audio, video fayllar o'rnatish hamda matn kiritish imkoniyatlari mavjud. Macromedia Flash 8 dasturi vektorli grafikadan foydalanishga asoslangan texnologiyadir.

Macromedia Dreamweaver 8 dasturida quyidagilar uchun foydalaniladi.

- Giper bog'lanishlar o'rnatish uchun – Hyperlink;
- Rasmlarni joylashtirish – Images;
- Jadvallar yaratish –Table;
- Animatsiya effektlari va tugmalarni joylashtirish – Media: Flash.

Macromedia Flash 8 dasturi eng samarali grafik formatlardan bo'lmasada, SWF formati foydalanuvchilarga cheklanmagan grafiklar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'lib, web-sahifa va web-sayt yaratish uchun eng qulay dasturiy vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu dasturiy vositaning qulayligi shundan iboratki, web-sahifa yaratish uchun barcha bezak va animatsiya effektlarini o'zida yaratish hamda hisob ishlarini bajarish uchun dasturlash imkoniyatlariga ega. Shuningdek, u barcha brauzerlarda ochilishi, yuklanish darajasi tezligi hamda ma'lumotlarni xatosiz namoyish eta olishi bilan boshqa dasturiy vositalardan ajralib turadi. Web-sahifalarga mo'ljallangan animatsiyalar yaratishda ham Macromedia Flash 8 dasturidan foydalanish samarali hisoblanadi. Macromedia Flash 8 dasturida eng sodda animatsiyalar yaratishni bir nechta bosqichlarda amalga oshirish mumkin. Murakkab animatsiyalar yaratish uchun sizdan biroz vaqt talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, oliy o'quv yurti talabalari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, umumiy o'rta maktab o'quvchilarini kompyuter grafikasiga qiziqtirish orqali zamonaviy dasturlash tillarini o'rgatish oson kechadi. Bu orqali o'quvchi yoshlar dasturlash muhitida ishlash va mustaqil dastur tuzish, mamlakatimizning turli sohalari uchun ilovalar yaratish, zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga va ularning amaliy ishlarida yangi qirralarning ochilishiga zamin hozirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Martin Evening. Adobe PhotoShop CS6 for PhotoGraphers. Published by Elsevier Ltd. Kidlington, Oxford, UK. 2012. 769 p.
2. Gary David Bouton. CorelDraw X7: The Official Guide. McGraw-Hill Education, New York, USA. 2015. 705 p.
3. James D. Foley, Andries van Dam, Steven K. Feiner, John Hughes. Computer Graphics: Principles and Practice. – Third edition. Pearson Education Inc, USA. 2014. 1260 p.
4. Steve Bain, Nick Wilkinson. CorelDraw 12 : The Official Guide. McGraw-Hill/ Osborne Media. 2004. 695 p.

ISTIQBOLDA ILDAMLAMOQ IMKONI ILMDA

Nodir O'ktamovich Rustamov

*Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Vobkent tuman
bo'linmasi rahbari*

Mohir pedagog, davlat arbobi Abdulla Avloniy xalqlarning madaniyatini ummondagi to'liqlarga o'xshatgan edi. Darhaqiqat, to'liqlar ummon yuzasidan shiddat bilan ko'pirib, ko'tarilib qirg'oq tomon shoshadi, bir-biri bilan to'qnashadi, qo'shib-qorilib yana ummon bag'riga, ortga qaytadi. Xalqlarning madaniyati ham hech qachon sof, boshqa xalq madaniyatiga umuman qo'shilmagan holda yakka bo'la olmaydi. Tarixdan bizga ma'lumki, har bir xalq o'z boshidan buyuk yuksalishlar, g'alabalar bilan bir qatorda achchiq mag'lubiyatlarni ham tatib ko'rgan. Tarix – bu hayot ilmi. Davlatlar va xalqlarning tarixlari g'oyalarning g'alabalar bilan mag'lubiyatlardan tarkib topgan. Har qanday xalq uchun mag'lubiyatdan ko'ra yaxshiroq ilm yo'q. Zaifliklarimizni tushunish va ajdodlarimizning noto'g'ri ishlarini takrorlamaslik uchun biz mag'lubiyatlarimiz tarixini o'rganamiz.

Xo'sh, madaniyat va ma'rifat sohasida biz yaqin tarixga nazar tashlab nimalarni yutdik-u, nimalarni yutqazdik degan savolga javob izlasak, qanday xulosa chiqaramiz? Movorounnahr hududida tashkil topgan xonliklar va Buxoro amirligi Rossiya bosqinidan mag'lubiyat bilan chiqib, unga tobe bo'lgach achchiq mag'lubiyat sabablarini izohlagan ma'rifatpar jadidlar xalqning zamonaviy bilimlar orqali sanoat tarmog'ini yo'lga qo'yish, o'z farzandlarini ilm olishi uchun jalb qilish istagidan ko'ra ko'proq o'tkinchi hoy-u havaslar, to'yparastlik va bu

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

orqali go'yoki, obro' olish istagining xalq orasida vabo misoli tarqalganligini, muallimlar esa bilim berishdan maqsad faqat bolalarning ota-onalaridan mo'may pul undirish maqsadida maktab tashkil etishlari, tashkil etilgan maktablarda tezroq kasb-hunar, savodni chiqarish emas, balki 15-20 yillab madrasalarda umr o'tkazish obro' keltirishida ekanligini ta'kidlaydilar. Insonning shaxs sifatida tavsiflashning muhim lahzasi uning dinamik xususiyatlari hisoblanib, jamiyatdagi statusi (iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, ya'ni uning jamiyatda egallagan o'rnini) orqali ifodalanadi. Bu jamiyatda esa insonning bilim darajasi emas, balki uning qancha muddat madrasada ta'lim olgani belgilab bergan. Abdulla Avloniy "O'z shahringa sayohat" nomli maqolasida madrasa tolibi bilan suhbatida uning maqsadi 15-20 yil shu madrasada o'qish va biror yerda imom bo'lishni maqsad qilganligi yozar ekan, butun dunyoda o'qitish tizimining o'zgarganligi, quruq vaqtni o'tkazish maqsadida, o'qish muddatining kishilarga obro' keltirishi tushunchasi xalqning ongiga o'rnashib qolganligidan afsuslanadi. Jadidlar ta'lim va ma'rifat bilan harakat qilib, mullalar va barcha iymonlilarga zamonaviy sivilizatsiya afzalliklarini ko'rsatishga harakat qildilar. Ular, Yevropa sivilizatsiyasi musulmonlarga ko'rsatgan vazifalarni hal qilish uchun «ijtihod darvozalarini» ochish zarurligini ta'kidladilar. O'z zamonining fidoyilari ma'rifatni targ'ib qilish, turkiy tillar va adabiyotlarni rivojlantirish, dunyoviy fanlarni o'rganish, ilmiy yutuqlarni qo'llash va ayollarning teng huquqliligi uchun harakat qildilar. Buning uchun, albatta, inson ongi, dunyoqarashi o'zgarishi zarur edi. Ma'rifatparvar olim Abdulla Avloniy "Kim nimani yaxshi ko'rar?" deb nomlangan maqolasida ilmsizlik oqibatini shunday ta'riflaydi: "Onalarimiz bilim va tarbiya o'rnig'a erlari ila urushub-talashub qizlarig'a mol qilmakni yaxshi ko'rurlar. Otalarimiz bolalarig'a o'qutmak va ta'lim bermak o'rnig'a «O'g'lum emdi kattakon yigit bo'lding, shuncha o'quganing yetar, pul top!» — deb «tashishka» — hammollik qildirishni yaxshi ko'rurlar. Kosiblarimiz bir-biridan mollarini arzon sotaman deb, tezgina yirtiladurg'on, tikishlar undan urub, mundan chiqq'on, suvni yetti chaqirim yerdan chaqiradurg'on mahsi va etiklar tikub, sotishni yaxshi ko'rurlar. Zargarlarimiz yigirma tiyinlik kumush, o'n tiyinlik tillo orasig'a mum va saqichlar joylab, ismini qiz hayron, zebigardon qo'yub, besh-o'n so'mga sotishni yaxshi ko'rurlar... Ishchilarimiz ilm va hunardan mahrumligi sababli boshqa

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

millatlar ilm-u ma'rifatlari soyasida kuniga 4—5 so'm ishlab turgan bu zamonda kuniga uch tangag'a mardikorlikni, oyig'a o'n besh so'mg'a qorovullikni, yigirma so'mg'a fanar yoqishni, o'n so'mg'a ko'nka yo'lini tozalashni va shularga o'xshash eng past va og'ir xizmatlarni yaxshi ko'rurlar..."

Xalqimiz o'z boshidan kechirgan tarixining achchiq haqiqati ham ilmsizlikning jamiyat hayotini og'irlashtirishi, yo'qchilikka sabab bo'lishi, oxir oqibatda o'zga millatlarga qaram holatga keltirishini ko'rsatadi. Shunday ekan, bugungi kunda: "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir,"- degan chuqur ma'noli so'zlari naqadar haqiqat ekanini yaxshi anglab yetishimiz shart. Bola tarbiyasi, uning zamonaviy ilm va hunarning egasi bo'lishiga e'tiborsizlarcha qarash, "bir gap bo'lar" qabilida o'z holiga tashlab qo'yish ayanchli oqibatlarga olib kelishi tarixiy haqiqat. Yo'q, tarbiya "bir gap bo'ladigan" narsa emas. Uning uchun jon kuydirish shart. Mol dunyo kiyim kechakka hirs qo'yish dardidan forig' bo'lib, tarbiya bilan shug'ullanish kerak. Buyuk vatandoshimiz Imom G'azzoliy bunday deydi: "Bolalar ota-onalariga berilgan bir omonatdir. Bolaning qalbi har qanday naqshu tasvirdan xoli bir qimmatbaho gavhardir. U qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, qayoqqa bukilsa, egiladi. Agar yaxshilikka o'rgatilsa, shu bilan o'sadi va dunyo-yu oxiratda saodatga erishadi. Uning savobiga ota-onasi ham, har bir muallim-u ustozlari ham sherik bo'ladilar. Agar yomonlikka odatlantirilsa, hayvonlardek o'z holiga tashlab qo'yilsa, oxir-oqibat halok bo'ladi. Gunohi esa uning tarbiyasi uchun javobgar bo'lganlarning gardaniga tushadi".

Aziz ota onalar, bu borada olib borayotgan ishlaringizga bir nazar tashlab ko'ring-a?! Siz buni qay daraja uddalayapsiz, farzandingizga, uning tarbiyasiga qancha vaqt ajratyapsiz?

Zero, bugun ilm-fan va ta'lim izchil rivojlanib borayotgan bir davrda hech shak-shubhasiz tarbiya ta'limning asosida turishi shartdir. Shunday ekan, ilm-fan ta'lim-tarbiya asosida olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, har bir pedagog, muallim va ustozning ta'lim berishdan maqsadi – kelajagi porloq, Vatan va el-yurt xizmatida turadigan kadrlarni tarbiyalash bo'lar ekan, bunday ta'lim-tarbiya o'z samarasini bermay qolmaydi. Ya'ni, bugungi kunning o'qituvchi va muallimi o'zi

ta'lim berayotgan shaxsga fidoyilik bilan ta'lim berishi, qolaversa, jonkuyar tarbiyachi bo'lishi shart.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, farzandlarimizni ilm-fan va ta'lim-tarbiya asosida voyaga yetkazish maqsadga muvofiq ekan, o'z o'rnida tarbiya esa ma'naviyat bilan chambarchas bog'liqdir. Zero, yoshlar kelajak egalari hisoblanadi. Yoshlarimiz ta'lim-tarbiyasida esa ma'naviy tarbiya katta ahamiyatga ega. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad etib belgilangan ekan, avvalo, Renessansning tarixiy ildizlari va asoslarini, Uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz chuqur anglab olishimiz zarur. Eng muhimi, farzandlarimizni sog'lom, komil inson qilib tarbiyalaylikki, ular o'z ota-bobolariga, tariximizga, Vatanimizga, ona tilimizga, o'z milliy qadriyatlarimizga, an'alarimizga sodiq bo'lishsin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Xoja Buxoriy" nomli o'rta maxsus islom bilim yurti mudiri O'tkir G'uzarovning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot... masalasidir" maqolasi.
2. Abdulla Avloniyning "Madaniyat to'lqinlari", "O'z shahrimga sayohat", "Kim nimani yaxshi ko'rar?" maqolalari.
3. O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi Akmal Saidov va Qarshi davlat universiteti professori Ochil Bo'riyevning "O'zbekistonda Yangi Uyg'onish davri" maqolasi

**AMIR SHOHMUROD BUXORO AMIRI VA FIQH ILMI
NAMOYONDASI.**

M.Umarova

*Kamoliddin Behzod nomidagi MRDI "Ijtimoiy fanlar, pedagogika
va kasbiy ta'lim" kafedrasi o'qituvchisi, O'zFA "Tarix" instituti erkin
izlanuvchisi*

Buxoro tarixida shunday shaxslar borki, ular davlatni boshqarishda va ilm-fan rivojida o'zining ulkan hissalarini qo'shganlar. Bugungi maqolamiz shunday shaxslardan biri bo'lgan Amir Shohmurod va uning fiqh ilmiga bag'ishlanadi. Chunki, davlat arbobi va fiqh ilmi namoyondasi tomonidan "Ayn' ul hikmat", "Fatvoyi ahli Buxoro" asarlari yozilgan bo'lib, Amir Shohmurod ham doimiy ravishda o'z faoliyatida shariat me'yorlarini ilgari surgan va unga amal qilganligi haqida o'sha davr tarixnavislari tomonidan ham ma'lumot bergan.

Amir Shohmurod ibn Doniyolbiy 1749 yil Karmanada tavallud topgan. Otasi erkalab Begijon (sevimli shahzoda) deb chaqirgan. Mang'itlarning uchinchi amiri hisoblansada, Buxoro amirligining rasmiy birinchi amiri deya olamiz. Zero, amaldagi "qo'g'irchoq xon" - Abulg'ozixon faoliyatidan rasman voz kechgan va shariat normalari asosida amirlik siyosiy boshqaruvi asosida 1785-1800 yillarda taxtni boshqargan hukmdordir. Uning ustozlari naqshbandiya avlodidan bo'lib va shu tariqat targ'ibotchisi Shayx Safariy hisoblanadi. Shuningdek, Amir Shohmurod yoshlikdan so'fiylik ta'limoti o'rganishi, amalga tadbiriq etishi bilan dindorlar va xalq ichida ilmi va malakasi bilan hurmatga sazovor bo'lgan. Hirqoni darveshona diniy jamoa vakillaridan biri bo'lib va o'sha davrdagi urf-odatga ko'ra masjidida istiqomat qilgan. Uning bilim olishga hech kim to'siqinlik qilmagan. Yoshligidan xudojoy, porso bo'lib o'sgan, madrasani bitirib darveshlik suluki soliklaridan (muayyan maslakka birlashgan va uning ta'limot, g'oyalari targ'ib qilish) biriga aylanadi. Shuning uchun xalq uni sevib "amiri Ma'sum" (begunoh amir) degan nomni bergan.

Amir Shohmurod darveshona hayot kechirar, ustozlari Shayx Safariy maslahati bilan bozorda hammollik qilardi. Keyin esa pichoqqa qin yasab sotib, shu orqali ro'zg'or tebratgan. Uning xalq va diniy rahnamolar orasida obro'si yuqori bo'lib, bosh farzand bo'lganligi uchun Doniyolbiy uni o'ziga valiahd etib tayinlagan. O'n nafar ukalaridan birortasi ham Amir Shohmurodni yoqtirmas edi. Lekin,

amirlik taxtiga chiqqan Amir Ma'sum (1785), ukalarining har biriga bittadan viloyat hokimligini topshiradi, ularga davlat xazinasidan maosh ajratadi. Lekin, shar'iy faoliyat yuritishini nazorat ostiga oladi. Markaziy hokimiyatni mustahkamlash ishiga qat'iy bel bog'lagan hukmdor sifatida mang'it namoyondalar orasida Shohmurod ham shaxs, ham arbob va mutafakkir sifatida alohida o'rin tutgan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

German Vamberining "Buxoro va Transoksaniya tarixi" asarida Amir Shohmurod to'g'risida yuqoridagi fikrlarni tasdiqlab, yana quyidagicha ma'lumotlar beradi: "Otasi tomonidan meros sifatida kelgan davlatdan ham voz kechib, "Jamoatda ehsonni taqsimlaydiganlarga olib borib bering, ular esa bu pullarni majburlab olinganlarga qaytarsinlarki, toki men bu xarom pulga qo'l urmay va mening uyimga kirmasin", - deb aytadi". Otasi vafotidan so'ng, uning hukmronligi davrida aziyat chekkanlarga hamdardlik bildirish maqsadida, uzr so'rayotgan, gunohkorning kiyimini kiyib, bo'yniga qilich osgan holda ko'chalarda dod solib yig'lab, otasi va ukalari yetkazgan ziyon – zahmat uchun aholidan kechirim so'rab yuradi. Shuning uchun ham tarixda "darvesh amir" laqabiga ham ega bo'lgan. Bu o'z navbatida xalq orasida va o'zi tegishli bo'lgan dindorlar orasida uning obro'sining yanada oshishiga sabab bo'ldi.

Hokimiyat tepasiga kelgan Amir Shohmurod barcha jabhalarda islohot o'tkazgan. Shulardan eng muhimi qozilik tizimida bo'lib, qirq qonunshunos-a'lamdan iborat bo'lgan Oliy sud-qozixona palatasini tuzilgan. Bunda amirning o'zi bosh bo'lib turgan. **Islohotga binoan, Amirning sud tizimi kasabalar, tumanlar, viloyatlar qozilari, Bosh qozi hamda qirq a'lam sudi va eng oliy qozi-Amirdan iborat bo'lgan.** Ushbu palataning a'zolari, ya'ni qonunshunoslar shariat qonun – qoidalari va Amir Shohmurod tomonidan shar'iy qoidalar asosida tuzilgan qoidalar to'plami ("**Ayn' ul hikmat**" va "**Fatvoyi ahli Buxoro**") bilan quyi sud idoralari qozilarining hukmidan norozi bo'lib yozilgan arz va shikoyatnomalarni ko'rib chiqar edilar. Ushbu kengashda ishtirok etuvchilarning barchasi Qur'oni Karim, hadislar, "Hidoya" va "Muxtasar" bilan bir qatorda Amir Shohmurodning "Ayn' ul hikmat" va "Fatvoyi ahli Buxoro" kitoblarini ham yoddan bilishi talab etilgan. Shu tariqa qozilarning faoliyatidan hech kim norozi bo'lmasligi ta'minlangan.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Amir Shohmurod shariat ilmining rivojlanishi ham moddiy va ma'naviy qo'llab quvvatlagan. Madrasalarda tahsil oluvchi talabalarga dars bergan. Madrasa muddarisslarini o'zi lavozimga tayinlagan. Vaqf mulkini masjid va madrasalarga qaytartigani. Shu mulkdan tushgan soliqlardan masjid, madrasa va madrasa talabalariga sarflanishini ta'minlagan. Bu to'g'rida Ahmad Donish o'zining "Tarixi saltanati mang'ituya" asarida bir necha voqealarni yozib qoldirgan.

Shulardan birida, Amir Shohmurod Ramazon oyining kunlaridan birida o'ziga tegishli bo'lgan vakilga, iftorlikka bayramona osh yegim keldi deb, bir osh masalliqarini olib osh tayyorlatish uchun topshiriq bergani va bayramona osh tayyor bo'lgach, madrasadan kambag'al talabalarni chaqirtirib va ularga "Bu oshni shunday yenglarki hech nima qolmasin, undan keyin davlat xazinasidan sizlarga bir dinordan tilla tanga beriladi, lekin osh qolsa hech narsa olmaysizlar" degani so'zlab beradi. Voqea talabalarning maroq bilan osh iste'mol qilishi va iftorlik yakunida tilla tanga bilan amir huzuridan ketishi, Amir Shohmurodning o'zi esa qotgan non va suv bilan iftor qilgani bilan yakunlanadi. Ko'rinib turibdiki, Amir Mas'um har qanday vaziyatda ham ilm ahlini qo'llab quvvatlab, ularning ilm olishiga hissa qo'shgan, o'zi esa so'fiylar kabi hayot tarzini kanda qilmagan. Yozgan kitoblaridagi hayot tarzini ma'qul deb bilgan.

Lekin, afsuski, Amir Shohmurodning "Ayn' ul hikmat" va "Fatvoyi ahli Buxoro" asarlari haqida faqat tarixiy manbalarda ma'lumot bor, Buxoro muzeylari yoki Respublika Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik qo'lyozmalar institutida ham mavjud emas. Shu qo'lyozmalarni topish imkoni bo'lganda, albatta, Amir Shohmurodning qay darajada fiqh ilmiga hissa qo'shganini ilmiy asoslangan bo'lar edi. Shunga qaramay Amir Shohmurod adolatparvarligi va xalqparvarligi bilan davlatni boshqarganligi to'g'risida Buxoro amirligi tarixnavislari **Mirza Badii** "Madjma al arkam" asarida, **Sami Mirza al-Azim** "Tarixi Salatini Mangitiyya", **Axmad Donish** "Risolai yo muxtasare az tarixi saltanati xonadoni mang'ituya basa' va ihtimoli va tashehi", **Miri (Mir Xusayn bin SHax Murad)** "Maxazin at – takva", **Muxammad Ya'xub ibn Doniyolbiy** "Gulshan ul-muluk" asarida ma'lumotlar bergan. Uning odmiligiga, shijoatligi bilan xalq nazariga tushganligiga e'tibor qaratganlar. Amir Shohmurod o'z davri uchun yyetuk mutafakkir va davlat arbobi bo'lib qoladi. Kelajak avlodni adolat yo'lida xalqparvar,

vatanparvar qilib tarbiyalash uchun hozirdan Amir Shohmurod kabi buyuk siymo va shaxslar, ularning ilmini o'rgatish zarur bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ziyo Azamat. O'zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: SHarq, 2000.
2. Ayniy S. “Tarixi amirani managitat-i Buxara”. Kulliyat, djildi 10. Dushanbe, 1966.
3. Bartold V.V. Uzbekske xanstva // Sochineniya. T. 2. CH. 1. M. 1963. B 163-166, 268-292.
4. German Vamberi “Istoriya Buxary ili Transoksanie”. S.Peterburg. 1873.596.
5. Meyendorf E.K. Puteshestvie v Buxaru. Nauka. Moskva. 1975. 135-B.
6. Mirza Badii Divani Madjma al arkam. Vvedenie, perevod, primechaniya i prilozheniya A.B.Vildanovoy. Moskva. 1981.S.130-B.
7. Muqimov Z. O'zbek davlati, huquqi, tarixi. Samarqand. Zarafshon. 1997.228-b
8. Sami Mirza al-Azim. Tarixi Salatini Mangitiyya (istoriya mangytskix gosudarey) / Pred., perevodi primechaniya L.M.Epifanovoy. M., 1962.S 52.
9. Traktat Ahmada Donisha “Istoriya mangitskoy dinastii”. Izdatelstvo “Donish”. Dushanbe. 1967. S.29.
10. Semenov A.A Buxarskiy traktat o chinax i zvaniyax i ob obyazannostyax ix nositeley v srednevekovoy Buxare. //Sovetskoe vostokovedenie, №5, Tashkent, 1948. S 137-150

QOZI SHARIFJON MAXDUMNING MA'NAVIY MEROSI

YAngiboyeva Dilnoza O'ktamovna

*Termez davlat universiteti, “Ma'rifat” targ'ibotchilar
jamiyati a'zosi*

Tarixda jamiyat hayotining turli sohalari rivoji uchun beqiyos hissa qo'shgan shaxslar taqdiri, ularning ilmiy va ma'naviy merosi makon va zamondan qat'iy nazar doimo ko'pchilikning diqqat markazida turgan, odatda jamiyat a'zolarining barkamollikka intilishida andoza, namuna vazifasini bajargan. Zero, yaqin-uzoq o'tmishda yashab o'tgan ilg'or fikr namoyandalarining nuqtai nazari, tafakkur olami, tasavvur dunyosini o'rganish, ular ustida tadqiqot ishlari olib borish tarix va ijtimoiy fanlar sohasining taraqqiyotiga xizmat qiladi, hozirgi davr kishilari, ayniqsa, yoshlarning o'tmishga nisbatan haqqoniy dunyoqarashini yuksaltiradi,

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

tarixiy ongini rivojlantiradi hamda shu davr bilan bog'liq turli mavzularga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Muhammad SHarifjon Maxdum 1865 yil 24 fevral kuni Buxoroning Ziyovuddin tumanida otasi qozilik qilayotgan Buxoro amirligiga qarashli Ziyovuddin mavzesida tug'ilgan. Boshlang'ich ta'limni otasi Abdushukur ibn Abdurasuldan oladi. Abdushukur ibn Abdurasul o'z zamonasining taniqli mudarrisi, mansablar sohibi, ilohiyot ilmining bilimdoni bo'lishi bilan birga tarix va adabiyotdan ham yaxshigina xabardor bo'lgan. SHuningdek, «Oyat» taxallusi bilan she'rlar bitganligi haqida Sadri Ziyo o'z xotiralarida yozib qoldirgan [1]. Ma'lumotlarga qaraganda, Abdushukur chiroyli husnixat bilan Abdurahmon Jomiyning «Haft avrang» masnaviysini ko'chirgan [2]. SHu bilan birga, u yirik kutubxona sohibi bo'lib, unda ko'plab ajoyib va nodir asarlar, qo'lyozmalar saqlangan. Ushbu kutubxona keyinchalik Sadri Ziyoga meros sifatida qoldirilgan. Abdushukur o'z uyida zamonasining ilg'or kishilari - mashhur olimu fozillari, shoirlar, latifago'ylar, hurfikrli kishilarni to'plab yig'inlar o'tkazar edi. Tabiiyki, ushbu kechalarda Sadri Ziyo ham ishtirok etar va o'sha davr ilmiy-adabiy muhiti bulog'idan bahramand bo'lardi. Bu esa uning dunyoviy tasavvuri va ijodiy qobiliyatining rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Talabalik yillarida Sadri Ziyoning hovlisi Buxoro ilg'or ziyolilarini birlashtirgan markazga, o'ziga xos adabiy to'garakka aylanadi. Sadridin Ayniy bu haqda shunday yozadi: «Haftaning madrasada dars bo'lmaydigan seshanba, chorshanba va payshanba kunlari SHarifjonning hovlisida shoirlar, she'riyat ixlosmandlari, latifago'ylar, ba'zan esa olimlar va sozandalar yig'ilar edilar» [3]. Ushbu adabiy kechalar XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Buxoro adabiy muhitini shakllanishida katta ta'sir ko'rsatdi. 1890-1893 yillarda Sadri Ziyo Badridin qozikalon rahbarligida "Hikmat-ul-ayn"ni o'zlashtirib, 26 yoshida madrasani tugatdi.

1917 yilning 27 martida Amir Olimxon va vazir Mirzo Nasrullo Sadri Ziyoni Buxoroning qozikaloni etib tayinlaydi. Sadri Ziyo kundaligining ma'lumotlariga qaraganda, amir Olimxon yana bir necha bor jadid-taraqqiyparvarlarning vakillarini hukumat tarkibiga kiritishga majbur bo'lgan. Jumladan, Abdusamad xo'ja Sadri Samarqandiy Buxoro shahrining raisi etib tayinlangan [4].

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Sadri Ziyo 1917 yilgi siyosiy jarayonlarni tahlil qilib, ularni Rossiyadagi voqealar, birinchi jahon urushi natijalari va fevral inqilobi bilan bog'laydi. U o'zining kundaligida bu voqealar haqida batafsil ma'lumot bergan. Muhammad SHarifning xulosalariga qaraganda, Buxoro amiri Said Olimxon va Buxorodagi rus rezidenti A.YA.Miller Rossiyadagi voqealarni amirlikdagi siyosiy vaziyatga ta'sir qilishidan xavotirlanganlar. Qisman islohotni e'lon qilish yo'li bilan ular ommaning chiqishini oldini olmoqchi bo'lganlar. Biroq, amir nomigagina islohot haqida jar solayotgan edi. U aslida islohotga ham, islohotchilarga ham qarshi bo'lib, ularni qo'lga olib jazolash yo'lini tanlagan edi. Bu haqda Sadri Ziyo shunday yozadi: "Amir islohotni o'tkazishdan oldin taraqqiyparvar ulamolar vakillarining bir qismini davlat ishlariga jalb qila boshladi. 1917 yil 7 aprelda mamlakatni (davlatni) isloh qilish bo'yicha u o'zining murojaatnomasini e'lon qildi. Murojaatnoma davlat islohot tarafdorlari va yangilik g'animlari o'rtasida qattiq qarshiliklar kelib chiqishiga sababchi bo'ldi" [5].

Umuman, Sadri Ziyo esdaliklardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, lavozimlardan bo'shatilgan sobiq amaldorlar, katta mansab egalari va ruhoniylarning eskilikni yo'qlovchi qismi, sobiq qozikalon Burhoniddin, Mullo Isomiddin sadr kabilar va boshqalar xalq orasida islohotga va ularning o'rinlarini hamda lavozimlarini egallagan yangi taraqqiyotparvarlarga qarshi targ'ibot ishlarini olib bora boshlaganlar.

Sadri Ziyo bu reaksiya amaliyotining boshlanishidan avval uning oldini olish uchun harakat qiladi. Jumladan, ig'vo tarqatilishidan bir kun oldin - shanba kuni ikki mulladan shaharda islohotga qarshi ig'vo va fitna tarqatilishini eshitadi va zudlik bilan qo'shbegiga telefon orqali fitna tayyorlanayotgani haqida ma'lumot beradi va "Fitnakorlarni ushlaymi?" deya so'raydi. Ammo qo'shbegi ig'vogarlarni hibsga olish va umuman, SHarifjon maxdumning biror bir aralashuvini man qildi [6]. SHu tariqa, reaksiya to'siqlarsiz, to'g'rirog'i, jamiyatning yuqori qatlamlarini qo'lga olish uchun oqimga qarshi kuch ishlatdi.

YOsh buxoroliklarning Fitrat, Fayzulla Xo'jaev, Usmon Xo'ja boshchiligidagi so'l qanoti farmon e'lon qilingan kunning ertasiga – 1917 yil 8 aprelda Buxoro shahrida katta namoyish uyushtirdi va Registonda miting o'tkazdi [7]. Biroq Said Olimxon namoyishchilarni kuch bilan tarqatib yuborib, ularning rahbarlarini zindonga tashladi. Ushbu voqealarning shohidi bo'lgan Muhammad Ali Baljuvoni o'zining

***Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini
ta'minlashning dolzarb masalalari***

«Tarixi nofeiy» asarida shunday yozadi: «SHarifjon qozi kalon bo'lganidan keyin taraqqiyparvarlar jamoasi kuchayib, katta jamoaga aylandi. Ularning eng kattalari qozixonaga kelib, namoyishga ijozat olib, ulardan qariyb 500 nafar guzari Jo'ybor va xiyobondan qizil hurriyat bayroqlarini ko'tarib «yashasin hurriyat» deb kela boshladilar. Ular Registon va Arkka hujum bilan o'tmoqchi bo'ldilar. Butun shaharda g'alayon ko'tardilar. Ahli Buxoroni vahima bosdi. Ba'zi odamlar hurriyat bo'libdi, deb ularga qo'shildilar. SHu asnoda Registon tarafdin miltiq ovozi eshitila boshladi. Bu jamoa qochishni ixtiyor qildi. Buxoro harbiy askarlari harakatga kelib hujumga o'tdilar. Amir bilan qo'shbeigi «bu jamoi avbosh Buxoroning va dini haqning dushmani bo'ladilar, urib olib kelinglar» deb amr berdilar» [8].

Sadri Ziyoni amir yuborgan qurolli soqchilar qutqardilar, Amir Olimxon hamma voqeani saroy qonqasi ustidagi ayvondan kuzatib turgandi.

Mirza Salimbekning xabar berishicha, SHarifjon maxdumni halok qilolmagan mutaassib mullalar amirdan uni qozikalonlik mansabidan bekor qilish zarur, deb talab qilgan. SHuningdek, boshqa yangilik tarafdorlarini ham ishdan bo'shatilishini talab qilganlar [9].

Namoyishni bahona qilib, 14 aprelda amir o'z farmonini bekor qildi. «Amir Said Olimxon tomonidan Abdusamad sudur va Nasrullo qo'shbeigi jadilarni qo'llab quvvatlaganlikda ayblandilar va ularni lavozimlaridan bo'shatib, Nizomiddin Urganjiy (devonbegi, 1920 yilda o'ldirilgan) vazir etib, Mullo Isomiddin esa Buxoroning raisi etib tayinladi. Amir ruhoniylarning eskilikni yoqlovchi qismini talabini qondirib, o'z mamlakatida tartib o'rnatishga muvaffaq bo'ladi» [10]. Xullas, YOsh buxoroliklarning demokratik islohotlarni tinch yo'l bilan amalga oshirish maqsadi puchga chiqdi [11].

1917 yil 9 aprelda Sadri Ziyon bor yo'g'i 14 kun davom etgan qozikalonlik lavozimidan bo'shatiladi (1917 yilning 27 martidan 9 apreлга qadar). Bu voqeadan keyin Muhammad SHarifjon uch oy mobaynida betob bo'lib yotadi va 31 iyulda o'z vazifasidan rasman iste'foga chiqqanini e'lon qiladi.

Amir Olimxon Sadri Ziyoni Buxorodan badarg'a qilish maqsadida 1917 yilning 10 oktyabrida uni Qarshiga qozi etib tayinlaydi.

1918 yil bahorida Turkiston o'lkasi Xalq komissarlari Soveti raisi F.Kolesovning Buxoroga qarshi qurolli harakatni amalga oshirilishi

**Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini
ta'minlashning dolzarb masalalari**

oqibatida Amir Olimxon jadidlarni xoinlikda ayblab, jazolashni buyuradi. Qarshida qozilik qilayotgan Sadri Ziyo ham inqilobchilarga xayrixohlikda ayblanib hibsga olinadi va qo'lyozmalari o'zining ko'z o'ngida yoqib yuboriladi. Ikki oydan so'ng u va ukasi G'ofurjon maxdum 3 million so'm evaziga ozod etilib, SHahrisabzga qozi etib tayinlanadi. Uning faoliyatini nazorat qilish SHahrisabz hokimi, amirning amakisi Akramxon To'ra zimmasiga yuklatiladi.

Sadri Ziyoning xabar berishicha, 1918 yilda SHahrisabz aholisi Akramxon To'raga qarshi bosh ko'tarishadi. Hokim va uning ayonlarining bosh ko'targan xalqqa qarshilik ko'rsatishi muvaffaqiyatsiz kechadi. Natijada amir yuborgan qo'shbegi Nizomiddin Xo'ja boshchiligidagi ellikka yaqin mansabdor shaxslar bu tartibsizliklarni bartaraf etish va g'alayonni bostirishga harakat qilishdi. Ammo ularning uriinishlari behuda ketadi. SHundan so'ng Sadri Ziyo 22 kun davomida kerakli choralarni ko'radi va isyon ko'targanlarga nisbatan hech qanday chora ko'rilmaligini bildirib, g'alayonni bostirishga muvaffaq bo'ladi. Amir Olimxon SHarifjon Sadri Ziyoning bu harakatidan mamnun bo'lib, 1919 yil 5 sentyabrda uni Qarshi viloyatiga qozi etib tayinlaydi.

1920 yil Buxoroda inqilob yuz bergandan so'ng amirning tog'asi, o'sha vaqtda Qarshi hokimi Saidbek inoq Afg'onistonga qochib ketish taraddudiga tushgan edi. Sadri Ziyo shu fursatdan foydalanib qoladi. U pinhoni ravishda savdo karvoni hamrohligida avval G'ijduvonga, so'ngra Buxoroga keladi.

Sadri Ziyo Buxoro inqilobidan keyingi (1920 yil 2 sentyabr) yillarda Sovet hokimiyatining idoralarida mas'ul lavozimlarda ishlab kelgan, jumladan, Vaqf ishlari bo'yicha Buxoro Xalq Sovet Respublikasi boshqarmasida ishlagan, SHariat ishlari bo'yicha boshqarma raisi o'rinbosari, Abu Ali ibn Sino nomidagi kutubxonaning kitobdorligi vazifasini ham bajargan.

Sadri Ziyo 1923-24 yillardan boshlab barcha mas'uliyatli vazifalardan o'zini forig' tutgan. Bunga sabab damqisma (astma) kasalligining xuruj qilishi bo'lgan. O'zini yaxshi his qilishi bilan qo'lga qog'ozu-qalam olib, 1918 yilda musodara vaqtida yoqib yuborilgan qo'lyozma asarlarini qayta yozish bilan mashg'ul bo'lgan. Natijada xotirasining o'tkirligi tufayli kundaliklarining ayrim qismlarini qaytadan tiklashga muvaffaq bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, xaqiqatgo'y qozi sifatida tanilgan Sadri Ziyo ziddiyatli va suronli davrda hayot kechiradi. Sadri Ziyoning Buxoro amirligi siyosiy va madaniy hayotida tutgan o'rni, amirlik va sho'ro tuzumidagi mas'ul vazifalarni ijro etish bilan bog'liq hayot yo'li tariximizning ayrim sahifalarini ochishga imkon beradi. Sadri Ziyoning hayoti va amirlik ma'muriy tizimidagi faoliyati bizga mahalliy ziyolilar qatlamining yangi davrga qanday munosabatda bo'lganligini tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. The Diary of Muhammad Sharif-I Sadr-I Ziya, R 110.
2. Voxidov SH., CHoriev Z. Sadr-i Ziya i ego biblioteka. –T., 2007. (CXXIV)
3. Ayni S. Vospominaniya. Per.s tadj.A.Rozenfelda. – M.-L., 1960. -S 384.
4. Sadri Ziyo. Ro'znoma //O'zR FA SHarqshunoslik instituti, qo'lyozma. №2277. 205^{a, b} vv.
5. Esanova SH. Sadri Ziyoning «Ro'znoma» asari tarixiy manba sifatida. //O'zbekiston tarixi, 2001. №2.
6. Ayniy Sadridin. Ta'rixii inqilobi Buxoro. –B. 163.
7. Xo'jaev F. Buxoro inqilobining tarixiga oid materiallar. –T.:Fan, 1997. –B. 88-89.
8. Muhammad Said Baljuvoni. Tarixi Nofei. /Tojik tilidan tarjima, so'z boshi va izohlar mualliflari SHodmon Vohidov, Zoir CHoriev. – Toshkent, 2001. –B. 45.
9. Mirza Salimbek. Tarix-i Salimi. –Tashkent: Akademiya, 2009. –S.81.
10. O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). Birinchi kitob. –Toshkent, 2019. –B. 99.
11. SHukurov M. SHammae az ro'zgori Sadri Ziyo. Navodiri Ziyoiya. – Dushanbe, 1991. –S. 118.

ILM-FAN – UCHINCHI RENESSANS POYDEVORI

Aziz Hakimov

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi

Buxoro shahar bo'linmasi rahbari

"Bugungi kunda ko'p millatli xalqimiz, Vatanimiz taraqqiyoti uchun O'zbekiston Yangi Uyg'onish davrini yaratish yo'lida belini mahkam bog'lab, fidokorona mehnat qilmoqda. Bu yo'lda ulkan orzu-umidlar,

**Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini
ta'minlashning dolzarb masalalari**

katta rejalar bilan safimizga qo'shilayotgan yoshlarimiz – asosiy
tayanchimiz va suyanchimizdir".
*(O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yoshlar
kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasidan).*

Insoniyat tarixiga nazar solsak, hayot nizomini ilm-ma'rifat asosida qurgan jamiyatlarning barqaror va farovon yashaganiga guvoh bo'lamiz. Bugungi kunimizda ham ilmiy intellekt asosida taraqqiy topib, dunyoning eng rivojlangan davlatlari qatoridan o'rin olgan mamlakatlar talaygina.

Bizning xalqimiz ham qadimdan ma'rifatga oshno va dunyo tamadduniga mislsiz hissa qo'shgan ulamolarni tarbiyalab chiqargan xalqdir. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Mahmud Zamaxshariy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy kabi islom ulamolari, Abu Ali ibn Sino, Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy kabi qomusiy olimlar tomonidan yaratilgan asarlar ming yillardan beri dunyo ahli tomonidan o'qib, o'rganib kelinmoqda. Bizning ham porloq kelajagimiz faqat va faqat kuchli ilm vositasidagina amalga oshadi. O'qish va o'rganishdek sharafl va lazzatli narsa yo'q. Inson bilimi bilan qadrlanadi. Hazrati Odam alayhis salomni farishtalardan ham yuksak maqomga ko'targan sir unga berilgan ilmda edi [1].

Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 29 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqida vatandoshlarimizni ulug' bayram bilan tabriklab: "Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo'ladi,"- deb ta'kidladi.

"Renessans" iborasiga ta'rif beradigan bo'lsak, u fransuz va italyan tillarida, xususan, lotinchada "qayta tug'ilish" ma'nosini beradi. Bu ibora Yevropada ro'y bergan uyg'onish va qayta uyg'onish davri dunyo taraqqiyotiga muhim ta'sir ko'rsatgani, aynan yangilanish va hayotbaxsh mazmunlarni o'zida jo'etgani uchun ham keng qo'llaniladi.

Ta'kidlash joizki, Yaponiya, AQSH, Germaniya, Fransiya, Janubiy Koreya kabi davlatlarining ilm-fan va innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiy taraqqiyot modellari va yuqori natijalari yuksak e'tirof etilayotgani barchamizga ma'lum. Bularning barchasiga 50 yil oldin puxta o'ylangan ilm-fan va innovatsion faoliyatni rivojlantirishga

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

yo'naltirilgan kuchli davlat siyosati orqali erishilgan. Xususan, O'zbekiston hududi ham Sharq Renessansining yirik markazlaridan biri sifatida dunyoga ma'lum va mashhur bo'lganligini ta'kidlash bizga yuksak mamnuniyat bag'ishlaydi.

Xalqimizda, ayniqsa, yurt kelajagini hal qiluvchi kuchi bo'lgan yoshlarda tarixiy xotirani tiklashning samarali usullaridan biri ularni buyuk ajdodlarimiz hayoti va faoliyati bilan tanishtirishdir. Demak, bugungi kunda yoshlar qalbida milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirish va yuksaltirish uchun, ularga tug'ilib o'sgan yurt tarixini va buyuk ajdodlar merosini chuqur o'rgatish hamda ona zaminimizda yashab o'tgan yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish talab etiladi. Chunki o'z yurti va ajdodlari tarixini bilmagan, milliy qadriyatlarni unutgan xalqda milliy g'urur bo'lmaganidek, nasl-nasabini bilmagan, ajdodlari kimligini unutgan insonda ham g'urur bo'lmaydi. Shu bois, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev parlamentga qilgan murojaatnomasida ham ushbu mavzuga alohida to'xtalib: "Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak," - deb uqtiradi [2].

Mustaqilligini his qilgan har bir millat o'z hayot tarixini, kelajagini ajdodlarning tarixiy tajribasi va jahondagi ilg'or tamoyillar uyg'unligi asosida qursa, yanglishmaydi. Bunga tarix guvoh. Ayni shu yo'lni tanlagan xalqlar adashmagan – har tomonlama taraqqiyotga erishgan. Bu o'rinda ma'naviy hayot ustuvorligi ayniqsa muhim. Chunki ma'naviyatga asoslangan ma'rifatgina chin ma'noda bunyodkor bo'ladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach ta'limni tarbiyadan, ma'naviyatni ma'rifatdan ayro olib borib bo'lmasligini, ular uyg'un holdagina kutilgan natija berishini anglab, barcha sohalardagi ishlarni shu maqsadga yo'naltirdi. Natija esa bugun mamlakat hayotining barcha jabhalarida o'zini ko'rsatmoqda. Ajdodlar nomi tiklandi. Bobokalonlarimiz merosi ilmiy asosda tadqiq etilib, keng xalq omma, xususan, yoshlarga yetkazib berildi va yetkazilmoqda. Ko'hna tariximizdan so'zlovchi qadim obidalar batamom yangicha chiroy ochdi: ta'mirlandi yoki qayta qurildi. Milliy qadriyatlarimiz, azaliy urf-odatlarimiz, bayramlarimiz o'zimizga qaytdi. Yangicha ko'rinishda.

Milliy shukuhda. Xullas, ma'naviy hayot yurtimiz ahlining eng muhim ajralmas qismiga aylandi [3].

Ko'rinib turganiday, mamlakatimizda yangi davrning poydevori bo'lmish juda keng miqyosdagi yangicha sifat va qudratga ega zamonaviy innovatsion tizimlarni yaratish jarayonlari davom etmoqda. Davlat rahbarimiz nazarda tutgan Uchinchi Renessans mamlakatimizda ilm-fan taraqqiyotining, iqtisodiyot va jamiyatning, xalqqa xizmat qilish va kishilarni rozi qilishday ezgu niyat bilan amalga oshirilayotgan barcha yutuqlar – kishilarimiz va yoshlarimiz aql-u zakovatining, iqtidor va iste'dod quvvatining yorqin tantanasi bo'ladi.

Adabiyotlar:

U.Muhammadiyev. Ilmdan boshqa najot yo'q. Toshkent, "Mumtoz so'z" nashriyoti, 2019 yil 5-bet.

K.Sultonov. Amir Temurning siyosiy, huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy qarashlarining milliy o'zlikni anglashdagi ahamiyati. Toshkent. "Ma'naviyat" nashriyoti. 2019 yil. 4-bet.

I.Daminov, M.Qaxarova. Baxtga haqli el. Toshkent. "Mumtoz so'z" nashriyoti. 2019 yil. 7-bet.

**PREZIDENT VA IJOD MAKTABLARI
MAMLAKATIMIZDA MA'RIFATNI RIVOJLANTIRUVCHI
MULTIPLIKATIV MUASSASALAR SIFATIDA**

Shirinov Anvar Qanoatovich

*Buxoro Davlat universiteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari"
kafedrası katta o'qituvchisi*

2017-2021-yillarga móljallangan "Harakatlar strategiyasi" nuqtayi nazaridan mamlakatimizda ta'lim sohasida quyidagi islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezident va ijod mamlakatlarining yaratilayotganligi muhim hodisa bo'ldi. Innovasion rivojlanish vazirligi huzuridagi Jahon Bankining «O'zbekiston ilg'or davlatlari tajribalarini loyihaga tatbiq etish"da loyihani amalga oshirish guruhiga ko'makdosh bo'lishlarini aytib o'tildi. Bunda O'zbekistonning milliy innovasion tizimini modernizasiya qilish, global bozorda milliy mahsulotlar va xizmatlarning raqobatbardoshligini, iqtisodiyot diversifikatsiyasi samaradorligini hamda aholining turmush darajasini oshirishga alohida urg'u beriladi. Mamlakatimiz 2022–2026-yillarga móljallangan Jahon Bankining O'zbekiston Respublikasi bilan Hukumatning mamlakatni

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

keyingi besh yilga mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy va rivojlanish rejalariga javob beradigan sheriklik dasturi doirasida «O'zbekiston milliy innovasion tizimini modernizasiya qilish» loyihasi eng muvaffaqiyatli loyihalardan biri bo'lishiga ishonch bildirdi. Bunda Prezident maktablari va ijod matablarining ochilishi muhim voqea bo'di.

Uchinchi Renessansning shakllanishi uchun zarur omillarni quyidagilarda deb bilamiz:

Jamiyat: Hayot sifati indeksi, inson omili, Baxt indeksi, Maosh: Notenglikning bartaraf etilishi, Xayriya indeksi;

Iqtisodiy erkinlik indeksi: Matbuot erkinligi indeksi, Demokratiya indeksi, Tinchliksevarlik indeksi, Terrorizm xavfi indeksi, Barqaror davlatlar indeksi;

Ekologiya: Ekologik samaradorlik indeksi;

Makroiqtidoyot: Global raqobatbardoshlik indeksi, YaIM, Davlat byudjeti bo'yicha davlatlar ro'yxati.

Ta'lim indeksi: Global savodxonlik darajasi, O'rta ta'lim indeksi, PIRLS, TIMSS, ICILS [1].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi doirasidagi maktablar:

1. Abdulla Oripov nomidagi ona tili va adabiyoti fanini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab-internati; 2) Erkin Vohidov nomidagi ona tili va adabiyoti fanini chuqur o'qitishga hamda xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktab-internat, 3) Ibrohim Yusupov nomidagi qoraqalpoq tili va adabiyoti fanini chuqur o'rgatishga ixtisoslashtirilgan maktab-internat; 4) Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ona tili va adabiyot fanini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab-internati; 5) Ishoqxon Ibrat nomidagi xorijiy tillarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab-internati; 6) Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ona tili va adabiyot fanini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab-internati; 7) Ogahiy nomidagi ona tili va adabiyoti fanini chuqurlashtirib o'qitishga hamda xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktab-internat; 8) Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi, 9) Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabi. Bunday maktablarni oshirish va ulardan keladigan multiplikativ samarasi rivojlanishning asosi bo'ladi. Shuningdek, barcha viloyatlar

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

va Toshkent shahrida Prezident maktablari 2019-yildan boshlab faoliyat yuritishi ta'minlanmoqda.

Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internati, *Abu Ali ibn Sino* nomidagi yosh biologlar va kimyogarlar ixtisoslashtirilgan maktab internati, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-sentabrdagi PQ-3274-sonli "Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktabni tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti qoshidagi Aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi negizida tashkil etildi.

STEAM Fest festivalida Toshkent shahridagi eng yaxshi nodavlat ta'lim muassasalari, zamonaviy o'quv dasturlari mualliflari hamda STEAM ta'lim yo'nalishi bo'yicha fikr bildiruvchi xorijiy kompaniyalar ishtirok etdi. Festival ishtirokchilari sifatida GIGO (Rossiya), Robolab (Belarus), Lego Edu (Qozog'iston), Krutaya Nauka (Ukraina) kabi xorijiy kompaniya vakillari ishtirok etdilar. Festival ikki yo'nalishda o'tkazildi. Xorijlik va mahalliy mutaxassislar STEAM, 3D-texnologiyalar va robototexnika yordamida yoshlarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, ta'limda internet resurslaridan foydalanish kabi mavzularda ma'ruzalar taqdim etdi. Tashkilotchilar tomonidan festival doirasida bolalar uchun ham STEAMning turli yo'nalishlari bo'yicha ellikdan ortiq mahorat darslari o'tildi. Mazkur mahorat darslari yosh avlodga bilim olish va yangilikka intilish qiziqarli hamda maroqli bo'lishini amalda ko'rsatdi.

O'zbekiston 2022-yilda ilk bor qatnashishi kutilayotgan PISA xalqaro baholash dasturi o'quvchilarning o'qish, matematik va tabiiy-ilmii savodxonligi bilan bir qatorda, kreativ fikrlashini ham baholaydi. Kreativ fikrlashni rivojlantirish va baholash uchun esa birinchi navbatda bu domenning o'zini tushunish, uning ilmiy asoslarini tadqiq qilish lozim [2].

O'zbekiston 2021-2022-yillarda ilk marotaba ta'lim sifatini baholash bo'yicha PIRLS, PISA va boshqa xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etadi.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

2000-yildan buyon har 3-yilda o'tkazib kelinayotgan, 2022-yilda 90 ga yaqin davlat ishtirok etishi rejalashtirilayotgan PISA tadqiqotlarida 15 yoshli o'quvchilarning o'qish savodxonligi, matematika va tabiiy fanlar yo'nalishlari bo'yicha bilimiga baho berildi. PISA tadqiqotlarida o'quvchi dasturni o'zlashtirganligi emas, balki bilim va ko'nikmalarni hayotda qay darajada qo'llay olishi baholanadi.

2000-yilda PISAning birinchi natijalari germaniyalik o'quvchilarning boshqa mamlakatlardagi tengdoshlariga nisbatan bilim darajasi pastligini ko'rsatgan. Ya'ni, ushbu mamlakat 2000-yilda 32 ta davlat o'rtasida 25-o'rinni egallagan va bu holat PISA-shok deb nomlangan. Germaniya ta'lim sohasida bir qator islohotlar amalga oshirilgan va ta'lim sifatida o'sish kuzatilgan. Germaniyalik o'quvchilar 2006-yilda o'tkazilgan tadqiqotlarda 57 ta davlat o'rtasida 14-o'rinni, 2015-yilda 71 ta davlat o'rtasida 13-o'rinni hamda 2018-yilda 79 ta davlat o'rtasida 17-o'rinni egallashdi. O'zbekistonga mazkur innovatsion texnologiyalarni qo'llash ijobiy natijalarga olib keladi [3].

Mazkur maktablar mamlakatimizning ta'lim sohasida katta samara va multiplikativ samaraga ega bo'lishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://piima.uz/news/mard-oglon-mukofoti-sohibi-yuritimizdagi-har-bir-yosh-davlat-e'tiborida>

2. PISA tadqiqotida kreativ fikrlashni baholash doirasi. <https://www.uzedu.uz/uploads/2020/08/pisa-tadqiqotida-kreativ-fikrlashni-baholash-doirasi.pdf>

3. U O'zbekistonda ham ro'y berishi mumkinmi? [https://tdi.uz/news/513/PISA-shok nima ?](https://tdi.uz/news/513/PISA-shok-nima-?)

YANGI O'ZBEKISTONNING SHAKLLANISHIDA OILANING O'RNI

Z.Nasimova

Toshkent davlat Pedagogika Universiteti o'qituvchisi

Milliy mafkuramizga xos bo'lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, o'ta ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi. Oiladagi sog'lom muhit-sog'lom mafkurani shakllantirish manbaidir. Jamiyatda har bir oilaning mustahkamligi, farovonligini, o'zaro hurmat va ahillikni ta'minlash-milliy mafkurada ko'zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishda tayanch bo'ladi. Oila

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

muhitida tashkil etilayotgan tarbiyaviy faoliyatning milliy tarbiya g'oyalariga asoslanishi shubhasizdir. Milliy tarbiya deganda ham milliy, ham zamonaviy talablarga mos an'ana va tajribalar vositasida amalga oshirilayotgan tarbiya jarayoni tushuniladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqida ta'kidlanganidek, "Bugungi kunda yurtimizda tobora keng tarqalib borayotgan. "O'z bolangni o'zing asra" deganda vat faqat quruq shior bo'lib qolmasdan, har bir ota-ona, har bir fuqaroning qalbiga chuqur kirib borishi amaliy harakatga aylanishi zarur. Buning uchun bu masalani, ya'ni ota-onalarning farzandlar tarbiyasi uchun mas'uliyatini va burchini huquqiy asosda mustahkamlab qo'yish vaqti keldi, deb o'ylayman". Yurtiga, vataniga muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari xalqimizning qon-qoniga singib ketgan azaliy xususiyatdir. Shu bois milliy fazilatlarni asrab, avaylash va yanada takomillashtirish, yoshlarni yangi O'zbekistonning munosib o'g'il - qizlari etib tarbiyalash masalasi oilaviy tarbiya sohasidagi amaliy ishlarning asosiy yo'nalishini tashkil etishi zarur. Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillilik, millatidan qat'iy nazar odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, o'zгалar kulfatiga hamdard bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yorini hisoblanadi. Sharq allomalarining tarbiya nazariyasi va metodlariga oid bebaho merosi avlodlarning ma'naviy ruhiy ongi va turmush tarzini shakllantirishda muhim o'rin tutgan bo'lib, bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Oila tarbiyasi-jamiyat tarbiyasining negizi. Ko'p millatli O'zbekiston aholisini katta oilaning a'zolari deb tushunish mumkin. Oilada mustahkam tartib, uning a'zolari o'rtasida o'zaro hurmat shakllanmagan bo'lsa, har bir a'zo o'z burchini vijdonan ado etmasa, bir - biriga nisbatan o'zaro yordam va mehr-oqibat ko'rsatmasa jamiyat taraqqiyoti ta'minlanmaydi, ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy rivojlanish ko'zga tashlanmaydi. Oila huquqiy va ma'naviy - axloqiy asoslar negizida barpo etiladi, demokratik tarbiya negizlariga asos solinadi. Tarbiya tushunchasi "parvarish qilish", "o'rgatish", "mehribonlik ko'rsatish", "ko'z-quloq bo'lish" hamda "himoya qilish" kabi ma'nolarini anglatadi. Oilaviy tarbiyaning pedagogik jihatdan

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

to'g'ri tashkil etilishi yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo'lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi. O'sha baxtli kunlarni, vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko'rish hammamizga nasib etsin!". Prezidentimiz fikrlarida oilaning, eng avvalo, e'tiqod va sog'lom dunyoqarash tarbiyasidagi benazir rolini ta'kidlangandir. Shu sababli oila hamda mahalla tizimida bola tarbiyasi bilan bog'liq barcha tarbiyaviy ishlarning asosida xalq an'analarning, xususan, oilaviy o'zaro munosabatlarda saqlanib qolgan milliy qadriyatlarning tub mohiyatiga aloqador qonuniyatlarni o'rganish vazifasi turibdiki, ularning ijtimoiy psixologik shart-sharoitlarini tadqiq etish, qo'lga kiritilgan natijalarni amaliyotga tatbiq etishni davrning o'zi taqozo etib turibdi. Bugungi kunda oiladek ta'sirchan ijtimoiy institut orqali bolalarda aynan shunday qadriyatlarga nisbatan e'tiqodni shakllantirish va shu orqali oilaga nisbatan ijobiy ijtimoiy munosabatlarni hosil qilish dolzarb masalalardandir. Chunki oila asrlar mobaynida xalq an'nalari, milliy rasm-rusmlar va odatlarni saqlab hamda namoyon etib kelayotgan noyob makondir. Oila tarbiyasida bolalar hayotini to'g'ri tashkil etish ularni vaqtdan samarali va unumli foydalanishlarining asosiy garovidir. Bolalarning oiladagi vaqtini o'yin, mehnat va o'qish faoliyatlari bo'yicha to'g'ri taqsimlash nihoyatda muhimdir.

Oila jismoniy va psixologik jihatdan sog'lom, ma'naviy barkamol, mehnat, ijtimoiy hamda oilaviy hayotga tayyor shaxsni shakllantirib berishi lozim. Oila tarbiyasining mazmuni bolalarga ijtimoiy tarbiyaning mazkur yo'nalishlari -jismoniy, axloqiy, aqliy, estetik, mehnat, ekologik, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy-g'oyaviy hamda jinsiy ta'lim-tarbiya berish, ularda faoliyat ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Oila muhitida tashkil etiladigan jismoniy tarbiya o'zida bolani har jihatdan chiniqtirish, ularni tozalik va ozodalikka o'rgatish, o'z sog'ligi uchun g'amxo'rlik qilish va mas'uliyatli bo'lishni ta'minlashga qaratilgan harakatlarning mazmunini ifoda etadi.

Oila tarbiyasida bolalarni aqliy jihatdan tarbiyalash ham muhim o'rin tutadi. Bu boradagi dastlabki va muhim vazifa ota-ona tomonidan

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

bolaning qiziqish va ehtiyojlarini ko'ra bilish asosida tasavvur, idrok, tafakkur, xotira hamda diqqatni takomillashtirishga yordam beruvchi mashg'ulotlarga jalb etishdan iborat. Axloqiy tarbiya oila tarbiyasining o'zagini tashkil etadi. Uning maqsadi bolalarda eng oliy axloqiy sifatlar, ota-ona hamda oilaning boshqa a'zolari, shuningdek atrofdagilarga nisbatan adolat, mehr-muxabbat kattalarga hurmat, kichiklarga vijdon, or-nomus, gurur, burch, insonparvarlik, mehnatsevarlik, sahovat, to'g'riso'zlik, kamtarlik muruvvat, intizomni ijtimoiy anglash va hokazolarni shakllantirishdan iboratdir. Oilada estetik tarbiyani to'g'ri va samarali tashkil etilishi ayniqsa muhimdir. Bolalar juda yoshligidanoq soxta go'zalliklar (yarim yalang'och badan, me'yorida ortiq qilingan pardoz, urfga kirib borayotgan kosmetik operatsiyalar «mahsuli», o'ta darajadagi yaltiroq mato yoki ta'vinchoqlar) go'zallikning timsoli emasligini anglab yetishlari lozim.

Oila qadim - qadimdan muqaddas dargoh deb hisoblanib kelingan. Inson turmushini oilasiz tasavvur etib bo'lmaydi, chunki u umri mobaynida oila ta'sirini sezib turadi, dastlab ota-onasining oilasida, so'ng o'zi qurgan oilasida hayot kechiradi. Har ikki holda ham oila insonning shaxs sifatida qaror topishiga muhim tarbiyaviy ta'sir kursatadi. Insonning shaxs sifatida hayotiy xususiyatlari, so'zsiz, oilada shakllanadi. Oilada u ona tilida so'zlashishni o'rganadi. Millati, xalqi urf-odatlarini, an'analarini, umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtiradi, dunyoqarashi, mafkurasi shakllanadi. Shu sababli oila jamiyatning ijtimoiy va ma'naviy - axloqiy tayanchi hisoblanadi. Sharqda azal-azaldan oila tarbiyasiga yuksak baho berib kelingan. O'zbek oilasidagi tarbiyaning o'ziga xosligi va qadr-qimmatini shundaki, bu yerda farzandlar ongiga e'tiqodni singdirish jarayonida oilaning kattalari - bobolar, momolar, yaqin qarindosh-urug'lar ham bevosita ishtirok etadilar.

Yoshlarimizning barkamol bo'lib yetishishida mahalla, oila jamoat tashkilotlari va ta'lim muassasalari alohida o'rin egallaydi. Kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol insonni voyaga yetkazishga intilish xalqimizga xos milliy hususiyatlardandir. Darhaqiqat, barkamol avlod dastlab oilada vujudga keladi, oila muhitida yaxshi yoki yomon insonlar bo'lib voyaga etadi. Oila tarbiyasi - bu umuminsoniy jarayonning shunday bosqichidirki, keyinchalik butun umri davomida oladigan ma'rifat va hayot saboqlari uchun asos, zamin poydevor

vazifasini o'taydi. Har bir ota-ona o'z burchlarini anglagan holda oilani mustahkamligini ta'minlaydigan hamma xususiyatga to'liq rioya qilishga harakat qilishi, uning vazifa va maqsadlarini tushunishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar: Mas'ul muharrir: N.Komilov. – Toshkent: “Sharq” 2008 y
2. Inomova Malika. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. – Toshkent: 2011 y
3. www.pedagog.uz

**BUXOROLIK OLIMLARNING ILM-FAN RIVOJIGA
QO'SHGAN HISSASI**

OLIMA AYOLLAR E'ZOZDA

Qobilova Gulasal Shuhrat qizi

BuxDU filologiya fakulteti 1-bosqich magistranti

"O'qituvchi va murabbiylar -yangi

O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va
suyanchimizdir"

Sh.Mirziyoyev

Dunyoda shunday kasblar borki, rohatidan mehnati, muvaffaqiyatidan zahmati ko'p. Ustoz-u murabbiylarning mehnatini ham shunga qiyoslash mumkin. Ustozlarimizning zakiy ilmi, ta'lim - tarbiyasi, qalb qo'ri ila bergan saboqlari tufayli unib-o'samiz, jamiyatda o'z o'rnimizni egallaymiz. Zero, har qanday insonni ustoz-murabbiy tarbiya qiladi.

Prezidentimizning quyidagicha fikrlarini, shu o'rinda keltirib o'tishni joiz deb bildim: "Biz maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy va o'rta-maxsus ta'lim tizimi, hamda ilmiy madaniy muassasalarni bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi deb bilamiz. Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni deb hisoblaymiz". Jonkuyar, o'z kasbining mohir ustasi, mehribon ustozlarimiz bizning tayanchimiz, ishonchimizdirlar!

Ilm - bebaho boylik, uni egallash oson ish emas. Ulamolar ilm olishni igna bilan quduq qazishga o'xshatishgan. Inson shunday bebaho xazinaning sohibi bo'lishida ustozning o'rne beqiyos. Mashaqqatli kasb

**Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini
ta'minlashning dolzarb masalalari**

egalari bo'lmish ustozlarimiz haqida gapirar ekanman, barcha ustozlarim chin ma'noda hurmat va ehtiromga sazovor insonlardir. Suratdagi inson olim ustozim, mehribon, talabchan, jonkuyar, o'z kasbining yyetuk mutaxassisi, mening ustozim, filologiya fanlari dotsenti **HILOLA SAFAROVA OXUNJONOVNA** 1984 - yil Buxoro davlat pedagogika institutini tugatganlar, mutaxassisligi o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi, 2001- yilda "Rabg'uziyning "Qissai Yusuf Siddiq alayhis-salom" asari manbalari va g'oyaviy-badiiy tahlili" mavzusidagi nomzodlik disertatsiyasini muvafaqqiyatli himoya qilganlar. Hozirgi kunda Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti o'zbek adabiyoti kafedrasida dotsenti lavozimida faoliyat yuritib kelmoqdalar.

2001-2019-yillar davomida Respublika ilmiy jurnallarida 40 dan ortiq ilmiy maqolalari va 30 dan ortiq tezislari bilan ishtirok etgan. Chet el jurnallarida Rossiya, Ukraina, London jurnallarida maqolalari chop etilgan. 1 ta yakka mualliflikda monografiya, 3ta hammualliflikda risola va 3 ta uslubiy qo'llanma nashrdan chiqargan va talabalar foydalanishi uchun universitet va fakultet kutubxonalariga topshirgan. O'quv qo'llanma va darsliklari: "Yozma adabiyot va folklor"; O'zbek adabiyotshunosligi yo'nalishi; 1-bosqich magistrantlari uchun metodik qo'llanma. Adabiyot. (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari qituvchilari uchun). "Abulqosim Firdavsiy hayoti va ijodini o'rganish" kabi kitoblarini biz kitobxonlar sevib mutolaa qilamiz.

36 yillik faoliyatlari davomida yuzga yaqin ilmiy maqola va tezislari muallifidirlar.

1993 – yilda "O'zbek abiyoti tarixi va qardosh xaqlar adabiyoti" kafedrasida o'qituvchi lavozimiga ishga qabul qilingan. Hozirda Filologiya fakultetining "O'zbek adabiyoti" kafedrasida dotsent lavozimida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. H.O.Safarova iqtidorli talabalarga ham rahbarlik qilib kelmoqda. U ilmiy rahbarlik qilayotgan talaba va magistrlar fan olimpiadalari va Xalqaro konferensiyalarda qatnashib, faxrli o'rinlarni egallab kelmoqdalar. Olima ustozimiz talabalar bilan o'zining ilmiy, ilmiy-uslubiy va amaliy ishlari bilan Respublika va Xalqaro miqyosdagi konferensiyalarda chiqishlar qilib kelmoqda. Ilmiy amaliy tajribalarini fanining dolzarb masalalariga bag'ishlangan ilmiy amaliy konferensiyalarda nomoyon qilmoqda. Universitet miqyosida muntazam ravishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilishida va har bir tadbirda shaxsan o'zi faollik ko'rsatib o'z

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

ma'ruzalari bilan ishtirok qiladi. U o'z ishiga mas'uliyatli, talabchan va izlanuvchan rahbar sifatida talabalar va jamoa a'zolari orasida katta hurmatga sazovor. Shuningdek u o'z ishiga ma'suliyat bilan yondashadigan intizomli, fidoyi, so'zamolligi va o'zining noyob tabiatini har qanday sohada ham namoyon qila oladigan ijodkor pedagogdir. Bundan tashqari u mustaqil ish uslubiga ega bo'lib, o'z ish rejasidagi dars mashg'ulotlari bilan bir qatorda fan va ta'lim sohasidagi ilmiy yangiliklarga qiziqishi yuqori. H.O.Safarova ma'naviy jihatdan yyetuk, ilmiy dunyoqarashi kuchli hamda kamtarona insoniy fazilatli, har qanday mas'uliyatli ishni bajara oladigan va Respublikamizning ilmiy salohiyatini yuksaltirishga o'zining hissasini qo'sha oladigan mohir olim pedagogdir.

Respublikamizning barcha olim ustozlarini shijoat va matonat hech qachon tark etmasin, hamisha shogirdlar ardog'ida yurishni, bosib o'tgan hayot yo'llarini har bir lahzasi asrlarga tatigulik bo'lishini tilab qolaman. Mana shunday xalqqa xizmati teguvchi ustozlarimizga boshimiz yerga tekkuncha ta'zim qilamiz. Ularning o'quvchilariga berayotgan bilimlarini dunyodagi eng ezgu, eng samimiy e'tiroflar bilan aytganda ham kamlik qiladi. Mana shunday ustozlarimizga hamisha ta'zimdamiz. Bekorga: "Ustoz otangdek ulug'", - deb aytilmagan ekan. Ustozimga ilm yo'lidagi mashaqqatli, lekin sharaflil faoliyatlarida hamisha salomatlik va kuch-quvvat tilayman. Mana shunday insonning o'quvchisi ekanligimdan faxrlanaman va kelajakda ular kabi o'zimni kashf qilishga qodir shaxs qilib tayyorlayman va bunga albatta erishaman!

Aytsam, bahor yashar ekan kuz uchun,
Yashayapmiz boldek shirin so'z uchun,
Navoiy ham otdan tushgan siz uchun,
Millatimiz qarog'i siz ustozlar,
Ma'rifatning chirog'i siz ustozlar.

**BUXORO-ILMIY, DINIY VA FALSAFIY BILIMLAR
MAKONIDIR**

Ramazonova Iroda

Ijodiy-ma'daniy masalalar bo'yicha targ'ibotchisi

Buxoro viloyati Buxoro tumani 4-umumta'lim maktabi

"Ruh – shamchiroqqa, bilim-ana shu shamchiroqdan taralayotgan yog'duga, Allohning zakosi esa moyga o'xshaydi. Shamchiroq yonishdan to'xtamas ekan-sen tiriksan, agar u o'chsa – sen halok bo'lasan".

Abu Ali Ibn Sino.

Buxoro – ona yurtimiz, kindik qonimiz tomgan aziz va muqaddas tuproq. Bu tuproq ostida bizga ulkan ibratli xazina qoldirib ketgan ustozlarimiz, buyuk insonlar yurti hisoblanadi. Bir vaqtlar bu yerdan Buyuk Ipak yo'lida joylashgan shahar eng qadimgi shaharlaridan biri bo'lib, uning tarixi 2500 yildan oshadi. Buxoro o'zida qadimiy urf-odatlarining ko'p asrlik tarixini Islom dini bilan mujassamlashtiradi. Hayratlanarli darajada donolik, muqaddaslik va ta'lim berish muhitiga ega bo'lgan shahar sanalgan. Shahar IX asrdayoq O'rta Osiyoning muhim Islom va madaniyat markazlaridan biriga aylandi. Bir necha asrlar davomida bu yerga sayohatchilar, ziyoratchilar, tadqiqotchilar ko'plab ekspeditsiyalar uyushtirib shahar aholisini, turmush tarzini, tarixiy yodgorliklarini va ilm-madaniyatni o'rganib ketishgan.

Bu yerda o'z davrining ilg'or insonlari, din arboblari, shoir-u fuzalolari yashab ijod qilishgan. Ular millatimiz, jamiytimiz rivoji uchun moddiy va ma'naviy yodgorliklar yaratdilar, aql bovar qilmas darajada go'zal madrasa va masjidlar qurdilar. O'z davrning buyuk olimlari Buxoro zaminida tug'ilib, yashab, ijod qilib, jahon hamjamiyatida qilgan kashfiyotlari tan olingan. Butun dunyoda "Avitsenna" atamasini qo'llanilishining asoschisi O'rta osiyolik buyuk qomusiy olim, faylasuf va mahoratli tabib Abu Ali Ibn Sino (to'liq ismi Abu Ali al-Husayn ibn Abd Allah ibn Sina al-Balkhi) bo'lgan. 980-yilda 18-iyunda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilgan. Otasi Abdulloh Balx shahridan Buxoro tomonga amaldor etib saylanadi va Afshona qishlog'idan Sitara ismli qizga uylanadi. Undan ikki o'g'il ko'radi, Ibn Sino va Mahmud. So'ngra Ibn Sinoni 5 yoshida o'qishga berishadi. Uning ilm sohasidagi ilk ustozlari Abu Abdulloh Notiliy unga falakiyot, mantiq, falsafiy masalalarni, arab tili va adabiyoti, al-jabr,

adab darslarini mukammal o'rgata boshladi. 17 yoshida Buxoro xalqi orasida mohir tabib sifatida nom qozona boshladi. O'sha kezlarda hukumdor Nuh ibn Mansur betob bo'lib, saroy tabiblari uni davolashga ojiz qoladilar va yosh tabibga murojaat etib, hukumdor o'z sog'lig'ini tiklab oladi. Qilgan mehnatlari evaziga hukumdor unga saroy kutubxonasidan foydalanish imkonini beradi. Bu esa yosh olim hayotida katta yutuqlarga erishishi yo'lida ulkan tamal toshi bo'lib xizmat qiladi. Chunki, Somoniylar kutubxonasi o'sha davrda O'rta va Yaqin sharqdagi eng yirik kutubxonalardan hisoblanar edi. Olim ilmiy ijodi 18 yoshidan boshlandi. Nuh Ibn Mansurga atab "Urjuza" nomli tibbiy she'riy asar, "Aruziy hikmati", 20 jildli "Alhosil val-mahsul" asari, 2 jildli "Kitob albir val-ism" (sahovat va jinoyat kitobi) kabi asrlarni yaratdi.

1002-yilda otasi vafot etgach Ibn Sino Xorazamga bosh olib ketadi. U yerda ko'pgina olimlar bilan birgalikda o'z davrining yyetuk matematik va astronomi bo'lgan Abu Nasr ibn Iroq, mashhur tabib va faylasuflar Abu Saxl Masihiy, Abu-u Xayr Hammor va buyuk olim Abu Rayhon Beruniy kabi olimlar bilan birga faoliyat olib borgan. Beruniy bilan birgalikda Aristotel ta'limoti haqida yozishmalari tarixda mashhur. Ibn Sino Abu Saxl Masihiyning tibbiy tajribasi va bilimlaridan katta saboq oladi. Olimning falsafaga oid eng yirik muhim asari "Kitob ash-shifo" dir. U to'rt qismdan iboratdir. 1-qism "Mantiq", u to'qqiz qismga bo'linadi. Mantiqqa kirish, uning turlari, isbot, dalil, ritorika, poetika, interpretatsiya, sofistika, sillogizm kabi bo'limlardan iborat. 2-qismda Tibbiyot bu yerda minerallar, o'simliklar, hayvonot olami va insonlar haqida alohida-alohida bo'limlarga ajratilgan. 3- qismda Riyoziyot fanlari, ular 4 ta fanga bo'lingan. Hisob, handasa, asranomiya va musiqa. 4-qismda esa, Metafizika yoki ilohiyotga bag'ishlangan. "Kitob ash-shifo" asarining qisqartirilgan shakli "Kitob an-najot" asari ko'plab tillarga tarjima qilingan. Olimning falsafiy qarashlari asosida ko'plab asarlar yaratildi: "Al-ishorat vattanbihot"(ishqorlar va tanbihlar), "Hikmat al-mashriqiyn" (sharqchilar falsafasi), "Donishnoma", "Tayr qissasi", "Solomon va Ibsol", "Kitob al-ishorat fil-mantiq va hikmat"(mantiq va falsafaning ishoralari) kabi ko'plab asarlar yozib qoldirib, o'z davrining yyetuk olimi sifatida butun jahonda o'zidan o'chmas iz qoldirgan. Olimning tabobat sohasidagi qilgan buyuk ishlari hali hamon

jahon e'tirofida. Uning “Tib qonunlari” yirik ensklapediya, olimning ulkan yutug'i hisoblanadi. Asar lotincha shaklida 40 marotabadan ortiq nashrdan chiqarildi. Uning tibga oid 30dan otiq asarlari bizgacha yetib kelgan. “Usuriya fi-tibb”, “ Yurak dorilari”, “ Tomir urushi haqida makrla” kabi asrlari shular jumlasidandir. Biz Ibn Sinoning butun jahon ilm-fan rivojiga qo'shgan hisasini, boy ilmiy merosini doimo yodimizda saqlab, unga munosib avlodlar bo'lishga harakat qilaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1 Tib qonunlari asari.
- 2 Buxoro tarixi kitobi .
- 3 [www. vikipediya: Ibn Sino.uz](http://www.vikipediya: Ibn Sino.uz)
- 4 www. Tibbiyot asrlari.uz

ILM GULSHANIDA CHAQNAGAN CHAQMOQ

Sharipov Jahongir Zarif o'g'li

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani

13- umumiy o'rta ta'lim maktabining

Ijodiy - madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchisi

Buxoro azal -azaldan buyuk ilm markazi sanalgan. Shuning uchun ham Buxoroyi sharifga ilm olish uchun dunyo mamlakatlaridan ko'plab tolib-u tolibalar yog'ilib kelavergan. Buyuk Buxoriylar, Ibn Sino, Narshaxiylar yurti sanalgan Buxoroning ilmga tashna farzandlari hozirda ham o'z ajdodlari izidan borib ilm-u ijodda jonbozlik ko'rsatmoqdalar. Buxoro ilm-fani rivojiga buyuk hissa qo'shib kelayotgan olimlarimizning son – sanog'i yoq. Ana shunday ilm guldastasi ichidan chaqmoqday chaqnab turgan olimi Shoira Axmedovaning ilm - fan rivojidagi xizmatlari beqiyos. Buxoroning asl farzandi Axmedova Shoira Nematovna 1981–yilda Buxoro pedagogika ishtitutining o'zbek filologiyasi fakultetini intiyozli diplom bilan tugatdi. Undagi tilga va adabiyotga bo'lgan ishtiyoq uni o'zi tahsil olgan oliy dargohga qolib ishlashga undadi . Mana 37 yildirki, Shoira Axmedova Buxoro davlat universitetining professor olimasi, minglab shogirdlarning sevimli ustoz, odamiylik fazilatining buyuk malikasi sifatida e'zoz - u e'tibordadir. Shoira Axmedova respublikamizdagi taniqli adabiyotshunos olimalardan biridir. U o'zbek adabiyotshunoslari ijodining targ'ibotchisi sifatida yoshlarning intellektual salohiyatini yuksaltirishga, milliy qadriyatlarimizni boyitishga xizmat qilib

**Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini
ta'minlashning dolzarb masalalari**

kelmoqda. Adabiyotshunos olim sifatida 2008- yilda doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan ustozning milliy ruh bilan sug'orilgan O'zbek adabiy tanqidi tarixi, Adabiyot ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari, Adabiyiy tanqid nazariyasi, Jahon adabiyoti muammolari kabi qator ilmiy yo'nalishdagi majmualari, milliy ma'naviyatimizni targ'ib qilishga qaratilgan televideniye va matbuotdagi chiqishlari, ma'ruzalari bilan adabiyot ixlosmandlarining nazariga tushdi. Ustoz oliy ta'lim dargohida tajribali, jonkuyar va fidoiy pedagog, mohir va izlanuvchan olim, mehnatsevar va taniqli tashabbuskor xodim, samimiy va adolatli inson sifatida ko'p yillardan beri faoliyat ko'rsatib, o'qitishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini zamon ruhi bilan bog'lagan holda talaba va magistr'larga saboq berib kelmoqda. 2011–yildan buyon O'z MTDP Buxoro viloyati kengashi ijroiya qo'mitasi raisining o'rinbosari sifatida partiyaning harakat dasturidan kelib chiqib, xalqimizning milliy qadriyatlarini yoshlar orasida targ'ib etishga jonbozlik ko'rsatib kelmoqda. O'zbekiston xotin - qizlarining“ 100 ta innovatsion loyiha“ tanlovida qatnashib, sertifikatni qo'lga kiritgan ustoz sifatida e'tirofqa sazovordir. Ustozning o'z maqsadi yo'lida mashaqqatlardan qo'rqmasligi, orqaga chekinmasligi, qalbida hammaga hamisha ezgulik va yaxshilik bilan yorug' nur sochishiga harakat qilishi yoshlarga saboq va ibrat maktabi bo'la oladi. Ustoz 2012-yildan “Turon“ fanlar ilmiy akademiyasining akademigi hamdir. Shoiraxmedova O'zbekiston Respublikasi oliy attestasiya komissiyasining 2008 - yil 28.09.256 1 – son bayonnomasiga asosan o'zbek adabiyoti kafedrasida professori unvonida tasdiqlandi. Uning ilmiy rahbarligida 3 nafar tayanch doktorant va 3 nafar mustaqil tadqiqotchi izlanuvchilar doktorlik tadqiqotlarini amalga oshirmoqdalar. Laylo Sharipova, Shoxsanam Davronova, Jeren Mizrobova, H.Qodirova H.Norova, O.Qurbonova, T.Zoirova kabi ko'plab izdoshlari ustoz izidan borib, ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Ustoz ibratli oila bekasi, 4 nafar farzandning mehribon onasi, 6 nafar nevaraning aziz buvijonisidir. Turmush o'rtog'i pedagogika fanlari nomzodi, dotsent G'ayrat Muxammedovich Salimov bilan birga ilm va ziyoga burkangan ibratli va saodatli yo'lni birga bosib o'tmoqdalar. Olima ustozimizga sog'lik va uzoq umr tilab qolamiz.

**УЧИНЧИ РЕНЕССАНСНИНГ ИЖТИМОЙИ
ПСИХОЛОГИК ДРАЙВЕРИ**

*Хазрат Жабборов – Тошкент давлат шарқшунослик университети,
“Педагогика ва психология” кафедраси катта ўқитувчиси, психология
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)*

Ижтимоий психологик драйвер бу – мотивация! Бугунги кунда барча оммавий ахборот воситаларида, жумладан телевидение, газета, журнал ва ижтимоий тармоқлар ҳамда одамларимизни бир-бирлари билан суҳбатларида “Янги Ўзбекистон”, “Янги Ўзбекистон – янгича дунёқараш” каби ибораларга кўраяпмииз, эшитаяпмииз.

Жаҳон миқёсида юртимиз ҳақида сўз кетганда “Янги Ўзбекистон”, “Янги Ўзбекистон тажрибаси” деган иборалар тилга олинмоқда. Бу мамлакатимизда кейинги йилларда тараққиётнинг мутлақо янги босқичига қадам кўйганимиз, эришаётган залворли ютуқларимизнинг эътирофи десак ҳечам муболаға бўлмайди.

Ўзбекистон халқининг кўп асрлик бой тарихига назар ташлар эканмиз, унда азалдан илм-маърифатга алоҳида эътибор қаратилиб келганлигини гувоҳи бўламиз. Ўша даврларда жамиятда илм-фан, санъат ва маданиятнинг юксалиши, буюк сиймоларнинг ўз ижодида эришган ютуқлари жаҳон тамаддунининг ривожига кўшган хиссаси барчамизни бирдек фахруғуруримизга сабаб бўлиб келмоқда.

Барчамизга тарихдан яхши маълумки, диёримиздаги биринчи Ренессанс даври - Сомонийлар даврига тўғри келиб, ушбу даврда буюк аждодларимизнинг яратган илмий-фалсафий асарлари ва оламшумул кашфиётлари ислом цивилизациясига тамал тоши бўлди. Ренессанснинг иккинчи даври эса – Амир Темур ва Темурийлар даврига тўғри келиб, нафақат Моварауннаҳр, балки бутун Марказий Осиё ўлкалари ўз тараққиётининг янги поғонасига кўтарилади.

Ўзбекистон Республикаси Мустақиллигининг 29 йиллик тантаналарида Ўзбекистон Республикаси Президентининг: «Халқимизнинг улуғвор кудрати жўш урган ҳозирги замонда Ўзбекистонда янги бир уйғониш – Учинчи Ренессанс даврига пойдевор яратилмоқда», - деган сўзи янгради.

Юртбошимиз мазкур чиқишларида бугунги Ўзбекистон – кечаги Ўзбекистон эмас. Бугунги халқимиз ҳам кечаги халқ эмас», деб такидладилар.

Дарҳақиқат Ўзбекистонда янги уйғониш - Учинчи Ренессанс даври бошланди. Макур ҳолатни бугунги кунда мамлакатимизда, шиддат билан

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

ривожланаётган ҳаётимизда рўй бераётган юксалиш жараёнлари ўзини барча соҳаларда намоён этмоқда. Бинобарин, мустақилликка эришган йилларимизнинг илк даврида биз ўзимизнинг миллий ўзлигимизни англаш, бой тарихий-маънавий ҳамда илмий меросимизнинг асл мазмун-моҳияти мағзини чақиш ва уни рўёбга чиқаришга интиланган бўлсак, эндиликда халқимиз жипсланиб “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари” ғоясини собит қадамлик билан амалга оширишга киришди. Бу даврда жамиятимизда ижтимоий тафаккурнинг юксалиш тенденцияси қарор топиши, унга хос ҳам миллий, ҳам умуминсоний қадриятларнинг мужассамлиги эътироф этилмоқда. Миллий руҳ ва умуминсоний қадриятлар уйғун бўлган ижтимоий тафаккур – мамлакатимиз барқарор ривожланишининг ўзан мезон ва мустаҳкам пойдевориغا айланмоқда.

Давлатимиз раҳбари ҳозирги даврни миллий тикланишдан миллий юксалиш сари деб эълон қилганлигининг замирида қатъий ишонч ва чуқур ҳикмат мужассам. Негаки, кейинги 10 йиллигимиз асл юксалиш ва тараққиёт даври бўлиши муқаррар. Зеро охириги йилларда қабул қилинган ва албатта қилинажак қонунлар, фармон ва қарорлар, амалга оширилаётган кенг кўламли ислоҳотлар тараққиётнинг янги уфқларига асос бўлади. “Биз кенг кўламли демократик ўзгаришлар, жумладан, таълим ислоҳотлари орқали Ўзбекистонда янги Уйғониш даври, яъни Учинчи Ренессанс пойдеворини яратишни ўзимизга асосий мақсад қилиб белгиладик. Бу ҳақда гапирар эканмиз, аввало, учинчи Ренессанснинг мазмун-моҳиятини ҳар биримиз, бутун жамиятимиз чуқур англаб олиши керак. Тарихга назар солсак, Буюк ипак йўлининг чорраҳасида жойлашган она заминимиз азалдан юксак цивилизация ва маданият ўчоқларидан бири бўлганини кўрамиз. Халқимизнинг бой илмий-маданий мероси, тошга муҳрланган қадимий ёзувлар, бебаҳо меъморий обидалар, нодир қўлёзмалар, турли осори атиқалар давлатчилик тарихимизнинг уч минг йиллик теран илдизларидан далолат беради”, дейди Шавкат Мирзиёев.

Юқорида келтирилган барча маърифий сайи-ҳаракатлар, ижтимоий психологик драйвер сифатида бугун “Жамият – ислоҳотлар ташаббускори”, “Халқ давлат органларига эмас, балки давлат органлари халққа хизмат қилиши керак”, “Ҳалоллик вакцинаси”, “Маънавият бўлмаган жойда ҳеч қачон адолат бўлмайди!”, “Инсон манфаатлари ҳамма нарсадан улуғ”, “Халқ бой бўлса, давлат ҳам бой ва қудратли бўлади”, “Халқ биздан рози бўлса, ишимизда унум ва барака бўлади”, “Адолат – қонун устуворлигида”, “Инсонларнинг дарду ташвишларини ўйлаб яшаш – одамийликнинг энг олий

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

мезонидир”, “Биз буюк тарих, буюк давлат, буюк маданият яратган халқмиз”, “Биз – ҳеч қачон меҳнатдан қочмайдиган, қийинчиликдан қўрқмайдиган, адолатни қадрлайдиган, азму шижоатли, буюк халқмиз” каби **мотивацион** тамойилларни амалиётга татбиқ қилинаётганлиги билан изоҳлашимиз мумкин.

Президентимизнинг илм-маърифатни ривожлантиришга қаратилган кўплаб чиқишларида нафақат ёшлар, балки бутун жамиятимиз аъзоларининг билим савиясини ошириш учун аввало илм-маърифат, юксак маънавият керак бўлиб, илм йўқ жойда қоқлик, жаҳолат ва албатта, тўғри йўлдан адашиш бўлади деб донишмандларча айтган сўзлари муқаддас китобимиз Қуръоннинг илк оятида ҳам “Ўқинг”, “Ўқинг” деб илму маърифатга алоҳида урғу берилганлиги ва “Илм”сўзининг такрор ва такрор келганлиги ҳамда Имом Бухорий бобомизни “Илмдан бошқа нажот йўқ ва бўлмагай!” каби сўзлари бу давлатнинг нақадар муҳимлигини анлатади. Шунинг учун Президентимиз жорий йилда Олий Мажлисга мурожаатидаги нутқларида бекорга “Энг катта бойлик – бу ақл-заковат ва илм, энг катта мерос – бу яхши тарбия, энг катта қашшоқлик – бу билимсизликдир!” деб уқтириб ўтмади.

Илм-фан, маънавият-маърифатга тикилган сармоя буюк келажак учун киритилган инвестициядир. Илм-маърифат ривожланмаган давлат ҳеч қачон тўлақонли давлат бўла олмаслиги бизга узоқ тарих ҳамда бугунги асримиздаги юксак тараққий этган илғор мамлакатлар тажрибасидан жуда яхши аён. Дарҳақиқат, илм-маърифат икки дунё саодатидир. Илм маърифатсиз киши берилган неъматлар қийматини англаб етмайди. Илм-маърифат инсон учун нажот.

Шу боис, юртимиз қадим-қадимдан илм-маърифат маркази, цивилизациялар чорраҳаси бўлиб келган. Ушбу табаррук заминдан дунёга илму ирфон зиёсини таратган буюк алломалар, олиму мутафаккирлар етишиб чиққан. Улар илм-фаннинг кўплаб жабҳаларига асос солиб, жаҳон тамаддунининг шонли маёғи бўлиб келганлар. Таъкидлаш жоизки, хусусан, Ўзбекистон ҳудуди ҳам Шарқ Ренессансининг йирик марказларидан бири сифатида дунёга маълум ва машҳур бўлганлигини таъкидлаш бизга фахр ва ғурур бағишлайди.

Бугунги кунда ҳар бир Ватан фидойилари, илм-фан арбоблари, тадқиқотчилар, олимлар диёримиздаги янги уйғониш даврининг ўзига ҳос бўлган жиҳатларини соҳалар кесимида тадқиқ қилишга киришди. Жумладан педагогика фанлари доктори, профессор М.Қуронов ва психология фанлари бўйича фалсафа доктори Х.Жабборовлар томонидан учинчи ренессанс

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

даврининг ғоявий, мафкуравий, педагогик, психологик жихатлари тадқиқ қилинди ва унда қуйидагича янги формула яратилди. “Учинчи Ренессанс + маъно + фикр + ғоя + ҳаракат = Миллий ғоя!” формуласи келтирилади. Бунда асосан мустақилликнинг мустаҳкам ҳимоялаш кераклиги, мазкур ҳолат бўйича ўтмишдан сабоқ чиқариш кераклиги, масалан мустақилликнинг ҳарбий ҳимоялаш мумкин, маънавий ҳимоялаш мумкинлиги, тарихдан бизга маълумки биз қачон мустамлакага тушган бўлсак халқнинг бирлашмаганлиги халқнинг бирирлашмаганлигини сабаби эса, ҳаммани бирлаштирадиган ғоя ишлаб чиқилмаганлиги ва бу ғоя одамларнинг қалбига сингдирилмаганлиги бўлиб чиқади.

Бизда бу ғоя бор “Миллик тикланишдан – миллий юксалиш сари”. Энди манашуни мустақилликни ҳимоя қилиш, учинчи ренессанс пойдеворини ҳимоя қилишимиз керак. Биз буни ўз вақтида ҳимоя қилмасак у бузилиши мумкин душманлар томонидан. Буни ҳам маънавий томонидан ҳимоя қилишимиз керак. Яъни учинчи ренессанс даврини пойдеворини бузишга ҳаракат қилаётганларга қарши курашишимиз керак.

Бизга узоқдан туриб маънавий хужум қилишяпти. Манашу маънавий хужумларга индамай турмаслигимиз керак. Уларга жавоб беришимиз керак ва бу ҳам илмий асосда бўлиши керак. Учинчи ренессанснинг қурилиши ва ҳимояси илмий асосга қурилса, бу катта кафолат бўлади. Ватанни чегарачи қўлида қурол билан қандай ҳимоя қилаётган бўлса, одамларнинг маънавиятида ҳам шундай ҳимоя ўрнатилади.

Учинчи ренессанс миллий ғоя нима учун биз уни маънавий ғоя деб аташимиз керак. Чунки илмга қарасак бунинг жавобини биламиз. Унда маъно деган сўздан бошлаймиз. Чунки учинчи ренессанс даври мукамал амалга ошиши учун, тез амалга ошиши учун одамлар, ёшлар учинчи ренессанснинг маъносини тушуниб олишлари керак, қабул қилиб олишлари керак. Ўзига манфаатли эканлигини англашлари керак. Ўзини бахтли бўлишлиги учун учинчи ренессанс бўлишлигига иқдор бўлиши керак. Маъносини тушуниши керак.

Маънодан кейин фикр келади. Фикрдан кейин ғоя келади. Ғоядан кейин ҳаракат бошланади. Ҳаракат эса Учинчи Ренессансни яратади. Ҳар бир Ўзбекистонликнинг онгида ҳаракат натижаси ўлароқ.

Демак биз ҳозир шуни бошидан бошламасак, бошидан пухта илмий асосда илмий ташкил этмасак қийин бўлади. Нима учун қийин бўлади. Одамлар яхши тунушунмаса, яхши англамаса, ўзини манфаатини кўрмаса умуммиллий ҳаракатга қўшилиши қийин бўлади. Яна уларни чақириб, йиғиб

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

ташқил қилиш керак бўлади. Улар бу ҳаракатга қўшилишни хоҳламаслиги мумкин, майда – чуйда ишларга берилиб. Шунинг учун биринчи босқичи одамларга учинчи ренессансни маъносини тушунтириш босқичи.

Иккинчи босқич одамларни фикрларини пайдо қилиш босқичи. Яъни одамлар учинчи ренессанс ҳақида майли бошқа сўзлар билан гаплаша бошласин, кундалик ҳаёти давомида учинчи ренессанс ҳақида гаплашиб, саволлар бера бошласин, ўзини фикрини айтсин, нега, чунки одамла ўзини фикрини айтмаса, одамлар учинчи ренессанс ҳақида нималарни билиши, нималарни ўйлаётганлиги, бу фиклари тўғрими, нотўғрими эканлигини билиб бўлмайди, баҳолаб бўлмайди, даражалаштириб, қаерда, қайси ҳудудда одамлар учинчи ренессансни тўғри англаяпти, қаерда яхши, қаерда ўртача ва қаерда англамаяпти деб даражалаштириш мумкин.

Учинчи босқич ғоя босиқичи. Учинчи ренессанс ҳар бир одамнинг ғоясига айландими, йўқми, қаерда, қайси ҳудудда, қайси ташкилотда, вазирликдаги одамларни ғоясига айланди учинчи ренессанс ғояси, тўлиқ айланди, қаерда ўртача ва қаерда айланмади, бунинг сабаларини ўрганиб, ҳалақит бераётган сабаларни ёқотиш керак. Ривожлантириётган сабабларни ривожлантириш керак.

Тўртинчи босқич бу ҳаракат босиқичи. Қаерда учинчи ренессанс учун одамларнинг ҳаракати фаол, қаерда ўртача ва қаерда ҳаракати суст. Нима учун суст. Илимий ва фақат илмий ёндашув бу саволларга жавоб бераолади, ноилмий ёндашув фақат юзаки кўради, юзаки хулоса қилади, юзаки ишларни ташқил қилади ва юзаки натижаларга эришилади. Бунга эса йўл қўйиб бўлмайди. Бу эса учинчи ренессанс масаласи маънавий-мафкуравий масалада тўрт босқичдан иборат бўлиши керак.

Хулоса ўрнида айтиш жоизки, мамлкатимизда илм-маърифатга берилаётган алоҳида эътиборнинг замирида чуқур маъно бор. Илм-маърифат – бу янги уйғониш даврининг пойдевори, унинг асосида эса шу юрт фуқароларининг миллий тафаккури, миллий ғояси, эртанги кунга, тараққиётга бўлган ишончи бўлиб, қайсики, жамиятдаги барқарорликни таъминлаб берувчи асосий устувор омиллардан биридир. Илм-фан ривожланар экан, нафақат иқтисодиёт, балки ижтимоий-маданий соҳанинг ҳам тараққиёти кафолатланади, мазкур кафолат эса ўзида янги ренессанс даврини ифода этишига ҳечам шубҳа йўқ.

УЧИНЧИ РЕНЕССАНСНИНГ МУХИМ ПОЙДЕВОРИ

ф.ф.д. проф. Н. Маматов

МТМРМҚТУМОИ институт

Сўнги йилларда мамлакатда таълим-тарбия тизимининг сифати ва самарадорлигини ошириш, боғча тарбияланувчилари, ўқувчи ва талаба ёшларда замонавий билим ва кўникмаларни шакллантириш, таълимнинг узвийлиги ва узлуксизлигини таъминлаш борасида тизимли ишлар амалга оширилмоқда. Чунки, бугун ўз олдимизга улкан марралар қўйганмиз. Она ватанимизда Учинчи ренессанс пойдеворини яратишга киришдик. Оила, мактабгача таълим, мактаб ва олий таълимни ҳамда илмий маданий даргоҳлари бўлғуси ренессанснинг энг муҳим буғинларидир. Айни шу сабабли, ушбу соҳаларда туб ислохотлар амалга оширилмоқда.

Миллий таълим-тарбия тизимининг амалдаги ҳолати уни замон талаблари асосида модернизация қилиш, ёшларни юксак билим-маърифат эгалари, жисмоний ва маънавий соғлом инсонлар этиб тарбиялаш, таълим муассасаларининг раҳбар ва педагог ходимлари нуфузини ошириш, уларнинг самарали фаолият юритиши учун зарур шарт-шароитлар яратиш бўйича изчил чора-тадбирларни амалга оширишни талаб этмоқда.

Узлуксиз таълим тизим ўз ичига Мактабгача таълим умумий ўрта таълим ўрта махсус таълим, олий таълим, магистратура, докторантура, малака ошири ва қайта тайёрлаш ва инсон умри охирига қадар таълим олиш билан бўғлиқ бўлган мукамал тизимни ўз ичига олади.

Юқорида келтирилган тизимни ҳар бир бўғини самарадорлигини амалга ошириш бобида 2019 йил 16 декабрда қабул қилинган “Мактабгача таълим ва тарбия тўғрисида”ги Қонун, 2020 йил 23 сентябрда қабул қилинган “Таълим тўғрисида”ги Қонун, 2019 йил 8 майда қабул қилинган “Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси тўғрисида”ги Президент Қарори қабул қилинди.

Айниқса, 2020 йилнинг 6 ноябр куни Президент томонидан имзоланган “Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида таълим, тарбия ва илм, фан соҳаларини ривожлантириш бўйича чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6108-сон Фармони ва “Таълим-тарбия тизимини янада такомиллаштиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4884-сон Қарори узлуксиз таълим тизимини янада такомиллаштириш, таълим ва ўқитиш сифати самарадорлигини оширишда муҳим роль ўйнади.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

Узлуксиз таълим тизимини янада такомиллаштириш, таълим ва ўқитиш сифати самарадорлигини ошириш бобида кейинги 4 йил ичида катта муваффақиятларни қўлга киритдик.

Яқин йилларгача мамлакатда болаларнинг мактабгача таълимга қамрови 30 фоизга ҳам етмасди. Соҳани тубдан ислоҳ этиш мақсадида Мактабгача таълим вазирлиги ташкил этилиб, мактабгача таълим қамрови 2017 йилда 708247, 2020 йилда -1540637. Давлат мактабгача таълим муаасалари 2017 йилда – 4961, 2020 йилда – 6021. Нодавлат мактабгачам таълим муассалари 2017 йилда -250, 2020 йилда -8700. Хусусий мактабгачам таълим муассалари 2017 йилда – 250, 2020 йилда – 753, Оилавий 2017 йилда - 0 2020 йилда - 7090. Давлат хусусий шерикчилик 2017 йилда -0, 2020 йилда -8579 260 та хусусий тадбиркор билан оилавий типдаги мактабгача таълим муассасаларини ташкил этиш бўйича битимлар имзоланди.

Бола дунёга келганидан бошлаб, унда айнан мактабгача бўлган ёшда ақлий фаоллик ошади, ахлоқий-эстетик ва жисмоний хислатлар шаклланади.

Шу боис ҳам келгуси йилларда мактабгача таълим соҳасини ривожлантириш борасидаги стратегик мақсадимиз – боғча ёшидаги ҳар бир болани ушбу таълим йўналиши билан тўлиқ қамраб олиш учун зарур шароитларни яратилди.

2021 йил якуни билан мактабгача таълим қамровини 65 фоизга, 2023 йил охирида эса 75 фоизга етказишимиз керак. Бу ишларга бюджетдан 600 миллиард сўм субсидия бериш ҳисобидан қўшимча равишда 2 мингта нодавлат боғча ташкил этилиб, хусусий сектор улуши 25 фоизга етказилади.

Шунингдек, 2021 йилда мактабга тайёрлашнинг бепул тизими билан 560 минг нафар 6 ёшли болалар ёки уларнинг 82 фоизи қамраб олинади.

Узоқ қишлоқларда мактабгача таълимнинг муқобил шакллари янада кенгайтирилади. Бунда ЮНИСЕФ ҳамда Жаҳон банки билан ҳамкорликда имконияти чекланган болалар учун мактабгача таълимни уйда бериш модели ҳам йўлга қўйилади.

Шундай қилиб мамлакатимизда 2017 йил 30 сентябрда Президентимизнинг ПФ-5198 рақамли “Мактабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармонлари билан менинг назаримга қўра Янги Ўзбекистонда учинчи ренессансга муносиб пойдевор яратиш жараёни бошланди.

Юқорида келтирилганидек мазкур соҳа бўйича мамлакатимизда жуда катта ислохатлар амалга оширилмоқда. Мактабгача таълим ташкилотлари учун чиройли бинолар қурилмоқда. “Илқ қадам” дастури бўйича хилма-хил

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari

ушулбуий ўқув қўлланмалари яратилмоқда. Мактабгача таълим ташкилотларида хизмат қилаётган директорлар, услубчилар ва тарбиячиларнинг сифат кўрсаткичлари ўсиб бормоқда. Лекин учунчи ренессансга қўйилган пойдевор ушбу тизим ва унинг ходимлари олдига бир қатор янги-янги талабларни қўймоқда, булар орасида энг мухими мактабгача таълим тизими мазмуни ва самарадорлигини ошириш хисобланади. Шундан келиб чиққан холда ташкилот кейинги йилларда мазкур масалани хал қилиш бўйича имконият даражасида зарур чораларни қўрмоқда. Шулардан бири мактабгача таълим ташкилотлари педагогларининг касбий компетенцияларини ошириш масаласи хисобланади. Шу мақсадда мактабгача таълим ташкилотлари директорлари ва мутахассисларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институтида 28 нафар Республика тренерлари, худудларда эса 414 нафар вилоят тренерлари тайёрланди. Режага мувофиқ йилнинг иккинчи чорракида тренерлар томонидан 5070 нафар педагоглар учун анъанавий ва масолавий ўқув курслари ташкил этилди. Давлат ва нодавлат мактабгача таълим ташкилотларида таълим тарбия жараёнлари сифатли ташкил этиш юзасидан Қашқадарё, Бухоро, Фарғона, Жиззах, Навои ва Наманган вилоятларининг хар бир туманида нодавлат таълим ташкилотлари учун ўқув семинарлари ташкил этилди.

Оилавий нодавлат мактабгача таълим ташкилотларида олиб борилаётган таълим тарбия жараёнлари сифатини махалла фаоллари томонидан назорат қилиш учун махсус йўриқнома ишлиб чиқилди.

Ушбу тадбирларда асосий масала мактабгача таълим ёшидаги болаларга “Илқ қадам” дастури бўйича 5 йўналиш асосида олиб бориладиган таълим тарбия жараёнида тахлилийлик ва ижодийлик кўникмаларини шакллантириш хисобланди. Албатта юқоридаги масалани қисқа мудатта амалга ошириш қийин бу ўз навбатида бир қатор комплекс тайёргарликларни талаб қилади. Ушбу тайёргарликларнинг биринчиси мактабгача таълим ташкилоти директорларини, услубчиларини ва тарбиячиларининг ўзини тахлилийлик ва ижодкорлик рухи билан, онги билан, билими билан, саводи билан, психологияси билан, услубияти билан ва айни вақтда назариси билан қўроллантириш керак. Албатта бунинг бирламчи воситаси бу малака ошириш ва қайта тайрлаш хисобланади шундан келиб чиққан холда ушбу восита хисобланган юқорида келтирилган тизимнинг ўзини реконструкция қилиш хаёт талабидир. Реконструкцияда асосий масала талаб ва таклиф механизмининг амалда ишлашига кўчирилиши керак, яъни қайта тайёрлаш ва малака ошириш мактабгача таълим ташкилоти ходимларининг эхтиёжи ва

Yangi O`zbekistonda ijtimoiy-ma`naviy muhit barqarorligini ta`minlashning dolzarb masalalari

талабларига кўра амалга ошиши керак. Мазкур институтнинг ўқув дастури нихоятда мобил бўлиши зарур ва бунда тингловчиларнинг ўзларида эҳтиёжни аниқлаш, эҳтиёжни баҳолаш сифати нихоятда юқори бўлиши лозим. Бундан ташқари ушбу жараёнда асосий восита мактабгача таълим ташкилоти ходимларининг ўзларининг ўз малакаларини муттасил умрининг охирига қадар ошириб бориш маданиятини шакллантириш ҳисобланади. Менининг назаримга кўра ушбу йўналиш биринчи воситадан ҳам кўра касб эгаси учун муҳим ҳисобланиши керак, чунки бунда назоратчи давлат ташкилотлари бўлмасдан мактабгача таълим ташкилоти мутахассисининг ўзидир.

**Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini
ta'minlashning dolzarb masalalari**

MUNDARIJA

Minhojiddin MIRZO	MA'NAVIY YUKSALISH – UCHINCHI RENESSANSNING MUSTAHKAM POYDEVORI	3
B.Xusanov	YANGI O'ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANSGA MUNOSIB POYDEVOR YARATILMOQDA	11
M.Quronov	“MEN”NING “BIZ”LANISHI	15
J.T.Shermuxe- dova	YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA OILANING O'RNI	20
F.Muxitdinova	UCHINCHI RENESSANS ASOSI: ILM-FAN VA MA'RIFAT	24
«MILLIY TIKLANISHDAN — MILLIY YUKSALISH SARI» G'OYASINI KENG TARG'IB ETISH ORQALI JAMIYATDA SOG'LOM DUNYOQARASH VA BUNYODKORLIKNI UMUMMILLIY HARAKATGA AYLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI		
M.D.Pardayeva	MUSTAQILLIK VA YANGI O'ZBEKISTON MA'NAVIYATI	31
G.N.Navro'zova	EZGU NIYAT - OILA FAROVONLIGI ASOSI	37
M.T.Musayev A.F.Muhammadiev	MARKAZIY OSIYODA XAVFSIZLIK VA BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA YANGI O'ZBEKISTON TASHABBUSI	41
A.A.Huseynova	MUSTAQILLIK VA YANGI O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATI: TASHABBUSLAR VA AMALIY ISHLAR NATIJASI	49
B.S.Turdiyev	“MILLIY TIKLANISHDAN – MILLIY YUKSALISH SARI” G'OYASI – MA'NAVIY YANGILANISHLARIMIZ ASOSI	57
Sh.Sulaymonov	YANGI O'ZBEKISTON: BUNYODKORLIK VA EZGU TASHABBUSLAR SAMARASI	60
M.A.Xakimova	YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTON – JAMIYATGA DAXLDORLIK HISSI	65

**Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini
ta'minlashning dolzarb masalalari**

S.S.Jabborova	YANGI O'ZBEKISTONDA SAYLOV JARAYONLARINING DEMOKRATIK XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS JIHATLAR	69
S.Sh.Raxmonova	YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNI O'QITISHDA INNOVATSION G'OYALARNING AHAMIYATI	72
A.Hamroyev	MILLAT ISTIQLOLI UCHUN KURASHGAN QATAG'ON QURBONLARINI YOD ETISH - INSONIYLIK BURCHDIR	75
O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY-MA'NAVIY MUHIT BARQARORLIGINI, MA'NAVIY TARBIYA UZVIYLIGINI TA'MINLASHDA MA'NAVIYAT-MA'RIFAT TARG'IBOTCHILARINING ROLI		
M.Nurmatova	KOMIL INSONNI SHAKLLANTIRISH – MA'NAVIY JARAYONLARNING PIROVARD MAQSADI	79
I.A.Xajiyeva SH.D.Abdullayeva	TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA TARBIYACHI VA TARBIYALANUVCHILAR FAOLIYATINING O'ZARO HAMJIHATLIGI	83
M.N.Karimberdiyev	O'ZBEKISTONDA MA'NAVIY TARBIYA UZVIYLIGINI TA'MINLASHDA MA'NAVIYAT-MA'RIFAT TARG'IBOTCHILARINING ROLI	87
F.S.Hamdamov	UMUMIY O'RTA TA'LIMDA MA'NAVIY TARBIYA UZVIYLIGINI TA'MINLASH OMILLARI	89
O.Norova	MILLIY XALQ HUNARMANDCHILIGINING YOSHLAR MA'NAVIYATIDAGI O'RNI	93
S.M.Ishmuxammedova	O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY-MA'NAVIY MUHIT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MA'NAVIYAT-MA'RIFAT TARG'IBOTCHILARINING ROLI	95
N.E.Sayidova	MA'NAVIY TARBIYA UZVIYLIGINI TA'MINLASHDA MA'NAVIYAT-	98

**Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini
ta'minlashning dolzarb masalalari**

		MA'RIFAT TARG'IBOTCHILARINING ROLI	
YOSHLARIMIZ ONGIGA SALBIY TA'SIR ETUVCHI G'OYALARGA QARSHI SAMARALI KURASH OLIB BORISHNING MA'NAVYIY-MA'RIFIY USLUBLARI			
	<i>U.A.Utanova</i>	YOSHLAR ONGIDA SALBIY G'OYALARGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI VA VOSITALARI	101
	<i>N.S.Matyazova M.O'.Yusupova</i>	YOSHLARNI YOT G'OYA VA MAFKURALARDAN MUHOFAZA QILISHNING MA'NAVYIY-MA'RIFIY ASOSLARI	105
	<i>SH.SH.Negmatova</i>	MA'NAVYIY RAQOBAT: MOHIYATI, TURLARI VA AHAMIYATI	108
	<i>A.K.Мукумов</i>	ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ ОСНОВЫ БОРЬБЫ С ИДЕЯМИ, НЕГАТИВНО ВЛИЯЮЩИМИ НА СОЗНАНИЕ МОЛОДЕЖИ	111
	<i>Sh.N.Niyozova</i>	YOSHLARNI HAR TOMONLAMA BARKAMOL SHAXS ETIB TARBIYALASHDA MA'NAVYIY-MA'RIFIY MUHIT YARATISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	115
	<i>Sh.T.Temirov</i>	ERTANGI KUN YOSHLAR QO'LIDA, YOSHLAR HARAKATIDA, YOSHLAR ILMIDA, QUDRATIDA	119
	<i>B.Z. O'rinova</i>	MUSTAQILLIK - JADIDLAR VA JADID MATBUOTIDAGI DEMOKRATIK MILLIY G'OYALARNING AMALDAGI IFODASI	122
	<i>N.B.Obloberdiyeva</i>	YOSHLARIMIZ ONGIGA SALBIY TA'SIR ETUVCHI G'OYALARGA QARSHI SAMARALI KURASH OLIB BORISHNING MA'NAVYIY-MA'RIFIY USLUBLARI	127
	<i>G.Sh.Qobilova</i>	INTERNETDA MILLIY G'OYA TARG'IBOTI	131

**Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini
ta'minlashning dolzarb masalalari**

<i>N.N.Raxmatov</i>	INSON MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM VA TARBIYANING ROLI	134
<i>G.Barotova</i>	YOSHLARIMIZ ONGIGA SALBIY TA'SIR ETUVCHI G'OYALARGA QARSHI SAMARALI KURASH OLIB BORISHNING MA'NAVIY-MA'RIFIY USLUBLARI	138
<i>A.Hikmatova</i>	YOT G'OYALARGA QARSHI SAMARALI KURASH OLIB BORISHNING MA'NAVIY -MA'RIFIY USLUBLARI	140
<i>I.T.Muzaffarova</i>	MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA AXBOROT XAVFSIZLIGI KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	141
<i>SH.SH.Olimov</i>	BARKAMOL AVLOD-TARAQQIYOT POYDEVORI	144
<i>I.O.Nuritov</i>	BARKAMOL AVLOD TARBIYASINING MA'NAVIY-MA'RIFIY USLUBLARI	147
<i>G.S.Yunusova</i>	FALSAFA TARIXIDA INSON MOHIYATI TALQINI	150
<i>F.Qurbonov</i>	"OMMAVIY MADANIYAT"GA QARSHI SAMARALI KURASH OLIB BORISHNING MA'NAVIY-MA'RIFIY USLUBLARI	154
<i>L.E.Gadoyeva</i>	SOG'LOM OILADA MEHNATNING AHAMIYATI	156
<i>B.Z. O'rinova</i>	XXI ASR – MA'RIFAT ASRI	159
<i>K.U.Yaxshilikov, B.Q. Muyassarov</i>	SHAXS MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARGA EHTIYOJNING OSHIB BORISH QONUNIYATLARI	163
<i>M.Ramazanova</i>	ARTPEDAGOGIK YONDOSHUV ASOSIDA BADIY TO'GARAKLAR RAHBARLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH	167

**Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini
ta'minlashning dolzarb masalalari**

<i>A.E.Ziyotova</i>	YOSHLARIDA FUQAROLIK MAS'ULIYATINI SHAKLLANTIRISH – USTUVOR VAZIFA	173
<i>A.T.Gulboyev</i>	MILLIY SHARQONA TARBIYA MEZONLARI VA YOSHLARNI OILADA HAMDA MAKTABDA TARBIYALASH	178
<i>ILM-FAN – UCHINCHI RENESSANS POYDEVORI</i>		
<i>I.I.Jumayev</i> <i>R.R.Qoldashev</i>	O'ZBEKISTONDAGI ISLOHOTLAR UCHINCHI RENESSANSNING DEBOCHASI	181
<i>Z.A.Axmedova</i>	TARIXIY XOTIRA YOSHLAR MA'NAVIYATINING ASOSI	186
<i>M.Ю.Мансурова</i>	УПРАВЛЕНИЕ ОБРАЗОВАНИЕМ И НАУКОЙ КАК АКЦИОЛОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА ТРЕТЬЕГО ВОЗРОЖДЕНИЯ	196
<i>A.M.Egamberdiyeva</i>	UCHINCHI RENESSANSNING POYDEVORI	202
<i>N.M.Egamberdiyeva</i>	ALISHER NAVOIYNING BADIY-ESTETIK MEROSIDA TA'LIM VA TARBIYA MASALALARI	207
<i>Z.Ahmadova,</i> <i>A.Hakimov</i>	ZAMONAVIY TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	213
<i>A.Zokirov</i>	UCHINCHI RENESSANS : YOSHLAR ILM- MA'RIFTI VA AXLOQIY TARBIYASI	215
<i>M.Хамидова</i>	ЗДОРОВЬЕ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ – ОСНОВНАЯ ЦЕЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ОБЩЕСТВА	219
<i>D.Jumaniyozova</i>	YOSHLARDA QAT'IY FUQOROLIK POZITSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA TASVIRIY SAN'ATNING O'RNI	221
<i>N.F.Rajabova</i>	XALQ PEDAGOGIKASI VA ZAMONAVIY PEDAGOGIKADA TA'LIM- TARBIYA USULLARI	224
<i>F.N.Xodjayeva</i>	AHMAD G'AZZOLIYNING	227

**Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini
ta'minlashning dolzarb masalalari**

		MA'NAVIYATIMIZDA TUTGAN O'RNI	
<i>Sh.Sh.Zaripov</i>		MAKTABDA ZAMONAVIY DASTURLASH TILLARINI O'QITISHDA KOMPYUTER GRAFIKASINING O'RNI	230
<i>N.O'.Rustamov</i>		ISTIQBOLDA ILDAMLAMOQ IMKONI ILMDA	233
<i>M.Umarova</i>		AMIR SHOHMUROD BUXORO AMIRI VA FIQH ILMI NAMOYONDASI	237
<i>D.O'.YAngiboyeva</i>		QOZI SHARIFJON MAXDUMNING MA'NAVIY MEROSI	240
<i>A.Hakimov</i>		ILM-FAN – UCHINCHI RENESSANS POYDEVORI	245
<i>A.Q.Shirinov</i>		PREZIDENT VA IJOD MAKTABLARI MAMLAKATIMIZDA MA'RIFATNI RIVOJLANTIRUVCHI MULTIPLIKATIV MUASSASALAR SIFATIDA	248
<i>Z.Nasimova</i>		YANGI O'ZBEKISTONNING SHAKLLANISHIDA OILANING O'RNI	251
<i>BUXOROLIK OLIMLARNING ILM-FAN RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI</i>			
<i>G.Sh.Qobilova</i>		OLIMA AYOLLAR E'ZOZDA	255
<i>I.Ramazonova</i>		BUXORO-ILMIY, DINIY VA FALSAFIY BILIMLAR MAKONIDIR	258
<i>J.Z.Sharipov</i>		ILM GULSHANIDA CHAQNAGAN CHAQMOQ	260
<i>Хазрат Жабборов</i>		УЧИНЧИ РЕНЕССАНСИНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ДРАЙВЕРИ	262
<i>Н. Маматов</i>		УЧИНЧИ РЕНЕССАНСИНИНГ МУХИМ ПОЙДЕВОРИ	267

**YANGI O‘ZBEKISTONDA
IJTIMOIY-MA’NAVIY MUHIT
BARQARORLIGINI
TA’MINLASHNING DOLZARB
MASALALARI**

*(“Yangi O`zbekistonda Uchinchi Renessansga munosib
poydevor yaratilmoqda” loyihasi doirasida tashkil
qilingan Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy
anjuman materiallari)*

2021 yil 24 sentyabr

Bichimi 60x84.kengligi 16 shponli. “Times” garn.
Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog`ozi.
Bosma tabog`i 16,75. Adadi.100. Buyurtma № 20

«Standart Poligraf» x/k bosmaxonasida chop etildi
Buxoro shahri, Navoiy shohko‘chasi 6-uy.